

A.S. Sagdullayev, V.A. Kostetskiy

TARIX

QADIMGI DUNYO

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf o'quvchilari uchun darslik

Tuzatilgan va to'ldirilgan to'rtinchi nashr

*O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi tomonidan
tavsiya etilgan*

**«Yangiyo'l Poligraf Servis»
Toshkent – 2013**

UO'K: 94(075)
KBK: 63.3(0)3
S 16

S 16 **Sagdullayev A.S.**
Tarix: Qadimgi dunyo: 6-sinf o'quvchilari uchun darslik /
A. S. Sagdullayev, V.A. Kostetskiy. - Tuzatilgan va to'ldirilgan
4-nashr. - Toshkent: Yangiyo'l Poligraf Servis, 2013. - 192 b.

ISBN 978-9943-366-87-9

UO'K: 94(075)
KBK: 63.3(0)3

Taqrizchilar:

tarix fanlari doktori, akademik **Y. F. Buryakov**
tarix fanlari doktori **O'. M. Mavlonov,**
tarix fanlari nomzodi **N. T. Polvonov,**
O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha
muvofiqlashtiruvchi metodik markazi sektor boshlig'i, **A. Zamonov,**
Ijtimoiy-iqtisodiy bilim asoslari va
ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'limi bosh metodisti, **M.Xolboyeva**

Darslik materiallari Umumiy o'rta ta'lim maktablari tarix fani bo'yicha optimallashtirilgan o'quv dasturlari asosida qayta ishlangan. Davlat ta'lim standartiga muvofiq. Mualliflar O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar tarix o'qituvchilarining ish tajribalari asosida yaratilgan.

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari
hisobidan ijara uchun chop etildi.

ISBN 978-9943-366-87-9

© «Yangiyo'l Poligraf Servis», 2009, 2013
© A. S. Sagdullayev, V.A. Kostetskiy, 2009, 2013

MUNDARIJA

Mualliflardan	5
---------------------	---

BO'LIM I

Eng qadimgi tuzumdan sivilizatsiya sari

1 - §. Qadimgi tarix – sivilizatsiyaning boshlanishi	8
2 - §. Eng qadimgi odamlar rivojining ilk bosqichlari	13
3 - §. Urug'chilik jamiyati.....	18
4 - §. Eneolit va bronza asri ziroatchilari.....	22
5 - §. Temir davriga o'tishda O'rta Osiyoning rivojlanishi.....	25

BO'LIM II

Qadimgi Sharq va O'rta Osiyo

6 - §. Nil vodiysi va uning aholisi	28
7 - §. Misr va qo'shni xalqlar	32
8 - §. Qadimgi Misr dini	34
9 - §. Piramidalar va maqbaralar	37
10 – 11 - §§. Qadimgi Misr madaniyati.....	40
12 - §. Mesopotamiya sivilizatsiyalari	43
13 - §. Babil podsholigi	49
14 - §. Old Osiyo davlatlari va ularning qo'shnilari	53
15 - §. Ahamoniylar davlati	57
16 - §. Hindiston sivilizatsiyasi.....	61
17 - §. Mil. avv. I mingyillikda Hindiston.....	65
18 - §. Xitoyning qadimgi sivilizatsiyalari.....	68
19 - §. Mil. avv. III–mil. II asrlarda Xitoy.....	72
20 - §. O'zbekiston hududidagi ilk davlatlar	75
21 – 22 - §§. Zardushtiylik	80

BO'LIM III
Qadimgi Yunoniston

23 - §. Antik tarixning boshlanishi	84
24 – 25 - §§. Qadimgi Yunoniston ravnaqi	86
26 - §. Afinada demokratiya	93
27 - §. Yunon-fors urushlari	98
28 - §. Yunonistonning Makedoniya tomonidan bosib olinishi.....	102
29 – 30 - §§. Qadimgi Yunoniston madaniyati	105
31 – 32 - §§. Olimlar va mutafakkirlar.....	111
33 – 34 - §§. Qadimgi Yunoniston afsonalari	115

BO'LIM IV
Miloddan avvalgi VI – milodiy III asrlarda O'rta Osiyo

35 – 36 - §§. O'rta Osiyoga Ahamoniylarning bosqinchilik yurishlari..	118
37 – 38 - §§. O'rta Osiyo aholisining yunon-makedon istilochilariga qarshi kurashi	123
39 – 40 - §§. Salavkiylar davlati va Yunon-Baqtriya podsholigi	128
41 - §. Qadimgi Xorazm, Qang' va Dovon davlati	132
42 – 43 - §§. Kushon podsholigi.....	137
44 - §. Buyuk Ipak yo'li	141

BO'LIM V
Qadimgi Rim

45 - §. Italiya va uning aholisi	145
46 - §. Rim respublikasi	148
47 - §. Rim respublikasining hayoti	151
48 - §. O'rtayer dengizida hukmronlik uchun kurash.....	155
49 - §. Qullar va gladiatorlar.....	160
50 - §. Rim respublikasining qulashi	164
51 - §. Rim imperiyasining yemirilishi	168
52 – 53 - §§. Qadimgi Rim madaniyati.....	172
54 - §. Ma'naviyat manbalarida	178
Tarixiy atamalar lug'ati	181
Yakuniy takrorlash	185
Qadimgi dunyo tarixiga oid tarixiy va geografik atamalar	186
Qadimgi dunyo tarixidagi nomlar	187
Qadimgi dunyo tarixi sanalarda	188

MUALLIFLARDAN

5-sinfda «Tarixdan hikoyalar» bilan tanishgan edingiz. Siz endilikda uzoq o'tmish haqida bilimlar qanday qilib jamlanishini bilib oldingiz.

6-sinfda olis-olis zamonlarga sayohatimizni davom ettiramiz, eng qadimgi davlatlar va xalqlar tarixi, madaniyati va urf-odatlarini bilan tanishib chiqamiz.

Mesopotamiya, Misr, Yunoniston, Rim va O'rta Osiyoning ilk davlatlari mavjud bo'lgan davrlardan beri ming yillar o'tdi. Ammo qadim zamonlarda odamlar yaratgan ko'pdan ko'p narsalardan bugun ham kundalik hayotda foydalanib kelinmoqda. Bu mehnat qurollari, sopol buyumlar, g'ildirak, sopol suv quvurlari, gazlamalar, yozuv va boshqa ko'pgina narsalardir. Qadimgi zamon mualliflari yozib qoldirgan asarlar hali-hanuz kishilarga saboq berib, tarbiyalab kelmoqda.

Olimlar Yer yuzida qachonlardir ro'y bergan voqealarni qaytadan tiklash uchun katta kuch-g'ayrat sarflaganlar. Ular qadimgi shaharlarni topib tekshirishdi, chirmaga, sopolga, toshga, shuningdek, tangalarda bitilgan sirli yozuvlarni o'qishdi. Siz endi arxeologik topilmalar nimalar haqida so'zlab berishini bilasiz. Qadimgi bitiklarni o'rganish bilan *epigrafika*, tangalarni o'rganish bilan esa *numizmatika* degan maxsus fan shug'ullanadi.

Insoniyat sodda mehnat qurollarni yasashdan to hunarmandchilik durdonalarini yaratishga qadar, eng oddiy uy-joylarni qurib olishdan to shaharlarni bunyod etishga qadar uzoq yo'lni bosib o'tdi. Eng qadimgi shaharlar, yozuv, davlatlar tashkil topishi va rivojlanishi davrini olimlar ilk *sivilizatsiya* deb ataydilar. Dastlabki sivilizatsiyalar tarixi Qadimgi Sharqda, so'ngra Yunonistondagi Krit orolida boshlangan edi. Qadimgi sivilizatsiyalar jahonning ko'pgina o'lkalarida kabi, O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududida ham vujudga kelgan.

Yer yuzida odam paydo bo'lganidan to **milodiy 476-yilda** G'arbiy Rim imperiyasi qulaguniga qadar kechgan voqealar, tarix fa-



Qadimiy yozuv namunasi



Arxeologik qazishmalar

nida *Qadimgi dunyo tarixi* deb ataladi. Bu tarix turli-tuman arxeologik va yozma manbalar asosida o'rganiladi.

Qadimgi dunyo tarixi Qadimgi Sharq, Yunoniston va Rim saroy a'yonlari va podsholarining turli yilnomalari (voqealar yilma-yil qayd etib borilishi), qonunlar majmui, biografiyalari (tarjimai hol)da aks ettirilgan. Ularda yurishlar va janglar, ibodatxonalar, saroylar va qal'alar qurilishi, hunarmandchilik va dehqonchilik, qadimiy fanlar va san'at haqida hikoya qilinadi.

Olimlar o'qigan qadimgi matnlar, masalan, «Piramidalar matnlari» va «Marhumlar kitobi» misrliklar tarixi haqida, «Rigveda – hindlar, «Avesto» esa O'rta Osiyo xalqlari tarixidan hikoya qiladi.

Nil vodiysidagi Misr *piramidalar majmui*, Dajla va Frot oralig'idagi *Babil*, Hind vodiysidagi *Moxenjodaro*, Eronidagi *Persepol*, Yunoniston, Rim va O'rta Osiyoning ko'plab qadimgi shaharlari butun jahonga mashhurdir.

Biroq qadimgi dunyo tarixiga oid hali ochilmagan sirlar oz emas. Balki birortangizga ularni ochish nasib etar. Tarix bizni ko'p narsaga o'rgatadi.



Tangalardagi yozuvlar

Uni «buyuk o'qituvchi» deb bejiz aytishmagan. Shu bois har birimiz o'z Vatanimiz tarixini bilishimiz va boshqa mamlakatlar xalqlarining tarixi va madaniyatiga hurmat bilan qarashimiz kerak. Ushbu darslikni o'qir ekan-siz, ko'plab tushunilishi qiyin so'zlarga, tarixiy atama va iboralarga duch kelasiz. Ularni yodlash, esda saqlash kerak bo'ladi.

Darslik matni bilan ishlash Ushbu maslahatlarimizni diqqat bilan o'qing, ular o'rganilayotgan mavzuni eslab qolishingizga yordam beradi.

Uyga berilgan topshiriqlarni tayyorlashda quyidagilarga rioya qiling:

1. Darsda yozib olganlaringizni bir necha bor o'qing.

2. O'qishdan oldin mavzu sarlavhasiga diqqat qiling, darsda nimalar deyilganini eslang.

3. Har bir mavzu oxirida berilgan savollarni o'qing. Shunda siz yozganlaringizni o'qiganingizda nimalarga e'tibor berish lozimligini va o'qiganlaringizni qay tartibda bayon etish kerakligini bilib olasiz.

4. Matnni taxminan qismlarga bo'ling va har birining asosiy mazmunini o'z so'zlaringiz bilan ayting, keyin butun mavzuni gapirib bering. Gapira olmasangiz, qiyin joylarini qayta o'qing. Takrorlang. Darslik matnini yod olish kerak emas.

5. Matnni o'qish jarayonida unda eslatilgan rasm va jadvallarni toping, izohlarini o'qing, matnda uchragan shaharlar, mamlakatlar nomlarini xaritadan toping.

6. Savollarga javob bering va mavzu oxiridagi topshiriqlarni bajaring.

Agar Siz har bir paragraf oxirida berilgan tayanch konspektleri bo'yicha tarixni o'rganishga qaror qilsangiz, quyidagi vazifalarni bajarishingiz lozim:

1. Darslik mavzulari matnini tayanch konspekt so'zlari bilan taqqoslab o'qing.

2. Konspektidan foydalanib mavzuni bir necha marta so'zlab bering.

3. Tayanch iboralarni yoddan aytib berishga harakat qiling (chuqur fikrlagandan so'nggina o'zlashtirish lozim).

4. Bir necha soatdan so'ng yana bir marta tayanch konspektni takrorlang.

Biz, darslik mualliflari, Sizga uzoq o'tmishga sayohat qilishga, madaniy yodgorliklar bilan tanishish va qadimgi dunyo tarixini o'rganishga ko'maklashamiz.



BO'LIM I ENG QADIMGI TUZUMDAN SIVILIZATSIYA SARI

1-§. Qadimgi tarix – sivilizatsiyaning boshlanishi



**Qadimiy shahar
xarobalari**

Qadimgi tarixni o'rganish

Insoniyatning qadimgi tarixini turli ixtisosdagi olimlar o'rganadilar. *Arxeologlar* qadim zamonlarda odamlar yashagan *manzilgohlarda* qazishma ishlarini amalga oshiradilar.

Antropologlar qadimgi odamlarning qoldiqlari (skelet va boshchanoq)ni sinchiklab tekshirib, ularning tashqi ko'rinishini tiklaydilar, ming yillar avvalgi kishilarning tashqi qiyofasida ro'y bergan o'zgarishlarni o'rganadilar.

Etnograflar qadimgi odamlarning ko'pgina udumlari, xo'jalik va madaniy an'analarini saqlab qolgan hozirda mavjud qabilalar va xalqlarni o'rganadilar.

Lingvistlar, ya'ni tilshunoslar u yoki bu zamonaviy tilning qanday shakllanganini bilish maqsadida qadimgi tillarni o'rganadilar.

O'zingizni sinang!

Arxeologlar – ...

Etnograflar – ...

Antropologlar – ...

Lingvistlar – ...



**Qadimiy qo'lyozmalar
qoldiqlari**

Qadimgi tarix bo'yicha manbalar Biz o'lkamizning eng qadimgi tarixini qanday o'rganamiz? Axir, o'sha uzoq zamonlarda yozuv bo'lmagan-ku?! O'lkamiz eng qadimgi tarixining keng o'rganilgan manbalari qadimshunoslar tomonidan topilgan *moddiy manbalardir*. Mehnat qurollari, sopol idishlar,

qurol-aslahalar, zeb-ziynat buyumlari, xullas, qadimda inson qo'li bilan yaratilgan hamma narsalar shular jumlasiga kiradi.

Yozma manbalar topilishi bilan olimlarga qadimgi mingyilliklar tarixini tiklash osonlashdi. O'rta Osiyo tarixi bo'yicha eng qadimgi yozma manba zardushtiy-larning muqaddas kitobi «Avesto»dir. Unda yurtimizning qadimgi tarixiy viloyatlari – *Baqtriya, So'g'diyona, Xorazm* aholisi madaniyati to'g'risida hikoya qilinadi.


Qadimgi davr tarixiga doir yana bir yozma manba *Behistun* qoyalariidagi yozuvlardir. Behistun qoyalari Erondagi *Kirmonshoh* shahri yaqinida joylashgan. Fors shohi *Doro I* buyrug'i bilan qoyaga o'yib yozilgan – qadimgi *fors, elam va bobil* tillaridagi yozuvlarda, *Doro I* zabt etgan mamlakat va xalqlar, shu jumladan, *Xorazm, So'g'diyona, Baqtriya* davlatlari sanab o'tiladi.

Miloddan avvalgi V asrda qadimgi yunon tarixchisi *Gerodot* turli mamlakatlarga sayohat qilib, to'qqiz kitobdan iborat «*Tarix*» asarini yozdi. Unda o'lkamizning qadimgi aholisi to'g'risida ma'lumot ham beriladi.


Miloddan avvalgi I asr oxirlarida qadimgi yunon tarixchisi va geografi *Strabon* «*Geografiya*» nomli asarida ko'plab mamlakatlar xalqlari madaniyati va tarixiy voqealari haqida ma'lumotlar keltiradi.

Miloddan avvalgi II asr oxiri – I asr boshlarida qadimgi Xitoy tarixchisi *Sim Syan* «*Tarixiy yilnomalar*» nomli asar yozgan. U yurtimizning qadimgi aholisi to'g'risida ham ma'lumotlar bergan.

Milodiy I asrda qadimgi Rim tarixchisi *Kvint Kur-siy Ruf* «*Makedoniyalik Aleksandr tarixi*» nomli asar yozgan. Makedoniyalik Aleksandrning O'rta Osi-yoga harbiy yurishlari haqidagi ma'lumotlarni milodiy II asrda yunon tarixchisi *Arrian* ham ancha to'ldiradi. U «*Aleksandrning harbiy yurishlari*» deb nomlangan asar yozgan.



«Avesto»
qo'lyozmasining
sahifasi




Gerodot – qadimgi
yunon tarixchisi




Sopol lavhadagi
yozuv. Mixxat



O'rta Osiyo tog'lari



Ilk ovchilar



Omadli ovdan so'ng

Ushbu manbalar, shuningdek, keyinchalik yaratilgan ilmiy ishlar tufayli olimlar yurtimizning qadimiy tarixini tiklashga muvaffaq bo'ldilar.

O'zingizni sinang!

Gerodot – ...

Strabon – ...

Arrian – ...

Kvint Kursiy Ruf – ...

Sim Syan – ...

Behistun yozuviari – ...

O'zbekiston va jahon sivilizatsiyasi Qadimgi davrlardan beri O'zbekiston hududlari geografik jihatdan O'rta Osiyo deb umumiy nom ostida birlashtirilgan hududlar tarkibiga kiradi. O'zbekiston ancha katta hududni egallaydi. Amudaryo va Sirdaryo oralig'i, Farg'ona, Zarafshon vodiylari va Surxondaryo vohasi o'zining serhosilligi va iliq iqlimi tufayli uzoq qadimdayoq obod bo'lgan. Qulay geografik joylashuvga ega bu zamin Sharq va G'arb mamlakatlari bog'lab turgan. Bunda O'zbekistonning qadimgi shaharlari orqali o'tgan Buyuk Ipak yo'li nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lgan. O'zbekiston kishilik madaniyati tarixining eng qadimgi maskanlaridan biridir.

Bu yerda mahalliy aholi qadimgi zamonlardan boshlab yashagan. Miloddan avvalgi VI–V asrlarda yunonlar yurtimizning aholisi, viloyatlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lganlar. O'rta Osiyoning ikki yirik daryosi – Amudaryo va Sirdaryo Hindiqush, Pomir va Tyan Shan tog'laridan boshlanuvchi tezoqar daryo suvlari bilan to'lib, dengiz tomon quyilgan. Daryolar vohalari bo'ylab muhim savdo yo'llari o'tgan.

Bundan 5-4 ming yillar avval O'rta Osiyoning qadimgi aholisi bilan Qadimgi Sharq elatlari o'rtasida keng madaniy

aloqalar boshlangan. Ko'hna qadamjolarini qazish chog'ida arxeologlar Hindiston, Eron va Mesopotamiya hunarmandlari tomonidan tayyorlangan sopol va metall idishlar, zargarlik buyumlarini topishgan.

Miloddan avvalgi 1-mingyillikda, Sharqda qadimgi yirik saltanatlar gullab-yashnagan davrda madaniy aloqalar yanada kuchaydi. Turli yozma va arxeologik manbalarda bu qadim xalqlarning hunarmandchiligi, me'morchiligi va qishloq xo'jaligi sohalarida namoyon bo'lganligi qayd etilgan.

Eng qadimgi tuzumni davrlashtirish

Jahondagi barcha xalqlarning tarixi ibtidoiy jamoa tuzumidan boshlangan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi – insoniyat tarixining boshlang'ich davri bo'lib, bu paytda barcha mehnat qurollari umumiy bo'lgan va hamma birgalikda mehnat qilgan.

Insoniyat rivojidagi birinchi bosqich kishilarning *ibtidoiy to'da* birlashuvi bo'lib, bu to'da o'zida qadimgi odamlarning katta jamoasini mujassam etgan.

**Ibtidoiy to'da bu – turmush va mehnat umumiy-
ligi negizida birlashgan eng qadimgi odamlar jamoasi.**

Ibtidoiy to'da asta-sekinlik bilan qarindoshlarning alohida uyushmasiga – urug' jamoasiga aylana bordi.

Urug'bu – birgalikda yashagan va mehnat qilgan, umumiy mehnat qurollari va qurol-yarog'larga ega bo'lgan qarindoshlar jamoasi.

Dastlabki urug' jamoalari ayol kishi, ya'ni ona tevaragida jiplasha boshlagan. Insoniyat tarixidagi bu bosqich ona urug'i davri – *matriarxat* deb ataladi.



To'lib oqayotgan Amudaryo

Eslab qoling!

Bundan 5-4 ming yillar avval O'rta Osiyo-ning qadimgi aholisi bilan Qadimgi Sharq elatlari o'rtasida keng madaniy aloqalar boshlangan.



Odamlar birgalikda mehnat qilganlar



Yovvoyi otlarni ovlash manzarasi

Ancha keyinroq, mehnat qurollari va xo'jalik yuritish shakllari takomillashgani sayin jamoadagi yetakchilik mavqei asta-sekin erkak kishiga o'ta boshladi, endi u urug'ga sardor bo'lib qoldi. Olimlar insoniyat tarixidagi bu davrni *patriarxat*—ota urug'i deb atashadi. Patriarxat bilan eng qadimgi urug'chilik tuzumi ham yakunlanadi.


Eng qadimgi odamlar dastlabki mehnat qurollarini toshdan yasagani tufayli arxeologlar insoniyat tarixining boshlanishini «*tosh davri*» deb atashadi. Tosh davri ancha uzoq davom etgan, shuning uchun ham uni quyidagi bosqichlarga ajratishadi, jumladan:

- qadimgi tosh davri – *paleolit* (yunoncha «*paleos*» – «qadimgi» va «*litos*» – «tosh» so'zlaridan);
- o'rta tosh davri – *mezolit* («*mezos*» – «o'rta»);
- yangi tosh davri – *neolit* («*neos*» – «yangi»);
- mis-tosh davri – *eneolit* (lotincha «*eneus*» – «mis» va yunoncha «*litos*» – «tosh» so'zlaridan).



Toshdan yasalgan mehnat qurollari

Tayanch konspekt



- arxeologlar
- antropologlar
- etnograflar
- lingvistlar
- paleolit → mezolit → neolit → eneolit
- matriarxat → patriarxat


Eslab qoling!



So'nggi paleolit davri manzilgohi

Savol va topshiriqlar

1. Nima uchun arxeologlar insoniyat tarixi ibtidosini «tosh davri» deb atashadi?
2. Tosh davrlarini sanab bering. Nega ular shunday nomlangan?
3. Olimlar tomonidan tarixni qayta tiklaydigan manbalar nomini aytib bering.
4. Tarixni o'rganishda foydalanilgan qaysi moddiy manbalarni bilasiz?
5. Arxeologiya, antropologiya va etnografiya kabi fanlar haqida nimalarni bilasiz?




Eng qadimgi odam

2-§. Eng qadimgi odamlar rivojining ilk bosqichlari


Eng qadimgi odamlar

Yer yuzidagi dastlabki odamlar qaddi-qomatini tik tutib yuradigan, mehnat qurollarini yasash va ularni ishlatishni biladigan odamlar bo'lib, ana shu xususiyatlari insonlarga hayvonot dunyosidan farqlanib turishga imkon bergan. O'ta sodda tosh mehnat qurollari yasashni biladigan eng qadimgi odam suyaklari qoldiqlarini olimlar turli mintaqalarda topib o'rganganlar, jumladan, Janubiy Afrikadan – *avstralopitek*,




Avstralopitek

¹ Odamzod ajdodlarining qadimiy yodgorliklari topilgan Sharqiy Afrikadagi Olduvay darasi (Tanzaniya).



Zinjanthrop



Pitekanthrop

Sinantrop

Neandertal

Kromanyon



Sinantrop

Sharqiy Afrikadagi Zinj vodiysidan – *zinjanthrop*, Yava orolidan (Indoneziya) – *pitekanthrop*, Xitoy hududidan – *sinantrop*, shuningdek, Germaniyadan – *neandertal* va Fransiyadagi Kromanyon g'oridan – hozirgi qiyofadagi odam – *kromanyon* suyaklari topilgan.


Yer yuzida iqlim iliq bo'lgan davrlarda odamlar manzilgohlari kichik daryolar yoki buloqlar yaqinidagi tepaliklarda joylashgan. Ilk paleolitning oxirlariga kelib *Buyuk muzlik davri* boshlandi. Ibtidoiy odamlar o'ta qattiq sinovga duch keldi. Bu hol odamlarni yangicha turmush sharoitiga moslashishga undadi. Bunday paytda kuchlilargina yashab qolgan.

Enq qadimgi odamlarning mashg'ulotlari

Enq qadimgi odamlarning manzilgohlari Afrika, Osiyo va Yevropaning ko'pgina hududlaridan topilgan.

O'rta Osiyoda toshdan yasalgan qadimiy mehnat qurollari Farg'ona vodiysidagi *Selungur* manzilgohidan va Toshkent vohasidagi *Ko'lbuloq* manzilgohidan ham topilgan. Bular qo'pol tosh qurollar bo'lib, ularning bir tomoni urib o'tkirlangan. Arxeologiya fanida bu tosh qurollar *chopperlar* deb nomlangan.

Mehnat qurollari odamlarga yegulik topish uchun kerak bo'lgan. Dastlabki mehnat qurollari sodda edi. Uchi o'tkirlangan tosh va tayoq bilan qurollangan odam hayvonlarni ovlagan, uchi o'tkir tayoq yordamida o'simliklarning iste'molga yaroqli ildizlari va ildizmevalarini kovlab olgan. Tabiat insonga nimani



Ayiq ovi

in'om etsa, odam shuni olgan, topgan yeguligi bilan qanoatlangan, shuning uchun ham kishilarning eng qadimiy mashg'uloti bo'lgan *termachilik* va *ovchilik o'zlashtiruvchi xo'jalik* deb ataladi.

O'zingizni sinang!

**Chopperlar – ...
O'zlashtiruvchi xo'jalik – ...**

A. P. Okladnikov tomonidan 1938-yilda Boysun tog'laridan topilgan *Teshiktosh* g'ori o'rta paleolit davri madaniyatining jahonga mashhur yodgorligi hisoblanadi. Teshiktosh g'oridan uch mingga yaqin tosh qurollari va ularning parchalari, tog' echkisi, kiyik, yovvoyi ot, qoplon, quyon, mayda kemiruvchilar, shuningdek, qushlarning suyaklari topilgan.

Teshiktosh g'orida topib tekshirilgan, tosh asriga mansub 8–9 yashar neandertal bolaning suyak qoldiqlari eng mashhur topilmadir. Arxeologlar bunday neandertal odamning suyak qoldiqlariga kamdan-kam hollarda duch keladilar.

Bola jasad qabrga ko'milgan. Jasad atrofida tog' echkisi shoxlari qadab chiqilgan. Murdaning dafn etilishi dastlabki diniy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan.


Diniy e'tiqodlarning vujudga kelishi Mehnat faoliyati, tevarak olam haqida to'plangan bilimlar asta-sekin insonning fikrlash qobiliyati va tafakkurini o'zgartirib bordi.

Odamlar o'zlariga tushunarsiz bo'lgan hodisalar haqida o'ylay boshladilar: kun bilan tun, yil fasllari almashishi, vulqonlar otilishi, yer qimirlashi va boshqa tabiat hodisalari odam e'tiborini o'ziga tortgan.

Ana shu hodisalarning mazmunini to'liq tushunib yetmagan inson momaqaldiroq, yashin, shamol, yomg'ir kabi tabiat kuchlariga sig'ina boshladi.



Teshiktosh g'ori topilmalari



Paleolit davri manzilgohlari



Neandertal bola
(Teshiktosh)

Bora-bora eng qadimgi odamlarda, inson vafot etganidan keyin yashashni davom ettiradigan o'zga bir olamga ketadi, degan aqidaga ishonch paydo bo'ladi.

Yil fasllari almashinuvi, momaqaldiroq, bo'ronni qadimgi odamlar ruh mujassamlashgan tabiat kuchlarining harakati deb tushunganlar. Odamni o'rab turgan muhitda jonlar va ruhlarning mavjudligiga e'tiqod fanda *animizm* nomini olgan.

Animizm – insonni o'rab turgan muhitda jonlar va ruhlarning mavjudligiga ishonish.



Ovga tayyorgarlik
marosimi

Eng qadimgi odamlar u yoki bu buyumlar omad keltirishiga yoxud balo-qazoni bartaraf etishiga ham e'tiqod qilganlar. Bu e'tiqod *fetishizm* nomini olgan.

So'nggi paleolitga oid g'orlar devorlardagi rasmlarning topilishi qadimgi odamlarda diniy e'tiqodlar bo'lgani to'g'risidagi isbotlardan biridir. Bunday rasmlardan eng qadimiylari Ispaniyadagi *Altamir*, Fransiyadagi *Lasko* va Boshqirdistondagi *Kapova* g'orlaridan topilgan.


Odamlar rasmlar bo'lajak ovda o'zlariga yordam beradi, deya ishonishgan. Rasmlar qarshisida hayvonlar harakatlariga taqlid qilib, raqsga tushishgan, ov manzaralarini tasavvurga keltirishgan, nayza uloqtirishni mashq qilishgan.

Qadimgi rasmlar qimmatli tarixiy manbalardir. Ular inson nimalar haqida o'ylagani, tevarak dunyoni qay yo'sinda tasavvur etgani, qaysi hayvonlarni ovlagani, qanday mehnat qurollari va qurol-yarog'dan foydalanganini bilib olish va tushunishga yordam beradi.

Odamning o'zini qurshab turgan tevarak dunyoni tushunishga intilishi eng qadimgi tasviriy san'at rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi.



Qadimgi rassom



Lasko g'oridagi rasmlar


Eslab qoling!

G'or devorlardagi rasmlaridan eng qadimiylari Ispaniyadagi **Altamir**, Fransiya-dagi **Lasko**, Boshqirdistondagi **Kapova** g'orlaridan topilgan.




O'q-yoy bilan ov qilish tasviri

Tayanch konspekt




Savol va topshiriqlar

1. Ilk paleolit odamining tashqi ko'rinishini tasvirlab bering.
2. O'zbekiston hududidagi qaysi paleolit manzilgohini bilasiz?
3. O'rta paleolit davridagi eng qadimgi odamning mashg'ulotlarini sanab bering.
4. Diniy e'tiqod kurtaklari vujudga kelishi sabablarini ayting.
5. Ilk rasmlar qaysi davrda paydo bo'lgan?



Ilk rassomlar

3-§. Urug'chilik jamiyati



Qishning boshlanishi



Kromanyon



G'orda yashaydigan sher

So'nggi paleolit davri

So'nggi paleolit davrida (**miloddan avvalgi 40–12-mingyilliklarda**) ko'pdan ko'p voqealar ro'y berdi. Bu davrda toshga ishlov berish texnikasi va mehnat qurollari yasash usullari o'zgardi. Odamning o'zi ham, tashqi qiyofasi ham o'zgarib bordi. Mazkur davrda hozirgi qiyofadagi odam – kromanyon odami yashagan.

So'nggi paleolit davri odami manzilgozlari Samarqand shahri hududidan, Toshkent viloyati Ohangaron daryosi vodiysidagi Ko'lbuloq manzilgohining yuqori madaniy qatlamlaridan, shuningdek, Farg'ona vodiysidan topilgan.

So'nggi paleolit davrida odamlar ancha takomilashgan kesuvchi, arralovchi va parmalovchi mehnat qurollari yasaydigan bo'lishgan. Inson endilikda taqinchoqlar – munchoqlar, tumorlar va uzuklar ham yasay boshladi.

Shunday qilib, so'nggi paleolitda insoniyat o'z rivojida yana bir pog'onaga yuksaldi. Odamlar qarindoshlardan tarkib topgan ixcham guruhlariga – *urug' jamoalariga* birlashdilar.

Urug' a'zolari bitta manzilgohda yashagan. Bir joyda yashab turgan bir qancha urug'lar qabilani tashkil etgan.

Turar joylar qurilishi so'nggi paleolit davri odamlarining muhim ixtirosi bo'ldi. Kiyim-kechak tayyorlashda hayvonlar terisidan foydalanishgan. Inson bu davrda sun'iy tarzda (yog'ochni bir-biriga ishqalash, chaqmoqtoshni bir-biriga urish orqali) *olov hosil qilishni* ham o'rganib oldi.

Mezolit davri

Mezolit davri (o'rta tosh davri) **miloddan avvalgi 12–7-mingyilliklarni** o'z ichiga oladi. Mezolit davri boshlanishi bilan Muzlik davri poyoniga yetdi,



Urug'chilik jamoasi

bu narsa iqlim ancha ilishiga va odamlar turmushida o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi.

Mezolit davrida inson o'q-yoy yasashni o'rganib oldi. O'q-yoy kashf etilishi bilan odam ixtiyorida chop-qir hayvonlar va qushlarni ovlash imkoniyati vujudga keldi.

Mezolit davri oxirida inson hayvonlarni qo'lga o'rgata boshladi. Ovchilar itni qo'lga o'rgatdilar. Itlar bilan birga ov qilinganda o'lja oldingisiga qaraganda mo'l-ko'l bo'ldi. Tiriklayin tutib olingan hayvonlar (qo'zichoqlar, uloqchalar, to'ng'izchalar)ni endi odamlar o'ldirmasdan, yegulik zaxirasi sifatida saqlab qo'yadigan bo'ldilar.

Mezolit davri oxirida Old Osiyoda xo'jalikning yangi tarmoqlari – **ibtidoiy ziroatchilik va chorvachilik** vujudga keldi.

Muzlik chekinishi bilan urug' jamoalari nafaqat Osiyo va Afrika hududlarida, balki Yevropaning shimolida ham keng joylasha boshladilar.


Bugungi kunda O'rta Osiyoda mezolit davriga oid yuzdan ziyod manzilgohlar ochilgan. Farg'ona vodiysining tog'oldi va tog'li tumanlarida, Toshkent vohasida hamda O'zbekistonning janubida bunday manzilgohlar ko'plab uchraydi. *Obishir, Qo'shilish va Machay*



Rangli toshlardan yasalgan munchoq



Mamont suyagidan qurilgan turar-joy



Olov chiqarish jarayoni



Mehnat qurolini yasash

Eslab qoling!

Ishlab chiqaruvchi xo'jalik – ancha vaqt urug'ni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab kelgan ziroatchilik va chorvachilikdir. Ziroatchilik termachilikdan boshlangan, chorvachilik esa ovchilik qilish va hayvonlarni qo'lga o'rgatishdan kelib chiqqan.



Toshdan yasalgan mehnat qurollari. Mikrolitlar

manzilgohlari, shuningdek, *Zarautsoy* darasidagi qoyatosh rasmlari ancha mufassal o'rganilgan.

Amudaryo va Sirdaryo qirg'oqlari, O'zbekiston hududidagi ko'llar va daryolar sohili mezolit davri ovchilari va baliqchilari ko'chib kelib o'rnashgan maskanlarga aylangan.

Dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi

Neolit davrida – yangi tosh asrida o'zlashtiruvchi xo'jalikda tub o'zgarish sodir bo'ldi, avval tabiatdan barcha tayyor narsalarni olgan inson Qadimgi Sharqning turli viloyatlarida *ishlab chiqaruvchi xo'jalik* – ziroatchilik va chorvachilikka o'ta boshlaydi. O'rta Osiyoda neolit davri **miloddan avvalgi 6–4-mingyilliklar** bilan sanaladi. Arxeologlar neolit davri boshlanishini sopol idishlar yasashning kashf etilishi bilan belgilaydilar.

Mezolit va neolit davrida odam toshdan mayda mehnat qurollarini – *mikrolitlar* yasashni, toshga ishlov berishning oldin ma'lum bo'lmagan usullarini: silliqlash, arralash, sirlash va teshikchalar parmashni qo'llay boshladi.

Neolit davrida qabilalar o'troq turmush tarziga o'tib, doimiy turar joylar qura boshlaganlar. Shu davrda paxsa imoratlar qurilishi vujudga kelgan. Asta-sekin urug' jamoalarining o'troq manzilgohlari shakllanib borgan. O'troq turmush tarzi va mehnat qurollarining yanada takomillashishi jamoalarning dehqonchilikka o'tib borishiga imkon yaratadi. O'troq turmush tarziga o'tilishi har xil buyumlar tayyorlash sohasi bo'lgan hunarmandchilik rivojiga zamin yaratdi.

Loydan ishlangan va olovda pishirilgan idishlar yasash sohasi – *kulotchilik*, tolalar va jundan kiyimkechak tayyorlash tarmog'i – *to'quvchilik* hunarmandchiligi neolit davrining muhim kashfiyot va ixtirolaridir.

O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarida aholi miloddan avvalgi 6–5-mingyilliklar boshlarida ziroatchi-

likka o'tgan bo'lsa, mintaqaning markaziy va shimoliy o'lkalaridagi qabilalar ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullanganlar.

O'zingizni sinang!

**Mikrolitlar – ...
Ishlab chiqaruvchi xo'jalik – ...**

Tayanch konspekt

So'nggi paleolit davri (mil. avv. 40 – 12-mingyilliklar)

- kromanyon odami
- olovning kashf qilinishi
- Samarqand, Ko'lbuloq manzilgohi (Toshkent viloyati),
Farg'ona vodiysi
- urug' jamoalari
- taqinchoqlar, turar joylar qurilishi, kesadigan, arralaydigan mehnat qurollari

Mezolit davri (mil. avv. 12 – 7-mingyilliklar)

- o'q-yoy, hayvonlarni qo'lga o'rgatish
- Obishir, Qo'shilish, Machay, Zarautsoy
- ziroatchilik va chorvachilik (Old Osiyo)

Neolit davri (mil. avv. 6 – 4-mingyilliklar)


- ishlab chiqaruvchi xo'jalik
- mikrolitlar, kulolchilik, to'quvchilik
- o'troq turmush tarzi

Savol va topshiriqlar

1. So'nggi paleolit odami tashqi ko'rinishini tasvirlab bering.
2. Eng qadimgi odamlar jamoasi urug'chilik jamoasidan nimasi bilan farq qiladi?
3. So'nggi paleolit davrining muhim ixtirolarini ayting.
4. O'zbekiston hududidan topilgan mezolit davriga oid qaysi arxeologik yodgorliklarni bilasiz?
5. O'rta Osiyo hududlarida eng qadimgi qabilalar keng joylashuvining asosiy sababini ayting.
6. Mezolit davri paleolit davridan nimasi bilan farqlanadi?
7. Neolit davri ixtirolarini sanab bering.
8. Ishlab chiqaruvchi xo'jalik ovchilik va termachilikdan nimasi bilan farqlanadi?



**Loydan yasalgan
va olovda
pishirilgan idish**



Sopol idish yasash



**Neolit davri
dehqonlari va
chorvadorlarining
manzilgohi**

4-§. Eneolit va bronza asri ziroatchilari



Sopol idishlar



Kamon o'qlarining uchlari

Eslab qoling!
Eneolit – mis-tosh asri.



Bronzadan yasalgan to'g'nog'ich va tosh munchoqlar.
Mil. avv. XVII asr

Metall davrining asosiy xususiyatlari Neolit davrining oxirida odamlar ixtiro va kashfiyotlar orasida eng buyuklaridan birini yaratishga muvassar bo'ldilar: misdan foydalanishga, undan mehnat qurollari yasashga o'tildi.

Misdan yasalgan mehnat qurollarining tosh qurollar bilan birgalikda ishlatilish davri *eneolit – mis-tosh asri* deb ataladi. Bu davr **miloddan avvalgi 4–3-mingyillikning o'rtalariga** to'g'ri keladi.

Mis qurollar tosh qurollarga nisbatan afzalliklariga qaramasdan, unchalik keng tarqalmadi. Odamlar misni qalayi, qo'rg'oshin yoki rux bilan qo'shib, eritib bronza olishni o'rganganlaridan keyingina metall tosh qurollarni siqib chiqara boshladi. So'ngra misga nisbatan mustahkam sun'iy metall keng tarqaldi.

Metallurgiya rivoji kishilarning moddiy va ma'naviy madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatdi. Mil. avv. 4-mingyillikda Qadimgi Sharqda ilk shaharlar va davlatlar vujudga kela boshladi. O'rta Osiyo janubida *sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik* vujudga keldi, xom g'ishtdan ko'p xonali uylar qurila boshlandi, idishlarni pishirish uchun *kulolchilik xumdonlaridan* foydalanishga kirishildi. Sopol idishlar hayvonlarning, qushlarning tasvirlari va o'simlik naqshlari (yaproqlar, gullar) bilan bezatila boshlandi.

Bronza misdan ko'ra ancha qattiqligi tufayli **miloddan avvalgi 3-mingyillik** o'rtalaridan boshlab asta-sekin mehnat qurollari, qurol-yaroq'lar va zebziyatlar tayyorlashda ishlatiluvchi asosiy ashyoga aylanib qoldi.

Bronza mehnat qurollariga ega bo'lgan odamlar endi dalalarga ancha durust ishlov berish va ekin maydonlarini kengaytirish imkonini qo'lga kiritdi. Natijada ular ixtiyorida ortiqcha miqdorda qishloq xo'jalik

mahsulotlari vujudga keldi. Chorvachilik asta-sekin dehqonchilikdan ajralib chiqa boshladi.

Patriarxatning boshlanishi

Tarixning ko'p davrlari davomida urug' jamoasidagi muhim ishlar ayollar zimmasida bo'lib (bolalarni tarbiyalash, ovqat tayyorlash, hayvon terilarini tozalash, kiyim-bosh tayyorlash), jamoada ularning, ayniqsa, yoshi katta ayollarning mavqei erkaklarnikiga nisbatan ancha baland bo'lgan. Omoch bilan yer haydab, ziroatchilik qilish, chorvachilik, hunarmandchilikning vujudga kelishi natijasida urug'ni yetarli mahsulotlar bilan ta'minlash erkaklar qo'liga o'tdi. Uy xo'jaligi yumushlari ayollar zimmasida qoldi. Endi urug'chilik oilasida erkaklar muhim o'rin tuta boshladi. Qarindoshchilik erkak nomi bilan belgilanadigan bo'ldi va *patriarxat* davri boshlandi. Oila ota tomonidan yaqin qarindoshlarning bir necha avlodlaridan tashkil topadigan bo'ldi.

Bronza davri dehqonlarining manzilgohlari

Dehqonlarning qadimgi manzilgohlaridan biri Zarafshon daryosi havzasidagi Zamonbobo ko'li yaqinidan topilgan. Xorazm hududidan ham qadimgi dehqonchilik manzilgohlari topilgan.

Arxeologlar Surxondaryo vohasidan qadimgi ziroatchilar manzilgohlaridan biri bo'lgan **Sopolitepani** topishdi. Qazishmalar davomida bu yerdan uy-joylar, maishiy va xo'jalik xonalardan tarkib topgan paxsa imoratlar, sopol buyumlar, bronzadan yasalgan mehnat qurollari va zeb-ziyatlar yasalgan ustaxona qoldiqlari, shuningdek, yirik xumlarda saqlangan bug'doy va arpa doni topilgan.

Bundan uch yarim ming yil muqaddam Surxon vohasida, hozirgi Sheroboddan uncha uzoq bo'lmagan joyda **Jarqo'ton** manzilgohi vujudga kelgan. Jarqo'ton qurilishi tarixida ilk shahar alomatlari ko'zga tashlana-

Eslab qoling!

Patriarxal oila – ota tomonidan yaqin qarindoshlarning bir necha avlodlaridan tashkil topgan oila.



Ilonlar tasviri tushirilgan tosh tumor. Mil.avv. 2-mingyillik



Bronzadan yasalgan bilaguzuk. Mil. avv. XII asr

Eslab qoling!

Zamonbobo – Buxoro viloyati Qorako'l tumanidagi Zamonbobo ko'li bo'ylarida miloddan avvalgi 2-mingyillikda yashagan chorvadorlar va dehqonlarning qadimiy manzilgohi.



Jarqo'ton manzilgohi qazilmalari

Eslab qoling!

Sopollitepa – O'zbekiston janubidagi bronza asri dehqonchilik manzilgohi (mil. avv. 2-mingyillik).



Naqshlar bilan bezatilgan sopol idish



Mis ko'zgular. Zamonbobo manzilgohi

di. U ikki qismdan iborat bo'lgan: qal'a va uning atro-fida jamoa a'zolari bo'lmish hunarmand va dehqonlarning uylari joylashgan. Qal'a ichidan ibodatxona qoldiqlari topilgan.

Bronza davri manzilgohlari aholisi har xil hunarmandchiliklar, to'quvchilik, kulolchilikni rivoj top-tirishda, zeb-ziynat buyumlari yasash, qurilish so-hasida katta yutuqlarga erishgan. Bronza davrida odamlar *kulolchilik charxi* va *g'ildirakni* kashf etdilar. Shu tariqa harakatlantirish vositalari vujudga keldi.

Tayanch konspekt

Eneolit davri (mil. avv. 4-mingyillik – 3-mingyillik o'rtalari)

- misdan yasalgan mehnat qurollari
- sug'orma dehqonchilik (sun'iy sugo'rish)
- ko'p xonali uylar
- Sharqdagi ilk davlatlar va shaharlar

Bronza davri (mil. avv. 3-mingyillik o'rtalari – 2-mingyillik)

- patriarxat
- Zamonbobo, Sopollitepa, Jarqo'ton
- kulolchilik charxi, g'ildirak
- ibodatxona

Savol va topshiriqlar

1. Eneolit davrining neolit davridan asosiy farqlarini ayting.
2. Misning kashf etilishi qachon ro'y bergan?
3. Mis bronzadan nimasi bilan farq qiladi?
4. Nega matriarxatdan patriarxatga o'tish jarayoni sodir bo'ldi?
5. Bronza davri dehqonlarning manzilgohlari haqida hikoya qi-ling.
6. Dehqonlar turar joy qurilishida qaysi materiallardan foydalan-ganlar?

5-§. Temir asriga o'tish davrida O'rta Osiyoning rivojlanishi

Temirdan foydalanish

Odamlar mis va bronzadan mehnat qurollarni yasashni o'rgangan davrlardan beri oradan ko'p asrlar o'tdi. Faqat **miloddan avvalgi I-mingyillik boshlaridagina** temirdan mehnat qurollari yasash imkoniyati paydo bo'ldi. Bu jarayon ancha sarmashaqqat bo'lgan, negaki temir misdan ko'ra ancha yuqori haroratda (1500°C) eriydi. Ammo temir mis va bronzaga nisbatan olganda qulay bo'lgan: temir ulardan qattiqroq edi.

Temirdan birinchi bo'lib Kichik Osiyodagi *xetlar* (miloddan avvalgi XIV–XIII asrlar), so'ngra qo'shni mintaqalardagi (Mesopotamiya, Eron, Kavkazorti) xalqlar foydalana boshlaganlar. Temir buyumlarning tarqalishi sekinlik bilan borgan. Temir kamyob va qimmatbaho metall bo'lgani uchun undan dastlab zebziynat buyumlari yasashda foydalanishgan. Shunday bezaklar Misr fir'avini *Tutanxamon* maqbarasidan va Kavkazdagi *Maykop* qo'rg'oni yodgorligidan topilgan.



Qadimgi temirchilar



Sopol idishlar

Eslab qoling!

Temirdan birinchi bo'lib Kichik Osiyodagi *xetlar* foydalana boshlaganlar (mil. avv. XIV–XIII asrlar), keyinroq ularga qo'shni bo'lgan Mesopotamiya, Eron, Kavkazorti mamlakatlarning aholisi ham temirdan foydalanganlar.



Bronzadan yasalgan qozon. Mil. avv. VI–V asr

Eslab qoling!

Harbiy demokratiya – ilk davlatchilikka o'tish davrida qabila va qabilalar ittifoqlariga saylab qo'yilgan harbiy sardorlar boshchilik qilgan boshqaruv shakli.



Kamon o'qlarining temir uchlari

Mehnat qurollari yasash uchun temirdan foydalanilishi, eng avvalo, dehqonchilikning rivojiga ta'sir qildi. Temirdan ishlangan uchli omochlar va boltalar paydo bo'ldi. Bu mehnat qurollari katta maydonlarda ziroatchilikning rivojlanishiga imkon yaratib berdi. O'rta Osiyodan topilgan eng qadimgi temirdan yasalgan qurollar miloddan avvalgi IX–VIII asrlarga oid bo'lsa-da, temir qurollarning ko'pchiligi miloddan avvalgi VII–VI asrlarq oida sanaladi.

Yevropadan farqli ravishda Sharqda dehqonchilik asosan sun'iy sug'orish asosida rivojlandi. Gulga burkangan bog'lar va serhosil dalalarni suv bilan ta'minlash uchun Sharqda anhorlar va ariqlarning keng tarmog'i ishlab chiqilgan.

Temir qurollarning keng tarqalishi **Ijtimoiy tuzum** mehnat unumdorligini oshirdi. Bu esa ishlab chiqarishning yanada rivoj topgan usuliga o'tilishiga zamin yaratdi. Urug' jamoasi o'rnini *hududiy qo'shnichilik jamoasi* egallay boshladi.

Qabila-urug' oqsoqollarining ta'siri tobora kuchaya borgan. Doimiy harbiy to'qnashuvlar sharoitida qabilalar ittifoqlari paydo bo'ldi. Bu ittifoqlarga harbiy sardorlaridan saylangan kishilar rahbarlik qilganlar, jamiyat esa *harbiy demokratiya* tamoyillari asosida yashay boshladi.

Mil. avv. I-mingyillik boshlarida O'rta Osiyoda aholi to'rtta guruhga bo'lindi: *kohinlar, jangchilar, dehqonlar, hunarmandlar*.

O'rta Osiyoda jamiyatning negizi «*nmana*» deb ataluvchi katta patriarxal oila bo'lganini «Avesto»dan bilib olamiz. Bir necha «*nmana*»lar urug' jamoasi – «*vis*»ni tashkil etgan. Hududiy qo'shnichilik jamoasi esa «*varzana*» deb nomlangan. Bunday jamoalar qabilaga – «*zantu*»ga birlashgan. O'z hududini hi-

moya qilish uchun bir qancha qabilalar ittifoqqa – «dax'yu»ga uyushishgan. «Avesto»ga ko'ra jamiyatni boshqarishning quyidagi tizimi mavjud bo'lgan:

- ◆ oqsoqollar kengashi;
- ◆ xalq yig'ilishi;
- ◆ alohida tumanlar hukmdorlari;
- ◆ viloyatlarning hukmdorlari.

Aholining urug' va qabila bo'yicha emas, balki hududiy taomilga ko'ra guruhlarga ajratilishi mil. avv. IX–VIII asrlarda O'rta Osiyoda vujudga kelayotgan ilk davlat birlashmalarining alomati edi.

Eslab qoling!

Ijtimoiy tuzum
taraqqiyoti:
ibtidoiy to'da → urug'
→ **qabila → qabilalar**
ittifoqi.

Tayanch konspekt

- mil. avv. XIV–XIII asrlar – xetlar (Kichik Osiyo) birinchi bo'lib temirdan mehnat qurollari yasaganlar
- mil. avv. IX–VIII asrlar – O'rta Osiyoda temirdan yasalgan ilk mehnat qurollari
- urug'chilik jamoasi – qo'shnichilik jamoasi
- harbiy demokratiyaga o'tish
- «Avesto»: nmana, vis, varzana, zantu, dax'yu
- mil. avv. IX–VIII asrlar – O'rta Osiyo hududida ilk davlat birlashmalarining vujudga kelishi

Savol va topshiriqlar

1. Temir buyumlardan foydalanish qachon boshlangan?
2. Temirdan mehnat qurollari yasashning boshlanishi jamiyatda qanday o'zgarishlarga olib keldi?
3. «Avesto»da patriarxal oila, urug'chilik jamoasi, hududiy qo'shnichilik jamoasi va qabila qanday nomlangan?
4. Ilk davlat vujudga kelishi davridagi jamiyatni boshqarish tizimi haqida so'zlab bering.
5. Ilk davlat birlashmalarining vujudga kelishi qanday omil bilan boq'liq?



Temir pichoq.
Mil. avv. VII–VI asrlar




Temirdan ishlangan xanjar va qin.
Mil. avv. I mingyillik



BO'LIM II

QADIMGI SHARQ VA O'RTA OSIYO

6-§. Nil vodiysi va uning aholisi



Nil vodiysi

Eslab qoling!

Nil daryosi borib-borib O'rtayer dengiziga quyiladi.

Nil daryosi quyilish joyini yunonlar **delta** deb atashgan.



Nil daryosi qirg'oqlarida

O'zi bilan birga huzurbaxsh salqin havo va mo'l-ko'l hosilni olib kelguvchi sersuv Nil viqor bilan oqadi. Ulug'vor daryo Afrika shimoli-sharqida sivilizatsiya vujudga kelishi uchun zamin yaratgan. Bir qancha shoxobchalarga bo'linib oquvchi Nil daryosi borib-borib O'rtayer dengiziga quyiladi. Nil daryosi quyilish joyini yunonlar **delta** deb atashgan, chunki dengizga quyiluvchi shoxobchalarining to'la-to'kis manzarasi uchburchaksimon, y'ani yunoncha «delta» harfiga o'xshash bo'lgan.

Nil vodiysi – har ikkala qirg'oq bo'ylab 3 km dan 22 kilometr gacha kenglikdagi va 6 ming kilometr uzunlikdagi sug'oriladigan yerlardir. Nil vodiysini har ikkala tomondan tog'lar mudofaa devorlaridek muhofaza qilib turadi, adirlar ortida *Sahroyi Kabir* va *Liviya* cho'llarining ko'z ilg'amas qumliklari yotadi. Daryoning har ikkala qirg'og'i qora tuproqli serhosil dalalardan iborat. Vodiyliliklar yurtga – «Qora tuproq» yoki «Nil in'omi» deb nom berishgan.

Har holda, hamma vaqt ham shunday bo'lmagan. Qadim o'tgan zamonlarda Nil vodiysi odam o'tolmaydigan, papirus butalari bir-biriga chirmashib ketgan botqoqliklar bilan qoplangan, suvda son-sanoqsiz yirtqich timsohlar kun kechirar, quruq yerlarda yovvoyi hayvonlar galasi sang'ib yurar, botqoqzorlarda esa zaharli ilonlar yashar edi.

Vaqt o'tgani sayin iqlim o'zgarib bordi, suv ham yildan-yilga kamayaverdi, Shimoliy Afrika ham

cho'lga aylana bordi. Odamlar Nil vodiysi va deltasini o'zlashtira boshladilar. Shu taxlit ziroatchilik aholining asosiy mashg'ulotiga aylandi. **Mil. avv. 4-mingyillik boshlarida** odamlar Nil daryosi qirg'oqlaridagi yerlarni o'zlashtirishga bel bog'ladilar.


Misrliklarning mashg'ulotlari

Nil daryosi dalalarni suvga bostirib, keng-mo'l oqqan yillarda misrlik dehqonlarning hosili ham barakali bo'lgan.


Misrlik dehqonlar bug'doy va arpa, shuningdek, poliz ekinlarini ekishgan, yetishtirilgan kanopdan esa gazlama to'qishgan. Nil vodiysida uzum, qovun, anor, xurmo, piyoz, bodring, loviya kabi meva va sabzavot yetishtirilardi.

Qadimgi zamonda yerga omoch bilan ishlov berib, urug' qo'lda sepilgach, urug'likni yerga singdirish uchun qoramollarni daladan haydab o'tishgan. Mehnat qurollari takomillashishi bilan ziroatchilar omoch va hayvonlar kuchidan foydalana boshlashdi. Misrliklar sigir, qo'y-echki, cho'chqalarni boqishgan. Ziroatchilar ho'kizlardan dala ishlarida foydalanishgan.


Misr dehqonlari yerga urug' sochish va hosilni yig'ishtirib olish ishlarini g'ayriodatiy muddatda o'tkazishgan. Iyul-sentabr oylarida ular dam olishgan va urug'likni ekishga hozirlashardi, negaki bu mahalda barcha dalalarni suv bosgan bo'lardi. Kuzda dalalarga urug' ekilgan, sug'orish uchun kanallar va ariqlarni tozalash ishlari boshlangan, chunki bu paytlarda yomg'ir juda kam yog'ar edi. Qishda esa hosil yig'imerimi boshlangan. Boshloqlarni mis o'roqlar bilan o'rib olib, so'ngra maxsus joyga tashib, bug'doy yoki arpa bog'lari ustidan hayvonlarni haydab o'tib, hosilni yan-chishgan. Xirmonjoydan chiqqan don sopol xumlarda saqlangan. Bu tadbir donni son-sanoqsiz kemiruvchilar zararkunandalardan omon saqlardi.



Nil daryosi vodiysi



Misr podshohlighi



Savdo-sotiq



Misr fir'avnlarning tojlari



Yuqori Misr shohi
Quyri Misr shohini
qatl qilmoqda

Hunarmandchilikning rivojlanishi

Qadimgi Misr hunarmandlarining 30 dan ziyod kasb-korlari bo'lgan. Misgarlar misni eritib, undan mehnat qurollari quyishardi. Kulolar loydan turli-tuman idish-tovoqlar yasab, idishlarni xumdonga pishirishgan. Quruvchilar saroylar, ibodatxonalar va uylar bunyod etishgan. Oddiy misrliklarning uyi loy suvalgan papirus poyalaridan, zodagonlarning uylari esa oftobda quritilgan xom g'ishtdan qurilgan. Fir'avnlarning saroylari va ibodatxonalar toshdan barpo etilgan. Duradgorlar deraza va eshiklarni yasashardi. Kemasozlar qamishdan qayiqlar, yog'ochdan esa kemalar qurishardi. To'quvchilar kiyim-kechak uchun materiallar tayyorlashar, tikuvchilar esa liboslar tikishardi. Zargarlar oltin va qimmatbaho toshlardan taqinchoqlar yasashgan.

Misr davlatining tashkil topishi

Odamlar miloddan avvalgi IV-mingyillik oxirida Nil vodiysidagi sermashaqqat turmush sharoitiga moslasha boshladi. Tarqoq manzilgohtar «nom» deb atalgan kichik davlatlarga birlashdi.

Vaqt o'tishi bilan asta-sekin qabila sardorlari hukmdorlarga – podsholarga aylanishdi, oqsoqollar esa boshqaruv ishlarida ularga yordam berishardi. *Kohinlar* alohida mavqe va nufuzga ega bo'lishgan. Kohinlar diniy marosimlarni bajarishar, muhim ishlar oldidan xudolardan madad so'rab iltijo qilishgan.

Misrda ikkita podsho hukmdorlik qilgan. Bittasi Quyri (Shimoliy) Misrda, boshqasi esa Yuqori (Janubiy) Misrda davlatni boshqargan. **Mil. avv. 3000-yilda** ikkala davlat o'rtasida boshlangan urushda Yuqori Misr hukmdori *Menes* g'alaba qozondi. U birlashgan mamlakatning birinchi hukmdori – *fir'avni* bo'ldi. Yagona va birlashgan davlat uchun yangi poytaxt bo'lmish *Memfis* shahri barpo etildi.

Ko'p yillar mobaynida «nom»lar hukmdorlari o'z mol-mulkini ko'paytirib oldi, natijada Misr mustaqil davlatlarga aylangan alohida «nom»larga parchalanib ketdi. Vaqt o'tishi bilan mamlakatning qayta birlashuvi ro'y berdi. Bu davlatning poytaxti *Fiva* shahri bo'lgan.

Olimlar Misr tarixini *Ilk, Qadimgi, O'rta, Yangi* va *So'nggi* podsholik davrlariga ajratishgan.

O'zingizni sinang!

«Nom» – ...	Memfis va Fiva – ...
Menes – ...	Fir'avn – ...



Dalaga ishlov berish

Tayanch konspekt


- Afrika shimoliy-sharqi – mil. avv. 4-mingyillik boshi
- Nil → delta → O'tayer dengizi
- Nil vodiysi – kengligi 3 km dan 22 km gacha, uzunligi – 6 ming km
- dehqonchilik, chorvachilik
- papirus – uylar qurilishi
- davlatlar – «nom»
- mil. avv. 3000- yil – Yagona birlashgan Misr
- poytaxt – Memfis

Eslab qoling!

Olimlar Misr tarixini **Ilk, Qadimgi, O'rta, Yangi** va **So'nggi podsholik** davrlariga ajratganlar.

Savol va topshiriqlar

1. Nega misrliklar o'z mamlakatini «Nil in'omi» deya ta'riflashgan?
2. Qadimgi Misrning tabiiy sharoiti nima sababdan dehqonchilik uchun qulay edi?
3. Xaritadan Qadimgi Misrni toping. Nil daryosi deltasi, Quyi va Yuqori Misrni ko'rsating.
4. Nima uchun uzoq vaqt odamlar Nil vodiysiga ko'chib kelmaganlar?
5. Misrliklar mashg'ulotlarini sanab bering.
6. Qadimgi Misr tarixi qaysi davrlarga ajratilgan?



Kanallar va ariqlar yordamida ekinlarni sug'orish

Eslab qoling!

Nubiya, Liviya, Falastin va Suriya mamlakatlari qadimgi misrliklarga qo'shni bo'lgan.



Tutanxamon taxti



Qadimgi Misr jangchilarining sopoldan yasalgan haykallari

7-§. Misr va qo'shni xalqlar

Qadimgi misrliklarning qo'shnilari

Misr janubdan *Nubiya* bilan chegaradosh bo'lgan. Bu mamlakatga misrliklar Nil bo'ylab oltin, smola (qatron), fil suyagi, nodir navli yog'ochlarni ayirboshlash uchun borganlar.

Misr g'arbida, *Liviya* cho'lida shu nomdagi mamlakat joylashgandi. Sahro aholisi ko'chmanchi chorvadorlar bo'lgan. Quyi Misrdagi Memfis shahri orqali o'tadigan yo'l Sinay yarimoroliga olib borgan, bu yerda esa mis qazib olingan. Sinay yarimorolidan shimolroqda *Falastin*, uning yonboshida *Suriya* joylashgan. Bu mamlakatlar mis va temir rudasiga hamda boshqa foydali qazilmalarga boy bo'lgan.

Misrliklar Falastin va Suriyadan hunarmandlar yasagan nodir buyumlar va qimmatbaho toshlarni olib kelishgan.

Fir'avnlarning istilolari

Qadimgi podsholik davrida Sinay yarimoroli bosib olinadi, mahalliy qabilalar Misrga soliq to'lay boshlashdi. Fir'avnlr Nubiya va Liviya ham yurish qilib, shaharlarni talaydilar, asirlar, chorva mollari va boshqa boyliklarni egallab oldilar. O'rta podsholik fir'avnlari Janubiy Falastin yeri va Nubiya shimolini Misrga qo'shib olishga muvassar bo'ldilar.

Miloddan avvalgi XVIII asr oxirida ko'chmanchi *giksoslar* qabilalari Misrga hujum qildi. Misrliklarning piyoda qo'shinlaridan farqli o'laroq giksoslarning asosiy kuchi otlar qo'shilgan jangovar aravalari bo'lgan. Bir askar otlarni boshqarib turgan, ikkinchisi esa kamondan dushmanlarni nishonga olib o'q uzgan. Quyi Misrni bosib olgan giksoslar misrliklar shaharlari va qishloqlariga hujum qildi, ularni ayovsiz taladi va odamlarni asirlikka haydab ketdi.

Bu vaqtda O'rta podsholik ko'plab mayda «nom»larga bo'linib ketgandi, ular giksoslarga soliq

to'lar edi. Faqat Fiva shahri hukmdorlarigina giksoslarga itoat qilmadilar.

Bosqinchilar zulmidan xalos bo'lish taraddudiga tushib qolgan «nom»lar hukmdorlari Fiva shahri atrofiga birlasha boshlashdi. Ko'p o'tmasdan Yuqori Misrning barcha «nom»lari Fiva «nomi»ning fir'avni atrofiga birlashdilar. Bir qancha janglarda fir'avn *Yaxmos* giksoslarni tor-mor etib, bosqinchilarni Misrdan haydab chiqardi. Itoatsiz hukmdorlarni o'ziga bo'ysundirgan Yaxmos yangi fir'avnlarni sulolasi asoschisiga aylandi, ana shu fir'avn zamonidan Yangi podsholik davri boshlandi. Yaxmos hukmdorligi davrida Misr yuksak kuch-qudrat cho'qqisiga erishadi.

Fir'avnlarni yurishlarining natijalari

Mamlakatini ozod qilgan Yangi podsholik hukmdorlari qo'shni davlatlar bilan kurashni endi bosqinchi sifatida davom ettirishdi. O'z qo'shinlarini nayzalar, qilichlar va dastasi uzun jangovar oyboltalar, shuningdek, jangovar aravalar bilan qurollantirgan fir'avnlarni Nubiya va Old Osiyo mamlakatlariga hujumni boshlab yubordilar.

Bir necha yurishlardan keyin fir'avnlarni deyarli butun Nubiyaning Misrga qo'shib olishdi, Liviya qabilalarini o'lpon to'lashga majbur qildilar. **Mil. avv. 1500-yillar** atrofida fir'avn *Tutmos II* katta yurishlar tashkillashtirishga muvaffaq bo'ldi. Falastin va Suriyani istilo qilish boshlandi, bir necha yil davom etgan yurishlarda erksevar qabilalarni uzil-kesil bo'ysundirib bo'lmadi. Faqatgina fir'avn Tutmos III Falastinni bosib olishga muvaffaq bo'ldi.

Bo'ysundirilgan xalqlar misrliklardan nafratlanib, o'z erk va ozodligi uchun kurashgan. Misr fir'avnlari bir necha yil mahalliy qabilalar bilan urushdilar. Bu narsa fir'avnlarni sillasini quritdi, davlat zaiflashib qoldi, Yangi podsholik ham alohida «nom»larga tarqalib ketdi.

Eslab qoling!

Fir'avn **Yaxmos** giksoslarni tor-mor etib, bosqinchilarni Misrdan haydab chiqardi. Yaxmos yangi fir'avnlarni sulolasi asoschisiga aylandi va Yangi podsholik davri boshlandi.



Tutmos III jangchilari shaharga hujum qilmoqda

Eslab qoling!

Kir II ning o'g'li **Kambiz II mil. avv. 525-yilda** Misrni bosib oldi.



Misrliklarni qadimgi fors podshosi Kambiz II asirlikka olib ketmoqda



Baalbek shahridagi ibodatxona



Apis. Buqa timsolidagi hosildorlik xudosi

Mil. avv. VII asrda Misr yana yagona davlatga birlashdi, mamlakat iqtisodiyoti va madaniyatida yuksalish boshlandi. Ammo miloddan avvalgi VI asrda Misrga yangi bir dushman bostirib kiradi.

Forslardan ulkan lashkar to'plagan shahanshoh Kir II ning o'g'li Kambiz II miloddan avvalgi 525-yilda Misrni bosib oli.

O'zingizni sinang!

**Giksoslar – ... Yaxmos – ...
Tutmos III – ...**

Tayanch konspekt

- Misr qo'shnilari – Nubiya, Liviya, Falastin, Suriya
- qo'shni mamlakatlarning Misr tomonidan bosib olinishi
- Quyi Misrning giksoslar tomonidan bosib olinishi – mil. avv. XVIII asr
- Yaxmos → giksoslarning quvg'in qilinishi → Yangi podsholik
- Tutmos II → mil. avv. 1500-y. → bosqinchilik yurishlari
- mil. avv. 525-yil – Misrning fors shohi Kambiz II tomonidan bosib olinishi

Savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Misrga qo'shni bo'lgan davlatlarni sanab bering va ularni xaritadan ko'rsating.
2. Qadimgi Misr fir'avnlari qaysi mamlakatlarni bosib olgan edi?
3. Nima sababdan ko'chmanchi giksoslar Misr uchun dahshatli kuchga aylandi?
4. Qaysi fir'avn hukmronligi davrida giksoslarni mamlakatdan haydab chiqarishga erishildi?
5. Yangi podsholik hukmdorlari qaysi hududlarni bosib olishdi?
6. Misr qachon va kim tomonidan bosib olindi?

8-§. Qadimgi Misr dini

Misrliklarning xudolari

Misr aholisi uchun din kundalik turmushning ajralmas bir bo'lagi hisoblangan. Qadimgi misrliklar xudolar hayvonlar siymosiga o'tib olib, mushuk, qo'y,

ho'kiz, arslon, sigir shaklida odamlar orasida yashaydi, deb hisoblashgan. Misrliklar xudolarning bir qancha joni mavjud: ulardan biri hayvon tanasida, boshqasi esa haykalida yashaydi deb o'ylashgan. Misrliklar xonadonidagi mehrobda xudolarning haykalchalari o'rnatilgan. Kohinlar – ibodatxona ruhoniylari, xudolarni dindorlar in'om tariqasida keltirgan narsalar bilan boqishadi, deb hisoblashgan.

Qadimgi Misr podshohligining poytaxti *Memfisning* o'z xudosi – *Ptax* bo'lgan. *Ptax* misrliklar e'tiqodicha, olamni yaratayotganida har bir narsaning nomini odamga o'rgatgan. Xudo shunchalik qudratliki, uni asl qiyofasida ko'rishning iloji yo'q. Shuning uchun ham *Ptax* degan xudoning Yer yuzidagi qiyofasi *Apis* bo'lib, u peshanasi va belida oq qashqasi bo'lgan qora ho'kiz timsolida tasavvur etilgan.

Misrliklar o'z xudolariga butunlay ishonishgan, har bir ishni bajarishga kirishishdan avval ulardan maslahat, madad yoki rozilik so'rashgan.

Mil. avv. 2-mingyillikdan boshlab esa Quyosh xudosi *Amon-Ra* fir'avnlarning bosh ilohi va homiysi hisoblangan. Dastavval ikkita xudo bo'lgan: Fiva shahri homiysi *Amon* va Quyosh xudosi *Ra*, so'ngra ikkalasi yagona xudoga birlashgan.

Uning ibodatxonasi *Geliopolda* (*Baolbek*) bo'lgan.

Fir'avnlr Quyosh xudosi o'g'illaridir, hukmdorlar hamma ishni o'zining samoviy otasi amri bilan amalga oshiradi, degan qarash mavjud bo'lgan.

Xapi – Nil xudosi – Misrdagi hayotning birlamchi manbai va posboni, *Osiris* – yerosti saltanati xudosi hisoblangan. Rivoyatda aytilishicha, *Osiris* Misrning ilk podshohlaridan biri bo'lib, o'z xalqini dehqonchilikka o'rgatgan. Birodari *Set* esa *Osiris*ni o'ldiradi. Ammo *Osiris*ning xotini *Isida* uni mumiyolagan va qayta tiriltirgan ekan. O'shandan boshlab jon qaytib keladigan joy bo'lishi uchun barcha marhumlar mumiyolanadi. *Osiris* ibodatxonasi xarobalari *Abidos* shahrida hozirgacha saqlanib qolgan.



Quyosh xudosi –
Amon-Ra



Isida – Osirisning
xotini



Tot – Oy,
donishmandlik va
tabobat xudosi



Anubis – marhumlar va mumiyolanganlar xudosi



Maat – haqiqat va adolat ilohasi



Xatxor – musiqa, go'zallik va sevgi ilohasi

Kohinlar va ibodatxonalar

Kohinlar xudolar va odamlar o'rtasida vositachi bo'lishgan. Misrliklar e'tiqodicha, mabodo Yer yuzida maxsus marosimlar ado etilmasa, xudolar odamlarga madad bermay qo'yadilar. Kohinlar diniy marosimlarni bilar, qurbonlik bag'ishlar edilar. Kundalik turmushda ham kohinlarsiz biron ish qilish mushkul edi. Kohinlar Nil toshqini vaqtini, qachon urug'lik sochish va hosilni yig'ishtirib olish muddatini aniq bilishgan. Barcha «nom»larda ibodatxonalar bo'lgan, fir'avnlr ularga katta-katta boylik va yerlar hadya etishardi. Asosiy xudolarga atab qurilgan ibodatxonalar katta-katta yer-mulklariga egalik qilar edi. Har bir zafarli bosqinchilik yurishidan keyin fir'avnlr o'ljaning bir qismini ibodatxonalariga hadya etganlar.

O'zingizni sinang!

Ptax – ...

Apis – ...

Amon-Ra – ...

Tot – ...

Xatxor – ...

isida – ...

Maat – ...

Osiris – ...

Tayanch konspekt

- misrliklar, xudolar odamlar orasida yashaydi, deb hisoblashgan
- Amon-Ra
- Ptax → Apis
- Xapi, Osiris, Tot, Set, Isida, Xatxor, Anubis, Maat
- ibodatxonalar → kohinlar → qurbonlik qilish

Savol va topshiriqlar

1. Misrliklarning hayvon timsolidagi xudolarga sig'inishi haqida so'zlab bering.
2. Nega Quyosh xudosi Misrning bosh xudosi hisoblangan?
3. Qadimgi misrliklar dinining eng qadimgi odamlar diniy e'tiqodi bilan o'xshashligi nimada bo'lgan?
4. Qadimgi Misr xudolarini sanab bering.
5. Misr kohinlari nufuzi va kuch-qudratining sababi nimada?

9-§. Piramidalar va maqbaralar

Hamma narsa vaqtdan qo'rqadi, vaqt esa piramidalardan! Qadimgi va O'rta podsholiklar davrida misrliklar barpo etgan ulkan *piramidalar* fir'avnlarni dafn etiladigan joy – maqbaralar bo'lgan. O'tgan mingyilliklar davomida ko'pdan ko'p shaharlar va davlatlar yo'q bo'lib ketdi, ibodatxonalar va saroylar xarobaga aylandi, faqat piramidalar vaqtdan qo'rqmaydi, faqat piramidalargina to'rt ming yildan oshiq vaqt davomida o'zgarmasdan turibdi.

Eng mashhur piramidalar Memfis shahri yaqinida uch fir'avn – *Xufu*, *Xafra* va *Menkaura* uchun bunyod etilgan. Bu piramidalar jahonning yetti mo'jizasidan biri bo'lib, ular hozirga qadar saqlanib qolgan birdan-bir inshootlardir. Eng katta piramida Xufu uchun (yunonlar uni Xeops deb atashgan) **miloddan avvalgi 2600-yil** atrofida qurilgan. Uning balandligi 147 metr bo'lgan.

Piramida har biri ikki tonnadan og'irroq bo'lgan 2,5 million dona tosh bo'laklaridan tashkil topgan. Toshlar shunchalik tekis qilib kesilgan va taroshlanganki, ular o'rtasidagi yoriq 0,5 millimetrdan oshmaydi. Piramida ichida dahliz bilan tutashtirilgan bir qancha xonalar mavjud. Ulardan birida fir'avnning mumiyolangan jasadini solingan *toshtobut* – *sarkofag* joylashgan.

Misrliklar, inson vafot etganidan so'ng o'zga bir olamga yo'l oladi, bu hayotda foydalangan narsalarning hammasi narigi dunyoda ham kerak bo'ladi, deb hisoblashgan.

Dahmalar ichi esa munojotlar va qarq'ishlardan iborat bitiklar bilan qoplangan, ular fir'avnni himoya qilishi va o'zga hayotga o'tayotganida unga yordam berishi mo'ljallangan.

Yirik piramidalarni o'rtacha 20 yil davomida qurishgan. Bu o'ta og'ir mehnat bo'lgan. Piramidalarni *sfinks* – tanasi sherniki va boshi odamniki bo'lgan ulkan



Piramida qurilishida



Qadimda piramidalar vodiysining ko'rinishi




«Sahro shohi» – sfinks



Tutanxamon



Ibodatxona devorlari va ustun



Osiris – marhumlar dunyosining xudosi

haykal qo'riqlaydi. «Sahro shohi» – sfinks haykali toshdan ishlangan bo'lib, uning balandligi 20 metrga teng.

Yangi podsholik davriga kelib ehrom qurmay qo'yishdi. Fir'avnlarni tog'larga o'yilgan tosh maqbaralarga dafn etadigan bo'lishdi. Ularga kiraverish yo'llarini bekitib tashlashgan.

Eng mashhur maqbara fir'avn *Tutanxamon*ga tegishli bo'lgan. Maqbara ichidagi tasavvurga sig'maydigan boyliklar bizga qadar yetib kelgan.

Mumiyolash Qadimgi misrliklar inson vafot etganidan keyin marhumlar saltanatiga ketadi, o'sha yerda umrini davom ettiradi, deb hisoblashgan.

Ammo marhumlar saltanatidagi hayot, misrliklar fikricha, Osiris sudining natijalariga bog'liq bo'ladi. Tarozining bir pallasiga marhumning yuragi, boshqasiga esa qush patlari qo'yiladi. Mabodo tarozi pallalari tenglashsa, demak inson bu dunyodagi hayotida faqat ezgu ishlar qilgan bo'ladi, u vafot etganidan keyin ajoyib bir sharoitda umrini davom ettiradi. Mabodo, yurak og'irroq kelsa, demak inson bir talay yomon ishlarni qilgan bo'lib chiqadi, badbashara maxluqlarga yemish bo'ladi. Osiris qarshisida go'zal qiyofada qad rostlash uchun misrliklar inson jasadini mumiyolashgan.

Odatda mumiyolash qariyb 70 kun davom etgan. Jasadga maxsus ishlov berilganidan keyin ko'pdan ko'p matolar bilan o'rab chirmashgan, qimmatbaho taqinchoqlar bilan bezashgan. Matolar qati orasiga omad keltiruvchi tumorlar qo'yilgan. Mumiyolash faqat marhumning izida qolgan boy-badavlat qarindoshlariga nasib etgan.

O'zingizni sinang!

Piramidalar – ...

Toshtobut – ...

Mumiyolash – ...

Sfinks – ...

Muqaddas hayvonlar

Misrliklar diniy e'tiqodiga ko'ra, xudolar ko'pincha muqaddas hayvonlar qiyofasida gavdalanadi. Misrliklar xudolari bir talay bo'lgani uchun deyarli barcha hayvonlar xudo deb hisoblangan. Mushuk, qo'y, ho'kiz, sigir, arslon, lochin, ilon va boshqalarni muqaddas hayvonlar deb bilishgan.

Hasharotlar orasida qo'ng'iz alohida hurmat-e'tiborga sazovor bo'lgan. Misrliklar Yer shari ham qo'ng'iz dumalatib borayotgan sharcha singari osmon kengliklarida aylanib, kezib yuradi, deb hisoblashgan. Shuning uchun ham qo'ng'izlar Quyoshning yordamchilari hisoblangan. Jismida *Bastet* degan iloha gavdalangan mushuk sharafiga uyushtirilgan bayramlarda Misrning jami aholisi ishtirok etgan. Muqaddas hayvonlarni ham xuddi vafot etgan odamlar singari mumiyolashgan, izzat-ikrom bilan dafn etishgan.

Tayanch konspekt

- piramida – fir'avn maqbarasi
- Xufu → Xafra → Menkaura
- Xufu (yunoncha – Xeops) – mil. avv. 2600- yillar
- sfinks
- Tutanxamon
- mumiyolash – 70 kun
- Bastet – go'zallik ilohasi

Savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Misr hukmdorlari piramidalarni qanday maqsadda barpo ettirishgan?
2. «Hamma narsa vaqtdan qo'rqadi, vaqt esa piramidalardan!» degan iborani qanday tushunasiz?
3. Misrdagi eng mashhur piramidalar qayerda barpo etilgan?
4. Nima sababdan fir'avnlarni dafn etayotganda maqbaraga hayotda foydalangan buyumlarini ham birga ko'mishgan?
5. Marhumlar qaysi maqsadda mumiyolangan?



Mumiyolangan it



Muqaddas hisoblangan qo'ng'izlar



Mushuk ko'rinishidagi go'zallik xudosi – Bastet

10–11-§§. Qadimgi Misr madaniyati



Xattot haykali



Papirus



Tosh lavha

Yozuv

Qadimgi misrliklar yozuvi insoniyatning ilk yozuvlaridan biri edi. Avvaliga har bir soʻz rasm koʻrinishida yozilgan. Yozuvdan duolar va marosimlarni yozib borishda foydalanishgan, shuning uchun ham uni «muqaddas» yoki «xudolar kalomi» deb nomlashgan.

Qadimgi yunonlar ularni «iyerogliflar» deyishgan («toshga chekilgan muqaddas bitiklar» maʼnosini anglatadi). Yozuvlar maqbaralarning devorlariga va xudolar haykallariga oʻyib yozilgan. Yozuv uchun tosh va sopol dan ham foydalanilgan.

Misrliklar alifbosi 750 iyeroglifdan iborat boʻlgan. Har bir soʻz oʻzida bir qancha ramzlar va timsollarni ifoda etgan. Iyerogliflarni oʻrganish ancha qiyin ish boʻlib, savod chiqarish koʻpchilikka ham nasib etavermagan. Iyerogliflarni qamish qilqalam bilan papirusga, yaʼni papirus poyasidan ishlangan qogʻozga yozishgan. Turli rangdagi mineral boʻyoqlar siyoh vazifasini oʻtagan. Taʼlim olayotganda sopol buyumlar parchasiga yoki ohaktoshga yozishgan. Husnixat sanʼatini egallagan kishilar yuksak saviyadagi maʼlumotli va savodxon kishilar sanalganlar, ular katta imtiyozlarga ega boʻlib, izzat-hurmatda boʻlganlar. Qashshoq oilalar farzandlarining koʻpchiligi savodsiz boʻlib qolavergan, hunarlarni esa ota-onalaridan oʻrgangan.

Iyerogliflar sirining kashf etilishi

Taniqli fransuz olimi *Jak-Fransua Shampolyon* 1822-yilda jahonshumul ahamiyatga molik kashfiyot qildi: Misr matnlarini oʻqishga erishdi. Bu kashfiyotga *Qohira* shahridan uncha uzoq boʻlmagan *Rozett* shahri yaqinidagi bir toshga chekilgan qadimgi misr va qadimgi yunon tillaridagi bir xil maʼnodagi bitik sababchi boʻldi. Yunon tilidan tarjima qilish qiyinchilik tugʻdirmadi, matnlarni taqqoslab koʻrib, har bir iyeroglif anglatgan maʼnoni tushuntirib berish imkoni topildi. Ana shu kashfiyotdan keyin papiruslarga bitil-

gan ko'plab matnlar, ibodatxonalar va piramidalar devorlaridagi bitiklar ko'p asrlik jimjitlikdan so'ng «tilga kirdi». Tarixchilar esa Qadimgi Misr sivilizatsiyasini o'rganish uchun muhim va ishonchli manbaga ega bo'lishdi. Bugungi kunda Rozett bitiktoshi Londondagi Britaniya muzeyida saqlanmoqda.

O'zingizni sinang!

Iyerogliflar – ...

J.-F. Shampolyon – ...

Papirus – ...

Rozett bitiktoshi – ...

**Nazariy
bilimlarning
dunyoga kelishi**

Misrliklar nazariy bilimlarining dunyoga kelishi va rivoj topishi ularning kundalik hayoti bilan bog'liq bo'lgan. Ziroatchilar qachon urug'likni yerga qadash, qay mahalda hosilni yig'ishtirib olishni bilishi zarur edi. Bu muddatlarni misrliklar yulduzlarga qarab aniqlaganlar. Shu tariqa, astronomiya, ya'ni yulduzlar haqidagi fan dunyoga keldi.

Yulduzlarni kuzata turib misrliklar yil davomiyligini 365 kun etib aniqlik bilan belgiladilar, birinchi bo'lib taqvim tuzdilar, 365 kunni esa 30 kundan 12 oyga taqsimladilar, ortib qolgan 5 kunni bayram kunlari sanab, hisobga kiritishmadi. Misrliklar tomonidan tuzilgan osmonda yulduzlar joylashuvi xaritasi hozirga qadar saqlangan. Misrliklar dengizlar va saholarda yulduzlarga qarab mo'ljal olishgan, yo'lni belgilashgan.

Anhorlar qazilayotganda, istalgan imorat va inshootni barpo etayotganda maydon hajmini o'lchash zarur edi, shu tariqa geometriya fani – yer yuzasini o'lchash ilmi dunyoga keldi. Misrliklar nafaqat oddiy arifmetik hisoblashni, qolaversa kasrlar, maxrajlar va murakkab hisob-kitoblarni ham bilishgan. Matematika fani ana shu asosda taraqqiy etdi.

Misrliklar tibbiyot fani haqidagi bilimlarga ega bo'lganlar. Mumiyolangan mayitlarni tayyorlash ja-



**Nefertiti –
Misr malikasi**



Astronom-olim



**Misrliklarning
tibbiyot asbobiari**



«Podsho tirsagi» –
o'lchov birligi



Qadimgi Misr
suv soati



Osiris – marhumlar
dunyosi hukmdori

rayonida, misrliklar odamning ichki tuzilishini ham yaxshi o'rgandilar. Davolash muolajasida ko'katlar damlamasi, mineral suvlar va tuzdan keng foydalanishgan. Misr shaharlarida tabiblarga ta'lim beruvchi maxsus maktablar bo'lgan.

Misrda asosiy o'lchov birligi «*tirsak*» bo'lib, u tirsakdan barmoqlar uchigacha bo'lgan uzunlikka teng edi. Qo'llar uzunligi turlicha bo'lgani sababli «*podsho tirsagi*» degan yagona o'lchov joriy etilgan, u 52,5 santimetrga teng bo'lgan. «Podsho tirsagi» butun mamlakat uchun yagona o'lchovga aylangan. Bundan ham qisqa uzunliklarni o'lchashda kaft yoki barmoqlardan foydalanilgan.

Misrda vaqt 24 ta bo'lмага ajratilgan maxsus idishdan iborat bo'lgan suv soatlari yordamida o'lchangan. Bir bo'lmadan ikkinchisiga oqib o'tadigan suvning hajmi bir soat deb hisoblangan.

Qadimgi yunonlar matematika, arxitektura, tibbiyot va boshqa sohalardagi ko'plab yutuqlarni misrliklardan o'zlashtirib olishgan.

Adabiyot

Misrliklar yozuvi shunchalik murakkab ediki, har kim ham uni o'zlashtira olmasdi. Lekin asosiy vazifasi matnlarni yozish va o'qish bo'lgan xattotlar mehnati tufayli misrliklarning badiiy asarlari bizgacha yetib kelgan.

Qadimgi Misrda ertaklar, afsonalar, asotirlar, xudolar va podsholarga madhiya va qasidalar keng tarqalgan. Aksariyat asarlarda real hodisalar to'qima voqealar bilan qorishib ketgan. Odamlar xatti-harakatiga xudolar aralashadi, ezgulik yovuzlik ustidan g'alaba qozonadi. Masalan, «*Ikki aka-uka haqida ertak*», «*O'lim shahzodasi haqida ertak*», Isida va Osiris haqida afsona, «*Sinuxet hikoyasi*» kabi badia asarlar mashhur bo'lgan.

Tayanch konspekt

- iyerogliflar – 750 ta – «xudolar kalomi», «ilohiy bitiklar»
- papirus
- Jak-Fransua Shampolyon (1822- yil)
- Rozett bitiktoshi – qadimgi misr va qadimgi yunon tillari
- astronomiya → taqvim
- geometriya
- matematika
- tibbiyot
- ertaklar, afsonalar, rivoyatlar

Savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Misr yozuvining o'ziga xosligi nimada?
2. Nima uchun misrliklar iyerogliflarni «muqaddas kalom» deb atashgan?
3. Misr yozuvini kim o'qishga musharraf bo'lgan? Qanday qilib?
4. Sizningcha, nima sababdan fan vujudga kelgan?
5. Misrliklar fan sohasida erishgan yutuqlarini sanab bering.
6. Sizningcha, piramidalar qurilishiga rahbarlik qilgan kohinlar qaysi bilimlarga ega bo'lishi kerak edi?

12-§. Mesopotamiya sivilizatsiyalari

Dajla va Frot daryolari oralig'idagi vodiyni yunonlar *Mesopotamiya* deb nomlashgan, bu atamaning tarjimasi *Ikki daryo oralig'i* degan ma'noni anglatadi. Odamlar Mesopotamiyaga qadim zamonlarda ko'chib joylashganlar.

Mesopotamiya daryolarning toshqin suvlari turli tuproq va tog' jinslaridan iborat loyqalarni olib kelgan. Ular yerlarni o'g'itlagan. Shu sababli Mesopotamiya yerlari ishlov berish uchun qulay, serunum bo'lgan. Qishda surunkali yomg'ir va daryolar toshqini bo'lib turgani sababli Mesopotamiyada jahondagi eng qadimiy rivoyatlardan biri – Yer yuzini butunlay suv bosishi to'g'risidagi *To'fon rivoyati* dunyoga kelgan.




Xudo Set Osiris huzuridagi tantanada



Shumer sopol idishlari



Kotib ish ustida



Xurmo daraxti – «Hayot daraxti»

Eslab qoling!

Mil. avv. 4- mingyil-likda Mesopotamiya- da **shumerlar** manzil- gohlari vujudga kela boshladi. Ular Janu- biy Mesopotamiyaga joylashib, bu yurtni **Shumer** deb atadilar. Mesopotamiyaning **Akkad** deb atalgan shimoliy qismiga ko'ch- manchi chorvadorlar- **akkadlar** o'rnashdi.



Gadimgi shumerlar

Xurmo daraxtini Mesopotamiya ahli «*hayot darax- ti*» deyishgan. Bir tup daraxt 50 kilogrammgacha hosil bergan. Xurmo mevasidan asalga o'xshash moy siqib olingan. Daraxt poyasi o'tin sifatida ishlatilgan. Xurmo danagidan qoramollarni boqish uchun yem tayyor- langan. Xurmo danaklarini temirchilik ustaxonalarida o'tin o'rnida ham ishlatishgan. Mesopotamiyaliklar paxsa va xom g'ishtdan uylar qurishgan.

Miloddan avvalgi 4-mingyillikda Mesopotami- yada shumerlar manzilgohlari vujudga kela boshladi. Ular Janubiy Mesopotamiyaga joylashib, bu yurtni *Shumer* deb ataydilar. Mamlakatning *Akkad* deb atalgan shimoliy qismiga ko'chmanchi chorvadorlar – *akkadlar* o'rnashdi. Mil. avv. 3-mingyillik oxirida shu- merlarga singishib ketgan akkadlar butun Mesopo- tamiyani egallab oldilar.

Mesopotamiya aholi- sining mashg'ulotlari

Mesopotamiya aholisining asosiy mashg'uloti dehqon- chilik bo'lgan. Dajla va Frot daryolarining har yilgi toshqinlari mahalida suv bilan birga dalalarga unumdor loyqa oqib kelgan.

Mesopotamiyada yog'och va metall singari xo'jalik uchun zarur materiallar bo'lmagan, ammo don mo'l- ko'l yetishtirilar, chorva mollari ko'p bo'lgan. Shu- ning uchun Mesopotamiya aholisi savdo-sotiq bi- lan ham shug'ullanardi. Qo'shni *Kavkazorti* va *Eron* o'lkalaridan donga ayirboshlab oltin, mis, kumush, qalayi va noyob toshlarni keltirishardi. Suriyadan esa kedr (sidra) yog'ochi keltirilgan. Savdo ishlari suv va quruqlik yo'llari orqali olib borilgan.

O'zingizni sinang!

Shumer – ...	Akkad – ...
---------------------	--------------------



Mesopotamiya


Mesopotamiyada turli mahsulotlar va hunarmandchilik buyumlari bilan savdo qilishgan. Metall buyumlar, zeb-ziynatlar, qurol-yarog' va kulolchilik buyumlari ayniqsa qadrlangan. Savdo-sotiqda kumush quymasi ko'rinishidagi metall tangalar ishlatilgan. Mesopotamiyadagi og'irlik o'lchovi «*mino*» 550 gramm kumushga barobar bo'lgan.

Mil. avv. 4-mingyillikda shumerlar jahondagi eng qadimgi yozuvlardan biri *mixxatni* ixtiro qilishgan. Shumerlar uchi o'tkirlangan tayoqchalar bilan loytaxtalarga yozishgan. Shumerlar bilimdon, tajribali quruvchilar va hunarmandlar bo'lishgan. Zargarlik san'ati shumerliklar shaharlarida yuksak darajaga ko'tarildi. Mohir ustalar oltin va kumushdan har xil zeb-ziynatlar yasashgan.

Vaqt o'tishi bilan asta-sekin manzilgo'lar nihoyatda kengayib ketdi. Miloddan avvalgi 4-mingyillik oxirida Mesopotamiyada *Uruk*, *Umma*, *Lagash*, *Ur* va boshqa shaharlar vujudga kela boshladi. Ular shahar va unga tutash dehqonchilik tumanlaridan iborat bo'lgan *shahar-davlatlar* edi. Har bir shaharning hukmdori oliy xudo – shahar homiysi hisoblangan. Xudo nomidan koinlar hukmronlik qilgan, xudolar ibodatxonasi esa davlatdagi hokimiyat markazi bo'lgan. Meso-



Mixxat yozuvi



Shumerning Ur shahri

Eslab qoling!

Mil. avv. 4- mingyillik oxirida Mesopotamiyada **Uruk**, **Umma**, **Lagash**, **Ur** shaharlari yuzuga kelgan. Ular **shahar-davlatlar** edi.



**Ishtar – hosildorlik,
sevgi va urush
ilohasi**



**Uruk shahri podshosi
Gilgamish**

potamiyaning qadimiy ibodatxonalari – *zikkuratlar* xom g'ishtdan terib chiqilgan muhtasham zinapoyali inshoot bo'lgan.

Quyosh xudosi *Shamash* alohida ehtimomga sazovor bo'lgan iloh, oliy hakam hisoblanib, yovuz ishlari uchun odamlarni sud qilgan. Shuningdek, shumerliklar Oy xudosi *Sina*, suv xudosi *Ea*, hosildorlik va sevgi, urush va g'alaba ilohasi *Ishtarga* sig'inganlar.

Shahar-davlatlar tepasida hukmdor turardi. Mil. avv. 3-mingyillikda Shumer shaharlari orasida eng qudratlisi Ur shahri bo'lgan. Arxeologlar tomonidan podsholar maqbarasidan topib tekshirgan topilmalar ham Urning kuch-qudratidan dalolat beradi. Bular oltin buyumlar, qurol-yarog'lar va kumush idishlardir.

Mesopotamiyaning katta yer-mulklari hukmdorlar va koinlar qo'l ostida bo'lgan. Dalalarga qullar va erkin yollanma mehnatchilar ishlov berishgan. Shaharlar tevaragida istiqomat qiluvchi aholi kichik-kichik yer ulushlariga ega bo'lgan. O'z oilasini boqish uchun kambag'allar podsho va ibodatxona mulklarida ishlaganlar.

Miloddan avvalgi 3-mingyillik o'rtalarida Lagash shahri yuksala boshladi, Shumer va Akkadning ko'pgina shaharlari Lagashga qo'shib olindi. Shumer shaharlari mudofaa devorlari bilan o'rab olingan edi. Shaharning bosh darvozasidan boshlangan ko'chalar markaziy maydonga, ibodatxona va hukmdor saroyiga olib borgan. Qurilish tosh, xom va pishgan g'isht bilan amalga oshirilgan. Lagashdagi ibodatxona xudolar va qahramonlar haykallari bilan hashamatli bezatilgan edi. Ibodatxonadagi hovuzda baliqlar suzib yurardi, bundan tashqari, kaptarlar kun kechiradigan bog', turli hayvonlar va qushlar yashaydigan tomoshabog'lar ham barpo etilgan.

Urush paytida shahar aholisi sardorni saylagan. Bora-bora ularning nufuzi ortib, sardorlar muntazam

hukmronlik qila boshladilar. Ularni podsholar deb atashgan. Podsho shahar-davlatni aslzodalar, kohinlar va harbiy qo'shinlarga tayangan holda amaldorlar yordamida idora qilgan.


Gilgamish haqidagi rivoyat

Mesopotamiya rivoyatlarining eng sevimli qahramoni *Gilgamish* Uruk shahri podshosi bo'lgan. Uning hayoti keyinchalik ko'plab afsonalarga aylangan.

Afsonada aytilishicha, Gilgamish dunyoga kelgandan keyin, mamlakat hukmdori bo'lmish bobosi nevarasi undan taxtni tortib olishidan vahimaga tushib tashvishlangani sababli, Gilgamishni jarga tashlab yuborishga farmoyish beradi. Jarga uloqtirilgan Gilgamishni uchib ketayotgan burgut tutib olib, ko'tarib ketadi va uni bir bog'bonga eltib beradi. Bog'bon Gilgamishni mehr bilan parvarishlab tarbiyalaydi. Balog'atga yetgan Gilgamish bobosidan hokimiyatni tortib oladi va o'zi Uruk shahrini boshqarishga kirishadi. Gilgamish Enkidu degan pahlavon bilan do'st tutinadi. Ikkalasi bir bo'lib yovuz maxluqotlarga qarshi kurashadilar, buning uchun xudolar Enkiduni jazolaydilar va u o'ladi. Boqiy hayotga erishish uchun Gilgamish dengiz tubida o'sadigan sehrlil gilyohni izlab topadi, uni o'z xalqi bilan baham ko'rishga qaror qiladi. Ammo iziga qaytayotganida bir ko'lga cho'milgani tushadi, bu paytda, gulning isini ilon sezib qoladi va mehri gilyohni o'g'irlab ketadi. O'shandan beri, afsonada aytilishicha, ilonlar har yili po'stini tashlab yasharishar emish. Gilgamish esa jonajon shahri devorlari uni himoya etishini, ezgu ishlari uni umrboqiy qilishini tushunib yetadi.

Akkadning yuksalishi

Shahar-davlatlar bir-birlari bilan tinimsiz urushar edi. Ana shu urushlar natijasida *Sargon I* butun Mesopotamiya podshosi bo'ladi. **Mil. avv. 3-mingyillikning ikkinchi yarmida** u Akkadni va Shumer shaharlarini



Urdagi katta zikkurat (ibodatxona)

Eslab qoling!

Mesopotamiya rivoyatlarining eng sevimli qahramoni **Gilgamish** hisoblanadi. U Uruk shahrining podshosi va ko'plab afsonalar qahramoni bo'lgan.



Gulni olib qochayotgan ilon. Gilgamish haqidagi afsonaga ishlangan rasm



Sargon I – Shumer - Akkad shohi

Eslab qoling!

Shoh **Sargon I** mil.avv. 3-mingyillikning ikkinchi yarimida o'z hukmronligi ostida Akkadni va Shumer shaharlarini birlashtirdi, qo'shni mamlakatlarni zabt etib, «to'rt iqlim mamlakati podshosi» unvonini oldi.

o'z hokimiyati ostida birlashtiradi. Savdo-sotiqni rivojlantirish maqsadida Sargon I barcha shaharlar uchun yagona bo'lgan uzunlik, maydon va og'irlik o'lchovini joriy etadi. U jahon tarixida birinchi bo'lib muntazam qo'shin tuzadi. Bu lashkar 5400 nafar jangchidan iborat bo'lgan, keyinchalik esa ular Sargon I ga ko'plab shaharlar va qo'shni mamlakatlarni zabt etishga imkoniyat yaratgan katta qo'shinlarning asosiy kuchiga aylangan. Sargon I Mesopotamiyadan Arabiston, Eron va Hindistonga boradigan dengiz savdo yo'llarini egallab oldi. O'z hukmronligining so'ngida Sargon I «to'rt iqlim mamlakati podshosi» unvonini oldi. Yagona davlat uzoq yashamadi. Sargon I vafotidan keyin bir-biri bilan kurashni davom ettirgan ko'plab shahar-davlatlarga bo'linib ketdi. **Mil. avv. 2-mingyillikda** Shumer-Akkad davlati ko'chmanchi qabilalar zarbasidan parchalangan.

Tayanch konspekt

- Mesopotamiya → Ikki daryo oralig'i (Dajla va Frot daryolari oralig'i)
- mil. avv. 4-mingyillik → shumerlar – janub; akkadlar – shimol
- dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq
- shaharlar – Uruk, Umma, Lagash, Ur
- zikkuratlar – ibodatxonalar
- xudolar – Shamash, Sina, Ea, Ishtar
- Gilgamish – Uruk shohi
- Sargon I – Shumer-Akkad shohi
- mil. avv. 2-mingyillik – Shumer-Akkad davlatining qulashi

Savol va topshiriqlar

1. Xaritadan Ikki daryo oralig'ida joylashgan shahar-davlatlarni toping.
2. Tarixiy atamalar lug'atidan foydalanib, «sivilizatsiya» tushunchasiga izoh bering.
3. Ikki daryo oralig'i qadimda qanday atalgan?
4. Mesopotamiyaning qaysi qismlari shumerlar va akkadlar tomonidan o'zlashtirilgan edi? Qachon?

13-§. Babil podsholigi

Babil – «xudolar darvozasi»

Miloddan avvalgi II-mingyillikda *Babil podsholigi* Mesopotamiya janubidagi eng yirik qudratli davlatga aylandi. Babil qulay geografik o'ringa ega bo'lib, Frot va Dajla daryolarning o'zanlari bir-biriga yaqinlashib ketadigan hududda joylashgandi. Kemalarda turli mahsulotlar bilan suzib kelgan savdogarlar bu shaharga qo'nib o'tishar edi. «Babil» so'zining o'zi esa «*xudolar darvozasi*» degan ma'noni anglatadi. Babil shahrida ajoyib saroylar, muhtasham ibodatxonalar bo'lgan. Babilning bosh ko'chasi g'alaba ilohasi *Ishtar darvozasidan* boshlangan. Babil davlatida dehqonchilik, hunarmandchilik, ishlab chiqarish va savdosotiq rivojlangan. Ammo o'zaro urushlar bunga xalaqit berardi.

Miloddan avvalgi XVIII asrda (mil. avv. 1792–1750-yillar) Babil podshosi *Xammurapi* butun Mesopotamiyani yagona davlatga birlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Xammurapi hukmronligi davrida Babil eng qudratli davlatga aylanadi.

Xammurapi qonunlari

Xammurapi tarixda qonunlar tuzuvchi hukmdor sifatida nom qoldirgan. Xammurapi qonunlari hajmi jihatidan, hayotning har xil tomonlarini qamrab olishi bilan ilgari mavjud bo'lgan barcha qonunlardan ustunlik qiladi. Xammurapi qonunlari hamma uchun – badavlat va qashshoq kishilar uchun birdek bo'lgan. Qonunlarning matnlari mamlakatning barcha shaharlarida o'rnatilgan tosh ustunlarga yozib qo'yilardi.

Xammurapi qonunlari qat'iyligi bilan kishini lol qoldiradi. Xususan, shifokor amalga oshirgan jarrohlik muolajasi natijasida bemor bevaqt vafot etsa, shifokorning qo'llari kesib tashlanishi shart bo'lgan. Mabodo binokor qurgan uy to'satdan qulab, biror kishini




Babil



**Iloha Ishtar nomidagi
darvozaning
naqshlari**



Xammurapi



**Jangchilar qal'aga
hujum qilmoqdalar**

bosib qolsa, binokor qatl etilishi lozim bo'lgan. Qarzni vaqtida qaytarmagan kishi o'z oila a'zolarini qarz bergan kishiga uch yil muddatga qullikka berilishi shart bo'lgan. Mabodo ayblanuvchi jabrlanuvchining ko'zlariga jarohat yetkazgan bo'lsa, o'zi ham shunday jazolanishi, ko'zlariga jarohat yetkazilishi shart bo'lgan. Yong'in mahalida o'g'rilik ustida qo'lga tushgan kimsa o'sha zahoti olovga otilgan. Qulfbuzar o'g'ri esa bundan ham qattiqroq jazoga mahkum etilgan: u o'zganing mulkiga tajovuz qilgan joyida o'ldirilgan va o'sha yerning o'zida ko'mib yuborilgan.

Xammurapi qonunlari nomigagina podshoning qarori bo'lmasdan, xudolar xohishirodasi sifatida talqin etilgan, shuning uchun ham ularni so'zsiz, og'ishmasdan bajarish talab qilinardi. Qat'iyligi va ayovsizligiga qaramay, Xammurapi qonunlari jamiyat rivojiga katta imkoniyat yaratib berdi, negaki talon-taroj, o'g'rilik va davlat mulkini o'marish kabi jinoyatlar deyarli sodir etilmasdi.

O'zingizni sinang!

Bobilning ma'nosi – ... Xammurapi – ...



**Jangdagi
kamonchilar**

Xammurapi deyarli o'ttiz yil davomida qo'shni mamlakatlarni o'ziga bo'ysundirish uchun tinimsiz urushlar olib boradi. Xammurapi vafotidan keyin tog'lik *kassitlar* qabilasi shaharni bosib oladi. Kassitlar bosqini Bobilning inqiroziga sabab bo'ladi, uzoq davom etgan inqirozdan so'ng, miloddan avvalgi VII asrda *Yangi Bobil* podsholigi vujudga kelishi bilan, Bobil qayta yuksaladi.

Yangi Babil podsholigi

Navuxodonosor II hukmronligi davrida Yangi Babil podsholigi o'z ravnaqining cho'qqisiga erishadi. Bu hukmdor Misrni *Yangi Babil* podsholigiga qo'shib oladi, *Iyerusalim* (Quddus)ni vayron qilib tashlaydi, Babilni esa mustahkam qal'aga aylantiradi. Navuxodonosor II turar joy binolari va mudofaa devorlari qurilishida pishgan g'isht ishlatish to'g'risida farmon beradi. U hukmronlik qilgan davrda Babil shahrining sakkizta darvozasi bo'lgan, ulardan har biri mamlakat bosh xudolaridan birining nomi bilan atalgan. Ayniqsa, iloha Ishtar nomidagi darvoza chiroyli va nafis bo'lib, afsonaviy hayvonlar tasviri tushirilgan niliy naqshinkor toshtaxtalar bilan bezatilgan.

Qadimgi forslar lashkari **mil. avv. 539-yilda** Bobilga bostirib kiradi. Forslar shaharni zabt etadilar. Shu paytdan boshlab Yangi Babil podsholigi Fors davlati tarkibiga kiradi. Forslarni Bobildan Makedoniyalik Aleksandr haydab chiqardi. Uning vafotidan so'ng Bobil Salavkiylar davlati tarkibiga kirdi.

Babil madaniyati

Shumer va Akkad Babil madaniyatining eng qadimiy o'choqlari edi. Jahondagi eng qadimiy yozuvlardan biri bo'lmish Shumer mixxati dastavval «suv», «quyosh» va boshqa alohida so'zlarni anglatgan rasmlardan iborat bo'lgan.

Hukmdorlar saroylari va ibodatxonalarda zodagonlar va badavlat odamlar oilalarining farzandlari ta'lim oladigan maktablar tashkil qilingan edi. O'quvchilar nam *loy taxtachalarga* suyak va yog'ochdan yasalgan tayoqchalar bilan yozganlar. Loy taxtachalar avval oftobda quritilgan, so'ngra xumdondlarda pishirilgan. Bu taxtachalar ilk kitoblar bo'lib, o'quvchilar asotirlar va afsonalarni ko'chirib yozishgan, o'simliklar, qushlar, hayvonlar va qurt-qurmusqalar nomlari qayd etilgan ro'yxatlar tuzishgan. Loy taxtachalarda mamlakatlar, shaharlar va qishloqlar nomlari ham sanab o'tilgan.



Navuxodonosor II

Eslab qoling!

Mil. avv. 539-yilda forslar Bobilni bosib oldilar. Yangi Babil podsholigi Fors davlati tarkibiga kirdi.



Shumer mixxati



Qadimiy yozuvning vujudga kelishi



Bobil minorasi

Eslab qoling!

Qadimiy yozuvlar-dan biri – shumer mixxati – **mil. avv. 4-mingyil-likda** vujudga kelgan. Shumerliklar o'zlarining sanoq tizimi, quyosh va oy taqvimlarini yaratdilar.

Shumerlar sanoq tizimi, quyosh va oy taqvimlarini ham yaratdilar. Quyosh yili davomiyligi shumerliklar tomonidan 365 kun, oy yili esa 354 kun etib belgilangan. Shumerlik va bobillik koinlar – munajjimlar astronomiyaga oid bilimlarga ega bo'lishgan. Eng qadimgi rasadxonalar baland, ko'pzinali ibodatxonalar – *zikkuratlar* yuqorisidagi maydonchada barpo etilgan.

Mil. avv. 3- mingyillikdayoq Mesopotamiyada turli-tuman dori-darmonlarni tayyorlash bo'yicha dasturilamal tuzilgan.

Geografiya sohasidagi bilimlar shumerliklar va bobilliklarga kemalarda dengiz bo'ylab suzishga imkoniyat yaratib bergan.

Olam yaratilishi haqidagi eng qadimiy asotirlardan biri Mesopotamiyada yaratilgan.

Tayanch konspekt

- mil. avv. 2- mingyillik – Bobil podsholigi
- Bobil – «xudolar darvozasi»
- mil. avv. XVIII asr → Xammurapi – yagona podsholik
- Xammurapi qonunlari
- Navuxodonosor II hukmronligi – ravnaq topishi
- mil. avv. 539-yil – Bobilning forslar tomonidan zabt etilishi
- mixxat, taqvim
- olamning yaratilishi haqidagi afsona

Savol va topshiriqlar

1. Xaritadan Bobil podsholigi va uning poytaxtini toping.
2. Nima uchun Bobil shahrini «xudolar darvozasi» deb atashgan?
3. Qaysi hukmdor davrida va qachon Bobil yagona davlatga aylandi?
4. Xammurapi qonunlari qaysi maqsadda yaratilgan edi? Bu qonunlar kimlarga mo'ljallangan edi?
5. Sizningcha, nima sababdan Xammurapi qonunlari bu qadar qat'iy bo'lgan?
6. Navuxodonosor II hukmronligi davrida Yangi Bobil podsholigida qanday o'zgarishlar ro'y berdi?
7. Bobil madaniyati haqida nimalarni bilasiz?

14-§. Old Osiyo davlatlari va ularning qo'shnilari

Miloddan avvalgi 2-mingyillikda Old Osiyo hududida yashagan xalqlarni birlashtirgan ilk davlatlar vujudga kela boshladi: *Ossuriya, Xett, Mitanni*, kabi davlatlar va *Finikiya shahar-davlatlari* shular jumlasidandir. Bu davlatlar doimiy bosqinchilik va mudofaa urushlarida kun kechirishgan.

Ossuriya podsholigi

Qadim zamonlarda ossuriyaliklar Dajla daryosi yuqori oqimidagi kichik hududni egallashgan. Avval *Oshshur* shahri, keyin esa *Nineviya* shahri poytaxt bo'lgan. Aholisining asosiy mashg'uloti dehqonchilik va savdosotiq edi. Ossuriyaliklar davlati **miloddan avvalgi XX asr** atroflarida vujudga kelgan.

Ossuriyaliklar jangari xalq bo'lgan. Ular qo'shni yerlarga tez-tez hujum qilib turardilar. Ossuriyaliklarning qudratli lashkari har yili yangi yerlarni zabt etishga otlana edi. Bo'ysundirilgan xalqlar Ossuriya hukmdoriga katta miqdorda o'lpon to'lagan. **Mil. avv. XIII asrda** podsho *Salmanasar* hukmronligi davrida Ossuriya podsholigi o'z ravnaqining yuqori cho'qqisiga erishadi. **Mil. avv. VIII–VII asrlarda** Ossuriya podsholigi qayta yuksalgan davrda *Bobil, Bibl, Tir, Sidon* va Falastinning bir qismi ham bosib olingan.



Ossuriya podsholigi



Ossuriyalik kamonchi



Sher bilan jang.
Nineviya saroyi devorida o'yib ishlangan tasvir



Ossuriyaliklarning shaharni bosib olishi tasviri



**Ossuriya poytaxti
Nineviya shahri.**
Tiklangan



**Oshshurbanapalning
mixxat yozuvidagi
kutubxonasi**

Eslab qoling!

Ossuriya davlati **mil. avv. XX asrda** vujudga keldi; **mil. avv. XIII asrda** ravnaqining yuqori cho'qqisiga erishdi; **mil. avv. 605-yilda** tarix sahnasidan ketdi.

Shaharni bosib olgan ossuriyaliklar qal'a devorlarini, uylar va ibodatxonalarni buzib tashlab, aholini asirlikka haydab ketganlar.

Hukmdorlarning haddan tashqari shafqatsizligi sababli Ossuriya poytaxti Nineviyani «qonga botgan shahar» yoki «sherlar darasi» deya ta'riflashgan. Yurishlarda raqiblardan tortib olingan hamma narsa poytaxtga oqib kelar edi. Ulug'vor saroylar va ibodatxonalar boylikka to'lib ketib, *Oshshurbanapal* hukmronligi yillarida Nineviyada Old Osiyodagi eng yirik sopol taxtachalardan iborat kutubxona jamlangan edi.

Asta-sekin Ossuriya davlati zaiflashib bordi. Mil. avv. 627-yilda dastlab Babil, so'ngra *Midiya* Ossuriyadan ajralib chiqdi. Babil va Midiya birlashib, bir hamla bilan Oshshur va Nineviyani **mil. avv. 612-yilda** zabt etishdi. **Mil. avv. 605-yilda** Ossuriya qo'shinlari Babil va Midiya tomonidan qirib tashlangandan keyin bu davlat ham zavolga yuzlandi.

Xett va Mitanni podsholigi Taxminan **miloddan avvalgi XVIII asrda** Kichik Osiyo markazida (hozirgi Turkiya hududida) *xettlar* degan shimollik xalq o'z davlatiga asos soladi.

Xattusa shahri ana shu davlatning poytaxti bo'lgan. Aholining asosiy mashg'uloti dehqonchilik va chorvachilik edi.

Xettlar qo'shni mamlakatlar bilan doimiy urushlar olib borishgan. Jangovar aravalar va temir uchli nayzalardan foydalanishgan. Xettlar Suriyaning anchagina shaharlarini bosib olib, Babilni talon-taroj qilganlar.

Hozirgi Suriya hududida vujudga kelgan qo'shni *Mitanni podsholigi* xettlarning xavfli raqibiga aylandi. Urushlarda mitanniliklar otliq qo'shindan foydalanishgan. Bu xettlar poytaxti Xattusani bosib olish chog'ida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Shunday bo'lsada, miloddan avvalgi XIV asr boshlarida Xett podsholigi tag'in kuchaya boshladi. Xettlar O'rtayer dengizi bo'ylari hududlarini qaytarib oldilar va Mitanni

podsholigini zabt etdilar. Faqat Ossuriya tahdidi xavf-xatari ostida xetlar Misr hukmdori bilan sulh tuzishga majbur bo'ladilar. Ossuriyaliklar Bobilni bosib oladilar, ammo xetlar ularning tazyiqini to'xtatishga muassar bo'ladilar.

Miloddan avvalgi XIII asr oxirida tarixda nomlari noma'lum xalqlar (ularni «*dengiz xalqlari*» deb atashgan) xetlar poytaxtini bosib olib, shaharni butunlay vayronaga aylantirdi. Davlat nuradi, xetlar esa boshqa xalqlarga singishib ketdi.

Urartu podsholigi

Urartu davlati Kavkazortida, *Van*, *Urmiya* va *Sevan* ko'llari oralig'ida joylashgan. Aholisini *urartlar* deyishgan. Yagona davlat tashkil topishi Ossuriya hujumlaridan mudofaa qilish zaruratini tezlashtiradi. Ossuriyaliklarni tor-mor etish imkoniyati bo'lmagan Urartu qo'shinlari to'g'ridan-to'g'ri janglarga kirmaslikka amal qilardilar.

Miloddan avvalgi IX–VIII asr boshlarida *Sardur I* va *Menua* hukmronligi davrida Urartu davlati gullab-yashnadi. *Tushpa* shahri Urartu davlati poytaxtiga aylanadi. Urartlar bir necha bosqinchilik yurishlariga chiqadilar va ossuriyaliklar ustidan g'alaba qozonadilar. Ammo **miloddan avvalgi 714-yilda** ossuriyaliklar qo'shinlari urartlar qo'shinlarini tor-mor etib tashladi.

Bir qancha Urartu hukmdorlari davrida jamlangan ulkan xazina g'oliblar qo'liga o'tdi. *Teyshebaini* shahridagi qal'a ishg'ol etildi va vayron qilib tashlandi. Shundan keyin Urartu podsholigi ancha zaiflashib qoldi, uni ko'chmanchi *skif* qabilalari va Midiya podsholigi o'ziga tobe qildi. **Mil. avv. 590-yilda** Urartu podsholigi ham tarix sahnasidan ketdi.

Finikiya va Falastin

Qadim zamonlarda *Finikiya* O'rtayer dengizining sharqiy qirg'og'i bo'ylab hozirgi Livan hududida va Suriyaning bir qismida joylashgan. Finikiyaliklar dehqonchilik bilan shug'ullanganlar, bog'lar va uzumzorlarni



Xetlar jang oldidan

Eslab qoling!

Xett podsholigi hozirgi Turkiya, Mitanni davlati esa hozirgi Suriya hududida joylashgan.



Teyshebaini shahridagi qal'a



Finikiyaliklar



Solomon (Sulaymon)
– Isroil – Yahudiy
podsholigining
hukmdori



**Yahudiya
podsholarining qasri
Tiklangan**

parvarishlaganlar. Finikiya ninabargli daraxt – kedri o'rmonlarga boy bo'lgan. Kedr yog'ochidan kemalar yasalgan. Kedr qatroni (smolasi) mumiyo tayyorlash uchun Misrga keltirilardi.

Savdo-sotiq finikiyaliklarning asosiy mashg'ulotlaridan biri bo'lgan. Finikiyaliklar qo'shnilariga yog'och, metallar va gazlamalar sotardilar. O'rtayer dengizi sohilida *Tir*, *Sidon*, *Ugarit* singari yirik dengiz bo'yi shaharlari vujudga keladi.

Finikiyaliklar dengizchilik ishini a'lo darajada bilishgan. Mil. avv. 2-mingyillikdayoq ular *Kipr oroli* va Kichik Osiyo sohillarida koloniyalarga asos soldilar. Shundan keyin finikiyaliklar Shimoliy Afrika, Ispaniya sohillarida, *Sardiniya* va *Sitsiliya* orollarida ham paydo bo'lishdi.

Mil. avv. X–IX asrlarda Finikiyada *Tir-Sidon* podsholigi vujudga keldi. Mil. avv. VIII asrda bu davlatni Ossuriya podsholigi bosib oldi.

Mil. avv. X asrda Finikiyada 22 undosh harfdan iborat bo'lgan alifbo yaratildi. Yunonlar ana shu alifboni o'zlashtirib oldilar va ularga unli harflarni ham qo'shib qo'yidilar.

Mil. avv. 2-mingyillik o'rtalarida Falastinga qadimgi yahudiy qabilalari ko'chib joylashdilar. Mil. avv. XI asrda Falastin hududida *Isroil* podsholigi vujudga keldi, keyinchalik u *Yahudiy* podsholigi bilan birlashdi. Vaqt o'tishi bilan Isroil-Yahudiy podsholigi alohida Isroil (Shimoliy Falastin) va Yahudiy (Janubiy Falastin) podsholiklariga parchalanib ketdi.

Isroil podsholigini ossuriyaliklar zabt etadilar. **Mil. avv. 586-yilda** Yahudiya Babil podsholigi tomonidan bosib olindi.

Qadimiy yahudiylarning afsonalari diniy kitoblarga yozib borilgan. Bu kitoblar to'plami «*Bibliya*»ga jamlangan, bu so'z yunonchada «kitob» degan ma'noni anglatadi. «*Bibliya*»da Olam, Yer yuzidagi ilk odamlar – Odam ato va Momo havoning yaratilishi, Yer yuzini To'fon bosishi haqida va boshqa rivoyatlar mavjud.

O'zingizni sinang!

Ninevlya – .. **Sardur – ...**
Oshshurbanapal – ... **Urartu – ...**
Xettlar – ... **Tushpa – ...**

Tayanch konspekt

- mil. avv. 2-mingyillik – ilk davlatlar: Ossuriya, Xett, Mitanni
- Ossuriya podsholigi – poytaxti Oshshur → Nineviya
- Oshshurbanapal – mixxat yozuvidagi kutubxona
- mil. avv. 612–605- yillar – Ossuriya Babil va Midiya tomonidan bosib olindi
- mil. avv. XVIII asr – Xett podsholigi, poytaxti Xattusa
- mil. avv. XIII asr – «dengiz xalqlari» tomonidan Xattusani vayron qilinishi, davlatning parchalanishi
- Urartu davlati, poytaxti – Tushpa
- mil. avv. IX–VIII asr boshlari – Urartu davlatining gullagan davri
- Finikiya – Tir, Sidon, Ugarit shaharlari
- mil. avv. XI asr – Isroil davlatining vujudga kelishi

Savol va topshiriqlar

1. Mil. avv. 2-mingyillikda Old Osiyoda mavjud bo'lgan davlatlarni xaritadan toping va nomlarini sanab bering.
2. Old Osiyo hududida ilk davlatlar qachon vujudga kela boshladi?
3. Ossuriya podsholigi haqida nimalarni bilasiz?
4. Ossuriya hukmdori Oshshurbanapal tarixda nimasi bilan nom qoldirgan?
5. Xett podsholigi qay tariqa tashkil topdi? Xett podsholari hukmronligining o'ziga xosligi nimada?
6. Xett podsholigi qanday zavol topdi?
7. Urartu davlati ravnaq topishi va zavolga yuz tutishi sabablari nimada?


15-§. Ahamoniylar davlati

Qadimgi Eron aholisi

Mil. avv. VI asrda hozirgi Eron hududida *Ahamoniylar* sulolasiga mansub shohlar asos solgan *Fors podsholigi* vujudga keldi. Ahamoniylar davlati jahondagi eng yirik davlatlardan biri bo'lgan.



Gadimiy qo'lyozma



Yahudiy xalqini bobilliklar asirlikka olib ketmoqda

Eslab qoling!

Mil. avv. VI asrda hozirgi Eron hududi (Fors bo'g'ozi qirg'oqlari) da Ahamoniylar sulolasiga mansub shohlar asos solgan **Fors podsholigi** vujudga kelgan.

Eslab qoling!

Mil. avv. 3-mingyillikda Eronning janubi-g'arbiy qismida Mesopotamiya bilan chegarada **Elam** davlati vujudga keldi. Bu davlatning poytaxti **Suza** shahri bo'lgan.



Forslar jangda

Eslab qoling!

Mil. avv. VII asrda podsho **Kiaksar** hukmronligi davrida Midiya qudratli davlatga aylandi. Mil. avv. 612–605-yillarda Midiya davlati Bobil bilan ittifoq bo'lib Ossuriyani bosib oldi.

Hozirgi Eron hududida qadim zamonlarda *kassiyalar*, *elamiylar* singari turli qabilalar yashab kelgan. Mil. avv. IX asrda bu mamlakatga *midiyaliklar* va *forslar* ko'chib o'rtnashadi.

Eron o'zida katta yassitog'likni mujassam etgan mamlakatdir. Uning hududi deyarli hamma tomonidan o'rmon bilan qoplangan tog'lar bilan qurshalgan. Tog'oldi vodiylarda aholi dehqonchilik bilan shug'ullangan, dasht mintaqalarida chorvadorlar kun kechirgan.

Eron Kichik Osiyo, Mesopotamiya, Kavkazorti, O'rta Osiyo va Hindiston mamlakatlarini bog'lab turgan karvon yo'llari chorrahasida joylashgan.



Qadimgi Fors davlati

Qadimgi davlatlar

Mil. avv. 3-mingyillikda Eronning janubi-g'arbiy qismida Mesopotamiya bilan chegarada *Elam davlati* vujudga keldi. Bu davlatning poytaxti *Suza* shahri bo'lgan. Elamda jahondagi eng qadimiy yozuvlardan biri yaratilgan.

Mil. avv. IX asrda Kaspiy dengizidan janubi-g'arbda joylashgan *Midiyada* qabilalar ittifoqlari vujudga keldi. Mil. avv. VII asrda podsho *Kiaksar* hukmronligi davrida Midiya qudratli davlatga aylandi. Mil. avv. 612–605-yillarda Midiya davlati Bobil bilan ittifoq bo'lib Ossuriyani bosib oladi.

Kir II – Fors hukmdori

joylashgan.

Mil. avv. 558-yilda Ahamoniylar sulolasidan bo'lmish podsho *Kir II* barcha forslarni o'z hokimiyati ostida birlashtirdi. Midiya podsholigini bo'ysundirganidan so'ng Kir II ulkan lashkar tuzdi va bosqinchilik yurishlarini davom ettirdi. Armaniston, Midiya va Babil zabt etildi (mil. avv. 539-yil). Forslar O'rtayer dengizi sohiliga chiqdilar, Falastin va Finikiyani bo'ysundiradilar. Kir II ning O'rta Osiyoga, *massagetlar* ustiga yurishi muvaffaqiyatsiz tugadi. Kir II ning istilochilik siyosatini vorislari *Kambiz II* va *Doro I* ham davom ettirdilar. Kambiz II Misrni zabt etish orqali Fors davlati hududini nihoyatda kengaytirdi.

Doro I ning islohotlari


Miloddan avvalgi 522-yilda shoh Doro I (mil. avv. 522– 486-yillarda hukmdor) Qadimgi Fors davlati taxtiga chiqdi. Bu paytda bosib olingan barcha mamlakatlarda qo'zg'olonlar alanganib ketdi. Ahamoniylar shohi Doro I ularni bostirishga kirishdi.

Doro I Qora dengiz bo'ylarida yashovchi *skiflar* ustiga yurish qildi. Doro I ning Kichik Osiyodagi yunonlar koloniyalari va Bolkon yarimoroligi sharqida joylashgan *Frakiyani* bosib olishi yunon-fors urushlari boshlanib ketishiga sabab bo'ldi. Doro I hukmronligi davrida Hindiston shimolidan O'rtayer dengiziga qadar yastangan ulkan davlat barpo etildi.

Doro I butun mamlakat uchun «doroyi» deb nomlangan yagona oltin tangani muomalaga kiritdi. U qadimgi Fors podsholigi qarorgohi Persepol shahridan O'rtayer dengiziga qadar «shoh yo'li» degan savdo yo'lini qurdigan edi. Doro I qo'shnlarni qaytadan tuzdi, saltanatni «satrapliklar» deb nomlangan alohida harbiy-ma'muriy o'lkalarga taqsimladi.



Kir II



Doro I taxtda



Oltin tanga



Doro I soqchilari



Asirlikka olingan
qo'zg'olon boshliqlarining
Doro I huzuriga olib
kelinishi.
Behistun qoyasi

Eslab qoling!

Makedoniyalik Aleksandr mil. avv. 330-yilda Fors davlatini bosib oldi. Ahamoniylar davlati ikki yuz yildan ziyod hukmronlik qilgan.

Qadimgi forslar *Suza, Ekbatana* va boshqa shahar-madaniyati

lar Ahamoniylar davlatidagi muhim savdo markazlari bo'lgan. *Persepol* shahrida Doro I va Kserksning turli xonalar va yuz ustunli zali bo'lgan saroyining qoldiqlari saqlanib qolgan. Saroy afsonaviy va xayoliy qushlar tasviri bilan bezatilgan edi. *Persepol* saroyi devorlaridagi bo'rtma naqshlarida Ahamoniylar bo'ysundirgan ko'pgina elatlarning tasvirlari saqlanib qolgan. Ular asosan Fors shohlariga o'lpon keltirayotgan holatda tasvirlangan.

Qadimgi forslar mixxat belgi yozuvdan foydalanishgan. Fors shohlarining bitiklari *Behistun* va *Naqshi Rostam* qoyalariga, shuningdek, *Persepol* saroyi devorlariga o'yib yozilgan. Ular yurishlar, qo'zg'olonlar va davlat hayotidagi muhim voqealar haqida ma'lumot beradi.

Makedoniyalik Aleksandr mil. avv. 330-yilda Fors davlatini bosib oldi. Ahamoniylar davlati ikki yuz yildan ziyod hukmronlik qilgan.

Tayanch konspekt

- kassiyalar, elamiylar, midiyaliklar, forslar
- Elam, Midiya davlatlari
- mil. avv. 558-yil – Kir II – Fors davlatining hukmdori
- Kir II – Armaniston, Babil va Midiyaga bosqinchilik yurishlari
- mil. avv. 530-yil – Kir II ning O'rta Osiyodagi halokati
- mil. avv. 522-yil – Doro I saltanatning satrapliklarga bo'linishi
- mil. avv. 330-yil – Ahamoniylar saltanatining Makedoniyalik Aleksandr tomonidan zabt etilishi
- Ahamoniylar davlati 200 yildan ko'proq hukmronlik qilgan

Savol va topshiriqlar

1. Fors podsholigi qachon tashkil topgan?
2. Qaysi sulola hukmdorlari Fors podsholigiga asos solgan?
3. Elam davlati qachon vujudga kelgan?
4. Kir II qaysi davlatlarni bosib oldi?
5. Doro I o'z davlatida qanday islohotlar o'tkazdi?

16-§. Hindiston sivilizatsiyasi

Hududi va tabiiy sharoiti

Hindiston mamlakati shu nomdagi yarimorol hamda Osiyo qit'asining *Hind* va *Gang* daryolari vodiylaridagi bir qismini egallagan. Tabiiy sharoiti jihatidan bu diyor Misr va Mesopotamiyaga o'xshab ketadi. Issiq iqlim va suv bilan birga serunum loyqani oqizib kelayotgan keng yoyilib oqadigan daryolar dehqonchilik vujudga kelishi va rivoj topishi uchun imkoniyat yaratdi. Himolay tog'lari shimoli-sharqdan dushmanlar va sovuq shamollar tajovuzidan o'ziga xos tabiiy mudofaa devori bo'lib xizmat qilgan.

Gang vodiysidagi tropik o'rmonlar ulkan daraxtlar va rang-barang o'simliklarga boy bo'lgan. Daraxtlarning poyalariga o'ziga xos to'rlarni vujudga keltiruvchi bahaybat chirmovuqlar chirmashib o'sib yotardi. Jungli changalzorlarida faqat bolta yordamidaгина yo'l bosish mumkin bo'lgan. **Miloddan avvalgi 3- mingyillikda** Hind daryosi vodiysida katta shaharlar vujudga kela boshladi.



Hind daryosi vodiysi

Eslab qoling!


Hindiston mamlakati shu nomdagi yarimorol hamda Osiyo qit'asining *Hind* va *Gang* daryolari vodiylaridagi bir qismini egallagan.



Qadimgi Hindiston



Jangovor fil



Moxenjodarodagi ko'cha

Eslab qoling!

Moxenjodaro va **Xarappa** shaharlari Hind daryosi havzasining eng yirik shaharlari edi. Ikkala shahar ham mustahkam mudofaa devorlari bilan himoyalangan, ichki qasri bo'lgan.



Bu kabi sherlar tasviri bilan ibodatxona ustunlari bezatilgan

Hindiston sivilizatsiyasi

Moxenjodaro va Xarappa shaharlari Hind daryosi havzasining eng yirik shaharlari edi. Ikkala shahar ham mustahkam mudofaa devorlari bilan himoyalangan, ichki qasri bo'lgan. Ko'chalar bilan biri-biridan ajratilgan mavzelerdan pishiq va xom g'ishtdan qurilgan binolar (turar joylar, omborxonalar, saroy va ibodatxonalar) topilgan. Katta va chiroyli shahar – Moxenjodaro aholisi mohir hunarmandlar bo'lgan.

Aholisining asosiy mashg'uloti dehqonchilik va chorvachilik bo'lgan. Ular shakarqamish, paxta o'simliklarini yetishtirganlar, fillarni qo'lga o'rgatganlar. Biroq miloddan avvalgi XVIII asrdan keyin Hind daryosi vodiysi manzilgohlari tez-tez ro'y beruvchi toshqinlar, o'rmonlar va changalzorlar kengayishi natijasida zavolga yuz tutadi.

Miloddan avvalgi 1500-yillarda Hindiston hududiga istilochilar bostirib kiradi. Tarixchilarning yozishi-cha, bosqinchi *oriylar* – Sharqiy Yevropa va Uralda yashagan ko'chmanchi qabilalar hujumidan keyin Moxenjodaro va Xarappa butunlay vayronaga aylanadi, bu shaharlar qaytib tiklanmadi.

O'zingizni sinang!

Hindiston – ... Moxenjodaro – ...
Oriylar – ...

Diniy e'tiqodlar

Qadimgi hindlar xuddi misrliklar va bobilliklar singari tabiatning ko'pdan ko'p hodisalari qarshisida ojiz edilar: tropik jalalar, suv toshqinlari qurg'oqchilikdan qo'rqardilar. Hindlar tasavvurida tabiatni xudolar boshqarayotgandek tuyulardi. Qadimgi hind rivoyatlarida aytilishi-cha, Quyosh xudosi har tongda oltin aravada osmon bo'ylab yo'lga tushadi. Quyosh tungi zulmatni parokanda qilib tashlab, odamlarga harorat va yorug'lik

ulashish niyatida ufqdan bosh ko'taradi. Momaqal-diroq xudosi *Indra* osmondagi suvni tutqinlikdan xalos etgach, Yer yuzida qurg'oqchilik poyoniga yetibdi.

Hindlar ayrim xudolarni yovvoyi hayvonlar timsolida tasavvur etishgan. Masalan, ular sig'ingan xudolardan biri, boshi filnikiga o'xshagan donishmandlik xudosi *Ganesha* bo'lgan. Sigir hindlar orasida alohida ehtiromga sazovordir. Sigir muqaddas hayvon hisoblanib, sigirni o'ldirgan kimsa jinoyatchi deb e'lon qilingan: bunday kishi jamiyatdan haydab yuborilar, hech kim u bilan muloqot qilishga haqli bo'lmagan.

Hindlar jon bir tanadan boshqasiga ko'chib o'tishiga e'tiqod qilishgan. Ular vafot etganidan keyin odam butunlay o'lmaydi, balki boshqa bir mavjudotga aylanib, o'z tashqi qiyofasini o'zgartiradi, hayvonga, qumursqaga va o'simlikka aylanadi, deb hisoblashgan. Inson vafot etganidan keyin kimga va nimaga aylanib qolishi esa uning bu hayotdagi sa'y-harakatlari va amallariga bog'liq, deb o'ylashgan.

Qadimgi hindlar qanday yumushlar bilan shug'ullanishiga qarab to'rt guruhga ajratilgan edi. Bu tabaqalar *kasta* yoki *varna* deb atalgan, jumladan: koinlar – *braxmanlar* (hind ruhoniylari), jangchilar – *kshatriylar*, dehqon, hunarmand va savdogarlar – *vayshilar*, xizmatkorlar va qullar – *shudralar*.


Hindlarning e'tiqodicha, tabaqalardan har birini oliy xudo *Braxma* o'z jismining qaysidir bir qismidan dunyoga keltirgan ekan. Masalan, koinlar uning og'zidan chiqqan, jangchilar qo'llaridan, dehqonlar qovurg'asidan, xizmatkorlar esa Braxmaning tovonidan yaratilgan, deb hisoblangan. Bolalar hamisha ota-onalari tabaqasiga mansub deb topilgan. Bir tabaqadan boshqasiga o'tishning ham iloji bo'lmagan. Turli kastalarga mansub odamlar o'rtasida nikohga ham yo'l qo'yilmagan.



Ganesha – donishmandlik xudosi



Sigir Hindistonda muqaddas hisoblanadi



Hind tabaqalari



Xudo Braxma



Indra – momaqaldiroq xudosi

Tabaqalardan birortasiga ham mansub bo'lmaganlar esa alohida maqomga ega bo'lishgan. Bundaylarni «*chandal*», ya'ni «*hazar qilinadiganlar*» deyishgan. «Chandallar» kastalarga mansub odamlar bilan birga bir uyda yashay olmasdi, ular bilan bir dasturxonaga o'tirish taqiqlangan. Uzoqdan ko'rinib, ajralib turishlari, kimdir tasodifan ularga tegib ketmasligi uchun «chandallar» maxsus libos kiyib yurishlari va qishloqlardan tashqarida yashashga majbur bo'lganlar.

O'zingizni sinang!

Hind va Gang – ... Tabaqalar – ...

Chandallar – ...

Tayanch konspekt

- Hindiston yarimoroli (Hind va Gang daryolari)
- mil. avv. 3-mingyillik – Moxenjodaro va Xarappa shaharlarining vujudga kelishi
- mil. avv. 1500-yillar – ko'chmanchi – oriylarning bostirib kirishi
- xudolar – Indra, Ganesha, Braxma
- kasta (varna)lar:
 - kohinlar – braxmanlar
 - jangchilar – kshatriylar
 - dehqon, hunarmand va savdogarlar – vayshilar
 - xizmatkorlar va qullar – shudralar
- «chandallar»

Savol va topshiriqlar

1. Xaritadan Hindistonni toping. Hindiston geografik o'rningi xususiyatlari haqida so'zlab bering.
2. Hindiston jamiyati qaysi tabaqalarga bo'lingan?
3. Aholini tabaqalarga ajratish kimlarga foydali edi?
4. Sizningcha, nima uchun bir tabaqadan boshqasiga o'tishga ijozat berilmagan?
5. Misrliklar va hindlar diniy e'tiqodlarining o'xshashligi va farqi nimada?

17-§. Miloddan avvalgi I mingyillikda Hindiston

Dehqonchilik, hunarmandchilik **Hindiston davlatlari** va savdo-sotiq rivoj topishi bilan Hindistonda harbiy aslzodalardan va ruhoniylar ancha kuchayadi. Qullar va boshqa mehnat qilayotgan kishilarni itoatda saqlab turish uchun qo'shinlari, amaldorlari, sudyalari va soliq yig'uvchilari bo'lgan kuchli davlat zarur edi. Harbiy sardorlar va oqsoqollar orasidan ajralib chiqqan yo'l boshchilar hokimiyatni vorislik yo'li bilan farzandiga qoldiruvchi podsholarga aylandilar. Shu taxlit **miloddan avvalgi VII–VI asrlarda** Hindistonda bir necha davlatlar vujudga keladi, jumladan: *Magadha, Koshala, Malla* va boshqalar.

Makedoniyalik Aleksandr O'rta Osiyoni zabt etganidan so'ng **miloddan avvalgi 327-yilda Panjob** o'lkasi hududiga bostirib kiradi. Mazkur o'lkada joylashgan davlatlarning hukmdorlari bosqinchilarga qattiq qarshilik ko'rsatadilar. Makedoniyalik Aleksandr katta qiyinchiliklar bilan Hind vodiysigacha yetib borib, miloddan avvalgi 325-yilda Bobilga qaytib ketadi. **Mil. avv. 318-yilda** yunon-makedon qo'shinlari Hindistondan butunlay quvib yuboriladi.

Yunon-makedon qo'shinlariga qarshi kurashga mashhur hind sarkardasi *Chandragupta* sardorlik qiladi. Yunon-makedonlar qo'shinlari quvib yuborilgandan keyin Chandragupta Shimoliy Hindistondagi barcha davlatlarni o'z tarkibiga olgan *Maurya davlati*ga asos so'ldi. *Pataliputra* shahri esa Maurya davlati poytaxtiga aylandi. **Mil. avv. III asrda** podsho *Ashoka* hukmronligi davrida Maurya rivojlanishda yuksak pog'onalariga erishdi. Ammo podsho Ashoka vafot etganidan so'ng o'zaro urushlar avj oldi, Hindiston yana mayda-mayda davlatlarga parchalanib ketdi. Sal o'tmasdan ularning ko'pchiligini *Kushon podsholigi* bosib oldi.



Sarkarda Chandragupta.
Zamonaviy rasm

Eslab qoling!

Yunon-makedon qo'shinlari quvib yuborilgandan so'ng Chandragupta Shimoliy Hindistondagi barcha davlatlarni o'z tarkibiga olgan, poytaxti **Pataliputra** bo'lgan **Maurya** davlatiga asos soldi.



Maurya davlati
podshosi – Ashoka



Hindlar ixtiro qilgan shaxmatlar



Sanskrit yozuvi



Siddhartha Gautama

Fan va madaniyat Miloddan avvalgi 1-mingyillikda Hindiston ilm-fan, xususan, astronomiya va matematika sohasida yuksak darajaga erishadi. Hindlar yil hisobini 360 kundan tarkib topgan taqvimini tuzadilar. Bu davrda sanash va hisoblashning o'nlik tizimi keng tarqaladi: hindlar «nol»ni ifodalovchi maxsus belgini o'ylab topishadi, raqamlarni esa bugungi kunda butun dunyo qo'llaydigan bir tartibda yozadigan bo'ladilar. Biz bu raqamlarni arab raqamlari deb ataymiz, negaki hindlardan qabul qilingan bu raqamlar arablar orasida keng tarqalgan.

Hindistonda ixtiro qilingan, hindlarning o'zi «*qo'shinlarning to'rt turi*» deb ataydigan o'yin bugungi kunda butun jahonda «shaxmat» nomi bilan ma'lum va mashhurdir.

Hindlar birinchi bo'lib shakarqamishdan shakar olgan edi. Metallarga ishlov berish sohasida ham hindlar kishini lol qoldirgulik natijalarga erishdilar. Hozirgi kunga qadar *Dehli* shahridagi toza temirdan quyilgan qadimiy ustun hali ham zanglamasdan shu holatda saqlanib qolgan.

Qadimiy hind tillari asosida yangi adabiy til bo'lmish *sanskrit* ishlab chiqildi. «*Mahabharata*», «*Ramayana*» dostonlari hamda boshqa asarlar ana shu tilda yozilgan bo'lib, ular bugungi kunga qadar yetib kelgan.

O'zingizni sinang!

Pataliputra – ... **Sanskrit** – ...
«*Qo'shinlarning to'rt turi*» – ...

«Xudolarsiz din» Jamiyatdagi o'zgarishlar ta'sirida hindlarning diniy e'tiqodlari ham o'zgarib borgan. Mil. avv. VI asrda yangi *bud-daviylik* dinining yaratilishi *Budda* taxallusini olgan shahzoda *Siddhartha Gautama* nomi bilan bog'liq.

Rivoyatda naql qilinishicha, shahzoda Siddhartha Gautama 20 yoshga to'lguniga qadar hukmdor otasi saroyida betashvish kun kechirgan. U kunlardan bir kuni sayr qilib yurar ekan munkillagan cholga o'xshash, bedavo dardga yo'liqqan navqiron bir kishiga, keyin esa dafn marosimiga ko'zi tushadi. Bu to'qnashuvlar shahzoda Siddhartha Gautama hayotini tamomila o'zgartirib yubordi. U saroydagi farog'atli turmushdan voz kechdi, hayot mazmunini izlab topish maqsadida dunyo bo'ylab sayohatga otlandi.

Bir kuni ma'rifatga erishgan Buddha inson son-sanoqsiz marotaba tug'ilishi va vafot etishini tushunib yetadi. Keyingi hayotda odamning kim bo'lib tug'ilishi ham uning sa'y-harakatlari va amallariga bog'liq bo'ladi. Buddha va uning izdoshlari bo'lgan buddaviylar inson yolg'on so'zlamasligi, mol-davlat to'plamasligi, tirik mavjudotlar qonini to'kmasligi lozim deb hisoblaydilar. Inson har qanday xohish-istaklaridan voz kechishi zarur, negaki har qanday xohish-istak azob-uqubatga olib keladi. Buddaviylar Yer yuzida o'rmlab borayotgan qurt-qumursqalarni tasodifan bosib olib, ozor yetkazmaslik uchun hatto qishda ham oyoqyalang yurishgan.

Avvaliga buddaviylarda xudo bo'lmagan, chunki ular xudolar inson azob-uqubatlarni yengillashtira olmaydi, deb hisoblashgan. Ammo ko'p o'tmay Buddaning o'zi xudoga aylanadi. Bugun ham buddaviylik ibodatxonalarida uning haykallarini ko'rish mumkin. Buddha nilufar gulida teran o'ylarga cho'mgancha qilt etmay, yuz ifodasi bilan qovoqlarini tushirgancha chordona qurib o'tirgan holatda tasvirlanadi.

Yangi din oldingilaridan inson mavqei tabaqalarga ham, jamiyatdagi maqomiga ham bog'liq emasligi bilan farqlanadi. Buddaviylar fikricha, hamma narsa insonning o'ziga bog'liq: uning mukammallikka intilishi, ortiqcha narsalardan voz kechishi ma'naviy yuksalish zaminidir.

Eslab qoling!

Budda diniga **Budda** nomini olgan shahzoda **Siddhartha Gautama** asos solgan.




Budda

Eslab qoling!

Avvaliga buddaviylarda xudo bo'lmagan. Chunki ular xudolar inson azob-uqubatlarni yengillashtira olmaydi, deb hisoblaganlar.



Xuanxe daryosi



**Shahar soqchilari
minorasining nusxasi.
Mil. avv. I asr**

O'zingizni sinang!

***Buddaviylik – ... Chandragupta – ...
Budda – ...***

Tayanch konspekt

- mil. avv. VII–VI asrlar – Magadha, Koshala, Mailla davlatlari
- mil. avv. 327-yil – Makedoniyalik Aleksandrning Hindistonga yurishlari
- Chandragupta – poytaxti Pataliputra bo'lgan Maurya davlatining asoschisi
- mil. avv. III asr – Ashoka hukmronligi – Hindistonning gullab-yashnashi davri
- ixtirolar: raqamlar, «nol» raqami, shaxmat
- «Mahabharata, «Ramayana» – xalq dostonlari
- buddaviylik – «xudolarsiz din»

Savol va topshiriqlar

1. Mil. avv. VII–VI asrlarda Hindistonda qaysi davlatlar vujudga keldi?
2. Buyuk jahongirlardan qaysi biriga Hindiston davlatini o'ziga bo'ysundirish nasib etmadi? Nima uchun?
3. Maurya davlati asoschisi kim?
4. Qaysi hukmdor davrida Maurya davlati rivojlanishda yuksak pog'onalarga erishdi?
5. Hindlarning eng ahamiyatli kashfiyot va ixtirolarini aytib bering.
6. Hindlar qaysi dini «xudolarsiz din» deyishgan?


18-§. Xitoyning qadimgi sivilizatsiyalari

Xitoyda sivilizatsiya kurtaklari Misr, Mesopotamiya va Hindistondagi kabi Xitoyda ham ilk sivilizatsiyalar *Xuanxe* va *Yantszi* degan katta daryolar bo'ylarida **miloddan avvalgi 3–2- mingyilliklarda** kurtak yoya boshladi. Qadimgi Xitoy davlati Xuanxe daryosining o'rta oqimida vujudga keladi (xitoycha «Xuanxe» – «*Sariq daryo*» ma'nosini anglatadi).

Xitoyliklar «beqaror daryo», «minglab ofatlar daryosi» deb ham ta'riflagan Xuanxe o'zanini tez-tez o'zgartirib turardi. O'rtacha har ikki-uch yilda bir marotaba kuchli va sertalofot suv toshqinlari bo'lib o'tardi. Odamlar bu toshqinlardan tepalik joylarda jon saqlab qolishardi.



Xitoy amaldori




Eslab qoling!

Xitoyda ilk sivilizatsiyalar **Xuanxe va Yantszi** daryolari bo'ylarida mil. avv. 3-2- mingyilliklarda vujudga kelgan.

Qadimgi Xitoy

Miloddan avvalgi 3- mingyillikda Xitoyda qabilalar ittifoqlari paydo bo'la boshladi. Mil. avv. 2-mingyillik o'rtalarida ittifoq-shaharlar yagona davlatga birlashdi, bu davlat nomi ham uning bosh shahri nomi kabi «Shan» deb atalgan. Mil. avv. 2- mingyillik oxirida Shanga qo'shni *chjou* qabilasi bostirib kiradi, uning hukmdori Shan yerlarini o'zinikiga qo'shib oldi va «Chjou» degan katta davlatni bunyod etadi.



Sholi dalasi



Boy amaldorning turar joyi



Chjou davlati hukmdori

Davlat ulkanligi bois hukmdorlar uni «Zafaryon» yoki «O'rta podsholik» deb, o'zlarini esa «Osmon o'g'illari» deb atashgan. Butun Markaziy Xitoy ana shu davlat tarkibiga kirgan.

Xitoy aholisi mashg'ulotlari

Dehqonchilik Xitoyda azaldan e'tiborli va faxrli kasb hisoblab kelingan. Asosiy dehqonchilik ekinlari javdar va bug'doy bo'lgan. Keyinchalik xitoyliklar sholi yetishtira boshladilar, sholi urug'i Hindistondan keltirilgan. Sholi yetishtirish mashaqqatli ish hisoblangan. Urug' sochilishi oldidan dala ho'kiz qo'shilgan omoch bilan shudgor qilinadi. Shudgordan keyin tishlari kaltakalta og'ir mola bilan dala tekislanadi. Sholi urug'i oldindan namlab qo'yilgani tufayli tez ko'kara boshlaydi. Ko'kargan urug' ko'chati yerga o'tqaziladi. Ekiladigan dala ko'llatib sug'oriladi, ko'chat bo'yi 20–25 santimetr bo'lganida dalalarga o'tqaziladi. Taxminan 100 kundan keyin sholi pishib yetiladi, hosilni yig'ishtirib olgandan keyin yog'ochdan yasalgan zanjirlar bilan yanchiladi.

Xitoy aholisi keyinchalik «choy» daraxtini ham yetishtira boshlashdi, uning barglaridan shifobaxsh ichimlik bo'lmish «choy» tayyorlanadi. Choy tez orada butun jahonga tarqaldi.

Tut daraxtni yetishtirish Xitoy aholisining asosiy mashg'ulotlaridan biri bo'lgan. Tut bargi bilan ipak qurti boqiladi. Ipak qurtlari pillalarga tolalarni o'raydi, pilladan esa nihoyatda yengil va nafis mato bo'lmish ipak tayyorlanadi.

O'zingizni sinang!

Xuanxe va Yantszi – ...

Shan – ...

Chjou – ...

Xitoy «ko'p podsholiklar» davrida

Miloddan avvalgi VIII–VII asrlarda Chjou davlatida markaziy hokimiyat zaiflasha boshladi. Ayrim viloyatlar noyiblari podsho hokimiyatidan ozod bo'lishga intilar edilar. Xitoyga ko'chmanchi qabilalar hujum qila boshlaganidan foydalangan chekka viloyatlar aholisi ajralib chiqib, o'z davlatini tashkil eta boshladi. Shu taxlit, **miloddan avvalgi VII–V asrlardagi** davr tarixda «ko'p podsholiklar» davri nomini olgan. Xitoyda ayni mahalda «kurashayotgan podsholiklar» davri ham boshlanadi. «Zafaryor» – imperiyaning oliy hukmdorlari bilan ajralib chiqqan davlatlar hukmdorlari o'rtasida boshlangan urushlar 200 yildan uzoqroq davom etdi. Bu davr Sin davlati hukmdori o'zining barcha raqiblarini yo'q qilib tashlab, **miloddan avvalgi III asrda** yagona davlat tuzishi bilan yakunlandi.

Tayanch konspekt

- mil. avv. 3–2-mingyilliklar – Xitoyda sivilizatsiyaning vujudga kelishi
- Xuanxe – «beqaror daryo», «minglab ofatlar daryosi»
- mil. avv. 2-mingyillik – Shan, Chjou davlatlari
- dehqonchilik – sholi – choy – ipakchilik
- mil. avv. VII–V asrlar – «ko'p podsholiklar davri»
- mil. avv. III asr – Sin davlatining paydo bo'lishi

Savol va topshiriqlar

1. Qaysi daryolar vodiysida Xitoyning ilk sivilizatsiyalari vujudga kela boshladi?
2. Nima uchun Xuanxeni «beqaror daryo» deb atashgan?
3. Xitoyda birinchi davlat qachon tashkil topdi? U qanday atalgan?
4. Xitoyning qaysi qadimgi davlati «Zafaryor» degan nom olgan edi?
5. Qadimgi Xitoy aholisining asosiy mashg'ulotlarini sanab bering.
6. Xitoy tarixidagi «ko'p podsholiklar» va «kurashayotgan podsholiklar» davrlarining nomlari ma'nosini tushuntirib bering.



Qog'oz ishlab chiqarish



Suyakka bitilgan xitoy yozuvi

19-§. Miloddan avvalgi III–milodiy II asrlarda Xitoy



Sin Shixuandi – markazlashgan Xitoy hukmdori



Buyuk Xitoy devori

Eslab qoling!

Xitoyda Sin Shixuandi davrida ko'chmanchi xunnlarning hujumlaridan himoyalash uchun Buyuk devorni bunyod etish boshlangan.

Markazlashgan davlatning tashkil topishi

Xitoyni yagona davlatga birlashtirish jarayoniga Xitoy davlatlaridan biri – *Sin davlati* hukmdori boshchilik qiladi. Sin davlati hukmdori raqiblarini tor-mor etib, Xitoyni o'z hokimiyati ostida birlashtirdi. Shundan keyin u *Sin Shixuandi* (miloddan avvalgi 246–210-yillar) nomini qabul qilgan, bu nom «*Sinning birinchi hukmdori*» degan ma'noni bildiradi. O'z davlati hududini 36 viloyatga taqsimlagan hukmdor har biriga noiblarini rahbar etib tayinladi.

Aslida qattiqqo'l bo'lgan Sin Shixuandi o'z raqiblarini shafqatsizlarcha qirib tashladi. Uning hukmronligi davrida Xitoy gullab-yashnadi: dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlandi.

Sin Shixuandi hali ko'zi tirikligidayoq o'ziga atab maqbara qurishga farmon bergandi. Hashamati va bezaklari jihatidan bu maqbara Misr piramidalari bilan bellasha oladi. Maqbarani 720 ming odam 37 yil mobaynida bunyod etgan. Maqbaraning tubi bir necha kvadrat kilometr maydonni egallagan. Sin Shixuandi qabridan hukmdorni «qo'riqlash» uchun o'rnatilgan 6 mingta sopol askarlar haykallari topilgan.

Buyuk Xitoy devori

Sin Shixuandi hukmronligi davrida Xitoyda ko'chmanchi xunnlarning ah-yon-ahyondagi hujumlaridan himoyalash uchun *Buyuk devorni* bunyod etish boshlab yuborildi. Devorning balandligi 12 metr, kengligi 5 metr, uzunligi esa qariyb 4000 kilometrni tashkil etadi. U qadim zamonlarda dushman qo'shinlari uchun jiddiy to'siq bo'lib xizmat qilgan: otliq qo'shinlar undan oshib o'ta olmas, qal'alarni hujum bilan zabt etishni esa ko'chmanchilar hali uddalay olishmasdi.

Podsho va amaldorlar yuz minglab dehqonlarni devor qurilishida tekin ishlab berishga majbur

qiladilar. Buyuk devorni belkuraklar, cho'kichlar va zambilg'altaklar yordamida barpo etadilar. O'sha vaqtlar dehqon oilasida o'g'il bola tug'ilishi musibat o'rnida ko'rilgan: voyaga yetganidan keyin uni baribir devor qurilishiga jo'natardilar, u yoqdan tirik qaytib kelish esa hammaga ham nasib etavermasdi.

Minglab qullar va asirlar devor qurilishidagi had-dan tashqari og'ir mehnatdan halok bo'lishdi. O'lib qolganlarni shu yerning o'zida ko'tarmalarga ko'mib yuborishardi.

Xitoyda xalq qo'zg'olonlari

Mil. avv. 206-yilda Sin sulolasiga qarshi dehqonlar qo'zg'oloni alan-galanib ketdi. Unga *Lyu Ban* degan kishi boshchilik qilgan edi. Qo'zg'olonchilar poytaxtni egallab oladilar. Imperiya vayronalarida *Xan* sulolasi boshchiligida yangi davlat barpo etildi. Bu sulola dav-lati *U-Di* hukmronligi davrida (mil. avv. 140–87-yillar) eng qudratli davlatga aylanib, mil. 220-yilga qadar mavjud bo'lgan.

Sharqning boshqa davlatlaridagi kabi Xitoyda ham mavjud yerlar hukmdorni hisoblangan, aholi soliqlar to'lab, turli mehnat majburiyatlarini baja-rishgan. Zo'r mehnat evaziga yetishtirilgan hosil ko'pincha dehqonning o'ziga nasib etavermasdi. Ho-sil yig'ishtirilganidan keyin amaldorlar va qorovullar kelar edi. Bordi-yu, dehqon soliqlarni vaqtida to'lay olmasa yoki qarzni qaytarib bera olmasa, qarzlari evaziga o'z bolalaridan birini berib yuborar edi. Tush-gan pulga esa u oilaning qolgan a'zolarini yangi hosil yig'imigacha boqib turish imkoniga ega bo'lardi.

Og'ir ahvoldan qutilish maqsadida keyinchalik dehqonlar qo'zg'olonlariga aylanib ketuvchi uyushmagan g'alayonlar vujudga keldi. Ulardan biri «*qizilqoshli-lar*» qo'zg'oloni nomini olgandi, chunki qo'zg'olon ko'targanlar o'z odamlarini chalkashtirib qo'ymaslik uchun qoshlarini qizil rangga bo'yab olgan edilar.



Xan sulolasining hukmdori – U-Di



Askarlarning sopol haykallari. Sin Shixuandi maqbarasi



Xitoydagi xalq qo'zg'oloni



Seismograf



Xitoy chinnisi



Xitoyda ixtiro qilingan kompas



Bambuk taxtachalardagi yozuvlar

«Sariq ro'mollikar» qo'zg'oloni II asrdagi eng yirik isyon bo'ldi. Bu qo'zg'olonga yaxshi tayyorgarlik ko'rilgan, qo'zg'olon ko'targanlar orasida harbiy san'at bilimdonlari ham bo'lgan. Qo'zg'olon butun mamlakatni qamrab oldi. Faqat hukmdorning yaxshi qurollangan va harbiy ta'lim ko'rgan qo'shinlarigina uni bostirishning uddasidan chiqishdi. Biroq xalq qo'zg'olonlari mamlakatning boshqa viloyatlarida davom etaverdi. Xunlar hujumlari zo'rayishi bilan davlat ham kuchsizlanib qoldi, **milodiy III asrda** Xitoy imperiyasi uchta podsholikka parchalanib ketdi.

Qadimgi Xitoy madaniyati

Qadimgi Xitoyda butun boshli so'zlarni ifodalagan iyeroglif yozuvi mavjud bo'lgan. Avvaliga xitoyliklar bambukka yozishgan. Xitoyliklar bambukni uzun-uzun taxtachalarga bo'laklab, uchi o'tkirlangan yog'och tayoqcha bilan ularga iyerogliflarni daraxt sharbatidan tayyorlangan siyoh bilan yozishardi. In-gichka va uzun taxtachalarga faqat ustun tariqasida yozish imkoni bo'lgan, shuning uchun yuqoridan pastga qarab yozish shakli keyinchalik ham saqlanib qoldi. Bambuk taxtachalarining yuqori qismida teshik parmalanib, ularni bir dasta qilib bog'lashgan. Bambuk taxtachalari bog'lami kitob o'rnida xizmat qilgan.

Bundan 2,5 ming yil muqaddam bambuk o'rnida shoyidan foydalanishga o'tildi. Shoyi matolariga mo'yqalam bilan yozilgan. Endi kitob uzun shoyi parchasiga o'xshab, uni tayoqchaga o'rashgan. **Milodan avvalgi I asrda** qog'oz ixtiro qilindi.

Xitoyliklarning eng ajoyib ixtirolaridan biri *kom-pas* bo'lgan. U magnitlangan temirdan yasalgan uzun dastali katta qoshiqni eslatar edi. Bu moslamani kataklarga ajratilgan zarhallangan yog'ochga o'rnatishgan, uning dastasi esa hamma vaqt janubni ko'rsatgan. Xitoyliklar kompasdan quruqlik va dengizda foydalanishgan.

Xitoyda zilzilani oldindan aniqlab beruvchi *seismograf* ham ixtiro qilingan. Xitoy olimlari tarix, astronomiya va tibbiyotga oid ko'plab asarlar yaratishgan.

O'zingizni sinang!

**Sin Shixuandi – ... Buyuk Xitoy devori – ...
Iyeroglif – ...**

Tayanch konspekt

- Sin Shixuandi – Sin davlatining hukmdori
- Buyuk Xitoy devorining qurilishi
- xalq qo'zg'olonlari:
 - mil. avv. 206-yil – Lyu Ban
 - «qizilqoshlilar» qo'zg'oloni
 - milodiy II asr – «sariq ro'molliklar» qo'zg'oloni
- ixtirolar: iyerogliflar, qog'oz, kompas, seismograf

Savol va topshiriqlar

1. Xitoyni yagona davlatga birlashtirgan hukmdor nomini ayting. Bu voqea qachon bo'lgan?
2. Hukmdor Sin Shixuandi haqida so'zlang, uning shaxsiyatiga baho bering.
3. Buyuk Xitoy devori haqida nimalarni bilasiz?
4. Xitoyda qanday xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tdi? Ularning sabablarini ayting.
5. Xitoyliklarning ixtirolarini sanab bering. Qaysilaridan hozir ham foydalanamiz?

20-§. O'zbekiston hududidagi ilk davlatlar

Qadimgi aholining etnik tarkibi va hududiy joylashuvi

Yozma manbalarning guvohlik berishicha, **miloddan avvalgi VII–VI asrlarda** O'zbekiston hududida *so'g'diylar, baqtriya-liklar, xorazmlilar, sak va massaget* elatlari yashaganlar. Zarafshon va Qashqadaryo vohasida dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi ko'plab aholi istiqomat qilgan. Yozma manbalarda bu hudud *So'g'da* («Avesto»da), *So'g'uda* (Behistun yozuvlarida), Arrian, Strabon, Kvint Kursiy Ruf asarlarida *So'g'diyona*

Eslab qoling!

Xitoyliklar bundan ikki ming besh yuz yil muqaddam shoyidan yozuv maqsadlarida foydalana boshladilar.



Qadimgi Xitoy tarixchisi Sim Syan

Eslab qoling!

So'g'd – Zarafshon va Qashqadaryo vohasida, **Xorazm** – Amudaryoning quyi qismida, **Baqtriya** – Surxondaryo vohasi, shimoliy Afg'oniston va janubiy Tojikiston hududlarida joylashgan.



O'rta Osiyo elatlari
Mill. avv. VI asr



O'rta Osiyo va Qadimgi Sharq

deb nomlangan. Bu hududda yashaydigan aholi so'g'diylar deb atalgan.

Amudaryoning quyi oqimida yashagan o'troq dehqon elatlari *xorazmliklar* bo'lgan. Ularning yurti *Xvarizam* («Avesto»da), *Xvarazmish* (Behistun yozuvlarida), *Xorasmiya* (Arrian, Strabon asarlarida) deyilgan.

So'g'diylarning eng yaqin qo'shnilari *baqtriyaliklar* bo'lib, ularning yurti Surxon vohasi, Afg'onistonning shimoliy, Tojikistonning janubiy hududlarida joylashganlar. Yozma manbalarda u *Baxdi* («Avesto»da), *Baqtrish* (Behistun yozuvlarida) deb nomlangan. Yunon-rim mualliflari uni *Baqtriana* yoki *Baqtriya* deb ataganlar.

Cho'llar va Amudaryo bo'ylarida ko'chmanchi *massaget* qabilalari yashaganlar. O'rta Osiyoning tog'lik, dasht va cho'l yerlarida asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lgan *saklar* istiqomat qilishgan. Miloddan avvalgi VI asrda ular o'z yerlarini boshqa qabilalar hujumidan himoya qilish uchun harbiy qabila ittifoqini tuzadilar.

Qadimgi yunon-rim tarixchilarining yozishlaricha, saklar uch guruhga bo'lingan. Ularning ko'pchilik qismi




Sak jangchisi.
Tiklangan

saka-tigraxauda, ya'ni o'tkir uchli kigiz qalpoq kiyib yuruvchi saklar deb atalgan. Ular hozirgi Toshkent viloyati va Janubiy Qozog'iston yerlarida yashaganlar.

Ikkinchi guruhi *saka-tiay-taradarayya*, ya'ni daryoning narigi tomonida yashovchi saklar deb atalgan. Ular Orol dengizi bo'ylarida, Sirdaryoning (bu daryoning qadimgi nomi Yaksart) quyi oqimida yashaganlar.

Pomirning tog'li tumanlarida va Farg'onada *saka-xaumovarka* deb ataluvchi saklar yashashgan.

O'zingizni sinang!




Mil. avv. VII-VI asrlarda iqtisodiyot rivoji

Bu davrlarda Xorazm, So'g'di-yona va Baqtriya aholisining asosiy mashg'uloti sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik bo'lgan. Jamiyat hayotida hunarmandchilik va savdoning ham o'rni katta bo'lgan. Manzilgohlardan yuqori sifatli kulolchilik idishlari, temir va bronza buyumlar topilgan.


Ko'chmanchi sak va massaget qabilalarining asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lib, ularning tuya, ot va qo'y-echkilardan iborat katta-katta podalari bo'lgan.

Ular hayvon terisidan poyabzal, kiyimlar, chodirlar tikib, g'alla va mevaga ayirboshlaganlar. O'rta Osiyo xalqlari Sharq mamlakatlari bilan yaqindan madaniy aloqada bo'lganlar. Shu tariqa O'rta Osiyoning o'troq va ko'chmanchi aholisi o'rtasida o'zaro savdo ayirboshlash bo'lgan.

Hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi natijasida miloddan avvalgi VII-VI asrlarda qadimgi shaharlar rivojlangan. Ular mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan bo'lib, hunarmandchilik ishlab chiqarishi va savdo markazlari edi.



Ko'chmanchi




**Kulolchilik
charxida sopol
idish yasash**



**Baqtriya uy-joy
qoldiqlari.**
Mil. avv. VI-V asrlar

**Mil. avv. VII–VI
asrlarda qadimgi
shahar madaniyati**

Qadimshunoslar *Afrosiyob* (Samarqand), *Yerqo'rg'on* va *Uzunqir* (Qashqadaryo vohasi), *Ko'zaliqir* (Xorazm), *Qiziltepa* (Surxondaryo vohasi) kabi qadimiy shaharlarni o'rganishgan. O'zbekistonning bunday qadimiy shaharlari qanday ko'rinishga ega bo'lgan?



**Qadimiy Baqtriya
uy-qo'rg'oni.
Surxondaryo vohasi.
Mil. avv. VII–IV asrlar**

Qadimgi shaharlarga xos umumiy belgi ularning mudofaa devorlari bilan o'ralganligidir. Shaharda hokim yashaydigan qal'a bo'lgan. Qal'ada xom g'ishtdan qurilgan katta saroy joylashgan. Shaharlarning bir guruhi savdo va hunarmandchilik markazlari bo'lsa, boshqalari esa alohida tuman va viloyatlar markazlari hisoblangan. Masalan, ilk Qiziltepa shahri mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralib, devor suv to'ldirilgan xandaq bilan ihotalangan. Devorning burjlari va o'q otish uchun maxsus shinaklari ham bo'lgan. Shahar ichkarisida turar joylar va hunarmandchilik ustaxonalari joylashgan.

**Miloddan avvalgi VII asrda
Qadimgi davlatlar** tashkil topgan Qadimgi Baqtriya davlati O'rta Osiyo hududidagi qadimgi davlatlardan biri sanaladi.

Marg'iyona va So'g'diyona Baqtriyaning siyosiy va madaniy ta'sirida bo'lgan. Shuning uchun u qadimda bir-biriga qarindosh bo'lgan elatlarning davlat birlashmasi deyilgan. Miloddan avvalgi VII–VI asrlarda Surxondaryo, Qashqadaryo, Zarafshon vohalari va O'zbekistonga chegaradosh viloyatlar Qadimgi Baqtriya davlati ta'sirida bo'lgan. Qiziltepa, Uzunqir, Yerqo'rg'on va Afrosiyob o'rnida Baqtriya va So'g'dning markaziy shaharlari joylashgan. Bu shaharlar O'zbekiston hududidagi eng qadimgilari bo'lib, ularning yoshi 2700 yildan kam emas.



**Qiziltepa sopol
idishlari**

Yana bir qadimiy davlat Xorazm hududida tashkil topgan. Bu davlat Xorazmdan tashqarida bo'lgan yerlarni ham birlashtirgan. Qadimgi Xorazm markazlaridan biri Ko'zaliqir shahri bo'lgan. U qalin va mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Uning dehqonchilik bilan shug'ullangan aholisi turli xil uy-qo'rg'onlarda va qishloqlarda yashagan. Qadimgi Xorazmda hunarmandchilik, binokorlik va savdo-sotiq yuksak darajada rivojlangan.

Mahalliy kulolchilik, qurolsozlik, zargarlik buyumlarining dovrug'i o'zga yurtlarga ham tarqalgan edi. Shaharlarda savdo-sotiq rivojlangan. Xorazmliklar mohir quruvchi va hunarmand bo'lganlar.

Shunday qilib, miloddan avvalgi IX–VIII asrlarda O'zbekiston hududida ilk temir asriga o'tish boshlangan. Miloddan avvalgi VII–VI asrlarda bu yerda qadimgi yirik davlatlar mavjud bo'lgan. Shaharlarda hunarmandchilik, savdo taraqqiy etgan. Qadimgi Sharq mamlakatlari bilan madaniy aloqalar o'rnatilgan. Qadimgi davrda O'zbekiston hududida davlatchilik taraqqiyoti mahalliy aholining yuqori darajada rivojlangan ziroatchiligiga asoslangan edi.

Tayanch konspekt

- mil. avv. VII–VI asrlar – so'g'dlar, baqtriyaliklar, xorazmiylar, saklar, massagetlar
- So'g'da → So'g'uda → So'g'diyona
- Xvarizam → Xvarazmish → Xorasmiya
- Baxdi → Baqtirish → Baqtriana (Baqtriya)
- Amudaryo – massagetlar, Sirdaryo – saklar
- mil.avv. VII asr – Qadimiy Baqtriya davlati
- Qiziltepa, Yerqo'rg'on, Uzunqir, Afrosiyob
- Xorazm – Ko'zaliqir

Savol va topshiriqlar

1. Miloddan avvalgi VII–VI asrlarda O'zbekiston hududida qaysi qabila va elatlar yashaganlar?
2. Miloddan avvalgi VII–VI asrlarda O'zbekiston hududida rivoj topgan hunarmandchilik turlarini sanab bering.

Eslab qoling!

Afrosiyob – hozirgi Samarqandning sharqiy chegarasi hududlarida mil. avv. VIII–VII asrlarda asos solingan qadimiy shahar. Bu yerda Samarqandning qadimiy qismi joylashgan. Qadimiy shahar qo'rg'onlari, turar joylarining xarobalari hozirgi kungacha qadar saqlanib qolgan.



Qadimgi shahar xarobalari

3. O'zbekistonning qadimgi davlatlari qaysilar?
4. O'zbekistonning ilk shaharlari qanday ko'rinishda bo'lgan?
5. O'zbekistonning ilk shaharlarini yozuvsiz xaritada belgilang.
6. Eng qadimgi shaharlar va davlatlar O'zbekistonning qaysi viloyatlarida tashkil topgan?



Zardusht.
Zamonaviy rasm

Zardushtiylikning vujudga kelishi tarixi

**Miloddan avvalgi 1-mingyil-
likda** O'rta Osiyoda *zardushtiy-
lik* deb atalgan din keng tarqa-
ladi. Bu din hali odamlar tabiatni

ilohiylashtirgan kezlarda kurtak yoza boshlagan edi. Zardushtiylik olov (Quyosh), tuproq, suv, oy, yulduzlarga sig'inishgan, ularni muqaddas hisoblashgan.

«Zardushtiylik» so'zi ham *Zardusht* (turli tillarda *Zaratushtra*, *Zoroastr*) ismidan kelib chiqqan. U mil. avv. 1- mingyillikning birinchi yarmida yashab o'tgan tarixiy shaxs.

Keyinroq Yunonistonda Zardushtning ismi «Zoroastr» shaklida jaranglaydi (yunoncha «astron» – «yulduz»), negaki Yunonistonda uni birinchi galda donishmand, yulduzshunos, munajjim sifatida bilishgan. Zardushtning ismidan kelib chiqqan holda uning ta'limoti ham *zardushtiylik* dini deb yuritila boshlangan.

Zardushtiylik paydo bo'lishi haqida shunday bir afsona bor. *Bir kuni erta tongda Zardusht suv olish uchun daryo bo'yiga boribdi. Zilol suvda u Ahuramazda elchilaridan birining siymosini ko'rib qolibdi, siymo nur bilan qaysi tomonga borishga yo'l ko'rsatibdi. Zardusht sehrli nur izidan ergashibdi, ko'p o'tmay oliy iloh Ahuramazda qarshisiga borib qolibdi. U esa Zardushtni xudo Ahuramazda va uning ezgu amallari haqidagi bilimlarni tarqatish uchun tanlaganini ma'lum qilibdi.*

Shu tarzda Zardusht 30 yoshida yangi diniy ta'limot payg'ambariga aylangan. «Payg'ambar» so'zining o'zi esa «ezgu amallar haqida xabar beruvchi» ma'nosini anglatadi.

Eslab qoling!

Zardusht – zar-
dushtiylik dinining
asoschisi.

«Avesto»ning ilk qismi mil. avv. IX–VIII asrlarda paydo bo'lgan. Zardusht va'zlari matnlarining hammasi miloddan avvalgi III asrda 21 ta kitobga jamlangan, bu kitoblar «Avesto» asosini tashkil etgan edi. «Avesto» matnlariga sharh esa «Zand» deb yuritiladi.

Zardushtiylikning tarqalishi

Zardushtiylik tarqala boshlagan paytlarda ibodatxonalar, odamlar duo matnlarini o'rganishi uchun maxsus kitoblar bo'lmagan. Diniy marosimlar ochiq osmon ostida, gulxan yonida yoki uydagi o'choq olovi atrofida o'tkazilgan.

Miloddan avvalgi 1-mingyillik boshlarida turli qabilalarni istilochilarga karshi kurashga birlashtirish zaruriyati tug'ildi. Shuning uchun ham Zardusht o'z da'vatlarida birlikka chorlagan.

Zardushtning so'nggi va'zlari din xizmatchilari – koinlar tomonidan yozib olingan. Zardushtiylik koinlari diniy matnlarni yod olib, dindorlarga o'qib berishgan. Zardushtning vafotidan keyin bir necha asrlar o'tgach, barcha diniy marosimlar, madhiyalar va duolar zardushtiyalar uchun muqaddas bo'lgan bir kitobga jamlandi. Bu kitobning nomi «Avesto» bo'lib, «qat'iy belgilangan qonun-qoidalar» degan ma'noni anglatadi.

Olimlarning izlanishlari tufayli bugungi kunda biz zardushtiyalarning muqaddas kitobi «Avesto» matnlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldik. Fransuz olimi A.Dyuperron ilk marotaba «Avesto»ning alohida qismlarini tarjima qilgan.


Zardushtiylik xudolari, ta'limoti va marosimlari Zardushtiylikning ehtiromga sazovor xudolari *Ahuramazda*, *Mitra* va *Anaxitadir*. Ahuramazda zardushtiyalarning ulug' va donishmand oliy xudosi hisoblanadi. Mitra – Quyosh va yorug'lik xudosi, dehqonlar va chorvadorlarning hosildorlik, farovonlik va mol-davlat homiysidir. Mitra Ahuramazda va odamlar o'rtasida



Ahuramazda

Eslab qoling!

Astrolog (munajjim) – yulduzlar joylashuviga qarab kelajakni bashorat qilish bilan shug'ullanadigan odam.



Zardushtiyalar ta'zim qiladigan quyosh chiqishi



Mitra – Quyosh xudosi



Zardushtiylik kohini

bosh vositachi bo'lgan. Mitra o'spirin jangchi qiyofasida tasvirlangan. O'tli chaqmoqlar yordamida u yovuzlik va o'lim xudosi bo'lmish *Ahriman* bilan jang qiladi. Zardushtilar yomg'irdan keyin hosil bo'ladigan kamal-aka Mitraning o'q uzayotgan yoyi deb sig'inganlar. Anaxita zardushtiylikda hosildorlik va suv ilohasi hisoblangan. Zardushtiylik dini ta'limoti insoniyatning Ezgulik va Yovuzlik haqidagi qarashlari takomiliga katta ta'sir ko'rsatdi.

O'zingizni sinang!

<i>Ahuramazda – ...</i>	<i>Ahriman – ...</i>
<i>Mitra – ...</i>	<i>Anaxita – ...</i>

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, butun Borliq va bizni qurshab turgan hamma narsa ikki ibtidodan, ya'ni Ezgulik va Yovuzlikdan tashkil topgan. Ezgulik va Yovuzlik o'rtasida doimiy kurash boradi. Masalan, yorug'lik zulmat bilan, hayot o'lim bilan, yaxshilik yomonlik bilan, haq-huquq esa adolatsizlik bilan kurashadi.

Zardushtiylik umrining tub ma'nosi ezgu amal, ezgu so'z va ezgu fikrdan iborat bo'lgan. Insonning asosiy burchi eng avvalo adolatli turmush tarzi hisoblangan. Yovuzlik bilan kurashda Ezgulikka yordam berish lozim: yolg'on so'zlamaslik, aldamaslik, va'daga vafo qilish, faqat ezgu ishlarni amalga oshirish.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, inson o'z yo'lini o'zi tanlaydi, kimning yonini olish, kimni himoya qilishni ham o'zi hal qiladi.

Olov, tuproq, suv va havoni zardushtiylik muqaddas hisoblashgan. Zardushtiylikda vafot etgan odamlarni dafn etish borasida alohida marosim yuzaga kelgan. Inson vafot etganida tuproqni bulg'amaslik



Xudo Ahuramazdaning saroy devoridagi tasviri.
Persepol

uchun marhumning jasadini yerga ko'mish ham, olovda kuydirish ham, suvga tashlab yuborish ham mumkin bo'lmagan. Shuning uchun ham murdani qushlar va hayvonlar yeb ketishi uchun maxsus moslama (qurilma)da qoldirishgan. Yomg'irlarda yuvilgan va oftob qoqlagan suyaklarni maxsus sopol tobutchalar – *ossuariylar* (suyakdonlar)da dafn etishgan.

Tayanch konspekt

- | | |
|--|---------------------------------------|
| Zardushtiylik
(mil. avv. 1- mingyillik) | → Zardusht – yangi din asoschisi |
| | → Zoroastr – «astrolog» |
| | → «Avesto» |
| | → qabilalar birlashishi zarurati |
| | → olovga sig'inish |
| | → Mitra, Ahuramazda, Ahriman, Anaxita |
| | → Zand – «Avesto»ga sharh |
| | → Ezgulik va Yovuzlik kurashi |
| | → dafn marosimlari |
| | → ossuariylar |

Savol va topshiriqlar

1. Zardushtiylikning ilk targ'ibotchisi kim?
2. O'rta Osiyo hududida zardushtiylik tarqalgan davrni ayting.
3. Zardushtiylik sig'inadigan oliy xudo nomini ayting.
4. Zardushtiylikning qaysi marosimlarini bilasiz?
5. Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»ning ahamiyati nimada?

Eslab qoling!

«Avesto»ning ilk qismi mil. avv. IX – VIII asrlarda paydo bo'lgan. Zardusht va'zlari matnlarining hammasi miloddan avvalgi III asrda 21 ta kitobga jamlangan, bu kitoblar «Avesto» asosini tashkil etgan.



Ossuariy

Eslab qoling!

Zardushtiylikning tub ma'nosi ezgu amal, ezgu so'z va ezgu fikrdan iborat bo'lishi lozim. Insonning asosiy burchi eng avvalo adolatli turmush tarzi hisoblangan.



BO'LIM III QADIMGI YUNONISTON

23-§. Antik tarixning boshlanishi




Qadimgi Yunonistonning qoyali qirg'oqlari

Hudud va mashg'ulotlar

Bolqon yarimoroli va O'rtayer dengizi orollaridgi qadimgi yunon davlatlarining umumiy nomi Qadimgi Yunoniston deb atalgan. Shimol tarafidan tashqari, Qadimgi Yunonistonni O'rtayer dengizi o'rab turadi.

Yunoniston hududining uchdan bir qismini tog'lar egallagan. Yunonistonning eng baland tog'i *Olimpdir*. Bu tog' mamlakatning shimoli-sharqiy qismida joylashgan.

Serunum dalalar faqat vodiylarda bo'lgan. Tog'lar o'to'lanlar va butalar bilan qoplangan. Yunonistonning shimolida va *Peloponnesda* yunonlar uchun nihoyatda qadri bo'lgan ninabargli o'rmonlar o'sgan.



Qadimgi Yunoniston

Butasimon daraxtlardan o'tin sifatida foydalanilgan. Ularning po'stlog'i, barglari echkilar va qo'ylarga yemish o'rnida berilgan.

Qadim zamonlarda Yunoniston tog'larida to'ng'iz, ayiq, bo'ri va arslon yashagan.

Yunonlar qadim zamonlardan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Dehqonchilik mehnat quroli esa omoch bo'lgan. Qo'y-echkilarni boqib ko'paytirishgan. Yunonlar turli qurol-aslahalardan foydalanishgan.

Sivilizatsiyaning vujudga kelishi

Miloddan avvalgi 2-mingyillikda ilk shahar-davlatlar vujudga kela boshladi, jumladan: *Knoss, Miken, Tirinf, Pilos*. Mil. avv. 2-mingyillikda Krit orolida sivilizatsiya vujudga keladi. Afsonaviy podsho Minos nomi bilan uni *Minoy sivilizatsiyasi* deb atashgan. Krit orolidagi Minoy sivilizatsiyasi kuchli zilzila va suv toshqiniga sabab bo'lgan vulqon otilishi oqibatida vayron bo'lgan. Ko'p o'tmay qayta tiklangan. **Mil. avv. 1450-yillarda** qit'adagi Yunoniston hududidan jangovar qabilalar bostirib kiradi, ularni *axeylar* deyishgan. Aynan axeylar Minoy sivilizatsiyasi barbod bo'lishini nihoyasiga yetkazdilar. **Mil. avv. 1200-yilda** *doriylar* janubiy Yunonistonga bostirib kiradilar va Miken davlatini yakson qilib, Sparta davlatiga asos soladilar.

Yunonlarning dengiz sayohatlari Egey dengizidagi ko'p sonli katta-kichik orollar, qulay dengiz qirg'oqlari va qo'ltig'lari yunonlar orasida dengizchilik rivoj topishiga imkon yaratib berdi. Biroq yunonlarda katta kemalar bo'lmagan, kichik eshkakli qayiqlarda esa sohildan yiroqqa suzib borish ancha xatarli bo'lgan. Bundan tashqari, yunonlarda hali kompas bo'lmagan, adashib qolishdan xavfsirab, ular ko'z ilg'aydigan qisqa masofalarga – oroldan orolga yoki sohil yaqinida suzishgan. Tajribali dengizchilar esa yelkanlardan foydalanib olis sayohatlar-



Yunonlar dengizda




Minoy sivilizatsiyasi imoratlarinig xarobalari



Miken shahri. Tiklangan



Yunon gopliti



Afina bandargohida

Eslab qoling!

Afina va Sparta davlatlari Qadimgi Yunonistonning eng yirik shahar-davlatlari bo'lgan.

ga – Misrga hamda O'rtayer va Qora dengiz sohillaridagi shaharlarga suzib borishgan. Yunonlar odamlar yashaydigan hududlarni *Oykumena* deb atashgan.

Tayanch konspekt

- Bolqon yarimoroli, Peloponnes yarimoroli
- mil. avv. 2-mingyillikda – Miken, Krit davlatlari
- mil. avv. 1450-yillar – axeylar – Minoi (Krit) sivilizatsiyasini vayronaga aylantirdilar
- mil. avv. 1200-yil – doriylar Miken davlatini vayronaga aylantirdilar

Savol va topshiriqlar

1. Xaritadan Qadimgi Yunoniston va Krit oroli hududlarini ko'rsating. Mamlakatning geografik o'rnini tavsiflang.
2. Qadimgi Yunonistonda ilk sivilizatsiya qayerda vujudga keldi? Nima uchun u zavolga yuz tutdi?
3. Qadimgi Yunoniston geografik o'rnining o'ziga xosligi nimada?
4. Qanday geografik shart-sharoitlar qadimgi yunonlarning xo'jalik mashg'ulotlariga ta'sir o'tkazdi?
5. Lug'atga qarang. Nega Qadimgi Yunoniston tarixiga «antik» sifati qo'shib aytiladi? Bu so'z qanday ma'noni anglatadi?

24–25-§§. Qadimgi Yunoniston ravnaqi

Miloddan avvalgi IX–VII asr Yunon shaharlari larda dehqonchilik va hunarmandchilik rivoj topishi bilan manzilgohlar va shaharlar soni ham ortib boradi. Yunon shaharlarining ko'pchiligi bir qancha manzilgohlar birlashishi yo'li bilan tashkil topadi. Bunday shaharlar va ularning tevaragida joylashgan qishloqlar shahar-davlatlarni vujudga keltiradi. Ulardan eng yiriklari *Afina* va *Sparta* davlatlari bo'lgan.

«*Polis*» deb atalgan barcha shahar-davlatlar o'z qo'shinlariga ega bo'lgan (yunoncha «polis» so'zi «shahar» ma'nosini anglatadi). Polislar bir-birlari bilan tez-tez urushib turganlar. Shu sababli yunonlar askarlarga ta'lim-tarbiya berish va durust qurollan-

tirishga intilar edi. Armiyaning asosini og'ir qurollangan askarlar – *goplitlar* tashkil etgan. Ular to'rtburchak shaklini yuzaga keltiruvchi bir-biriga zich joylashgan qatorlar bilan jang qilishgan. Bunday jangovar safga tizilish *falanga* deb atalgan. Mabodo oldinda borayotgan goplit o'ldirilsa, uning ortida turgan jangchi halok bo'lgan askar o'rnini egallagan. Askarlar xanjarlar va nayzalar bilan qurollanganlar, ularni dushman hamlasidan bronza va teridan yasalgan ko'krak sovuti va teri qoplangan yog'ochdan yasalgan qalqon, boshini esa bronzadan yasalgan qattiq dubulg'a muhofaza qilgan.

O'zingizni sinang!


Shahar-davlatlar – ... Goplitlar – ...
Polislar – ... Falanga – ...

Afina davlati

O'rta Yunonistonning janubi-sharqiy qismida tog'lik *Attika* viloyati joylashgan yarimorol mavjud edi. **Mil. avv. 2-mingyillikda** Attikaning g'arbiy qismida yunonlar «*Akropol*», ya'ni «*Yuqori shahar*» deb atalgan qal'a quradilar. Bora-bora Akropol tevaragiga odamlar ko'chib kelib o'rnasha boshladilar, shu tariqa Afina shahri vujudga keldi.

Attika aholisi uchta katta guruhga bo'lingan, jumladan: *fuqarolar, chet elliklar – meteklar va qullar*. Otasi va onasi ozod afinalik bo'lgan erkaklarga Afina fuqarosi bo'la olgan. Afina davlati fuqarosi bo'lish nafaqat faxrli, qolaversa, foydali ham bo'lgan. Negaki miloddan avvalgi V asrdan boshlab davlat idoralarida ishlaydigan fuqarolarga muayyan haq to'lana boshlangan.

Faqat fuqarolar barcha huquqlardan foydalanardilar. Ular og'ir mehnat va salomatlikka zarar yetkazuvchi ishlardan ozod qilingan edilar. Quldorlar qul-



Yunon piyodalarining safga zich tizilishi (falanga)



Afina fuqarolari

Eslab qoling!

Attika aholisi uch katta guruhga bo'lingan edi, jumladan: **fuqarolar, meteklar va qullar.**

Eslab qoling!

Yunon haykaltaroshlari haykallar orqali har bir o'spirin – kuchli, jismonan baquvvat va o'z vatanini himoya qilishga tayyor bo'lishi lozimligini ifodalaganlar.



Disk uloqtiruvchi.
Haykaltarosh Miron

lar hayotini qadrlamaganlar. Qullar arziyas pulga sotilgan.

Afina davlatiga kumush konlarining mahsuloti va tuz qazib olish katta daromad keltirgan. Bundan tashqari, Afina dengiz ittifoqi mustahkamlanishi bilan dengiz savdosi ham rivoj topadi. Afinaning asosiy portiga aylangan *Pirey* bandargohidan mamlakatga qullar va xilma-xil tovarlar keltirilgan.

Afina dengiz ittifoqi g'aznasi Afina shahrida joylashgan, shahar hukmdorlari undan o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanganlar.

Afinada ta'lim

Afinada davlat maktablari bo'lmagan. Ota-onalar o'z bolalarini pedagogga (yunonchadan «*pedagog*» so'zi «*bolani yo'lda kuzatib boruvchi*» ma'nosini anglatadi) haq to'lab o'qitishgan. Qonun bo'yicha faqat o'g'il bolalar uchun ta'lim olish majburiy bo'lgan.

Yetti yoshdan boshlab bolalarga yozuv va hisob o'rgatilgan. *Stil* bilan mum surkalgan taxtachalarga harflarni metall tayoqcha bilan yozishgan. Aksariyat fuqarolar uchun ta'lim shundagina iborat bo'lgan. Puldor ota-onalarning farzandlari esa *palestra* – xususiy gimnastika maktablarida tahsilni davom ettirishgan. Palestrada adabiyot o'qitilar, she'r yozish va musiqa ham o'rgatilar edi.

O'g'il bolalar 14 yoshdan gimnastika bilan shug'ullanardilar. Ayni paytda ularga kurash, nayza va disk uloqtirish, uzunlikka va balandlikka sakrash hamda yugurish ham o'rgatildilar. O'spirinlar, shuningdek, qo'l jangi, harbiy ishlar va otga minib yurishni o'rganishgan.

Palestralarda mashhur haykaltaroshlar ishlagan haykallar turgan. Masalan, palestralardan birida Mironning «*Diskobol*» (Disk uloqtiruvchi) va Polikletning «*Nayzabardor*» degan haykallari o'rnatilgan. Haykal vositasida yigit kishi qanday bo'lishi – kuchli, jismonan barkamol va o'z vatani himoyasiga shay turishi kerakligi uqtirilgan.

Afinada oliy ma'lumot beradigan o'quv yurtlari ham bo'lgan. Ammo, ularda faqat o'ta boy ota-onalarning farzandlarigina o'qish imkoniyatiga ega bo'lishgan. Bunday ta'lim muassasalarida astronomiya, geometriya, geografiya, tarix o'qitilardi. Ta'lim olish muddati 3-4 yil davom etgan. Ana shundan keyin davlat ishlari-da ma'lum bir lavozimni egallash imkoniyati vujudga kelgan.

O'zingizni sinang!

Pedagog – ...

Palestra – ...

Stil – ...

Miron – ...

Sparta

Miloddan avvalgi XII asrda Janubiy Yunoniston (*Lakonika*) hududiga *doriylar* qabilasi bostirib kirdi. Ular mahalliy qabilalarni bo'ysundirib, Sparta davlatiga asos soldilar. Sparta eng yirik yunon davlatlaridan biriga aylandi. Spartaliklar qulga aylantirgan mahalliy aholi – *ilotlar* ham aslida yunonlar bo'lib, ular bilan bir tilda so'zlashgan.

Miloddan avvalgi VIII–VII asrlarda qullar soni uncha ko'p bo'lmagan Afinadan farqli o'laroq Spartada qulga aylantirilgan aholi ko'pchilikni tashkil etar, ular ham spartaliklardan qattiq nafratlanar edi. Bunday sharoitda o'z hukmronligini faqat kuch bilan saqlab qolish mumkin bo'lgan. Shuning uchun ham spartaliklar o'z davlatida alohida shart-sharoitlar yaratdilar: jumladan, hamma amal qilishi lozim bo'lgan qat'iy intizom, aniq-raso rejalashtirilgan turmush tarzi hamda yengilganlarga qarshi shafqatsiz bo'lish.


Sparta urushga tayyorgarlik ko'rayotgan bir shahar-ga o'xshab qolgan. Chet elliklar Spartaga kiritilmagan. Savdo-sotiq sust rivojlangan, san'at asarlari, chiroyli ibodatxonalar ham bo'lmagan. Hamma uylar bir-biriga o'xshatib qurilgan. Spartada haykaltaroshlar ham, rassomlar ham, olimlar ham bo'lmagan.




Sparta fuqarolari (spartaliklar)



Spartaliklar jangda




Spartalik jangchi



Perieklik kulollar ish ustida

Eslab qoling!
Spartaliklar tomondan asoratga solingan tub aholi – ilotlar yunonlardan iborat bo'lgan. Ulardan tashqari, Spartada fuqarolikka to'la ega bo'lmagan – perieklar ham yashaganlar.



Ilotlar hosil yig' imida

Ilotlar mamlakat bo'ylab joylashgan kichik-kichik qishloqlarda yashaganlar. Ular alohida spartaliklarni emas, balki butun boshli davlatning mulki hisoblanardilar. Ilotlar alohida spartaliklar oilasi yeriga ishlov berib, chorvani boqishgan va boshqa ko'plab majburiyatlarni bajarishgan. Spartaliklar esa faqat jangchi edilar. Ular dehqonchilik bilan ham, chorvachilik bilan ham shug'ullanmas, qurolni hech qachon qo'ldan qo'ymasdilar.

Ilotlardan tashqari Spartada to'la-to'kis huquqlarga ega bo'lmagan fuqarolar – *perieklar* ham yashagan. Ular shaxsan ozod kishilar bo'lsa-da, Xalq kengashida ishtirok eta olmas, armiyada xizmat qilolmas edilar.

Qadimgi Spartada kuchli va chidamli odamlar qadrlangan. Bolalar ancha qattiq sharoitda voyaga yetishgan. Boshidan mustaqillikka o'rgatish maqsadida ularni deyarli boqishmasdi. Bolalar o'zlariga yegulikni topishga majbur etilgandilar. Bunday sharoitda bolalarning o'g'rilik qilishdan boshqa chorasi qolmasdi.

Sparta maktablarida bolalarni harbiy ishlarga o'rgatishar, ularni kuchli va chidamli etib tarbiyalashardi.

Spartalik ayollarni ham jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishga va sport musobaqalarida qatnashishga majbur qilishgan.

Yangi hududlarni o'zlashtirish sabablari

Qadimgi Yunonistonda zodagonlardan qarzdor bo'lib qolgan, o'z yer va mulkiga ega bo'lmagan ko'plab kishilar, shuningdek, boshpanasiz, yupun va och odamlar paydo bo'la boshladi. Ularning ko'pchiligi vatanni tark etishga, begona yurtlarda omadini sinab ko'rishga majbur bo'lgan.

Yunon savdogarlari kemalarda dengiz ortidagi o'lkalarga tez-tez borib turardilar. Ular O'rtayer dengizi sohillarida egasiz yotgan serunum yerlar haqida zavq-shavq bilan hikoya qilib berardilar.

Yersiz, nochor dehqonlar safarga chiqishga hozirlana boshlaydilar. Boy quldorlar ketayotganlarga yordam berardilar. Ketayotganlar yo'lga dudlama baliq, un, zaytun yog'i, mehnat qurollari va zaxira yelkanlar olishgan. Shuningdek, dengiz yo'llarini yaxshi biladigan va ko'chib ketayotganlar boradigan joylarda bo'lib qaytgan yo'l ko'rsatuvchi ham ajratilardi.

Jo'nab ketish oldidan yunonlar xudolarga qurbonliklar bag'ishlashgan. O'zlari bilan birga loy surtilgan qamishdan to'qilgan savatchalarda olov ham olishgan. Olov ayni mahalda ular umrbod tark etgan vatanning bir parchasi edi.



Yunon tangaiari



Buyuk yunon koloniyalashtirishi

Yunon koloniyalarining tashkil topishi Yunonistondan ko'chib kelganlar Sitsiliya oroli sohili va Apennin yarimoroli janubiga o'rnashdilar. Ularning manzilgohlari O'rtayer va Qora dengiz bo'ylarida ham vujudga keldi.

Yunonlarning manzilgohlari sekin-asta shahar-davlatlarga aylana bordi. Bu shaharlarning o'z hokimlari, qo'shinlari, qonunlari va tangalari bo'lgan. Ularda savdo-sotiq va hunarmandchilik rivojlandi.



Yunonlarning Qora dengiz sohillariga joylashishi



Xerxes shahridagi ibodatxona ustunlari

Eslab qoling!

Mil. avv. VIII – VI asrlarda ko'pdan ko'p yunon koloniyalari tashkil topdi.



Pantikapeydagi Xalq majlisi

Deyarli barcha koloniyalar mustaqil quldorlik davlati bo'lgan. Ularning aholisi Yunoniston shaharlari – polisleri bilan doimiy aloqada bo'lgan. Yunonlar o'zini yagona xalq – *ellinlar* deya his etishar, o'z vatanini esa *Ellada* deb atashgan. Elladaga g'alla, metallar va qullar keltirilar edi.

Yunonlar o'zlarini «varvarlar»ga qarshi qo'yishgan. Ular o'zlashtirilgan yerlar tevaragida yashovchi yunon bo'lmagan xalqlarni shunday nom bilan atashgan.

Miloddan avvalgi VIII – VI asrlarda ko'pdan ko'p yunon koloniyalari tashkil topdi. Bu davr tarixda *Buyuk yunon koloniyalashtirishi* nomini olgan. Qora dengiz sohillarida *Olviya, Xerxes, Pantikapey, Tanais, Fasis, Trapezund* va boshqa yirik koloniyalar vujudga keldi. O'rtayer dengizi sohillarida yuzdan ziyod yunon koloniyalari tashkil topdi.

Yangi mamlakatlar bilan tanishuv yunon madaniyatini boyitdi. Masalan, miloddan avvalgi VIII asrda Yunonistonda Finikiya alifbosiga asoslangan yangi yozuv vujudga keldi. Alifbo 24 ta harfdan iborat bo'lgan. Ular orasida unli harflar paydo bo'ldi. Koloniyalar va yunon shaharlari o'rtasidagi mahsulot ayirboshlash, savdo-sotiq va hunarmandchilik ravnaq topishiga asos yaratdi.

Tayanch konspekt

- mil. avv. IX – VIII asrlar – manzilgohlarning shahar-davlat (polis)larga aylanishi
- goplit → falanga
- Akropol → «yuqori shahar»
- fuqarolar → meteklar → qullar
- pedagog – «bolani yo'lda kuzatib boruvchi»
- stillar → metall tayoqcha
- palestra
- Miron – «Disk uloqtiruvchi», Poliklet – «Nayzabardor»
- mil. avv. XII asr – doriylar Spartani bosib oldilar
- periyeklar → ilotlar
- mil. avv. VIII – VI asrlar – Xerxes, Pantikapey, Tanais, Fasis, Trapezund koloniyalari

Savol va topshiriqlar

1. Yunon shaharlari qay tariqa tashkil topdi?
2. Polis nima? Polising o'ziga xosligi nimada?
3. Attika aholisi qaysi guruhlariga ajratilgan?
4. Nima uchun Afina fuqarosi bo'lish nafaqat faxrli, balki foydali ham bo'lgan?
5. Afinada bolalarga nimalar o'rgatilgan?
6. Sparta davlati qanday tashkil topgan? Bu davlat aholisini qanday atashgan?
7. Spartaliklar qanday qonunlar asosida yashaganlar?
8. Iltotlar va periyeklar kim? O'z mavqeyiga ko'ra nimasi bilan farqlangan?
9. Yunon koloniyalashtirilishi boshlanishining sababi nimada?
10. Nima uchun davlat koloniyalashni qo'llab-quvvatladi?
11. Xaritadan yunon koloniyalarini ko'rsating.

26-§. Afinada demokratiya

Demokratiyaning shakllanishi

Afina shahrida markaziy maydon bo'lib, uning tevaragini turli-tuman imoratlar qurshab turgan. Maydon esa *agora* deb yuritilgan. U xalq yig'ini maydoni bo'lgan. Shahar aholisining ko'pchiligini hunarmandlar va savdogarlar tashkil etgan.

Afina shahrida barcha erkak fuqarolar davlatni qanday boshqarish kerakligi xususida o'z fikr-mulohazalarini bayon eta olar edi. Ular yuzaga kelgan muammolar va yangi qonunlarni muhokama qilish uchun har oyda to'rt marta agorada yig'ilardilar. Barcha qarorlar ovoz berish yo'li bilan qabul qilingan. Boshqaruvning bu shakli *demokratiya* deb ataladi, ya'ni bu atama «*xalq hokimiyati*» degan ma'noni anglatadi («*demos*» – xalq + «*kratos*» – hokimiyat).


Mil. avv. VII asrda Afinani idora qilishda Oqsoqollar kengashi muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Shu kengash hokimlar va sudyalarni saylagan. Ular, kengash a'zolari singari, faqat Afina

Eslab qoling!

Qora dengiz sohillarida *Oliyia*, *Xerxones*, *Pantikapey*, *Tanais*, *Fasis*, *Trapezund* va boshqa yirik koloniyalar vujudga keldi. O'rtayer dengizi sohillarida yuzdan ziyod yunon koloniyalari tashkil topdi.



Afina. Akropol



Notiqning Afina fuqarolari huzuridagi nutqi



Drakont qonunlariga binoan qatl jazosi

Eslab qoling!

Afinaning aholisi *aristokratiya* va *demos* nomli ikki qismga bo'lingan.



Qarzdor yunonlarning Solon islohotlaridan keyin qullikdan qaytishlari

aslzodalaridan bo'lgan. Afinada aholining bir qismi zodagonlar (*aristokratiya*) mol-mulk va boylikning deyarli hammasiga egalik qilar, boshqa bir qismi oddiy xalq-«demos» ularning foydasiga ishlashga majbur edi. Aynan shu narsa Afina davlati aholisi o'rtasidagi doimiy kelishmovchilik va nizolar sababi bo'lgan.

Adolat qaror topishini xohlagan har ikkala tomon *Drakont* ismli hukmdorga murojaat etishadi. Ular Drakontdan huquq va majburiyatlar borasida hammani tenglashtiruvchi qonunlar yozishni iltimos qilishadi. **Mil. avv. 621-yilda** Drakont xalq boshqaruvini bekor qilgan qonunlarni yozadi va amalga kiritadi.

Bu qonunlar shu qadar qattiq va ayovsiz ediki, afinaliklar ularga «siyoh qolib, qon bilan yozilgan», deya ta'rif berishgan. Qonunni arzimas darajada buzganlik uchun ham Drakont bitta jazo – o'lim jazosi belgilagan. Masalan, Drakont qonunlariga ko'ra, o'zga kishining bog'idan olma o'g'irlagan odam qatl etilardi, qarzdorlar esa qullikka mahkum qilingan.

Avvaliga afinaliklar bu qonunlarga itoat etishgan, so'ngra norozi bo'la boshlashgan va qonunchi Drakontni shahardan haydab yuborishgan.

Solon islohotlari

Afina davlatida xalq aslzodalar hukumronligidan norozi edi.

Xalqning ahvoli tobora yomonlashaverdi, shunda odamlar o'z haq-huquqlari uchun kurashga bel bog'ladilar. Tayoqlar, tosh va metall qurollardan foydalangan qashshoqlar zodagonlarning uy-qo'rg'onlariga hmla qila boshladilar. Xalq zodagonlarga qarshi qo'zg'olon ko'tardi. O'z yeri va jonidan xavotirlangan zodagonlar yon berishga va xalq talablarining bir qismini bajarishga majbur bo'lishadi.

O'ta bilimdon va tajribali *Solon* degan zodagon, xalqqa yon berishning qattiq tarafdori bo'lgan. Solon aslzodalarga shunday degan: «*Yunonistonning ko'pgina shaharlarida bo'ldim, xalq zodagon-*

larga qarshi chiqayotganini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Kambag'allarga qullar kelib qo'shilmadan turib, xalq talablarining bir qismini bajarish kerak».

Zodagonlar Solonga ishonishdi va uni Afina hukmdori etib saylashdi. **Mil. avv. 594-yilda** Solon davlatni idora qilishning oldingi tizimini o'zgartirdi. Avvalgi boshqaruv tizimi – *aristokratiya* (aslzodalar hokimiyati) ni Solon demokratiya (xalq hokimiyati)ga almashtirdi. Davlatni boshqarishda faqat erkak fuqarolar ishtirok eta olardi. Ayollar va chet elliklar (ularni meteklar deyishgan) qabul qilinayotgan qonunlar muhokamasida va ovoz berishda ishtirok eta olmasdilar.

Soloning taklifi bilan dehqonlarning qarzlari va qarzdorlarni qul qilish bekor qilinadi. Solon aslzodalarni xafa qilishni istamas, faqat xalq qo'zg'olonlarining oldini olishga intilardi. Davlat boshqaruvidagi islohotlar Xalq majlisi faoliyati tiklanishi va nasl-nasabidan qat'i nazar afinaliklar uchun davlat mansablarini egalash imkoniyatini ko'zda tutar edi. Solon islohotlaridan keyin Attika aholisi fuqarolar va chet eldan keltirilgan qullarga ajratiladigan bo'ldi.

O'zingizni sinang!

*Aristokratiya – ... Meteklar – ...
Islohotlar – ...*

Afinada demokratiya ravnaqi Erkak jinsiga mansub barcha fuqarolar 20 yoshdan boshlab *Xalq majlisida* ishtirok etardilar. Xalq majlisining katta qismi badavlat bo'lmagan hunarmandlar, savdogarlar, yollanib ishlochilar, dehqonlardan iborat bo'lgan. Xalq majlisida omma uchun foydali qarorlar qabul qilingan.


Navbatdagi majlis bo'ladigan kun oldindan e'lon qilinardi. Majlis ertalab barvaqt tayinlanar, negaki

Eslab qoling!

Mil. avv. 594-yilda Solon davlatni idora qilishning oldingi, aristokratiya tizimini demokratiyaga almashtirdi.



Solon – Afina hukmdori





**Beshyuzlar
kengashining
yig'ilishi**

mehnatkash odamlar kunduz kuni majlisga kela olishmasdi. Qorinni to'yg'azishga yegulik ishlab topish kerak edi.

Afinada mansabdor shaxslar Xalq majlisi tomonidan muayyan muddatga saylanib, majlisga hisobot berishgan. Mabodo mansabdor shaxs o'z majburiyatlari ijrosini uddalay olmasa, Xalq majlisi bu odamni muddatidan oldin lavozimidan bo'shatgan.

Xalq majlisi yangi qonunlarni tasdiqlar, eski qonunlarni bekor qilar, boshqa qarorlar, masalan, yangi inshootlar qurilishiga, armiyaga va boshqalarga mablag' ajratish to'g'risida qaror qabul qilar edi.

Har yili saylanadigan *Beshyuzlar kengashi* kundalik joriy masalalarni hal qilardi. Beshyuzlar kengashiga *strateg* rahbarlik qilgan. Kengash qarorlari Xalq majlisida tasdiqlangan.

Xalq sudi ham Afinada muhim davlat organi bo'lgan. 30 yoshga to'lgan fuqarolar uning faoliyatida ishtirok etar edilar. Sudda ayblanuvchi shaxs o'zini-o'zi himoya qila bilishi yoki chiroyli so'zlay oladigan va qonunlarni biladigan odamni yollashi kerak bo'lgan.



Xalq majlisi

Miloddan avvalgi 443–429-yillarda 15 marotaba *strateg* lavozimiga saylangan *Perikl* hukmronligi davrida Afina eng qudratli davlatga aylandi va mamlakatda demokratiya ravnaq topdi. Bu davr shuning uchun ham «Perikl asri» deb atalgan. Ajoyib yunon yozuvchilari, olimlari va rassomlari Periklning do'stlari bo'lishgan. Perikl tarixchi Gerodot, haykaltarosh Fidiy bilan do'st tutingan edi. Perikl katta obro' va nufuzga ega bo'lgan. U umuman xalqni o'ziga kerakli qaror qabul qilishga majbur qilmagan, balki ishontirish kuchiga tayanib ish yuritgan. Perikl o'zining siyosiy muxoliflari va uning xatti-harakatlarini tanqid qilgan kishilarni ta'qib etmagan.

Perikl Xalq majlisidagi lavozimlarga ish haqi to'lashni joriy qildi. Perikl hukmronligi davrida Afinada katta qurilish ishlari amalga oshirildi. Perikl Akropolda qurilgan mashhur inshoot *Parfenon* – iloha Afina ibodatxonasining tashabbuskori bo'lgan.

Mil. avv. V asrining ikkinchi yarmida Sparta Afinaning asosiy raqibiga aylandi. Shaharni xavf-xatardan asrash uchun Perikl Afinadan to' Pirey dengiz bandargohigacha mudofaa devorlari qurish to'g'risida buyruq berdi.

Periklning faoliyati badavlat shaharliklarga yoqmasdi, u zodagonlarning hamlalarini qaytarib turgan. Vaboga chalingan Perikl vafot etganidan keyin u joriy etgan ko'pgina yangiliklar bekor qilingan.

O'zingizni sinang!

*Beshyuzlar kengashi – ...
Strateg – ...*

*Perikl – ...
Parfenon – ...*

Tayanch konspekt

- agora – xalq yig'ilishlari uchun maydon
- demokratiya – xalq hokimiyati
- aristokratlar → demos
- mil. avv. 621-yil – Drakont qonunlari
- mil. avv. 594-yil – Solon islohotlari
- mil. avv. 443–429-yillar – Perikl 15 marta strateg lavozimiga qayta saylangan
- Parfenon – iloha Afina ibodatxonasi

Savol va topshiriqlar

1. Xaritadan Afina davlatini ko'rsating va uni tasvirlab bering.
2. Demokratiya nima? Afinada demokratiya qaysi shaklda namoyon bo'ldi?
3. Solon islohotlari o'tkazilgandan keyin aholi turmushida qanday o'zgarishlar bo'ldi?
4. Solon islohotlari bo'yicha Afina davlat boshqaruvining asosiy organlarini sanab bering.
5. «Perikl asri» deganda nimani tushunasiz?



Perikl – Afina strateg


Eslab qoling!

Mil. avv. 443 – 429-yillarda 15 marotaba strateg lavozimiga saylangan Perikl davrida Afina eng qudratli davlat bo'ldi, mamlakatda demokratiya ravnaq topdi.



Afinaliklar homiysi – iloha Afina

27-§. Yunon-fors urushlari



Yunoniston qirg'oqlaridagi fors kemalari

Yunon-fors urushlarinig sabablari

Miloddan avvalgi V asr boshlarida Yunonistonga forslar tahdid sola boshladi. Doro I hukmronlik qilayotgan Fors davlati yangi-yangi mamlakatlarni bosib olishga intilgan. Forslarning Yunonistonga harbiy yurishlari yunon-fors urushlari nomini olgan bo'lib, ular **miloddan avvalgi 490-yildan boshlanib, mil. avv. 449-yilga** qadar davom etgan.

Yunonistonning barcha shaharlarida fors elchilari paydo bo'lib, ular: «*Bizning hukmdorimiz, buyuk shahanshoh Doro, kunchiqardan kunbotargacha barcha mamlakatlarning birdan-bir egasi sizdan yer va suv talab qilmoqdadir*», deb baralla aytishardi.

Yunonistondagi ayrim shaharlar aholisi forslarga qarshilik ko'rsatishning sira iloji yo'q deb hisoblab, shahanshoh Doro I ning shartlarini qabul qilishga rozi edilar.

Afina va Sparta bosqinchilarga itoat etmaslikka ahd qildi. Fors elchilari Afinaga kelganda, shahar aholisi g'azabdan ularni o'ldirib, qoyadan tashlab yubordilar. Elchilarni chuqur quduqqa tashlab yuborgan spartaliklar esa zaharxanda bilan: «*Yetarlicha suvni ham, yerni ham quduq tubidan topasiz-da!*» deyishgan ekan.


Mil. avv. VI asr oxirida Fors shohi Kichik Osiyodagi yunon shahar-davlatlarini bosib oldi. Afina hukmdori yunon polislariga yordam qo'lini cho'zdi. Bundan g'azablangan Doro I Afinadan shafqatsiz qasos olishga ahd qildi.

Marafon jangi Miloddan avvalgi 490-yilning sentabrida fors harbiy floti Egey dengizini kesib o'tdi va Attika sohiliga langar tashladi.

Forslarning kemalari beso'naqay va burilishi qiyin edi. *Marafon tekisligida* o'q-yoylar bilan qurollangan fors suvoriylari kemadan tusha boshladilar. Bu teki-



Fors jangchilari



Yunon-fors urushlari

slik otliq lashkar harakatlanishi uchun qulay edi, forslar aynan shu yerda jang olib borishga qaror qilishdi. Yunonlar forslarga qaraganda kam sonli edi, shuning uchun ular forslar suvoriylari yetib borolmaydigan qoyalarga o'rnashib oldilar.

Yunon lashkari forslarni Attika ichkarisiga boradigan yo'llardan to'sib qo'ydi. Ammo ular ochiq jangga kirishdan cho'chir edilar. Bir hafta o'tdi. Forslar ayyorlik qilishdi. Tunda ular otliq qo'shinlarni kemalarga yukladilar, Attikani aylanib o'tib, kutilmagan zarba bilan Afinani bosib olishga qaror qildilar. Yunon qo'shinlariga sarkardalik qilgan *Miltiad* ertalab bo'lib o'tgan voqeadan xabar topganidan so'ng Marafon tekisligida qolgan forslar qo'shinlarini tor-mor qilishga ahd qildi. Yunon piyoda jangchilari falanga bo'lib safga tizildilar. Forslar uning o'rtasini yorib o'tdilar. Biroq yunon falangalarining ikkala chekkasida joylashgan kuchli qo'shinlar forslarni tumtaraqay qochishga majbur qildi.

Ayni paytda yunonlar tekislikda qolgan forslar qo'shinlarining orqasidan ichkariga kirib boradilar. Asir tushishdan cho'chigan forslar o'z kemalariga qarab chekinishga tutindilar. Yunonlar hal qiluvchi jang-



Fors jangchilari.
Tekis yuzaga ishlangan bo'rtma haykallar



Marafon tekisligidagi jang sxemasi

Eslab qoling!

Forslar va yunonlarning Marafon jangi **mil. avv. 490-yilda** bo'lib, yunonlar g'alabasi bilan tugagan.



Fermopil jangi

Eslab qoling!

Fermopil jangi
mil. avv. 480-yil-
da bo'lib o'tgan.



Leonid – Sparta
podshosi

da forslarning yettita kemasini egallab oldilar. Forslarning qolgan qo'shinlarini esa tor-mor etdilar.

Miltiadning buyrug'iga ko'ra bir jangchi forslar ustidan qozonilgan g'alaba haqida xabarni yetkazish uchun Afina shahriga qarab yugurdi. Naq 42 kilometr yo'lni chopib o'tgan jangchi «G'alaba! G'alaba!», deb shu zahoti yuraqi yorilib, jon bergan. Keyinchalik olis masofaga yugurish *Marafon yugurishi* deb atala boshlandi.

Fermopil jangi Yangi urushga tayyorgarlik ketayotgan paytda Doro I vafot etdi. Qo'shinlarni Yunonistonga uning o'g'li Kserks boshlab keldi.

Forslarning qo'shinlari turli-tuman qabilalardan tashkil topgan, qurol-aslaha va jang qilish usullari bir xil emasdi.

Mil. avv. 480 - yilda Kserks qo'shinlari *Gellespont* bo'g'oziga yetib keldi. Podsho buyrug'i bilan bir kilometrdan uzun ko'priq qurildi.

Yunoniston sarhadiga kelib tushgan Kserks lashkari shimoliy Yunonistonni bosib ola boshladi.

Tog'lardagi *Fermopil darasi* Yunoniston shimolidan janubiga olib boradigan birdan-bir yo'l edi. Yunonlar o'sha joyda pistirma qo'yishga qaror qilishdi, ammo forslarga tog'lar orqali yo'lni ko'rsatib bergan bir sotqin chiqib qoldi. Yunonlar qo'shiniga Sparta podshosi *Leonid* boshchilik qilgan. U 300 spartalikdan boshqa barcha yunon jangchilariga chekinishni buyurgan. Sparta qonunlariga ko'ra, spartalik askarlar jang maydonidan chekinishi mumkin emas edi. Ularning barchasi qahramonlarcha halok bo'ldi. Ushbu voqea «*Uch yuz spartaliklar jasorati*», deb tarixda mashhur bo'lib qolgan. Fermopil jangidan keyin Kserks qo'shinlari O'rta Yunonistonga yetib borib, Afinani ishg'ol qilganlar.

Salamin jangi

Harbiy dengiz qo'shini qo'mondoni Femistoklning maslahati bilan yunonlar 200 ta harbiy kema – *triyeralar* qurishdi.

Bu harbiy kemalar qoyalar orasidan va sayoz joylardan oson suzib o'tar, o'sha davr uchun katta tezlikda – soatiga 18 kilometr tezlikda suza olgan.

Hal qiluvchi dengiz jangi **miloddan avvalgi 480-yilda** tor *Salamin bo'g'ozida* bo'lib o'tdi. Yunon davlatlarining birlashgan floti forslarning harbiy flotidan kuchli bo'lgan. Yengilganidan keyin Kserks flotning qoldiqlari bilan Yunonistonni tark etishga majbur bo'ldi.

Miloddan avvalgi 479-yilda forslar tag'in Afinani bosib olishga urinib ko'radilar. Biroq yunonlarning birlashgan lashkari Plateya shahri yaqinida fors qo'shinlarini tor-mor etdi. Bu yunon-fors urushlaridagi yirik jang bo'lgan. Fors shohi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq, u Kichik Osiyodagi barcha yunon polislari – shaharlarning mustaqilligini e'tirof etib, yunonlarga qarshi harbiy harakat olib bormaslikka va'da bergan.

Shunday qilib, yunon shaharlari ko'pchiligining birligi va ozodlik uchun jang qilgan yunonlarning qahramonligi nihoyatda kuchli raqib ustidan g'alaba qozonishga imkon berdi. 40 yildan ko'proq davom etgan yunon-fors urushlari yunonlarning to'liq g'alabasi bilan yakunlandi.

O'zingizni sinang!

*Mil. avv. 490-yil – ... Mil. avv. 480-yil – ...
Mil. avv. 479-yil – ...*

Tayanch konspekt

- mil. avv. 490–449-yillar – yunon-fors urushlari
- mil. avv. 490-yil – Marafon jangi
- mil. avv. 480-yil – Fermopil jangi – uch yuz spartalik jasorati
- mil. avv. 480-yil – Salamin jangi
- mil. avv. 479-yil – Plateya jangi – yunonlar g'alabasi

Eslab qoling!

Salamin bo'g'ozidagi jang **mil. avv. 480-yilda** bo'lib o'tdi.



Salamin jangidagi yunonlar kemasi

Eslab qoling!

Mil. avv. 479-yilda forslar yana Afinani bosib olishga urinib ko'radilar. Yunonlarning birlashgan lashkari **Plateya** shahri yaqinida fors qo'shinlarini tor-mor etdi.

Savol va topshiriqlar

1. Forslarning Yunonistonga bostirib kirishi sabablarini aytib bering.
2. Xaritadan forslar Yunoniston ustiga yurishlarining asosiy yo'nalishlarini ko'rsating.
3. Marafon jangi qatnashchisi (forslar yoki yunonlar armiyasi jangchisi) nomidan hikoya tuzing.
4. Salamin jangining borishi va yakuni haqida gaprib bering.
5. Salamin orolida Fors davlati floti mag'lubiyatining asosiy sabablarini ayting.

28-§. Yunonistonning Makedoniya tomonidan bosib olinishi



Demosfen o'smirligi-danoq notiq bo'lishni orzu qilardi. Lekin u juda past ovozda gapirar va duduqlanardi. Ovozi balandligini oshirishni mashq qilarkan, u dengiz shovqinidan balandroq baqirishga harakat qilardi.

Yunoniston mag'lubiyatining sabablari

Yunonlar bir-birlari bilan urushayotgan paytda Makedoniya podshosi *Filipp II* Elladani bosib olish maqsadida jang taktikasini takomillashtirdi va qo'shin yig'di. Uning qo'shinlari suvoriylar va piyodalardan tashkil topgan. Piyoda qo'shinlar 16 qatordan iborat *falangada* saflanardi. Falanganing oltinchi qatoridagi nayza birinchi qatoridagi jangchini muhofaza etardi. Jang paytida butun falanga zirhlangan temir maxluqotga o'xshab qolar edi. Falanga qanotlarini otliqlar himoya qilardilar.

Yunonlar, *Filipp II* tartib o'rnatadi va polislar o'rtasida tinchlikni barqarorlashtiradi, deb umid qilardi. Faqat mashhur notiq *Demosfen* Ellada shaharlarini kezip, ularning aholisini birlashish va makedonlarga qarshi kurashishga da'vat etadi. Fiva shahri aholisi esa *Filipp II* qo'shinlariga qarshi Afina shaharlari ittifoqiga qo'shiladi.

Xeroneya ostonasidagi jang

Demosfen *Filipp II* ni istilochi sifatida baholashni davom ettiradi va yunon davlatlari boshliqlarini dushmanga qarshi kurashish uchun hamjihat bo'lishga da'vat qiladi. *Demosfen* yunon shahar-davlatlari hukmdorlarining bir qismini ishonitirish va ko'ndirishga erishadi, ular

bir ittifoqqa uyushadilar. Qattiq qarshilik ko'rsatilishiga qaramasdan, Filipp II yunon shaharlarini birma-bir zabt eta boshladi. **Miloddan avvalgi 338-yil 2-avgustda** yunonlar va makedonlarning asosiy kuchlari *Xeroneya* shahri yaqinidagi *Beotiyada* to'qnashadilar. Qo'shinlar son jihatdan teng edi. Ammo yunonlar qarshisida Makedoniyaning erkin fuqarolaridan tuzilgan yaxshi harbiy ta'lim ko'rgan lashkarlari turar edi. Yunonlarning qo'shinlari esa ma'lum haq evaziga jang qiluvchi yollanma askarlar va fuqarolarning harbiy ta'lim ko'rmagan jangchilaridan iborat bo'lgan.


Qattiq jang uzoq davom etadi. Harbiy hiyla qo'llagan yunonlar ustunlikni qo'lga oladilar. Makedonlar chekina boshlaydilar. G'alaba qilayotganiga ishona boshlagan yunonlar ularni quvishga tushadilar. Yunonlarning qo'shinlari shunda ikki bo'lakka ajraladi. Ana shu bo'laklardan biriga Filipp II ning o'g'li *Aleksandr* qo'mondonlik qilayotgan suvoriy qo'shinlar qaqsatqich zarba beradi. Yunon qo'shinlari chekina boshlaydi va tor-mor etiladi. Jangda yunonlarning aksariyati halok bo'lgan. *Xeroneya* ostonasidagi jangdan so'ng mag'lubiyat oqibatida Yunoniston Makedoniyaga qaram bo'lib qoldi.

Yunoniston Makedoniya tarkibida «Yunonlar ozodligi *Xeroneya* ostonasida halok bo'lganlar bilan birgalikda dafn qilindi», degan edi Demosfen.

Bu mag'lubiyatdan keyin Yunoniston aholisi o'z qismatini qo'rquv og'ushida kutib turishgan. Biroq Filipp II o'zini yunonlar podshosi deb e'lon qilmaydi. Filipp II yunonlar bilan birlashib, forslarga qarshi ittifoq tuzadi. U o'zini birlashgan qo'shinlar bosh qo'mondoni deb e'lon qiladi. Yunon shaharlariga esa Filipp II ozod ekanliklarini va o'z davlatining keyingi taqdiri xususida bir-birlari bilan shartnoma tuzishlari lozim ekanligini e'lon qiladi.

Eslab qoling!

Falanga – piyodalarning 16 qator bo'lib zich joylashuvi.



Filipp II piyodalari

Eslab qoling!

Makedoniya Yunonistonni **mil. avv. 338-yili** *Xeroneya* yaqinidagi jangdan so'ng bosib oldi.



Filipp II

Miloddan avvalgi 337-yilda Spartadan tashqari barcha yunon shahar-davlatlarining vakillari Korinfga yig'ildilar va Makedoniya hokimiyati ostida yunon davlatlari ittifoqini tuzdilar. Ular murosada tinch-totuv yashash, o'zaro urushlar olib bormaslik va bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik to'g'risida shartlashadilar. Barcha ixtiloflarni yunon shahar-davlatlari kengashi hal etishi lozimligi nazarda tutilgan edi.

Fors davlatini bosib olishini rejalashtirgan qo'shinlar asosini Yunoniston lashkari tashkil etishi lozim edi. Filipp II hatto yunonlarni qanoatlantiradigan urush uchun bahona ham o'ylab topadi: yunon-fors urushlari davrida yetkazilgan zarar uchun qasos olish va shoh Kserks Eronga olib ketgan yunon xudolari haykallarini asirlikdan qutqarish!

Biroq Filipp II forslarga qarshi yurishini amalga oshira olmadi. U **miloddan avvalgi 336-yilda** o'z saroy a'yonlari tomonidan xoinlarcha o'ldirilgan. Uning o'g'li Makedoniyalik Aleksandr hukmdor bo'ldi.

Tayanch konspekt

- Makedoniya podshosi Filipp II
- mil. avv. 338-yil – Xeroneya jangi
- mil. avv. 337-yil – Korinf ittifoqining vuludga kelishi
- barcha kelishmovchilik va nizolarni yunon shahar-davlatlari kengashi hal qilishi
- mil. avv. 336-yil – Filipp II o'ldirildi → Aleksandr

Savol va topshiriqlar

1. Sizningcha, nima uchun yunonlar o'z mamlakati mustaqilligini saqlab qola olmadilar?
2. Demosfenning Ellada aholisi oldidagi xizmatlari nimada?
3. Xaritadan Filipp II ning yurishlari yo'nalishlarini ko'rsating.
4. Makedonlar qo'shinlari yunonlarnikidan nimasi bilan farqlangan?
5. Yunonistonning bosib olinishi qachon va qaysi jangda ro'y berdi?
6. Filipp II Yunonistonni bosib olganidan keyin yunon shaharlarining boshqaruvida qanday o'zgarishlar bo'ldi?

Eslab qoling!

Miloddan avvalgi 337-yilda Spartadan tashqari barcha yunon shahar-davlatlarining vakillari Korinfga yig'ildilar va Makedoniya hokimiyati ostida yunon davlatlari ittifoqini tuzdilar.

29–30-§§. Qadimgi Yunoniston madaniyati


Fuqaro tarbiyasi

Bolalikdan yunonlar miyasiga jamoat ishlari shaxsiy yumushlardan ustuvor ekanligi to'g'risidagi dunyoqarash shakllantirilgan. Maktablar faol fuqarolar, davlat himoyachilarini tarbiyalashi lozim edi. Sportni rivojlantirish va Olimpiya o'yinlariga jalpi qiziqish ham shunga xizmat qilgan. Bolalikdan o'g'il bolalarga she'riyat va musiqaga muhabbat hissi singdirilardi.


Arslonni yenggan *Gerakl* haykaliga nazar tashlaymiz. Qadimgi yunon haykaltaroshi Geraklni barvasta pahlavon sifatida tasvirlagan. Orqa oyoqlarida turib olgan bahaybat arslon esa Geraklning yelkasidan ham kelmaydi. Ammo nega Gerakl libos-siz tasvirlangan? Bu qadimgi yunon tasviriy san'atining o'ziga xos jihatlaridan biridir. Haykaltarosh nazarida Geraklning kuch-qudratini ko'rsatish muhim bo'lgan. Bordi-yu haykaltarosh bahodirni kiyimda tasvirlasa, uning arslonni yengayotgan mushak va changallari-dagi kuchni ko'rmagan, qudratli, mashq ko'rgan tanasi go'zalligini his etmagan bo'lardik.

Umumiy ta'limdan tashqari, yigitlar ikki yil, harbiy ta'lim ham olishgan. Birinchi yili ular uylarida yashar va safda yurish, qurol taqib yurish, ochlik va sovuqqa chidamli bo'lishni o'rganishardi. Ikkinchi yili esa ayrimlari Attika chegara qal'alarida harbiy xizmatni o'tash va boshqalari Pirey portida dengizchilik san'ati asoslarini o'rganishar edi.

Mamlakatni mudofaa qilish zarurati yuzaga kelgan taqdirda 30 yoshga to'lmagan erkaklarning barchasi qurol-yarog'lari va harbiy kiyim-kechaklari bilan ko'rikka yetib kelishi shart bo'lgan. So'ngra ular o'z xudolari, jonajon kulbasi va mamlakati uchun janglarga kirishgan. Vatanga muhabbat har bir fuqaroning fidoyiligi va jasorati hisoblangan.



Geraklning sher bilan jangi



Ta'lim jarayoni



**Olimpiya
o'yingohiga kirish**

Eslab qoling!

Ilk Olimpiya o'yinlari mil. avv. **776-yildan mil. 394-yilga** qadar o'tkazilgan. **1896-yilda** Olimpiya o'yinlari qayta tiklanib, hozirgi kungacha qadar davom etib kelmoqda.



Olimpiya o'yinlaridagi yugurish musobaqasi.
Idishga chizilgan rasm

Yunonlarga yuksak vatanparvarlik hissi mavjud bo'lib, Vatan himoyasi yo'lida halok bo'lganlar qahramonlar deb e'lon qilinardi. Qahramonlar dafn etilgan joylarga qurbonliklar bag'ishlangan.

Olimpiya o'yinlari Sport barcha yunonlar uchun sevimli mashg'ulot bo'lgan edi.

Miloddan avvalgi 776-yilda ilk bor o'tkazilgan Olimpiya o'yinlari turli-tuman sport musobaqalari orasida eng asosiysi hisoblangan. Ana shu sanadan boshlab har to'rt yilda bir marta Olimp tog'ida muqaddas olov Quyosh nurlaridan yondirilardi, Yunonistonning to'rt tarafidan kelgan sportchilar beshkurashda bellashardi. Beshkurash esa uzunlikka sakrash, disk uloqtirish, nayza uloqtirish, yugurish va kurashdan iborat bo'lgan. Otchoparda esa aravalarda va otlarda poyga uyushtirilardi. Odamlar va sportchilar Olimpiyaga eson-omon yetib kelishlari uchun o'yinlar o'tkazilayotgan paytda urushlar to'xtatilgan.

Yunonistondagi Olimpiya o'yinlari Olimp xudosi Zevs sharafiga bag'ishlab o'tkazilgan. Afsonalarga ko'ra, Olimpiya o'yinlari asoschisi Gerakl hisoblangan. Olimpiya o'yinlarida faqat jinoyat sodir etmagan, sha'niga dog' tushirmagan ozod yunon ishtirok etishi mumkin bo'lgan. Musobaqalarda uch karra g'alaba qozongan sportchi Olimp tog'ida o'z haykalini o'rnatirishga haqli bo'lgan. Yunonlar yil hisobini ham Olimpiya o'yinlariga qarab yuritganlar.

G'oliblar muqaddas zaytun daraxti novdalaridan to'qilgan gulchambar bilan taqdirlangan. Ayollar Olimpiya o'yinlarida ishtirok eta olmasdi. Ayollar o'yinlar paytida hatto Olimp tog'i yaqiniga ham kela olmasdilar. Ayollar uchun yugurish bo'yicha alohida musobaqalar o'tkazilgan.

Xristian dini tarqalishi natijasida xudo Zevs sharafiga bag'islangan Olimpiya o'yinlari man qilinadi. **Milodiy 394-yilda** sodir bo'lgan zilzila oqibatida

Olimpiya o'yin maydoni vayron bo'lib, qadimgi Olimpiya o'yinlarini o'tkazish butunlay to'xtab qoldi. Nihoyat, **1896-yilda** Olimpiya o'yinlari qayta tiklandi. Olimpiya o'yinlari ochiladigan kunda qadimgi mash'ala yoqish odati hozirgacha saqlanib qolgan. Quyosh nurlaridan yondirilgan mash'ala Olimpiya musobaqalari o'tkaziladigan joyga keltiriladi.

Gomerning «Iliada» va «Odisseya» dostonlari Miloddan avvalgi 1200-yilda yunonlar Kichik Osiyoda joylashgan Troyaga yurish qilishgan. Ular mo'l-ko'l o'lja ilinjida urush boshlaganlar. Biroq yunon rivoyatlari boshqa bir sababni ham bayon qiladi. *Eng chiroyli ayol Sparta podshosining rafiqasi Sohibjamol Yelena edi. Troya podshosi o'g'li Paris Sparta podshosinikiga keladi va Sohibjamol Yelenani Troyaga o'g'irlab ketadi. Voqeadan xabar topgan Sparta podshosi Parisdan qasos olishga ahd qiladi va barcha spartaliklarni Troya bilan urushga chaqiradi. Yunonlar to'qqiz yil Troyani behudaga qamal qiladilar.*

«Iliada» nomli mashhur yunon dostoni ana shu urushning oxirgi o'ninchi yili haqida hikoya qiladi. *Odisseyning maslahati bilan yunonlar ayyorlikni ishga soladilar: ichi bo'm-bo'sh ulkan yog'och ot yasashadi. Ana shu yog'och ot ichiga yunon qo'shinlarining bir qismi yashiringan, qo'shinning boshqa bir qismi esa yaqindagi orollardan biriga o'rnashib olgan edi. Troyaliklar yunonlar qamal qilishni to'xtatishdi va Troya homiysi Afina Palladaga xush kelishi uchun bizga ot sovg'a qilibdi, degan xulosaga kelib, yo'g'och otni shaharga olib kiradilar.*

Kechasi otning ichidan chiqqan jangchilar darvozalarni ochadilar va Troya bosib olinadi. Hozirgi tillarda «Troya oti» iborasi xosiyatsiz sovg'a-salom ma'nosini anglatadi.

«Iliada» dostonining bosh qahramoni *Axilles*-dir. O'g'lining mangu barhayot bo'lishini istagan ona



Bokschi haykali.
Olimpiya o'yinlari g'olibi

Eslab qoling!

Milodiy 394-yilda qadimgi Olimpiya o'yinlarini o'tkazish butunlay to'xtab qoldi. Nihoyat, 1896-yilda Olimpiya o'yinlari qayta tiklandi.



Gomer – qadimgi yunon shoiri



Troya oti



«Achilles tovoni»



Troya urushi

chaqalog'ini Stiks daryosiga botirib oladi. Ayni paytda Axillesning onasi ushlagan tovoniga suv tegmasdan qoladi. Janglardan birida Axilles tovoniga tekkan o'qdan halok bo'lgan. O'sha kezlardan beri «*Axilles tovon*i» iborasi nozik joyni anglatadi.

Troya urushi nihoyasiga yetdi. Yunonlar Troyani taladilar va mo'l-ko'l o'ljalar bilan uyga qaytmoqchi bo'lishdi. Ular Egey dengizi orqali uzoq va xatarli yo'llardan o'tishlari kerak edi. Ammo eng ko'p mashaqqat va sarguzashtlar Odissey va uning hamrohlari zimmasiga tushadi. Odissey jonajon Itaka o'lkasiga yetib kelguniga qadar dengiz va begona yurtlarda sarson bo'ladi.

Qadimgi yunon shoiri *Gomer* «Iliada» va «Odissey» poemalarini yozadi. Uning hayoti haqida deyarli hech narsa saqlanib qolmagan. Afsonalarda yo'zilishicha, u tug'ma ko'r bo'lib, yurtma-yurt kezib cholg'u asbobi jo'rligida o'z she'rlarini kuylab yurgan.

Agarda qadimgi «Iliada» va «Odissey» dostonlari bo'lmaganida, biz bundan uch ming yil muqaddam yashagan yunonlar hayoti haqida ko'p narsani bilmagan bo'lar edik.

XIX asrning oxirida nemis olimi Genrix Shlimann *Gomer* hikoyalarini tadqiq qilib, Troya joylashgan yerni hisoblab chiqdi. 1870- yilda olim Turkiyadagi Hisorlik tepaligi xarobalari hududida qazishma ishlarini boshlab yubordi va chindan ham Troya qoldiqlarini topdi.

O'zingizni sinang!

Troya – ... Gomer – ...
Shliman – ... «Achilles tovoni» iborasi ...

Yunonistonda teatr Bundan ikki yarim ming yil muqaddam Yunonistonda teatr dunyoga keldi. «Teatr» so'zini yunonchadan tarjima qilganda «*tomoshalar uchun joy*», «*tomoshaxona*» degan ma'nolarni ang-

latadi. Qadimgi yunon teatrlari maydoni o'lchamlari kattaligi bilan ajralib turgan. Afina teatri 17 ming tomoshabinga mo'ljallangan edi. Tomoshalar faqat bayramlarda uyushtirilgan. Erta tongdan boshlangan tomoshalar kun bo'yi davom etardi. Tomoshabinlarga bir necha pyesalar namoyish etilar edi.

Teatrga kirish uchun arzimagan tomosha haqi yig'ilgan. Qashshoq fuqarolarga teatrga borishi uchun pul berilar edi. Oldingi qatorlardagi o'rinlar tekin bo'lib, kohinlar, strateglar, davlatga muhim xizmatlar qilgan fuqarolar kabi faxrli tomoshabinlarga mo'ljallangan.

Teatrlarda o'zaro kurash namoyish etilgan, odatda qatnashuvchi kishilar halok bo'lishi bilan tugaydigan pyesalar *tragediya* deyilgan. «*Shoh Edip*» va «*Antigona*» singari eng mashhur tragediyalarni Sofokl yozgan.

Ajoyib qochiriqlar, quvnoq sahnalar, nozik yumorga boy *komediyalar* esa inson nuqsonlari ustidan kuladi. Aristofan komediyalar ustasi edi. «*Arlar*», «*Qushlar*», «*Baqalar*» degan mashhur komediyalarni ana shu muallif yozgan.

O'zingizni sinang!

«*Teatr*» yunon tilidan tarjima qilinganda ...

Tragediya – ... *Komediya* – ...

Haykaltaroshlik va me'morchilik

Yunonlar nafaqat podsholar va zodagonlar uchun saroylar va maqbaralar, balki hamma odamlar foydalanadigan jamoat binolarini ham barpo etishgan. Haykallar va boshqa haykaltaroshlik asarlari faqat saroy a'yonlari uylarini bezamasdan, ayni paytda shahar maydonlari, ibodatxonalar, hammaga ochiq tomoshabog'lar va stadionlarni ham bezab turgan.

Miloddan avvalgi VII asrdan boshlab ibodatxonalar va boshqa jamoat binolari toshdan barpo etila

Eslab qoling!

Mashhur tragediyalarni **Sofokl** yozgan. **Aristofan** esa komediyalar ustasi bo'lgan.



Yunon teatri



Teatr niqoblari




Sofokl



Zevs va Apollon.
*Parfenon peshayvonining
yuqori qismi*



Parfenon



**Aristofan – komediyalar
muallifi**

boshladi, xususiylar esa g'ishtdan va paxsadan qurilgan. Ustunlar jamoat binolari va ibodatxonalarining alohida bezagi va ko'rki edi. Ustunlar metall o'qlar yordamida bir-biriga mustahkamlangan bir necha tosh bo'laklaridan yasalgan.

Qadimgi Misr haykallarida fir'avnlarni tasvirlangan bo'lsa, Yunoniston san'atkor haykaltaroshlari o'z zamondoshlari haykallarini yasashgan. Ular haykallarda epchillik, kuch-qudrat, salomatlik va go'zallik singari har bir fuqaroni tarbiyalashda zarur bo'lgan fazilatlarini alohida bo'rttirib ko'rsatishga harakat qilganlar. Bu narsa ayniqsa, Mironning «*Disk uloqtiruvchi*» degan haykaltaroshlik asarida yorqin ifoda etilgan. Yunon haykaltaroshlari Olimpiya o'yinlari g'oliblari yoki jangda zafar quchgan qahramonlar sharafiga haykallar tiklashgan. Haykallar shu qadar ko'p ediki, tarixchilar, Afinada tirik odamlarga qaraganda jonsiz haykallar ko'proq, deb yozishgan.

Eng buyuk yunon haykaltaroshlaridan biri *Fidiy* edi. U Afinada *Parfenon* barpo etilishi va Akropolni qayta qurishiga boshchilik qilgan. Uning mashhur asarlaridan biri, Yer yuzidagi yetti mo'jizaning biri hisoblangan Olimpiyalik Zevs haykalidir. Arxitektor va haykaltarosh *Dedal* Minos degan podsho uchun mashhur Labirint saroyini barpo etgan.

Akropol markazida bunyod etilgan, Parfenon Yunonistondagi eng a'lo marmar toshlardan qurilgan. Yorug'lik tushishiga qarab u o'z rangini oltin rangidan havorang yoki kulranggacha o'zgartirib, tuslanib turgan. Baland tepalik Parfenonning poydevori bo'lib xizmat qilgan. Ibodatxona go'yo qoyaga singishib ketib, uning bir qismiga aylanib qolgandek tuyuladi. Ustunlari bilan bino oldiga chiqib turgan peshayvon Parfenonga alohida ko'rk bag'ishlagan. Peshayvonning yuqori qismi (peshtoqi)da xudolar siymolari tasvirlangan.


O'zingizni sinang!

Fidiy – ...

Dedal – ...

Parfenon – ...

Tayanch konspekt



Savol va topshiriqlar


1. Qadimgi Yunoniston o'qituvchilari oldiga qanday maqsad qo'yilgan? Yunon maktablari hozirgi maktablardan nimasi bilan farqlanadi?
2. Olimpiya ishtirokchisi nomidan hikoya tuzing. Siz u yerda nimalarni ko'rganingizni so'zlab bering.
3. Gomerning «Odisseya» qahramonlik dostonida nimalar haqida hikoya qilinadi?
4. Qaysi dostonida Gomer Troya oti haqidagi afsonani tasvirlaydi? Sizningcha, shunday voqea chindan ham ro'y berishi mumkinmi?
5. Qadimgi Yunonistonda teatr qanday ko'rinishda bo'lgan?
6. Yunon me'morchiligi o'ziga xosligi haqida so'zlab bering.
7. Qaysi yunon haykaltaroshlari va ularning asarlarini bilasiz?

31–32-§§. Olimlar va mutafakkirlar


Fan

Qadimgi Yunonistonda faylasuflarni donishmandlar, hayot murabbiylari sifatida bilishgan.


Yunon faylasuflari Olam tuzilishi va inson hayoti ma'nosini tushuntirishga harakat qilishgan. Ular




Gerakning to'qqiz boshli ajdar bilan jangi.




Gerakl Frakiya podshosi Diomedning yovvoyi otlarini bo'ysundirmoqda.



**Diogen bir bochkada
kun kechirgan**



Faylasuf Geraklit



Arastu (Aristotel)

o'simliklar, hayvonlar, inson tanasi, Quyosh va yulduzlarni o'rganishga harakat qilganlar.

Mashhur yunon faylasufi *Geraklit* Yer yuzidagi hamma narsa olovdan kelib chiqqan, deb uqtirgan. «Bir daryoga ikki marta tushish mumkin emas», «Hamma narsa oqadi, hamma narsa o'zgaruvchandir» degan mashhur hikmatlar unga tegishlidir.

Frakiyalik *Demokrit* degan faylasuf Geraklit fikriga e'tiroz bildirib, u bizni qurshab turgan hamma narsa ko'zga ko'rinmaydigan mayda-mayda zarralar – atomlardan tashkil topgan degan ma'nodagi fikrni bayon etgan.

Yunon faylasufi *Diogen* «Insonda hech qanday ehtiyojlar bo'lmasligi shart» degan fikrni o'z ta'limotiga asos qilib oldi. Hayotdagi barcha qulayliklardan voz kechgan Diogen bir bochkada kun kechirgan. Makedoniyalik Aleksandr undan: «Senga qanday yordam berishim mumkin?» deb so'raganida, Diogen: «Nariroq tursangchi, quyoshni to'sma!» deya kinoya qilgan ekan.

Miloddan avvalgi V asrda yashagan *Gerodot* «Tarix» deb nomlangan kitob yozgan. Misr, Mesopotamiya va Shimoliy Qora dengizbo'yi koloniyalari bo'ylab sayohatini nihoyasiga yetkazganda Gerodotni hali Yunonistonda birov tanimas edi. O'z vatandoshlarini «Yunon-fors urushlari to'g'risidagi tarix» asari bilan tanishtirganidan so'ng, u birdaniga mashhur kishiga aylanadi. Tirikligidayoq Gerodotga «*tarixning otasi*» degan unvon berilgan.

Qadimgi yunon olimi *Aristotel* to'plangan bilimlarni alohida tarmoqlarga ajratdi va ularni mustaqil fanlar sifatida ta'riflab berdi. Aristotelni Sharqda «*Arastu*» deya aytish keyinchalik odatga aylangan.

Barcha zamonlarda olimlar ilmiy masala yechimini topgan yunon fizigi va matematigi *Arximedning* «Evrika!» («Topdim, topdim!») qiyqirig'ini takrorlab yurishadi. Ehtimol, bu bir afsonadir, ammo yunonlar

to'la ishonch bilan Arximed yorug'likni ko'zgu orqali jamlab, Sirakuza ustiga hujum qilib kelayotgan rimliklarning kemalarini yondirib yuborgani haqida hikoya qiladi. Arximed richag (dastak) qonunini ishlab chiqdi va mashhur bo'lib ketgan bir iborani aytdi: «Menga tayanch nuqtasini topib bering, Yerni o'z o'qidan chiqarib yuboraman!»

Rimliklar uning jonajon shahri Sirakuzani bosib olganlarida, Arximed matematikaga oid bir masalani yechishga urinib qumda chizmalar chizgancha o'tirgan. Rimlik askar unga nayza sanchayotganida «Mening chizmalarimga qo'l tekkizmagin!» deyishga ulgurgan, xolos.

O'zingizni sinang!

Geraklit deydi...

Diogen – ...

Falsafa – ...

Gerodot – ...

Demokrit deydi...

Arximed – ...

Afinalik donishmandlar


Afinalik mashhur faylasuf Sokrat (Sharqda keyinchalik «Suqrot» tarzida aytilgan) o'zining dono hikmatlari tufayli shaharning eng aqli kishisi deb e'lon qilingan edi. Bunga javoban Suqrot shunday debdi: «Mening donishmandligim hech nimani bilmasligimni bilishimda».

Suqrot o'z fikrlarini og'zaki bayon qilgan. Uning g'oyalari Platon degan boshqa bir yunon faylasufi orqali bizgacha yetib kelgan. Atlantida degan xayoliy (ideal) davlat to'g'risida ta'limotni yaratgan Platonni endilikda «Aflotun» sifatida ham bilamiz.

Suqrot fuqarolarning axloqiy-ma'naviy tarbiyasiga katta ahamiyat bergan. Delfiya ibodatxonasidagi bitik uning sevimli hikmati ekan: «O'z-o'zingni anglagin va bilgin!» Muxoliflari bilan munozaralarida u yaxshilik va yomonlik nima degan masalaga javob berishga harakat qilgan. Faylasuf yomon, aldoqchi va shafqat-



Arximed va rimlik askar




Faylasuf Aflotun



Arximed tomonidan rimliklar kemalarining yondirib yuborilishi



Qo'lyozmani o'qiyotgan olimning tasviri




Suqrot

siz bo'lishga qaraganda yaxshi, halol, rahmdil bo'lish yaxshiroqdir, deb uqtirgan.

Suqrot, ayniqsa, ochko'zlik va molparastlik singari nuqsonlarni qattiq tanqid qilgan. Bozor bo'ylab sayr qilib yurganida shunday degan ekan: «Bularsiz ham kun kechirish mumkin bo'lgan shuncha narsalar borligi ham qandoq yaxshi!» Suqrot dunyoda Ezgulik qonunlari mavjudligini, faqat ularni bilish va ularga rioya qilgan holda yashash kerakligini isbotlagan.

Suqrot Afinadagi ba'zi tartilarni qo'rqmasdan tanqid qilgani uchun o'limga mahkum etilgan. Olimning boshqa bir davlatga qochib ketish imkoniyati bo'lsa-da, uni rad etgan. Suqrot tarixda odamiylik, sabrmatonat va jasurlik timsoli bo'lib qolgan.

Tayanch konspekt



Savol va topshiriqlar

1. Yunon olimlarining kashfiyotlari va yutuqlari haqida so'zlab bering.
2. Arximedning «Menga tayanch nuqtasini topib bering, Yerni o'z o'qidan chiqarib yuboraman!» degan iborasi ma'nosini tushuntirib bering.
3. Sizningcha, Suqrotning «O'z-o'zingni anglagin va bilgin!» hikmati nimani anglatadi?
4. Suqrot haqida nimalarni bilasiz? Suqrotning g'oyalari sizga ma'qulmi?

33–34-§§. Qadimgi Yunoniston afsonalari

Afsonalar: haqiqat va uydirma

Yunon afsonalari – xudolar va bahodirlar haqidagi rivoyatlarining qahramonlari bo'lgan turli xil *titanlar* (xudolardan tug'ilgan qudratli pahlavonlar), yovuz maxluqotlar, *sirenalar* (yarim qush, yarim ayollar), *kentavrlar* (yarim otlar, yarim odamlar), *sikloplar* – peshanasida bitta ko'zi bo'lgan afsonaviy mavjudotlardir. Afsonalar (yunon tilida «*mif*») mamlakat tarixidagi qadimgi davr haqida ko'p narsalarni bilishga imkon beradi. Ular Olamning yaratilishi, Yer yuzida hayot va odamning paydo bo'lishi, qahramonlar jasorati va dengiz sayohatlari haqida hikoya qiladi.

Yunon afsonalari rang-barang va qiziqarlidir. Olam va xudolarning kelib chiqishi haqidagi afsona ham maroqli. Avvalboshda Yer va Osmon – *Geya* va *Uran* bunyod etilgan. Ular Olamni boshqaruvchi titanlarni dunyoga keltirdilar, *Olimp tog'ida* yashovchi xudolar ularni taxtdan ag'darmaguncha hukmronlik qilganlar.

Afsonalarda aytilishicha, azalda Yer hamma tomondan dengizlar bilan o'ralgan bo'lgan. Dastlab ularning hukmdori *Okean* degan titan bo'lgan. *Atlas* degan titan, ulkan osmon gumbazini yelkalisiga suyab turgan.

Yunonlarning rivoyatlari *Gerakl*, *Axilles*, *Tesey* va *Ayaks* singari bahodir qahramonlar jasorati haqida hikoya qiladi. Ularning barchasi matonat, kuch-qudrat va aql-zakovat kabi fazilatlarga ega bo'lgan. O'n ikki jasorati tufayli *Gerakl* Olimp tog'idagi xudolar saltanati faxrli o'ringa ega bo'lgan ekan.

O'zingizni sinang!

Titanlar – ...

Kentavrlar – ...

Sirenalar – ...

Sikloplar – ...




Sirenalar tasviri



Kentavr va jangchi



Siklop



Gefest – temirchilik va hunarmandchilik xudosi



Artemida – ov xudosi



Ares – urush xudosi

Qadimgi yunonlarning xudolari

Qadimgi yunonlar ham ularning hayoti va tevarak olam ko'zga ko'rinmas sirli kuchlarga tobe ekanligiga ishonganlar. Bu ko'rinmas kuchlarni yunonlar xudolar deb atadilar. Xudolar ularning Yer yuzi va marhumlar saltanatidagi hayotida hukmron edi. Qadimgi yunonlarning uch xudosi Olamga hukmronlik qilar edi: *Zevs* osmonda, *Poseydon* dengizda, *Aid* marhumlar saltanatida oliy xudo deb hisoblangan. Qolgan xudolar esa dehqonchilik va hunarmandchilik, san'at va she'riyat, muhabbat va go'zallik homiy-lari va boshqa hisoblangan. Urush va g'alaba, adliya, uyqu va tonggi shafaq xudolari shuningdek, ikkinchi darajali *Satirlar* va *nimfalar* degan xudolar ham mavjud bo'lgan. Ular o'rmonlar, daryolar va tog'larda yashagan deb tasavvur etilgan.


Qadimgi yunonlarning xudolari

Zevs	oliy xudo va qolgan barcha xudolarning rahnamosi
Poseydon	Zevsning inisi, dengiz hukmdori
Afina	Zevsning qizi, jangari ayol, donishmandlik ilohasi
Apollon	Zevsning o'g'li, yorug'lik, musiqa va she'riyat xudosi
Gelios	Quyosh xudosi
Demetra	dehqonchilik va hosildorlik ilohasi
Geya	Yer ilohasi
Femida	adliya ilohasi
Gefest	temirchilar va hunarmandlar xudosi
Afrodita	muhabbat va go'zallik ilohasi
Ares	urush xudosi
Dionis	sharob xudosi
Germes	savdo xudosi

Nika	g'alaba ilohasi
Xronos	zamon xudosi
Artemida	o'rmonlar va ovchilik xudosi
Gipnos	uyqu xudosi

Yunonlarning e'tiqodicha, xudolar Makedoniya va Fessaliya chegarasidagi Yunoniston viloyatlaridan biri Elidada, Olimp tog'ida yashagan. Qadimgi yunonlarning xudolari va ilohalari ham odamlarga ancha o'xshaydi. Yunonlar Olimp tog'i xudolari timsolini tasvirlar ekanlar, ularni qizg'anchiq va shafqatsiz, kunni bazmi jamshid va ermakbozlikda o'tkazadi, bir-biri bilan tortishadi, deb hisoblashgan. Xudolar qattiqqo'l va qasoskor. Yunonlarning xudolari xohish-irodasiga qarshi borganlarni shafqatsiz jazolaydi. Shuning uchun ham yunonlar o'zlari yaratgan xudolardan qo'rqishar, ular sharafiga ko'plab ibodatxonalar barpo etib, qurbonliklar qilganlar.

Tayanch konspekt



Savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Yunoniston tarixini o'rganishda afsonalar qanday ahamiyatga ega?
2. Yunonlar xudolar to'g'risidagi afsonalarda, Qadimgi Yunoniston asotirlarida tabiatning har xil hodisalarini qay tarzda tushuntirishgan?
3. Qadimgi yunon afsonalarining asosiy qahramonlarini sanab bering.
4. Sizningcha, nima sababdan yunonlar xudolarni qizg'anchiq va shafqatsiz, kunni bazmi jamshid va ermakbozlikda o'tkazadi, bir-biri bilan tortishadi, deb hisoblashgan?



**Demetra–
dehqonchilik
va hosildorlik
xudosi**



**Aid – marhumlar
saltanatining xudosi**



**Dionis – uzumchilik
xudosi**



BO'LIM IV MIL. AVV. VI–MILODIY III ASRLARDA O'RTA OSIYO

35–36-§§. O'rta Osiyoga Ahamoniylarning bosqinchilik yurishlari



To'maris –
massagetlar
malikasi

Kir II va uning bosqinchilik yurishlari

Miloddan avvalgi VI asrning o'rtalarida Ahamoniylar sulolasidan bo'lgan qadimgi Fors shohlari jahonning barcha yirik mamlakatlari va shaharlarini o'z tarkibiga olgan saltanatni barpo etishga harakat qila boshladilar. *Kir II* O'rta Osiyo hududini bosib olishga harakat qilib ko'rgan dastlabki fors podshosi bo'lgan. **Mil. avv. 545 va 540-yillar** oralig'ida u Parfiya, Marg'iyona va Baqtriyani bosib oldi. **Mil. avv. 530-yilda** Kir II ulkan lashkar bilan massagetlar ustiga yurishga otlandi.

Bu yurish to'g'risida «tarix otasi» Gerodot hikoya qilib bergan. Forslar massagetlar hududiga bostirib kirganlarida ularning malikasi *To'maris* bosqinchilarga tinch-omon qaytib ketishni taklif qiladi. Ammo Fors shohi bu taklifni rad etadi va Amudaryodan kechib o'tishni boshlash to'g'risida farmon beradi.

Gerodot massagetlarning asosiy kuchlari bilan forslarning jangi to'g'risida shunday hikoya qiladi: *«Bu jang... barcha janglardan ham dahshatlirog'i edi. Avval har ikki dushman kuchlar bir-biriga qarshi jangovar saf tizishib, kamondan o'q yog'dirishdi. O'qlari tugagach, qo'llariga xanjar va nayzalar olib, dushmanga qarshi tashlandilar. Jang uzoq davom etdi. Hech kim chekinishni xayoliga keltirmasdi. Ko'p qon to'kildi. Nihoyat, massagetlarning qo'li baland keldi. Fors qo'shinlarining ko'pchiligi qirildi. Jang maydonida Kir II ning o'zi ham halok bo'ldi.»*

Eslab qoling!

Ko'plab davlatlarni bosib olgan Ahamoniylar sulolasi vakili Kir II – **mil. avv. 530-yildagi** massagetlar bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan.



O'rta Osiyo Ahamoniylar davlati tarkibida



Fors shohi


Doro I ning **Miloddan avvalgi 522-yilda Ahasaklarga qarshi yurishi** moniylar sulolasi vakillaridan biri Doro I taxtga o'tirdi. U miloddan avvalgi 522 – 486-yillarda hukmronlik qilgan.

Doro I hukmronligining birinchi yili Marg'iyonada fors istilochilariga qarshi yirik xalq qo'zg'oloni ko'tarildi. Qo'zg'olonga *Frada* rahbarlik qiladi. Qo'zg'olonchilar bilan forslar qo'shinlari o'rtasida hal qiluvchi jang **miloddan avvalgi 522-yilda** bo'ladi. Fradaning o'zi asirlikka olinadi va **miloddan avvalgi 521-yilda** qatl etiladi. Bu voqea haqidagi ma'lumotlar Behistun qoyatosh yozuvlarida qayd etilgan.

Doro I hukmronligining uchinchi yilida (**miloddan avvalgi 519-yil**) saklar ustiga yurish qiladi. Bu yurish haqida ham Behistun bitiklarida shunday deyilgan: «Shoh Doro ayturki: keyin qo'shin bilan saklar mamlakatiga yurish qildim. Keyin uchi o'tkir kuloh kiyib yuruvchi saklar jangga kirdilar. Men daryodan o'tgach, saklarni tamoman tor-mor keltirdim, qolgan qismini asirga oldim... Ularning Skunxa degan sardorini qo'lga tushirib, huzurimga keltirdilar. Shunda men ularga boshqa bir sardor tayinladim. Men shunday bo'lishini xohladim. So'ngra bu mamlakat menga tobe bo'ldi».

Eslab qoling!

Mil. avv. 522-yilda, Doro I hukmronligining birinchi yili Marg'iyonada fors istilochilariga qarshi xalq qo'zg'oloni ko'tarildi. Qozg'olonga **Frada** rahbarlik qildi.



Shiroq



Shiroq forslarni boshlab bormoqda



O'rta Osiyolik jangchining bronzadan yasalgan dubulg'asi



O'rta Osiyolik jangchilar

Ayni paytda bu yurish haqida tarixchi *Poliyen* (miloddan avvalgi II asr) keltirgan boshqa bir rivoyat ham mavjud. *Saklar rivoyatiga asoslanib, unda hikoya qilin- ishicha, forslarning qoshiga sak qabilasidan bo'lgan cho'pon Shiroq keladi, u fors qo'shinlarini o'zidan boshqa hech kim bilmaydigan so'qmoq bilan sak- larning orqa tomoniga boshlab borishini aytadi. Suv- siz cho'l – biyobon bo'ylab yetti kun yo'l bosishgach, tashnalikdan do'zax azobini chekayotgan forslar o'zlarining aldanganliklarini sezib qoladilar. Forslar jasur cho'ponni o'ldiradilar, Doro I ning saklar ustiga yurishi muvaffaqiyatsiz tugaydi.*

O'zingizni sinang!

Doro I – ...

Frada – ...

Shiroq – ...

Ahamoniylar hukmronligi davrida davlat boshqaruvi

Bosib olingan mamlakatlarni itoatda tutmoq uchun Ahamo- niylar butun boshli davlatni alohida viloyat – *satrapliklarga*

bo'lib tashladilar. Bu so'z forscha «xshatra» – «vilo- yat» so'zidan kelib chiqqan. Viloyat boshlig'i – *satrap- ga* cheklanmagan hokimiyat berilgan edi. Satraplarn- ing ko'pchiligi Ahamoniylar sulolasi vakillari bo'lgan.

O'rta Osiyoning forslar bosib olgan viloyatlari uch satraplikka bo'linadi. Har bir satraplik yillik soliq to'lagan. Bundan tashqari, qaram xalqlar saroy va ibodatxonalar qurilishiga ham safarbar etilgan. Soliq- ni kumush, chorva mollari (otlar, tuyalar, qo'ylar), hu- narmandchilik buyumlari (sopol idishlar, qurol-yarog', zeb-ziynatlar), kiyim-kechak va hayvonlar terisi bilan to'lashgan.

Doro I va uning vorisi Kserks hukmronligi davrida (miloddan avvalgi 486–465-yillar) bosib olingan vilo- yatlardagi O'rta Osiyo xalqlari yunon-fors urushlarida

ham qatnashdilar. Mashhur Marafon jangida (miloddan avvalgi 490- yil) fors qo'shinlari markazida bo'lgan saklar muvaffaqiyatli urushgan.

Gerodot Kserks boshchiligida yunonlar ustiga yurish qilgan O'rta Osiyolik jangchilar qurol-yarog'larini mufassal tasvirlagan. Baqtriyaliklar kamon va nayzalar bilan, saklar xanjar va jangovar boltalar bilan, xorazmiylar va so'g'diylar baqtriyaliklarniki kabi qurol-aslahalari bilan jangga kirishgan. Sak va baqtriya suvoriylari Kserks qo'shinidagi eng yaxshi jangchilardan hisoblangan.

Mashhur qadimgi yunon dramaturgi *Esxil* o'zining «Forlar» tragediyasida Salamin yonidagi dengiz jangida halok bo'lgan navqiron baqtriyalik jangchilarni tilga olgan.

O'rta Osiyo xalqlari ustidan Ahamoniylar hukmronligi 200 yildan ko'proq davom etdi. Faqat mil. avv. IV asrda saklar, xorazmiylar va massagetlar Ahamoniylar davlati tarkibidan chiqib, mustaqil bo'ldilar.

Madaniyatning rivojlanishi

Miloddan avvalgi VI–IV asrlarda madaniyatning rivojlanishi yozma va arxeologik manbalar asosida o'rganilgan. Ular O'rta Osiyo xalqlarining hunarmandchilik, zargarlik, tikuvchilik, kulolchilik va binokorlik sohalarida yuksak darajaga erishganlaridan dalolat beradi.

Surxondaryo, Qashqadaryo, Zarafshon vohalari, shuningdek, Amudaryoning quyi oqimida, Qiziltepa, Uzunqir, Yerqo'rg'on, Afrosiyob, Ko'zaliqir va boshqa shu kabi yirik hunarmandchilik markazlari bo'lgan.

Manbalarda oltin, kumush, la'l, firuza ma'danlari qazib olingani, mis va temir eritilgani, kulolchilik rivojlangani, O'rta Osiyoning Sharq mamlakatlari bilan bog'langan qadimiy karvon yo'llarida olib borilgan savdo-sotiq ishlari to'g'risida xabar beriladi.



Massagetlar kiyimi va qurollari

Eslab qoling!

Ahamoniylar davrida Qiziltepa, Yerqo'rg'on Uzunqir, Afrosiyob, Ko'zaliqir singari yirik hunarmandchilik markazlari bo'lgan.



Oltin bilaguzuk.
Amudaryo xazinasidan



O'rta Osiyo aholisi vakilari.
Mil. avv. VI asr



Oltindan yasalgan ot-arava nusxasi.
Mil. avv. V–IV asrlar

Miloddan avvalgi V–IV asrlarda O'rta Osiyo hududida dastlabki tanga pullar tarqalgan. Zargarlik san'atining yuksak darajada rivoj topganiga bugungi kunda Britaniya muzeyida saqlanayotgan, 1877- yilda *Amudaryo xazinasidan* topilgan oltin va kumush buyumlar yorqin misol bo'la oladi.

Har bir shahar markazida qal'a – arklar bo'lgan. Ularning atrofini egallagan dehqon xo'jaliklarida ota urug'iga mansub katta-katta oilalar kun kechirishgan. Dehqonlar qo'rg'onlari uy-joy va xo'jalik xonalaridan iborat bo'lgan.

Arxeologlar shahar va qo'rg'onlar atrofida dalalarga suv olib kelgan anhorlar va ariqlar izlarini topganlar.

Tayanch konspekt

- mil. avv. 545 va 540-yillar – Kir II Parfiya, Marg'iyona va Baqtriyani zabt etdi
- mil. avv. 530-yil – Kir II massagetlar bilan jangda halok bo'ldi (To'maris)
- mil. avv. 522-yil – Frada qo'zg'oloni
- mil. avv. 519-yil – Doro I → saklar (Polien Shiroq jasorati haqida)
- satrapliklar → O'rta Osiyo – uchta satrapliklar
- mil. avv. IV asr – xorazmiylar, saklar va massagetlar Ahamoniylar istibdodidan ozod bo'ldi
- mil. avv. VI–IV asrlar – shaharlar – Qiziltepa, Yerqo'rg'on, Uzunqir, Afrosiyob, Ko'zaliqir

Savol va topshiriqlar

1. Kir II O'rta Osiyo hududiga qachon bostirib kirdi?
2. O'rta Osiyoning qaysi davlatlari Kir II tomonidan bosib olindi?
3. Kir II ning navbatdagi yurishi kimga qarshi qaratilgan edi?
4. Marg'iyonada Doro I ga qarshi qachon qo'zg'olon ko'tarildi? Unga kim boshchilik qilgan?
5. Yozuvsiz xaritada O'rta Osiyo bo'ylab bosqinchilar yo'lini belgilang.
6. Ahamoniylar O'rta Osiyoda qaysi soliqlarni joriy etganlar?
7. Shiroq tutgan yo'lni qanday baholaysiz?

37–38-§§. O'rtasiyo aholisining yunon-makedon istilochilariga qarshi kurashi

Mil. avv. IV asrda Makedoniyaning yuksalishi

Aleksandr miloddan avvalgi 336-yilda Makedoniya podshosi bo'ladi. Shu yili u 20 yoshga to'lgan edi.

Makedoniyalik Aleksandr g'ayrioddiy kuch-g'ayrat va jasurlik sohibi bo'lgan, safdoshlari va qo'shinlari unga nihoyatda sadoqatli edi. **Mil. avv. 334- yilda** u Sharqqa yurish boshladi, bu yurish 10 yil davom etdi. Ana shu yurish davomida u Kichik Osiyo, Suriya, Misr, Eron va Hindistonda katta-katta hududlarni bosib oladi. Makedoniyalik Aleksandr ulkan hududda yunon madaniyati tarqalishiga imkon yaratish maqsadida bosib olingan shaharlarga yunonlarni joylashtirdi. Makedoniyalik Aleksandr yurishlarida qatnashgan yunon tarixchisi *Aristobul* bu yurishlar haqida hikoya qilgan.

O'zingizni sinang!

Aleksandr – ...

O'rtasiyo xalqlarining qurol-yarog'i va harbiy san'ati

Miloddan avvalgi VII–IV asrlarda O'rtasiyo jangchilari nima bilan qurollangan edi? Jangchilar jangga sovut kiyib

kirganlar, boshlarida dubulg'a bo'lgan. Xanjar va qilichlar bilan, jangovar oybolta va nayzalar bilan qurollanganlar. Kamon o'qi va chopqilar temir va jezdan yasalgan. Jangchilar otda ham, piyoda ham jang qila olganlar.

O'rtasiyo xalqlari orasida xanjar – «*akinak*», jangovar oybolta esa «*sagaris*» deb nomlangan. Uzoq masofadan turib jang qilish quroli sifatida kamondan foydalanilgan. Jangovar otlar ustiga va ko'kragiga temirdan to'qilgan bargustvon yopilgan.

Eslab qoling!

Makedoniyalik Aleksandr yurishlarida qatnashgan tarixchi Aristobul bu yurishlar haqida hikoya qilgan.



Makedoniyalik Aleksandr



Akinak



**Sagaris – jangovor
oybolta**

Eslab qoling!

Qiziltepa, Afrosiyob va Uzunqir kabi katta shaharlar burjlari va jangovor shinaklari bo'lgan mustahkam devorlar bilan o'rab olingan.



**Makedoniyalik
Aleksandr jangchilari**

O'zingizni sinang!

Akinak – ...

Sagaris – ...

Dushmanga qarshi hujumni suvoriylar boshlab berganlar. Ular ot choptirib kelayotib o'q-yoy, nayza yoki qilich bilan dushmanga hamla qilganlar. Suvoriylar boshqa bir harbiy usulni ham qo'llaganlar: suvoriylar yolq'ondan chekinishgan va keyin qaytadan boshqa tomondan hal qiluvchi zarba berganlar.

Qal'a va shaharlarni himoya qilishda o'q-yoy va palaxmondan foydalanganlar. Tosh irg'itganlar, qaynab turgan suvni sochganlar. Mudofaa maqsadida tosh va pishirilgan loy guvalalardan ham foydalanilgan.

Qiziltepa, Afrosiyob va Uzunqir singari shaharlar burjlar va shinaklari bo'lgan mustahkam devorlar bilan o'rab olingan edi. Devorlar tepasida kamonchilar uchun yo'laklar qurilgan. Tashqi devorlar bo'ylab joylashgan dumaloq burjlar ichida ham kamonchilar joylashganlar. Suv to'latilgan chuqur va keng xandaq qal'aga boradigan yo'lni to'sib turgan.

Makedoniyalik Aleksandrning istilochiligi

Miloddan avvalgi 330- yilda

Makedoniyalik Aleksandr Qadimgi Fors davlatining Ahamoniyar sulolasidan bo'lgan oxirgi shoh *Doro III ning* qo'shinlarini tor-mor keltirdi. U Hindistonga yurish qilishdan oldin qo'shinlarning orqa tomonini xavfsizlantirish maqsadida Amudaryoning narigi tomonida yashovchi elatlarni bo'ysundirishga qaror qildi.

Birinchi bo'lib uning yo'lini to'sgan shahar Baqtriya poytaxti *Baqtra* (Zariasp) bo'ldi. Bu vaqtda Ahamoniyar sulolasining vakili *Bess* Baqtriyaning satrapi bo'lgan. U Baqtra shahrini dushmanga qoldirib, Amudaryoning narigi tarafga qochib ketadi.



Makedoniyalik Aleksandrning yurishlari


So'g'diyona mustaqilligicha qolgan. Makedoniyalik Aleksandr o'z ustozini, qadimgi yunon faylasufi Aristotelning Amudaryodan ikki podsho – Kir II va Doro I kechib o'tgani, ikkalasi ham mag'lubiyatga uchrangani, shu bois u yurishga yaxshi tayyorgarlik ko'rishini lozimligi to'g'risidagi maslahatini yodda tutar edi.

Maroqandaning bosib olinishi


Miloddan avvalgi 329-yilda

Makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari Oks – Amudaryodan o'ta boshladi. Aleksandrning jangchilari bu to'siqdan o'tib oldilar. Qo'shinlar yurishlari yo'llanishida esa *Nautaka* (Qashqadaryo vohasining sharqiy qismi) va *Maroqanda* shahri (Samarqand) turar edi.

Miloddan avvalgi 329-yilda yunon-makedonlar Maroqandani egalladi. Aleksandr qo'shinlarning bir qismini shu yerda qoldirib, o'zi esa *Kurushkat* (Kiropolis) shahrini bosib olish uchun asosiy kuchlar bilan Sirdaryo qirg'oqlari sari yurdi. Rivoyatga ko'ra, bu shaharga fors shohi Kir II asos solgan.



Baqtriyalik tuyakash



Spitamen

Eslab qoling!

Mil. avv. 329-yilda yunon-makedon qo'shinlari Maroqandani egaladilar. Ularga qarshi qo'zg'olonga **Spitamen** boshchilik qildi.



Pistirma

So'g'diyona xalqi bosqinchilarga qarshi kurashga chiqadilar. Tez orada so'g'diylarga baqtriyaliklar va saklar qo'shiladilar. Qo'zg'olonga iste'dodli tashkilotchi va harbiy yulboshchi *Spitamen* boshchilik qiladi.

Ancha qo'shin to'plagan Spitamen Maroqandani qamal qildi. Aleksandr qamalda qolganlarga yordamga uch mingga yaqin jangchidan iborat qo'shin jo'natadi. Qadimda «*Politimet*» deb atalgan Zarafshon daryosi bo'yida makedonlarga pistirma qo'ygan Spitamen dushman guruhini tamomila qirib tashlaydi. Shunda Aleksandrning o'zi qo'zg'olonni bostirishga o'tlanadi. Yunonlarning katta kuchlari yaqinlashib kelayotganidan xabar topgan Spitamen qamalni to'xtatadi va o'z qo'shinlarini sahro sari boshlab ketadi.

Saklarga qarshi kurash uchun Aleksandr Sirdaryo bo'yida, Xo'jand yaqinida qal'a barpo etish to'g'risida buyruq beradi. Bu qal'a *Aleksandriya Esxata* (Chekka Aleksandriya) deb ataldi.

Aleksandr Maroqandada maxsus harbiy qo'shin qoldirib, asosiy qo'shinlari bilan qishlash uchun *Zariasp* (Baqtra)ga jo'nadi. O'sha yilning bahorida Aleksandr qo'zg'olonni bostirish chorasini ko'radi. O'z lashkarlarini uch qismga bo'lib, So'g'diyonani u boshidan bu boshigacha kezib chiqadi va tinch aholining 120 ming nafarini qirib tashlaydi.

Mil. avv. 328-yil kuzida Spitamenning Aleksandr bilan hal qiluvchi jangi bo'lib o'tadi. Kuchlar teng bo'lmaganidan Spitamen yengilib, tag'in cho'lga chekinadi. O'sha yerda ko'chmanchi qabilalar boshliqlari xoinlarcha uni o'ldiradilar.

O'zingizni sinang!

Oks – ...

Nautaka – ...

Maroqanda – ...

Kurushkat – ...

Spitamen – ...

Baqtriya – ...

Kurashning davomi Spitamenning o'limi so'g'diylar va baqtriyaliklar irodasini buka olmadi.

Aleksandr So'g'd zodagonlari – *Xoriyen* va *Oksiartning* Hisor tog'larida joylashgan tog' qal'alarini qo'lga kiritib, Oksiartning qizi *Ravshanakka* uylanadi. Shunday qilib, Makedoniyalik Aleksandr e'tiborli so'g'd zodagonlaridan biri bilan qarindosh tutinadi.

O'rta Osiyo yerlarini bosib olish uchun Aleksandr deyarli uch yil urindi, biroq uncha katta bo'lmagan hududni: Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona, hozirgi Bekobod va Xo'jand orasida Sirdaryo bo'ylarini bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. Xorazm, Toshkent vohasi va Farg'ona mustaqilligicha qoldi.


Spitamen qo'zg'oloni bostirilishiga qaramay, yunon-makedon qo'shinlari birinchi bor mag'lubiyatga uchradilar.

Bosqin oqibatlari

Yunon-makedon qo'shinlarining bosqinchlik yurishlari O'rta Osiyo yerlarini xarobazorga aylantirdi, aholining katta qismi qirilib ketdi, ko'plab shaharlar vayron etildi.

Yunon tarixchilarining yozishicha, makedoniyalik Aleksandr O'rta Osiyoda bir nechta shaharlar qurdirgan. Bu shaharlar uning nomi bilan *Oksdagi Aleksandriya*, *Aleksandriya Esxata*, *Marg'iyona Aleksandriyasi* va hokazo tarzida atalgan. Ularning ba'zilari vayron etilgan So'g'diyona va Baqtriya shaharlari o'rnida, boshqalari esa tayanch qal'alar sifatida yangidan qurilgan. Bu shaharlarda yunon-makedon piyoda va otliq askarlari joylashgan. Mil. avv. 324- yildan boshlab bu askarlarning siyraklashgan saflari Makedoniya tartibida qurollantirilgan Baqtriya va So'g'diyona yoshlari hisobiga to'ldiriladi.

Bora-bora hunarmandchilik va savdo qayta tiklandi. Mahalliy va yunon madaniyatlari an'analarning qo'shilishi yuz berdi. Shu asosda Salavkiylar, Yunon-Baqtriya va Parfiya singari antik davlatlar taraqqiy etadi.



Jang ko'rinishi

Eslab qoling!

Aleksandr O'rta Osiyo yerlarini bosib olish uchun uch yil harakat qildi. Lekin u uncha ham katta bo'lmagan hududnigina o'ziga bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi.



**Aleksandr
tangasi**

Eslab qoling!

Mil. avv. 323-yilda Makedoniyalik Aleksandr vafot etdi. U tuzgan davlat uch qismga bo'linib ketdi: Makedoniya, Misr, Suriya. O'rta Osiyo hududi Suriya davlati tarkibida bo'lgan.



Salavka

Tayanch konspekt

- mil. avv. 334-yil. – Aleksandrning Sharqqa yurishi
- Aleksandr yurishlarini tarixchi Aristobul tasvirlagan
- qurol-yarog': aqinak, sagaris
- qadimgi shaharlar – Qiziltepa, Afrosiyob, Uzunqir
- Bess – Baqtriya satrapi
- mil. avv. 329-yil – Maroqandaning bosib olinishi → Spitamen
- Politimet (Zarafshon daryosi) bo'yidagi jang
- Aleksandriya Esxata
- mil. avv. 328-yil – Spitamenning mag'lubiyati

Savol va topshiriqlar

1. O'rta Osiyolik jangchining qurollarini tavsiflab bering.
2. Makedoniyalik Aleksandr So'g'diyonaga qachon yurish boshladi?
3. Makedoniyalik Aleksandr bosib olingan hududlarda o'z hokimiyatini qaysi yo'llar bilan joriy etgan?
4. Spitamen qo'zg'oloni qachon bo'lib o'tdi? Qo'zg'olon qanday yakunlandi?
5. Yunon-makedon qo'shinlarining O'rta Osiyoga bostirib kirishi salbiy oqibatlarini sanang.
6. Yozuvsiz xaritada Makedoniyalik Aleksandrning O'rta Osiyo bo'ylab o'tgan yo'llarini belgilang.

39–40-§§. Salavkiylar davlati va Yunon-Baqtriya podsholigi

O'rta Osiyo Salavkiylar davlati tarkibida

Miloddan avvalgi 323-yil 13-iyunda Makedoniyalik Aleksandr vafot etdi. U barpo etgan davlat uch qismga: Makedoniya, Misr va Suriyaga bo'linib ketdi. Bu davlatlar Aleksandrning eng yaqin lashkarboshilari tomonidan boshqarilgan.

Uzoq davom etgan o'zaro urushlardan keyin, **miloddan avvalgi 312-yilda** Makedoniyalik Aleksandrning lashkarboshilaridan biri *Salavka* Bobil (Suriya davlati) hukmdori bo'ldi. Salavka davlati tarkibiga Mesopotamiya, Eron, Parfiya, Baqtriya, So'g'diyona, Marg'iyona kirar edi.

Salavka o'z davlati tarkibiga kirgan O'rta Osiyoni alohida viloyatlar satrapliklarga bo'ldi, ularning har biriga boshliq satrap hukmronlik qilar edi. Davlat mudofaasi va qo'shinlarni tashkil etish bilan sobiq lashkarboshilardan tayinlangan *strateg* shug'ullanar edi.

Miloddan avvalgi 293-yilda Salavka o'z o'g'li Antioxni Sharqiy viloyatlar – Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyonaga noib etib tayinladi. Mil. avv. 280-yilda Salavkaning vafotidan so'ng Antiox ulkan davlat boshida turib, uni 20 yilga yaqin boshqardi.


O'zingizni sinang!

Salavka – ...

Strateg – ...

Asta-sekinlik bilan So'g'diyona, Baqtriya va Marg'iyonada tinch hayot tiklana boshladi. Bu yerlarda yangi manzilgohtar, shaharlar bunyod etildi, savdo-sotiq, dehqonchilik va hunarmandchilik rivojlana boshladi. Baqtra, Maroqanda, Marg'iyona Antioxiyisi (Marv), Termiz yirik shahar va madaniyat markazlariga aylandi.

Yunon-makedon istilolaridan keyin O'rta Osiyo tarixida *antik* davri boshlandi. Bu yurishlar pirovardida G'arb va Sharq o'rtasida madaniy munosabatlari va almashinuv kengayishiga olib keldi. Baqtriya-da yunon yozuvi, yunon og'irlik o'lchov birliklari, pul munosabatlari, hunarmandchilik va san'at buyumlari tarqaldi. O'z navbatida yunonlar ham Baqtriyaning binokorlik va hunarmandchilik an'analarini o'zlashtirdilar.



Salavkiylarning qoshinlari



Salavkiylarning jangchilari

Eslab qoling!

Ellinlashtirish – Sharqda mil. avv. III–II asrlarda yunon madaniyatining tarqalishi va yangi, umumlashgan madaniyat (yunon va mahalliy, sharq madaniyatini)ning vujudga kelishi.

Yunon-Baqtriya davlati

Miloddan avvalgi 250- yilda Baqtriya Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqadi. Antik davr

tarixchilarining xabar berishicha, mingta Baqtriya shahri hukmdori bo'lmish *Diodot* o'zini podsho deb e'lon qiladi. Shu voqeadan boshlab Yunon-Baqtriya davlati tarixi boshlanadi. **Mil. avv. 250- yilda** Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqqan Parfiya Baqtriyaning raqibiga aylanadi. Baqtriyadan tashqari, Yunon-Baqtriya podsholigi tarkibiga So'g'diyona va Marg'iyona ham kirgan.



Qadimgi Baqtriya tog'lari



Mil.avv. II asr boshlaridagi Yunon-Baqtriya davlati

Eslab qoling!

Yunon-Baqtriya davlati hukmdorlari – **Diodot, Yevtidem, Demetriy.**

Diodotdan keyin Yunon-Baqtriyada hukmronlik davlat tarixida sezilarli iz qoldirmagan *Yevtidem*ga o'tadi. Yevtidemning o'g'li *Demetriy* hukmronligi davrida (mil. avv. 199–167-yy.) Yunon-Baqtriya podsholigi eng katta sarhadlarga ega bo'ldi. Hindistonning bir qismi bu davlatga qo'shib olingan.

Parfiyada hokimiyat *Mitridat I* qo'lga o'tishi bilan u Baqtriyaga harbiy tazyiqni kuchaytiradi. Yunon-Baqtriya davlati tinimsiz urushlar olib borishga majbur bo'ladiki, bu hol uning kuchsizlanishi-

ga sabab bo'ldi. Bundan foydalangan ko'chmanchi yuechji qabilalari **miloddan avvalgi 140–130-yillar** oralig'ida Yunon-Baqtriya davlatini bosib oladilar.

O'zingizni sinang!

Diodot – ...

Demetriy – ...

Yevtidem – ...

Mitridat I – ...

Madaniyatning rivojlanishi

Yunon-Baqtriya davlati 120 yil yashadi. Shu davr mobaynida uning iqtisodiyoti va madaniyati yuksaldi. Hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlandi, ko'plab shaharlar barpo etildi. Baqtriya, So'g'diyona va Marg'iyona hunarmandlari yasagan buyumlar ko'pgina qo'shni shaharlar va davlatlarga ham tarqaldi.

Yunon-Baqtriya davlatida tangalar hukmdor tasviri bilan zarb etilgan. Dajla daryosi bo'yi – Salavkiyadan Baqtriyagacha karvon yo'li qurib bitkazilgach, jahondagi ko'pgina davlatlar bilan xalqaro savdo-sotiq va madaniy aloqalar jonlandi. Baqtriya orqali Xitoydan Hindistonga boradigan karvon yo'li, shuningdek, Buyuk Ipak yo'lining janubiy tarmoqlari o'tgan edi.



Yunon-Baqtriya davlatining tangaiari

Tayanch konspekt

- mil. avv. 323-yil – Makedoniyalik Aleksandrning vafoti
- podsholik
 - Makedoniya
 - Misr
 - Suriya
- mil. avv. 312-yil → Salavka – Salavkiylar davlati asoschisi
- mil. avv. 280-yil → Antiox – Salavkiylar davlati hukmdori
- antik davri
- ellinlashtirish → Yunoniston va Sharq madaniyati aralashishi
- mil. avv. 250 yilda – Yunon-Baqtriya davlatining tashkil topishi – Diodot → Yevtidem → Demetriy
- mil. avv. 140 – 130-yillar – Yunon-Baqtriyaning yuechjilar tomonidan bosib olinishi

Eslab qoling!

Mil. avv. 140 – 130-yillarda Yunon-Baqtriya davlati yuechji qabilalari tomonidan bosib olindi.

Eslab qoling!

Baqtra, Maroqanda, Marg'iyona Antioxiysi (Marv) va Termiz – Salavkiylar davlatining yirik shaharlari hisoblanagan.

Savol va topshiriqlar

1. Makedoniyalik Aleksandr davlati qaysi mustaqil davlatlarga bo'linib ketdi?
2. Salavka va Antiox haqida nimalarni bilasiz?
3. Parfiya va Baqtriya qachon Salavkiylar davlatidan mustaqil bo'ldilar?
4. Yunon-Baqtriya podsholigi qachon tashkil topdi?
5. Yunon-Baqtriya davlati tarixida ko'chmanchi yuechjilarning qanday o'rni bor?
6. «Ellinlashtirish» atamasining ma'nosini tushuntirib bering.
7. Yozuvsiz xaritada Salavkiylar davlati va Yunon-Baqtriya podsholigi hududlari chegarasini belgilang.



Qo'yqirilgan qal'a.
Tiklangan



Qadimgi xorazmliklarning qiyofalari

41-§. Qadimgi Xorazm, Qang' va Dovon davlati

Qadimgi Xorazm

Miloddan avvalgi IV asrda Xorazm Ahamoniylar davlatidan ajralib chiqib, mustaqil davlatga aylandi. Makedoniyalik Aleksandr va Salavkiylar hukmronligi davrida ham Xorazm davlati mustaqil edi. Bu o'lka aholisi xo'jaligining asosini dehqonchilik tashkil etgan.

Xorazmda shaharsozlikning boshlanishi miloddan avvalgi VII asrga borib taqaladi (Ko'zaliqir shahri xarobalari). Mil. avv. V–IV asrlarda bu yerda mahalliy hukmdorning qarorgohi bo'lgan ulkan qal'a bunyod etilgan edi (*Qal'aliqir* shahri xarobalari).

Miloddan avvalgi III–II asrlarda *Jonbosqal'a* Xorazmning qadimgi shahri bo'lgan. *Qo'yqirilgan qal'a* xarobalari ostidan aylana shaklda qurilgan mustahkam ibodatxona qoldiqlari topilgan.

Milodiy II–III asrlarda *Tuproqqal'a* shahrida bundan ham ulug'vor va muhtasham qurilish ishlari amalga oshirilgan edi. Shahar qudratli mudofaa devorlari bilan o'ralib, devor burchaklarida burjlar qurilgan. Markazdan o'tgan ko'cha shaharni ikki qismga bo'lgan, undan esa yon-atrofga ko'chalar ketgan, mahalalar bir-biridan ajralib turgan. Markaziy maydonda muhtasham saroy va ibodatxonalar joylashgan.

Qasrdagi saroy devorlari shohlar, lashkarlar, sozandalar, shuningdek, hayvonlar va qushlar tasviri bilan bezalgan. 20 dan ortiq bo'yalgan loy haykallar zalardan biridagi tokchalarda devor bo'ylab o'rnatilgan.

Xorazmda ayniqsa hunarmandchilik yuksak darajada rivoj topgan. Kulolchilik, temir, mis asboblari, qurollar, zargarlik buyumlariga talab katta bo'lgan. Xorazm aholisi So'g'diyona, Marg'iyona, Baqtriya va dasht ko'chmanchilari bilan yaqindan savdo munosabatlarini o'rnatgan. Bu o'lkadan muhim karvon yo'llari o'tgan. Mil. avv. I asrda va milodiy dastlabki asrlarda Xorazmda kumush va mis tangalar zarb qilingan.

O'rta Osiyodagi eng qadimgi yozuv Xorazm hududidan topilgan. Bular *Oybo'yirqa'l'a* (miloddan avvalgi V–IV asrlar) yodgorligidan xum sirtiga chekilgan yozuv va Qo'yqirilganqal'adan topilgan ayrim mahalliy yozuvlardir (miloddan avvalgi III–II asrlar).

Milodiy I asrda Xorazmda ishlab chiqilgan mahalliy taqvimdan xorazmliklar VIII asrga qadar foydalanishgan.

Xitoy manbalaridan bu davlatning **Qang' davlati** *Qang'yuy* deb atalgani ma'lum.

Miloddan avvalgi III asrda unga saklar asos solishgan. Qadimshunoslarning aniqlashicha, Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanidagi Qang'xa shahar xarobasi saklarning o'sha kezlardagi poytaxti *Qang'dez* bo'lib, unga miloddan avvalgi III asrda asos solingan. Xitoy tarixchilari bu shaharni *Bityan* deb atashgan.

Qang' davlatining asosiy shaharlari Sirdaryo sohillari bo'ylab joylashgan edi.

Miloddan avvalgi II asr oxirida Qang' qudratli davlat birlashmasiga aylanadi. Uning hukmdorlari o'z nomidan tangalar zarb qildirganlar. Qang' davlatida



Mudofaa devor xarobalari. Xorazm

Eslab qoling!


Xorazmda shaharsozlikning boshlanishi mil. avv. VII asga borib taqaladi.



Qadimgi Xorazm jangchisi

Eslab qoling!

Qang' (Qang'yuy) – hozirgi Toshkent vohasi, Chimkent viloyati va Sirdaryo havzasi yerlarini egallagan qadimgi davlat birlashmasi.



Gadimgi Xorazm qal'asi



Ot haykalchasi

ulkan istehkomlar, qal'a, shahar ibodatxonalari, savdo va hunarmandchilik mahallalari barpo etiladi.

Davlatning madaniy markazlaridan biri Toshkent vohasi edi. Ayni shu hududda o'troq ziroatchi va savdo-hunarmandchilik madaniyati vujudga kelgan.

O'zingizni sinang!

Qang'xa – ...

Qang'dez – ...

Qang'yuy – ...

Qang' – ...

Davlat iqtisodiyotining gullab-yashnashiga uning hududidan Buyuk Ipak yo'lining shimoliy tarmog'i o'tganligi imkon yaratdi. Lekin ayni shu hol Xitoy bilan urushlarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Bu urushlarda qang'arlar (Qang' davlati aholisini shunday atashgan) ko'pincha g'olib chiqar edilar.

Milodiy III asrga kelib Qang' davlati parchalanib ketdi.

Dovon davlati Dovon davlati (Xitoy manbalarida bu o'lka shu nom bilan tilga olinadi, boshqa manbalarda Parkana deyilgan) tarixchilar uchun muhim bo'lgan uning tashkil topgan va inqirozga yuz tutish yillari aniqlanmagan. Bu davlat, taxminan, **miloddan avvalgi III asrdan to milodiy II asrgacha** mavjud bo'lib, Farg'onada joylashgan.

Dovon davlati tarixi haqidagi batafsil ma'lumot Xitoy yilnomalarida uchraydi va ular milodiy I–II asrlarga oiddir. Xitoy tarixchisining yozishicha, bu davlat aholisi 70 dan ortiq shaharlarda istiqomat qilgan. Masalan, Dovonda bo'lgan xitoy sayyohi *Chjan Syan* bunday deb yozadi: «*Dovon diyorida 70 tacha katta-kichik shahar bor; aholisining soni bir necha yuz mingga yetadi. O'q-yoy va nayzalar bilan qurollanishgan. Xalqi ot choptirib o'q otishga mohir*». Boshqa bir xitoy solnomasida: «An'si (Eron) shaharlari Dovondagiga o'xshashdir», deb yozilgan.

Xitoy tarixchilarining guvohlik berishicha, Dovon davlati hududlari hozirgi Toshkent vohasigacha bor-gan: «*Xan sulolasi zamonida Shi mulklari Dovon davlatining shimoliy tumanlarini tashkil etardi va shi-molda Qang' davlatigacha, janubda esa yuechjilar davlatigacha borardi*».

Xitoy hukmdorlari bir necha bor bu davlatni bosib olmoqchi bo'ldilar, biroq ularning harakatlari behuda ketdi. Harbiy yurishlarning birida ular Dovon davlati-ning poytaxti Ershini qo'lga kiritdilar, biroq aholisining tovon to'lashi evaziga uni tashlab chiqishga majbur bo'ldilar.

Dovon davlati Xitoy va Sharqning boshqa mam-lakatlari bilan bo'lgan xalqaro savdoda muhim o'rin tutgan. Xitoy hukmdorlarini ko'proq Farg'onaning zotli otlari qiziqtirardi. Otlar naslining biriga hatto ular «*Samoviy*» deb nom berganlar. «*Samoviy otlar*» mukam-mal va go'zal ko'rinishga ega bo'lgan.

Qadimshunoslar topgan dalillar Xitoy solnomalari-dagi ma'lumotlarni tasdiqladi. Ko'p sonli aholiga, yax-shi qurollangan va mashq ko'rgan qurolli kuchlariga ega bo'lgan Farg'ona miloddan avvalgi II–I asrlarda yuksak taraqqiy etgan davlat bo'lgan. Farg'ona dav-latining *Sho'rabashat*, *Uchqo'rg'on* singari va boshqa shaharlari atrofida aholi yerni ishlash, sholi va bug'doy yetishtirish, bog'dorchilik va uzum yetishti-rişda katta yutuqlarga erishgan.

Olimlarning aniqlashicha, milodiy II asrda Dovon davlati barham topgan.

O'zingizni sinang!

Parkana – ... Ershi – ...
«Samoviy otlar» – ...
Dovonning ziroatkor vohalari – ...

Eslab qoling!

Dovon (Xitoy man-balarida bu o'lka shunday nom bilan tilga olingan, boshqa manbalarda Parkana deyilgan) davlatining poytaxti – **Ershi** (Erish). **Sho'rabashat**, **Uch-qo'rg'on** aholisi dehqonchilik bilan shu-g'ullangan.



Jang manzarasi

Eslab qoling!

II asrda Dovon ko'ch-manchi qabilalar to-monidan bosib olin-gan.

Tayanch konspekt



«Samoviy otlar»



Qadimgi Xorazm
(mil. avv. IV asr –
milodiy III asr) → sug'orish tarmoqlari
→ hunarmandchilik va savdo
→ shahar va qal'alar
→ qurilishning yuqori darajasi
→ haykaltaroshlik va devoriy tasvir
→ Qadimgi Xorazm yozuvi
→ Jonbosqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Tuproqqal'a

Qang' davlati
(mil. avv. III asr
– mil. III asr) → Qang'yuy (Qang'ha)
→ qang'arlar
→ Kanka – Qang'dez (Bityan)
→ Xitoy bilan urushlar
→ ko'chmanchilar tomonidan bosib olinishi

Dovon – Farg'ona
davlati (mil. avv.
III asr – mil. II asr) → Parkana
→ 70 shahar
→ Xitoy bilan urushlar
→ Ershi – poytaxt
→ «samoviy otlar»
→ Sho'rabashat, Uchqo'rg'on
→ ko'chmanchilar tomonidan bosib olinishi

Savol va topshiriqlar

1. Xorazm qaysi asrda Ahamoniylar davlatidan mustaqil bo'ldi?
2. Xorazm hunarmandchiligini tavsiflab bering.
3. Qadimgi Xorazm shaharlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Xorazmning o'ziga xos madaniyati haqida so'zlang.
5. Qang' davlati turli manbalarda qanday nomlangan?
6. Qang' davlati qachon tashkil topdi va qaysi vaqtgacha mavjud bo'ldi?
7. Yozuvsiz xaritada Qang' davlati hududlarini belgilang.
8. Nima sababdan Qang' davlati barham topdi?
9. Dovon davlat birlashmasi to'g'risida nimalarni bilasiz?
10. Dovon davlatining qanday ziroatkor vohalarini bilasiz?
11. Yozuvsiz xaritada Dovon davlatining taxminiy hududlarini belgilang.

42–43-§§. Kushon podsholigi

Kushon davlatining tashkil topishi Miloddan avvalgi 140–130-yillar oralig'ida ko'chmanchi *yuechji* qabilalari Yunon-Baqtriya davlatini bosib oladilar. Yuechjilar Baqtriya yerlariga kelib o'rnashadilar va milodiy I asrda *Guyshuan* (Kushon) xonadonining boshligi barcha yuechji mulklarini o'z hokimiyati ostida birlashtirib, Kushon davlatiga asos soladi.




Kushon podsholigi

Birlashgan yuechji mulklarining birinchi hukmdori *Kudzula Kadfiz* bo'lgan.

Kudzula Kadfiz hukmronligi davrida Afg'oniston va Kashmir Kushon davlatiga qo'shib olingan. Uning vorisi *Vima Kadfiz* hukmronligi davrida Kushon davlati hududi yanada kengaydi. Podsho *Kanishka* hukmronligi zamonida poytaxt Baqtriyadan Peshovar (hozirgi Afganistan)ga ko'chiriladi, Kushon davlati esa ulkan imperiyaga aylanadi. Uning hududiga Hindiston, Xo'tandan, Afg'oniston va O'zbekistonning janubigacha bo'lgan yerlar kirgan. Rim, Parfiya, Xitoy davlatlari qatorida Kushon davlati ham ulkan imperi-



Mil.avv. II-I asrlarga oid ko'za



O'smirning tasviri.
Devoriy naqsh san'ati



Kushon hukmdori

Eslab qoling!

Kushon davlatiga milodiy I asrda Kudzula Kadfiz tomonidan asos solingan.



Kushon podsholigi tangaiari



Chang chalayotgan ayol tasviri

yalardan biriga aylangan. Milodiy III asrda to'xtovsiz urushlar oqibatida Kushon davlati inqirozga yuz tutdi va parchalanib ketdi.

O'zingizni sinang!

*Kudzuia Kadfiz – ... Kanishka – ...
Vima Kadfiz – ...*

Xo'jalikning rivojlanishi

Vima Kadfiz hukmronligi davridan Kushon podsholigida hukmdor nomi ko'rsatilgan tanga zarb qilish boshlandi. Hukmdor pul islohoti o'tkazadi, zarb qilingan tangalar qadri ortadi. Tangalar oltin, kumush va misdan zarb qilingan.

Milodiy I–II asrlarda *Kanishka* hukmronligi davrida (milodiy 78–123- yillar) Kushon podsholigi o'z taraqqiyotining cho'qqisiga erishadi. Yangi-yangi shaharlar bunyod etildi, Hindiston, Xitoy va Rim imperiyasi bilan savdo va elchilik munosabatlari yo'lga qo'yildi.

Hunarmandchilik ham yuksak darajada taraqqiy etgan. Kushon davlati yodgorliklari bo'lmish *Xolchayon, Dalvarzintepa, Ayritom, Zartepa, Qoratepa* va boshqalarni o'rganish jarayonida aniqlangan topilmalar ham buni tasdiqlaydi.

Kushon davlati iqtisodiyotining asosini sug'orma dehqonchilik, savdo-sotiq va hunarmandchilik tashkil qilgan.

Kushon davlati davrida suv tegirmoni, *chig'ir* turaridan keng foydalanildi, yerga ishlov berish qurollari takomillashtirildi.

Kushon davlati yozuvi

Kushon davlatida yashagan xalqlarning o'zaro madaniy va savdo-sotiq aloqalari tufayli O'rta Osiyoda qadimgi oromiy yozuvi keng tarqaladi. Bu yozuv G'arbiy Osiyoda paydo bo'lib, alifboga asoslangani tufayli o'zlashtirish ancha oson bo'lgan.

Qadimgi Termiz yodgorliklarini o'rganish natijasida oromiy yozuvi asosidagi kushon-baqtriya alifbosidagi yozuv namunalari topilgan.

Kushon mamlakatida yana bir xil yozuv – kushon shaklli yozuvi mavjud bo'lgan, bunda harflar burchakli, to'rtburchak va aylana shaklida bo'lgan.

Kushon podsholigida yozuv qadimdan mavjudligini *Surxko'tal* (Afg'onistondagi Qunduz shahri yaqinida) yodgorligidan topilgan yunon alifbosidagi kushon bitiklari ham tasdiqlaydi.

Amudaryoning quyi oqimida, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida oromiy alifbosi asosidagi xorazmiy va so'g'diy yozuvlar ham keng tarqalgan edi.

Yozuvning turli ko'rinishlariga oid topilmalar Kushon podsholigining jahondagi ko'plab davlatlar bilan keng ko'lamdagi aloqalaridan guvohlik beradi.

Diniy e'tiqod Kushon davlati tashkil topayotganda Baqtriya, So'g'diyonaning asosiy aholisi zardushtiylik dinida edi. Kanishka hukmronligi davrida Hindistonning bir qismi qo'shib olinib, yaqindan aloqalar o'rnatilgach, Kushon davlati hududiga kirib kela boshlagan buddaviylik dini zardushtiylik bilan birga milodiy VIII asrgacha O'rta Osiyoda mavjud bo'ldi.

Eski Termiz, Ayrptom va Dalvarzintepada muhtasham buddaviylik ibodatxonalari bo'lgan. Aynan shu yerdan buddaviylik O'rta Osiyo bo'ylab tarqala boshladi.

Me'morchilik va san'at Kushonlar davrida hozirgi O'zbekiston hududida binokorlik va me'morchilik yuksak darajada taraqqiy etgan. Dalvarzintepa va Eski Termiz singari shaharlar xom g'ishtdan qurilgan mustahkam istehkom devorlari bilan o'ralgan edi. Mudofaa devorlari ortida esa hukmdor qarorgohi joylashgan. Shaharlarning o'zi hunarmandlar mahallalariga va turar joy mavzellariga ajratilgan.



Chig'ir – suv chiqaradigan moslama.



Ayol kishi bosh tuzilishining haykali. I-II asr

Eslab qoling!

Xolchayon, Dalvarzintepa, Ayrptom, Zartepa, Qorotepa Kushon davlatining madaniy yodgorliklari hisoblanadi.



Kushon shahzodasining tasviri

Eslab qoling!
Chig'ir – suv chiqaradigan moslama.



Budda boshining tasviri.
Dalvarzintepa.
II–III asr boshlari


Asosiy e'tibor saroylar va ibodatxonalar qurilishiga qaratilgan. Xolchayondagi (Surxon vohasi) Kushon hukmdorlari saroyi, Eski Termiz (Qoratepa, Fayoztepa) va Dalvarzintepadagi buddaviylik ibodatxonalarida o'sha davr devoriy tasvirlari va haykaltaroshlikning yuksak san'atkorona namunalari saqlanib qolingan. Shahzodalar, saroy a'yonlari, jangchilar tasviri, Budda haykali va Ayritomda topilgan do'mbrachi hamda ud cholg'u asbobini chalayotgan musiqachilar tasvirlari shular jumlasidandir.

O'zingizni sinang!

Chig'ir – ... Kushon yozuvi – ...
Buddaviylik – ... Oromiy yozuvi – ...

Temir va suyak kandakorligi ham yuqori darajaga erishgan. Dalvarzintepadan fil suyagidan yasalgan shaxmat donalari topilgan. Kushon san'atida mahalliy an'analar, Qadimgi Sharq va Qadimgi Yunoniston elli-nistik san'ati uslublari muvofiqlashgan.

Tayanch konspekt



Savol va topshiriqlar

1. Yuechjilar Baqtriyaga qachon bostirib keldilar?
2. Kanishka davrida Kushon podsholigida qanday o'zgarishlar bo'lgan?
3. Qaysi podsho davrida hukmdor nomi yozilgan tangalar zarb qilina boshlandi?
4. Kushon davlatida hunarmandchilikning qaysi turlari rivojlandi?
5. Kushon podsholigida qaysi dinlar tarqalgan edi?

44-§. Buyuk Ipak yo'li

Vujudga kelishi va tarmoqlari

Milodiy XVI asrga qadar Sharq bilan G'arb xalqlari o'rtasidagi tarixiy-madaniy va savdo munosabatlari taraqqiyotida qadimgi dunyoda mashhur bo'lgan Buyuk Ipak yo'li muhim o'rin tutgan edi. Bu yo'l miloddan avvalgi II asrda vujudga kelgan va «*Buyuk meridional yo'l*» deb atalgan. Bu yo'lga «Ipak yo'li» degan nom 1877-yilda nemis geografi F.Rixtgoften tomonidan berilgan.

Buyuk Ipak yo'li tashkil topmasdan avval O'rta Osiyo va Qadimgi Sharq hududida savdo va madaniy ayirboshlash uchun turli-tuman yo'llar mavjud bo'lgan.

Eng qadimgi yo'llardan biri miloddan avvalgi 3–2-mingyillikda vujudga kelgan «*La'l yo'li*»dir. U Pomir tog'laridan boshlanib, Eron, Old Osiyo va Misr orqali o'tgan. Pomirdan olinadigan yarim nodir la'l toshi (lojuvard) Qadimgi Sharq mamlakatlari zargarlari tomonidan yuksak baholangan. Badaxshon la'li ishlatilgan buyumlar Misr fir'avnlari maqbaralaridan ham topilgan.

Boshqa bir karvon yo'li Eron Ahamoniylari sulolasining yo'li bo'lib, «*Shoh yo'li*» deb atalgan. U miloddan avvalgi VI–IV asrlarda O'rtayer dengizi bo'yidagi *Efes* shahrini qadimgi Fors davlati poytaxtlari – *Suza va Persepol* bilan bog'lab turgan. Yana bir yo'l Eron, Baqtriya orqali So'g'diyona, Toshkent vohasi va Qozog'iston hududidan o'tib, Oltoygacha borgan.

Buyuk Ipak yo'li 12 ming kilometrgacha uzunlikda bo'lgan. U Sariq dengiz sohilidan boshlanib, Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, Eron, Mesopotamiya orqali O'rtayer dengizi sohillarigacha borgan. Bu yo'lda *Sian, Dunxuan, Yorkent, Samarqand, Buxoro, Termiz, Marv* va boshqa bir qancha qadimiy shaharlar joylashgan.



Do'mbirachi.
Ayritom yodgorligidan namuna



Tuyadagi chavandoz haykalchasi

Eslab qoling!

Buyuk Ipak yo'li
Sariq dengiz sohilidan O'rtayer dengizi sohiligacha cho'zilib ketgan. Bu yo'l 12 ming km. uzunlikda bo'lgan.

Eslab qoling!

Buyuk Ipak yo'li mil. avv. II asrda vujudga kelgan. U «Buyuk meridional yo'l» deb atalgan. Bu yo'lga «Ipak yo'li» degan nom 1877-yilda nemis geografi **F.Rixtgofen** tomonidan berilgan.



Fil suyagidan ishlangan shaxmat donalari



Sopol idishlar

So'g'diyonadan Xitoyga jun gazlama, gilam, zebziyat buyumlari va qimmatbaho toshlar olib borilgan; Baqtriyadan tuyalar, Farg'onadan zotli otlar, Badaxshondan la'l; Hindistondan O'rta Osiyo viloyatlariga ip-gazlama va paxta chigiti ortilgan karvonlar kelgan;



Buyuk Ipak yo'li

Xitoydan guruch keltirilgan; O'rta Osiyo viloyatlaridan Xitoyga uzum, yong'oq, anor va boshqa dehqonchilik mahsulotlari tashilgan.

O'zingizni sinang!

F.Rixtgofen – ... «La'l yo'li» – ...
«Shoh yo'li» – ... *Buyuk Ipak yo'li* – ...

Buyuk Ipak yo'li Chjan Syan tavsifida

Miloddan avvalgi 138-yili Xitoy imperatori U-Di elchi Chjan Syan ni ko'chmanchi xunn qabilalariga qarshi kurashda ittifoqchi va hamkorlar topish uchun jo'natadi. Xunlar Xitoyning shimoliy tumanlarini talon-taroj qilar edilar. Elchi xunlar qo'lga asir tushadi va o'n yilcha hibsdan yotadi. U asirlikdan qochib, Markaziy Tyan-Shan dovonlari orqali Issiqko'lga chiqadi. Norin daryosi bo'ylab Farg'ona vodiysiga keladi. Bu yerda o'zi uchun vodiydagi shaharlarni kashf qiladi. Bu shaharlar Farg'ona davlatiga qarashli ekanligini bilib oladi. Tabiiyki, elchi


Xitoyning xunnlarga qarshi kurashida Farg'ona hukmdoridan yordam so'raydi. Lekin Farg'ona hukmdori faqat savdo-sotiq aloqalarini o'rnatish istagini bildiradi. Chjan Syan janub sari sayohatini davom ettiradi. Oloy vodiysidan o'tib, yana xunnlardan qo'lga tushib qoladi va bir yildan keyin vataniga qaytadi. Elchi Xitoy imperatoriga ko'rgan-bilganlarini so'zlab beradi. U Xitoyga Farg'ona otlaridan birini va beda urug'idan olib kelgan edi. Bu otli xitoyliklar «*samoviy*» deb ataganlar. Imperator U-Di o'z saroyi yaqinida beda ektiradi. Keyinchalik u Xitoyning butun shimoli bo'ylab ekiladigan bo'ladi. Xitoyliklar anor, uzum, bodring va yong'oq ekishni ham yo'lga qo'yadilar.

Chjan Syan yurgan yo'l bo'ylab miloddan avvalgi II–I asrlarda Xitoy mamlakatini Markaziy va G'arbiy Osiyo bilan bog'lovchi jahon ahamiyatiga ega Buyuk Ipak yo'li deb ataluvchi karvon yo'li o'tadigan bo'ldi. Farg'ona vodiysida Ipak yo'li ikki tarmoqqa bo'lingan. Birinchisi O'zgandan Axxi shahri, Qamchiq dovoni orqali (yozda) Eloq vohasi va Toshkentga kelgan. Ikkinchisi janubiy tarmoq bo'lib, O'zgandan O'sh, Quva, Marg'ilon, Qo'qon orqali Xo'jand, Samarqand, Buxoro orqali o'tgan.

Buyuk Ipak yo'lining ahamiyati

Buyuk Ipak yo'lining tarixi Sharq va G'arb xalqlarining keng miqyosdagi madaniy aloqalari va savdo ayirboshlashi tarixidir. Bu tarix o'zaro hamkorlik va madaniyatlar boyitilishi tarixi bo'lib, tinchlik va taraqqiyot asosini tashkil etgan. Mamlakatimiz hududi bu yo'lining chorrahasida joylashgan.


O'rta Osiyo xalqlari Buyuk Ipak yo'li tufayli Sharq va G'arb mamlakatlari iqtisodiyoti va madaniyati bilan oshno bo'lganlar. G'arb mamlakatlari xalqlari esa O'rta Osiyo xalqlarining yuqori darajada rivojlangan madaniyatini o'zlari uchun kashf qildilar. O'rta Osiyo aholisi Xitoy shoyisini qadrlasa, Xitoyda O'rta Osiyo



Buyuk Ipak yo'li bo'ylab

Eslab qoling!

Chjan Syanning yurgan yo'li Buyuk Ipak yo'liga asos bo'ldi.



Cho'ldagi qum tepaliklar

Eslab qoling!

Buyuk Ipak yo'li Sharq va G'arb mamlakatlari xalqlarini o'zaro madaniy aloqalaridan bahramand bo'lish imkonini berdi.



Ipak qurti pillasi


gilamlari, jun gazlamalari, hunardmandchilik buyumlariga talab katta bo'lgan.

Buyuk Ipak yo'li Sharq va G'arb mamlakatlari xalqlarini o'zaro madaniy aloqalaridan bahramand bo'lish imkonini berdi.

O'rta Osiyo bu yo'lining asosiy yo'nalishlari kesib o'tadigan markazida joylashgan. Bu yerga turli mamlakatlardan savdogarlar, hunarmandlar, olimlar va musiqachilar tashrif buyurar edilar.

Buyuk Ipak yo'li sharofati bilan O'rta Osiyo xalqlari G'arb va Sharqning iqtisodiy va madaniy yutuqlari bilan tanishdilar.

Tayanch konspekt



Savol va topshiriqlar

1. Jahonning ko'plab mamlakatlarini bog'lab turuvchi karvon yo'llari tarmog'ini birinchi bo'lib kim «Ipak yo'li» deb atadi?
2. Buyuk Ipak yo'lining uzunligi qancha?
3. O'zbekistonning qaysi shaharlari Buyuk Ipak yo'lida joylashgan edi?
4. Yozuvsiz xaritada Buyuk Ipak yo'lining O'zbekiston hududidagi tarmoqlarini belgilang.
5. Savdogarlar Buyuk Ipak yo'li bo'ylab qaysi mamlakatlardan nimalarni keltirishgan?
6. Buyuk Ipak yo'li jahon mamlakatlari va ayniqsa, O'rta Osiyo tarixida qanday ahamiyat kasb etgan?



BO'LIM V QADIMGI RIM

45-§. Italiya va uning aholisi

Tabiiy sharoiti va qadimgi aholisi

Apennin yarimorolida iqlim iliq bo'lib, yil bo'yi o'rtacha yomg'ir yog'ar edi. Yarimorolni to'liq egallagan *Italiya* zaminida qurg'oqchilik ham, qattiq sovuq ham bo'lmasdi. Yegulik mahsulotlar mo'l-ko'lligi va tuproq unumdorligi tufayli ko'p asrlar davomida qadimgi Italiya aholisining asosiy mashg'uloti dehqonchilik va chorvachilik bo'lgan. Qadim zamonlardan boshlab *Apennin* yarimorolida turli xil qabilalar yashagan. *Liqurlar* Italiyaning qadimgi qabilalaridan biri bo'lib, chorvachilik bilan shug'ullanganlar.



Qadimgi Italiya



Rimliklarning qadimiy manzilgohi

«Italiya» so'zining o'zi esa yunonchadan «*buzoqchalar o'lkasi*» tarzida tarjima qilinadi. **Mil. avv. VIII-VI asrlarda** Italiya sohillarida koloniyalarga asos solgan yunonlar bu mamlakatda sigirlarni o'tlatish uchun ajoyib o'tloqlarni topganlar.

Apennin yarimorolidagi eng katta daryo *Po* daryosidir. Yarimorolning qabilalari *italiklar* deb nomlangan. Ular orasida *lotinlar*, *samniylar* va *sabinlar* ko'pchilikni tashkil etib, **mil. avv. I-mingyilikning** boshlaridan Italiyaning turli tumanlarida joylashganlar. Italiyaning shimoli-g'arbiy qismida *etrusklar* yashagan. Ularning

Eslab qoling!

Yarimorolning qabilalari *italiklar* deb nomlangan. Ular orasida **lotinlar**, **samniylar** va **sabinlar** ko'pchilikni tashkil etgan.



Qadimgi Rim aholisi.
Pompeya shahridagi devorga ishlangan tasvir

Eslab qoling!

Mil. avv. 753-yil
Rimga asos solingan sana deb qabul qilingan.



Rem va Romulni topib olgan Ona bo'ri tasviri

asosiy mashg'uloti dehqonchilik bo'lgan. **Mil. avv. VIII asrda** etrusklar Italiyada 12 ta shahar-davlat tuzishadi. Mil. avv. VII asrda ular Sharq mamlakatlari bilan erkin savdo-sotiq qilish uchun yunon koloniyalari bilan kurash boshladilar. Afrikaning shimoliy sohilida joylashgan Finikiya koloniyasi *Karfagen* shahar-davlati ham ularga qo'shildi. Avvaliga karfagenliklar va etrusklar g'alaba qozonishdi, ammo ko'p o'tmay yunon qo'shini ularni quruqlik va dengizda tor-mor qildi. Shunday qilib, etrusk sivilizatsiyasi zavolga yuz tutgan. **Etrusklar** madaniyati Rim madaniyatining rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

O'zingizni sinang!

Italiklar – ... Etrusklar – ...

«Italiya»ning ma'nosi – ...

Rimga asos solinishi

Rim shahri *Tibr daryosi* bo'yidagi dehqonchilik manzilgohlaridan boshlangan. Tibr bo'ylab joylashgan kichik manzilgohlar birlashib, katta shaharga aylandi. Rim yettita tepalikda joylashgan. Tibr toshgan kezlarda tepaliklar o'rtasidagi vodiy odam o'tolmaydigan botqoqlikka aylanib qolar edi. Shahar joylashishi harbiy nuqtai nazardan juda ham qulay bo'lgan. Daryo va botqoqlik lotinlarni qo'shni qabilalar hujumlaridan himoya qilar edi.

Rivoyatga qaraganda, **miloddan avvalgi 753-yilda** Rim shahriga aka-uka *Romul* va *Rem* tomonidan asos solingan. Dunyoga kelganlaridan so'ng chaqaloqlarni savatga solib, Tibr daryosi bo'yiga tashlab ketadilar. Daryo bo'yida ularni Ona bo'ri topib olib, emizadi va boqadi. Keyin aka-ukalarni bir cho'pon topib olib tarbiyalaydi. Voyaga yetganlarida esa ular

Tibr bo'yida shahar barpo etishga ahd qilishadi. Akakalar janjallashib qolib, Romul o'z inisini o'ldirib qo'yadi, shaharga esa o'z nomini beradi. Bugungi kunda, afsonada aytilganidek, egizaklarni emizgan Ona bo'ri Rimning timsoli hisoblanadi.

Miloddan avvalgi VI asrda Rim katta shaharga aylanadi. *Kapitoliy* tepaligida dushmanlardan himoyalash uchun qal'a bunyod etiladi.

Qadimgi Rimda boshqaruv


Ilgari rimliklar o'z hukmdorlarini saylashardi. Hukmdorlar ham harbiy boshliq, ham sudya, ham ko-hin bo'lishgan. **Miloddan avvalgi 509-yilga** qadar shu taxlit davom etdi. Laqabi *Mag'zur Tarkviniy* degan kishi mamlakatga saylab qo'yilgan hukmdorni o'ldirib, hokimiyatni egallab oldi. Bundan darg'azab bo'lgan aholi qo'zg'olon ko'tarib, Tarkviniy shahardan haydab yubordi. Shahar ahli butun hokimiyat bir kishi qo'lida jamlanishiga yo'l qo'ymaydigan boshqaruv shakliga o'tishga qaror qilishadi. Podsho hokimiyatining ag'darilishi Rim respublikasi asosini yaratdi.

Tayanch konspekt

- Apennin yarimoroli
- Italiya – «buzoqchalar o'lkasi»
- lotinlar, samniyar, sabinlar, etrusklar
- mil. avv. VIII asr – 12 shahar-davlat ittifoqi
- mil. avv. 753- yil – Tibr daryosi bo'yida Rim shahriga asos solinishi

Savol va topshiriqlar

1. Xaritadan Italiya hududini ko'rsating va uning geografik xususiyatlarini so'zlab bering.
2. Italiyaning aholisi qanday atalgan?
3. «Italiya» so'zi qay tariqa vujudga kelgan? Bu so'z qanday ma'noni anglatadi?
4. Nima uchun Ona bo'ri Rimning timsoli hisoblanadi?
5. Qadimgi Rimda boshqaruv qay tarzda amalga oshirilgan?



Tarkviniyning shahardan quvg'in qilinishi

Eslab qoling!

Mag'zur Tarkviniy quvg'in qilinganidan keyin, mil. avv. 509-yilda Rim respublika deb e'lon qilindi.



Rim ibodatxonasi. Tiklangan

46-§. Rim respublikasi

Eslab qoling!

Lotinchadan tarjima qilinganda «**senat**» so'zi «oqsoqollar kengashi» degan ma'noni anglatadi.

Respublikani boshqarish

Rim hukmdorlari muhim masalalarni muhokama qilish uchun *Xalq majlisini* chaqirganlar. Xalq majlisi urush e'lon qilar, sulh tuzar, qonunlarni tasdiqlar va bekor qilar, barcha muhim mansabdor shaxslarni tayinlar edi. Bu majlisning qarorini *Senat* tasdiqlagan, lotinchadan tarjima qilinganda «senat» so'zi «*oqsoqollar kengashi*» degan ma'noni anglatadi. Rimning tub aholisi *patritsiylar*, Rimga ko'chib kelgan odamlar va ularning avlodlari *plebeylar* deb atalgan. Rim boshqaruvida faqat patritsiylar ishtirok eta olar edi. Mil. avv. VI asr oxiridan Rim davlati *respublika* deb yuritila boshlangan.

Lotinchadan tarjima qilganda «respublika» so'zi «*xalq ishi, umumiy ish*» degan ma'nolarni anglatadi («res» – ish, «publika» – xalq). Xalq majlisi patritsiylardan ikki kishini bir yil muddatga hokim qilib saylagan. Ular *konsullar* deb atalgan.

Davlatga xizmat qilish evaziga haq to'lanmaganligi sababli qashshoq kishi konsul bo'la olmasdi. Saylovlarni tashkillashtirish uchun katta pul talab etilardi. Badavlat quldorlar turli yo'llar bilan saylovchilarni o'z tarafiga og'dirib, bepul tushlik uyushtirishgan, sovg'a-salom tarqatishgan va shunga o'xshash ishlarni amalga oshirishgan.

Saylov kuni konsullikka o'z nomzodini qo'ygan badavlat quldorlar «*kandida*» deb ataluvchi oq-harir libos kiyib olishgan. Hozirgi «kandidat», ya'ni qandaydir lavozimni egallashga harakat qiluvchi nomzod shaxs ma'nosini beruvchi so'z ham «kandida»dan kelib chiqqan. Oq rang nomzodning vijdoni ham uning libosidek beg'ubor va pokiza ekanligini bildirgan.



Rimning markaziy qismi


Eslab qoling!

Mil. avv. VI asrning oxiridan boshlab Rim davlati **respublika** deb atala boshlangan.

O'zingizni sinang!

Senat – ... **Patritsiylar – ...**
Plebeylar – ... **Respublika – ...**

Senat mamlakatda katta hokimiyatga ega bo'lgan. Birorta ham qonun Senatda muhokama etilmasdan turib, Xalq majlisi tomonidan qabul qilinmas edi. Asosiy mansabdor shaxslar – konsullar esa bevosita davlatni boshqarar edilar. Qadimda eng tajribali va hurmatli kishilar Senatda o'rin egallagan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan konsullar hech bir saylovsiz Senatda o'rin egallab oladigan va uning umrbod a'zosiga – *senatorga* aylanadigan mavqega erishdilar. Urush boshlangan taqdirda yoki xalq qo'zg'oloni ro'y berganda *diktator* va uning o'rinbosari – otliq qo'shinlar boshlig'i etib tayinlanar edi. Diktator cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan. Ammo u hokimiyatda olti oydan ko'p tura olmas edi.



Konsullar

Eslab qoling!

Senat 300 kishidan iborat bo'lgan. Birorta ham qonun Senatda muhokama etilmasdan turib, Xalq majlisi tomonidan qabul qilinmas edi.

Rim respublikasi boshqaruvi



Har bir konsulni 12 kishidan iborat faxriy qorovul – *liktorlar* qo'riqlab yurar edi. Konsul jinoyatchilarni jazolash imkoniyatiga egaligi alomati sifatida liktorlar yelkalariga o'rtasiga boltacha sanchilgan qayishqoq arqonchalardan bog'lama taqib yurishardi.


Konsullar ikki nafar bo'lib, ular muhim masalalarni hal etayotganda bir-birlari bilan maslahatlashib olishi kerak bo'lgan. Konsullar yil davomida Rim respublika-



Plebeylar qo'zg'oloni

Eslab qoling!

Xalq tribunlari qashshoq rimliklar manfaatlarini ifoda etgan. Ular majlislarda barcha fuqarolarning teng va yashirin ovozi bilan saylanar edi.



Qonunbuzarlarga nisbatan tan jazosi qo'llanar edi

Eslab qoling!

Mil. avvalgi III asr boshlariga kelib Rimning barcha fuqarolari mavqeidan qat'i nazar qonun oldida teng deb hisoblanadigan qonunlar qabul qilindi.

sini boshqarib, rimliklarni sud qilar edilar. Harbiy davrlarda esa ular qo'shinlarga qo'mondonlik qilishgan. Har yili ular Xalq majlisiga hisobot berar edilar. Rim respublikasida *xalq tribuni* lavozimi ham ta'sis etilgan edi. Xalq tribunlari qashshoq rimliklar manfaatlarini ifoda etgan. Ular majlislarda barcha fuqarolarning teng va yashirin ovozi bilan saylanar edi. Xalq tribuni «veto» (taqiqlayman) so'zini aytishi mumkin bo'lgan, bunday holda qonun qabul qilinmas edi.

O'zingizni sinang!

Konsullar – ...

Liktor – ...

Diktator – ...

Xalq tribuni – ...

«12 jadval qonunlari»

Qadimgi Rim qonunchiligi og'zaki qonunlarga asoslangan edi. Sudlarda ko'pincha adolatsiz qarorlar chiqaruvchi patriitsiyalar majlis tuzar edilar. Plebeylar talabiga ko'ra, o'nta patriitsiyadan iborat hay'at tuzilib, ular qonunlar yozma majmuasini tuzishlari kerak bo'lgan. Ammo hay'at bu ishni oxiriga yetkaza olmagan.

O'shanda asosan plebeylardan iborat bo'lgan Rim qo'shinlari isyon ko'taradi. Ular Rim atrofidagi Muqaddas tog'ga ketib qoladilar va o'z qonunlariga ega bo'lgan yangi shahar tashkil qilamiz, deb ogohlantiradilar. Shu tariqa, **mil. avv. V asr o'rtalarida** 12 ta mis lavhaga o'yib yozilgan qonunlar hamma ko'rishi uchun Rimning markaziy maydoni – forumga joylashtirilgan. Patriitsiyalar 12 jadvaldan tashkil topgan yangi qonunlarni qabul qilishga majbur bo'ladilar.

Mazkur qonunlar xususiy mulkni daxlsiz deb e'lon qildi, ammo ular asosan plebeylar va patriitsiyalar tengsizligini qonunlashtirgan. Faqat miloddan avvalgi III asr boshlariga kelib Rimning barcha fuqarolari mav-

qaidan qat'i nazar qonun oldida teng deb hisoblanadigan qonunlar qabul qilingan.

Tayanch konspekt

- respublika oliy hokimiyati – Xalq majlisi
- Senat – «oqsoqollar kengashi»
- patritsiylar
- plebeylar
- respublika – «xalq ishi»
- konsullar – respublikaning bosh mansabdor shaxslari
- diktator – urush davrida Rim hukmdori
- xalq tribuni – Senatda Rim qashshoq aholisi vakillari
- veto – «taqiqalayman»
- «12 jadval qonunlari»

Savol va topshiriqlar

1. Rimda respublika boshqaruvi qay tarzda amalga oshirilgan?
2. «Respublika» so'zi qanday ma'noni anglatadi?
3. Diktator kim? Qaysi hollarda u Rim hukmdoriga aylangan?
4. Rim qonunchiligi haqida so'zlab bering. Uning o'ziga xosligi nimada?
5. «12 jadval qonunlari» kimlarning manfaatlarini himoya qilgan?


47-§. Rim respublikasining hayoti

Shaharlardagi hayot


Davlatning hududi kengayib borgani sayin shaharlar ham ko'paydi. Rim shaharlari oldindan puxta ishlangan reja asosida barpo etilgan. Shaharlarda ko'plab chiroyli jamoat va turar joy binolari, ibodatxonalar, hammomlar, savdo rastalari va dori-xonalar bo'lgan. Ko'pchilik odamlar 2–3 qavatli binolarda istiqomat qilgan. Badavlat odamlar esa o'zlariga koshona qurib olar edilar. Bunday uylarda markaziy isitish tizimi bo'lgan: pollar isitilar, quvurlar orqali uylarga suv oqib kelar edi. Uy *mozaikalar* – shisha yoki tosh parchalaridan ishlangan suratlar bilan bezatilgan. Shohona bo'lgan uy-joylar – *villalar* devorlarini *freskalar* – xom suvoqqa ishlangan rasmlar bezatib



Qonunlar qullarga taalluqli emas edi. Ularni bozorlarda bemalol sotardilar



Forum – Rimning markaziy maydoni



Akveduk (osma suv quvurlari)



Rimlik kiyimi – toga



Merkuriy – savdo-sotiq xudosi

turgan. Har bir shahar markazidagi *Forumda* bozor maydoni, xalq yig'ilishlari uchun joy va markaziy ibodatxona bo'lgan. Suv shaharga bir necha qavatli ko'priikka o'xshab ketuvchi *akveduk* orqali oqib kelgan.

Rim bozorlarida katta tovar bo'lmish qullarga talab ko'p edi. Har bir shaharning qullar savdoga chiqariladigan bozorlari bo'lgan.

Odamlar kiyib yuradigan liboslari ularning jamiyatdagi mavqeini bildirgan. Masalan o'g'il bolalar 14 yoshga to'lgunga qadar pushti yo'llik *toga* kiyishgan. 14 yoshga kirganlarida ular voyaga yetgan shaxs hisoblanar va oppoq *toga* kiya boshlar edilar. Xuddi shunday harir togani senatorlar ham kiyishgan. Rimlik ayollar turli rangdagi ko'ylaklar kiyib, bosh va yelkalariga esa ro'mol yopinnardilar.

O'zingizni sinang!

Mozaika – ...	Akveduk – ...
Freska – ...	Toga – ...

Qadimgi rimliklarning xudolari Kundalik hayotda rimliklar o'z xudolariga madad va homiylik istab murojaat etishardi. Xudolar uchun ulug'vor ibodatxonalar barpo etilgan. Bundan tashqari, har bir rimlik xonadonida o'z xudosi bo'lgan. Rimliklar xudolarining ko'pchiligi yunonlar xudolarini esga soladi. Muhim ishni boshlashdan oldin rimliklar bu ishda madad berishi uchun xudolarga qurbonliklar bag'ishlar edilar.

Turfa xudolar hayotning turli jihatlarini boshqarar edi. Masalan jangda mag'lubiyatga uchragudek bo'lishsa, demak, qaysidir ish bilan urush xudosi *Marsning* jahlini chiqardik, degan xayolga borishgan (qiyoslang: yunonlarda urush xudosi Ares).

Rimning bosh xudosi, osmon, momaqaldiroq va yashin podshosi *Yupiter* hisoblangan. Yupiter Rim davlatining homiysi, xalqlar va davlatlar taqdirini boshqarib turadi, deb hisoblangan. *Neptun* dengiz xudosi, uyqu xudosi *Morfey*, ov xudosi *Diana* hisoblangan. Rimliklar *Vulkanni* olov va temirchilik xudosi deb hisoblashgan. *Venera* bahor va sevgi xudosi, *Baxus* may xudosi bo'lgan. Rimning odil sudlov ilohasi esa *Yustitsiya* hisoblangan. Bu iloha ko'zlari bog'langan ayol ko'rinishida tasvirlangan. Yustitsiyaning o'ng qo'lidagi qilich jazo timsoli sanalgan, chap qo'lidagi tarozi bilan iloha aybdorlik va aybsizlikni taqqoslab o'lchagan. Rimning taqdir ilohasi esa *Fortuna* hisoblangan. Fortunani ko'pincha taqdirlar peshvosi sifatida, ba'zan esa taqdir qo'nimsizligi ramzi sifatidagi shar bilan birga tasvirlashgan. Rimning qasos va intiqom ilohalari bo'lmish *Furiyalar* yovuz, qasoskor ayollar siymosida tasvirlangan.

Ibodatxonada Rimning bosh xudosi *Yupiterning* ulkan haykali o'rnatilgan. Ibodatxona yonida *altar* – qurbonlik baxshida etiladigan ko'tarma joy bo'lgan. Odatda ho'kizlar, qo'ylar, cho'chqalar yoki echkilar qurbonlik qilingan.

O'zingizni sinang!

Qadimgi rimliklarning xudolari – ...

Altar – ...

Furiyalar – ...

Diniy marosimlar qat'i belgilangan qoidalar bo'yicha o'tkazilgan. Diniy marosimlar o'tkazilishi ustidan kohinlar – *pontifiklar* – Rim ruhoniylari nazorat qilishgan. Pontifiklar bayramlar taqvimi, marosimlar tantanalari tartibini tuzishardi. 5 nafardan 15 nafargacha ruhoniylar jamlangan pontifiklar hay'atiga Buyuk pontifik rahbarlik qilgan. Buyuk pontifik xudolar




Neptun – dengiz xudosi



Yupiter – chaqmoq va momaqaldiroq xudosi



Vulkon – olov va temirchilar xudosi



Rim ibodatxonasi



Yustitsiya – odil sudlov ilohasi




Fortuna – taqdir ilonasi

bilan maslahatlashib olib, uzil-kesil xulosa beradi, deb hisoblashgan.

Rimliklar barcha muhim ishlarni fol ochishdan boshlashgan. Fol ochish kohinlar – *avgurlar* yordamida amalga oshirilgan. Avgurlar qushlar parvozi-ga, momaqaldiraq, chaqmoq, muqaddas qushlarga sepilgan donlar, aks-sadoga va hokazolarga qarab fol ochar, alomatlar ko'ngildagidek bo'lmasa, ishlar ma'lum muddatga kechiktirilar edi.

Xonadon o'chog'i ilohasi *Vesta* ibodatxonasida muqaddas olov saqlangan. Muqaddas olovni saqlash ayol kohinalar majburiyatlari sirasiga kirardi. Olov yonib turar ekan, hayot mavjuddir deya hisoblashgan. Shuning uchun *vestalka* – ayol kohinalar ta'siri va nufuzi katta edi.

Tayanch konspekt



O'zingizni sinang!

Pontifiklar – ... **Avgurlar – ...**
Vestalka kohinalar – ...

Savol va topshiriqlar

1. Rim shahri aholisi hayoti haqida so'zlab bering.
2. Rimliklar liboslari nimasi bilan ajralib turar edi?
3. Rim xudolarini sanab bering. Ular yunon xudolaridan nimasi bilan farqlanar edi?
4. Pontifik koinlar va avgur koinlar kim?
5. Vestalka koinalarning asosiy majburiyati nimalardan iborat bo'lgan?

48-§. O'rtayer dengizida hukmronlik uchun kurash

Respublikani tashqi dushmanlardan **Rim armiyasi** himoya qilish zarur bo'lgan. Armiyada 17 yoshdan 46 yoshgacha bo'lgan erkak fuqarolar xizmat qila olgan. 80 kishidan iborat bo'lgan jangchilar guruhi *senturiyalar* deb yuritilgan. Bir necha senturiyalar *kogortani*, 10 ta kogorta *legionni* tashkil etgan. Jangchilarning ko'pchiligi yaxshi ta'lim olgan askarlar bo'lib, ular uchun armiyada xizmat qilish bir umrlik ishga aylangan edi. Xizmat muddati 25 yil bo'lgan. Shuncha muddatdagi xizmati evaziga legioner uy-joy, durustgina oylik maosh olish va Rim tarkibidagi turli o'lkalarda xizmat qilish imkoniyatlariga ham ega bo'lar edi.

Rimliklar o'ziga xos jang olib borish taktikasini ishlab chiqishgan: avvaliga shahar qurshab olinar, so'ngra esa *katapulta* degan qamal qurolidan foydalanib devorlarni teshishar va shaharga bostirib kirar edilar. Pishiq metall taxtachalardan tiklangan uzun qamal ko'tarma minoralar yordamida baland devorlardan oshib o'tardilar.

Harbiy guruhlar davlat hududi bo'ylab tezroq harakatlanishi uchun mamlakatda soz (tekis) yo'llar tarmog'i barpo etilgan bo'lib, bu yo'llar bilan mamlakatning har qanday o'lkasiga borish mumkin bo'lgan. Davlat chegaralarida tosh qal'alar qurilgan.



Rim askarlari jangda



Yarador Rim askari



Rimdagi G'alaba – triumf arkasi



O'q otish quroli –
katapulta



Rim harbiylarining
himoya ashyolari



Gannibal

Janglardagi zafardan so'ng qaroriga ko'ra, Rim qo'shinlari g'alaba (*triumf*)ni tantanali nishonlar edi. Qo'shinlar oldida to'rtta oq arg'umoq qo'shilgan aravada boshiga *lavr* gulchambari qadab olgan g'olib sarkarda borgan. Sarkardaning izidan o'ljalarni olib borishardi. Kapitoliy tepaligida qo'lga kiritilgan g'alaba uchun minnatdorlik tariqasida xudolar sharafiga qurbonliklar qilingan.

O'zingizni sinang!

Senturiyalar – ...

Legion – ...

Kogorta – ...

Triumf – ...

Puni urushlari

Mil. avv. III asr o'rtalariga kelib, Rim sarkardalari mamlakatning shimoliy qismidan tashqari butun Italiyani zabt etishga erishdilar. Shu tariqa Rim davlatining hududi kengayib borgan. Tez orada ularning istilochilik rejaları chegaradosh hududlarga ham yoyila boshlagan.

Bu paytda *Shimoliy Afrikaning* sohillari, *Sardiniya*, *Korsika* orollarini o'z ichiga olgan qudratli davlat – *Karfagenning* quldorlari Sitsiliya orolining g'arbiy qismini egallab olgan edilar. Aynan Sitsiliya masalasi va O'rtayer dengizida hukmronlikni qo'lga kiritishga intilish Rim va Karfagen o'rtasidagi urush boshlanishiga sabab bo'ladi.

Harbiy jihatdan Karfagenning kuchli dengiz floti bo'lgani bois u Rimga qaraganda ancha ustunlikka ega edi. Karfagenning yollanma askarlardan iborat katta qo'shini bo'lgan. Yollanma askarlarning birdan-bir maqsadi harbiy o'ljaga ega bo'lishdan iborat bo'lib, o'zlari uchun qulay bo'lgan istalgan paytda dushman tarafiga o'tib ketar edilar. Bu Karfagen qo'shinlarining zaif tomoni hisoblangan.

Rimliklar Karfagen bilan uch marotaba urushdilar. Bu urushlar tarixga *Puni urushlari* nomi bilan kirgan

edi, negaki rimliklar Karfagenni Puna deb atashardi. Birinchi urushda rimliklar g'alaba qozondilar va Sitsiliyani bosib olib, karfagenliklarni o'zlariga o'lpon to'lashga majbur qildilar. Ikki yildan keyin rimliklar *Korsika* va *Sardiniya* orollarini bosib oldilar. Rim O'rtayer dengizi mintaqasida eng kuchli davlatga aylandi. Biroq Karfagen O'rtayer dengizidagi orollar ustidagi urushda Rimning xavfli raqibi bo'lib qolaverdi. Sitsiyaliyadagi yo'qotishlar uchun o'zlarini taqdirlash va qanoatlanirish uchun Karfagen quldorlari Ispaniyaning katta qismini bosib oldilar. Karfagen armiyasiga tajribali sarkarda *Gannibal* boshchilik qilgan. Gannibal Ispaniyada yollanma qo'shinlarga qo'mondonlik qilganida biror marta ham mag'lubiyatga uchramadi.

O'zingizni sinang!

Karfagen – ... Gannibal – ...
Puna – ...

Karfagenning vayron etilishi

G'arbiy O'rtayer dengizida yagona xo'jayinga aylanish uchun rimliklar Karfagen bilan janglarga tayyorgarlik ko'ra boshladilar. Rimliklar karfagenliklarga ikki tomondan zarba berishga qaror qilishdi. Bitta armiya Ispaniyada Gannibal armiyasini tor-mor etishi, boshqasi esa Karfagenni bosib olishi kerak edi. Biroq Gannibal barcha rejalarni chalkashtirib yubordi. O'tib bo'lmasdek tuyulgan tog'lardan oshgan Gannibal Italiya hududiga bostirib kirdi va **miloddan avvalgi 216-yilda Kann** yaqinidagi jangda rimliklar armiyasini tor-mor etdi. Bu jangda 70 ming rimlik legioner halok bo'lgan.

Mag'lubiyatdan keyin rimliklar hal qiluvchi janglardan botina olmaganlar. Italiya aholisi Ganni-

Eslab qoling!

Karfagen armiyasiga tajribali sarkarda **Gannibal** boshchilik qilar edi. Rim armiyasini esa – sarkarda **Ssipion** boshqargan.



Gannibal jangchilari



Rim piyodalari jangda

Eslab qoling!

Mil. avv. 202-yili Zama shahri yaqinida Gannibal armiyasi rimliklar tomonidan yakson qilingan.



**Karfagenning
vayron qilinishi**



**Rim armiyasining
«Toshbaqa» deb
nomlangan himoya
qalqoni**

balni qo'llab-quvvatlamadi, chunki Karfagen yollanma qo'shinlari mamlakatni talon-taroj qilib tashlagan edi. Rimlik sarkarda *Ssipion* kutilmaganda o'z qo'shinlari bilan Afrika qirg'og'iga kelib tushganidan xabar topgan Gannibal Karfagenni himoya qilishga oshiqadi, ammo **mil. avv. 202-yilda** uning lashkari *Zama* shahri yaqinida rimliklar tomonidan tor-mor etiladi. Mil. avv. 183-yili Gannibal surgunda yurardi, uni rimliklarga topshirish uchun qo'lga olishga urinishganida, u zahar ichadi. Shu tariqa Rim G'arbiy O'rtayer dengizida mutlaq hokimga aylangan. Suriya va Makedoniyani bosib olgandan keyin rimliklar Karfagenni ham bosib olishga qaror qiladilar.

Miloddan avvalgi II asr o'rtalarida rimliklar Karfagenni qamal qildilar. Karfagen shahri aholisi ikki yil o'z shahrini mudofaa qildi, shaharda ochlik boshlandi. Rimlik legionerlar uylarga hujum qilib, ularni talashar, o't qo'yishar edi.

Karfagen o'n yetti kun o't-olov girdobida qoldi. Xalq tajribalari va donishmandligini asrab kelgan xonadonlar va kutubxonalar kuli ko'kka sovurildi. Karfagen esa, Senat qaroriga ko'ra qarg'ish tekkan maskan, deb e'lon qilindi. Bu yerda uy-joy qurish va dehqonchilik bilan shug'ullanish taqiqlangan edi. Shunday qilib, **mil. avv. 146-yilda** Karfagen butunlay vayronaga aylantirildi. Rim qo'shinlari esa g'alaba sururi, talangan o'lja va minglab qullar bilan Italiyaga qaytib keldilar.

Rim tomonidan bosib olingan hududlar Puni urushlaridan keyin Italiya sarhadidan ancha uzoqda bo'lgan katta-katta hududlar ham Rim hokimiyati tasarrufiga o'tdi. Bosib olingan yerlarni rimliklar *provinsiya* deyishgan. *Sitsiliya, Korsika, Sardiniya, Ispaniya* va boshqa hududlar ana

shular sirasiga kirar edi. Provinsiyalarni boshqarishga noiblar – *prokonsullar* tayinlangan.

Ular cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lishgan. Prokonsullar odatda bir yilga saylanar va ular qo'l ostidagi mamlakatni ayovsiz talar edilar. Provinsiyalar Rimga qarshi kurashga birlashmasliklari uchun rimliklar «Bo'lib tashlab, hukmronlik qil!» tamoyiliga asoslanib ish ko'rishgan. Rimliklar ayrim shaharlarga boshqalari ularga hasad qilishi va ular bir-birlari bilan janjallashishi uchun atayin imtiyozlar berishar edi. Biroq provinsiyalarda qo'zg'olonlar doimo bo'lib turar, rimliklar ularda dushman qamalida qolgan shaharda yashagandek kun kechirar edilar.

Eslab qoling!

Bosib olgan yerlarini rimliklar **provinsiya** deyishgan. Provinsiyalarni boshqarishga noiblar – **prokonsullar** tayinlanar edi.

Tayanch konspekt

- senturiy → kogorta → legion
 - Triumf
 - Puni urushlari
 - mil. avv. 216- yil – Rim armiyasining tor-mor qilinishi – Kann jangi
 - mil. avv. 146- yil – Karfagenning vayron etilishi
 - provinsiyalar
 - prokonsullar
 - «Bo'lib tashlab, hukmronlik qil!»
- Karfagen → Gannibal
Rim → Ssipion


Savol va topshiriqlar

1. Triumf nima? Qaysi hollarda triumf nishonlangan?
2. Rim qo'shinlari kimlardan tashkil topgan edi?
3. Rim qo'shinlari karfagenliklaridan nimasi bilan farqlanar edi?
4. Puni urushlarining asosiy sababini ayting.
5. Xaritadan Gannibal yurishi yo'nalishini ko'rsating.
6. Rimliklarning «Bo'lib tashlab, hukmronlik qil!» tamoyilini tushuntirib bering.
7. Rim armiyasi senturioni nomidan hikoya tizing.
8. Xaritadan Rim tomonidan bosib olingan hududni ko'rsating.
9. Rimliklar Karfagenni qanday zabt etishdi?
10. Rimliklar qanday hududlarni provinsiya deb atashgan va ularni qanday boshqargan?



Rim suvoriylari

49-§. Qullar va gladiatorlar



Tosh yo' nayotgan
qullar

Rimda quldorlik Zafarli yurishlar natijasida Rimda qullar soni nihoyatda ko'payib ketdi. Misrda ham, Yunonistonda

ham qullarning soni Rimdagichalik ko'p emasdi.

Erkin rimliklar tasavvuricha, qul butunlay quldorning ixtiyorida bo'lgan bir buyumdek edi. Qullarning qadri bo'lmagan, negaki ular judayam arzon turardi.


Urushlar, bosib olingan mamlakatlardagi qullar hisobiga Rimda qullar shu qadar ko'p bo'lganki, rimliklarda har doim ham ulardan xo'jalik ishlarida foydalanish imkoniyati bo'lmagan. Badavlat rimliklarning bo'sh vaqti ko'p bo'lgan, chunki hamma ishlarni qullar bajarar edi.

Rim davlatidagi qullarda mehnatdan manfaatdorlik hissi mutlaqo bo'lmagan. Ularga haq to'lanmas edi. Shuning uchun qullar mumkin qadar kamroq va yomonroq ishlardilar. Bora-bora qullar mehnatining unumdorligi kamayib ketgan.

Milodiy I–II asrlarda qullar mehnati quldorlar uchun foydali emasligi ma'lum bo'ldi. Ko'plab quldorlar qullarni yer ijarachilariga aylantira boshlashadi. Qullar qo'zg'olonidan qo'rqqan, hosildorlikni oshirishga intilgan zamindorlar o'z yerlarini kichik-kichik mulklarga bo'lib tashladilar va erkin kambag'allarga ijaraga tarqatib bera boshladilar. Ana shu yerlarda ijarachilar dehqonchilik bilan shug'ullandilar. Ular yerga qancha yaxshi ishlov bersalar, hosilning shuncha ko'p ulushi o'zlariga nasib etardi.

Mayda yer ijarachilari *kolontlar* deb atalgan. Yerdan foydalanganlik uchun ular yer egasiga o'zlari yetishtirgan mahsulotlar bilan to'lov berishardi.

Bora-bora mutlaq qaram qullarning soni kamaydi. Ayrim yer egalari xo'jaliklarni yuritish uchun qullarga kichik yerlarni mustaqil yuritish uchun mehnat qurollari, urug'lik va oilasi bilan birga yashashga ruxsat berishardi. Bunday qullar «*kulbali qullar*», ya'ni uy-joyli



Rim quldori

qullar deb nomlangan. Ular ham yerdan foydalanganlik uchun haq to'lashardi, ammo o'zlarining taqdiri xo'jayinlarning qo'lida bo'lgan.

Qullar va kolonlar Rim davlatining eng mazlum aholisi bo'lib qolavergan va ular birgalikda quldorlarga qarshi kurash boshladilar.

O'zingizni sinang!

Kolonlar – ... «Kulbali qullar» – ...

Gladiatorlar janglari

Rimliklarning sevimli tomoshalaridan biri *gladiatorlar* jangi bo'lgan. Aksariyat gladiatorlar qullar yoki jinoyatchilar bo'lishgan. Ularga maxsus yopiq maktablarda ta'lim berishar, so'ngra bir-birlari bilan olishishga, tomoshabinlar ko'nglini xushlashga majbur qilishar edi.

Har bir gladiatorning hayot-mamoti tomoshabinlar xohish-istagiga bog'liq edi. Jang so'ngida tomoshabinlar yengilgan gladiatorning tirik qolish-qolmasligini hal qilishardi. Agar tomoshabinlarning ko'pchiligi o'ng qo'lining bosh barmog'ini yuqoriga ko'tarsa – yengilgan gladiator tirik qolgan, aksincha, pastga qaratishsa – u tomoshabinlar ko'z o'ngida o'ldirilgan. Janglar ulkan tosh stadionlar, *amfiteatrlarda* bo'lib o'tardi. 50 ming tomoshabin sig'adigan *Kolizey* eng katta amfiteatr bo'lgan.

Ba'zida gladiatorlar katta-katta guruhlarga bo'linib jang qilishgan, shunda sahna jang maydoniga o'xshab qolar edi: o'ldirilgan, yaralangan va jon berayotgan gladiatorlar hammayoqda ag'anab yotardi. Yanada qiziqarliroq bo'lishi uchun gladiatorlar janglari kuchi teng raqiblar o'rtasida o'tkazilgan. Birida faqat qilich va qalqon bo'lsa, boshqasida to'r va changak (uch ayrili nayza) bo'lgan. To'r va changak bilan qurolangan gladiator o'zini hech narsa bilan himoya qila olmasa ham, u raqibini to'r bilan o'rab tashlashi va

Eslab qoling!

«Kulbali qullar» – quldorlar tomonidan kichik yer, mehnat qurollari, urug' bilan ta'minlangan qullardir. Ularga oila va turar joy qurish uchun ham ruxsat berilgan.



Kolizeyning tashqaridan ko'rinishi



Gladiatorlar jangi



Rim burguti. Rim hukmdorlari ramzi hisoblangan

changak bilan o'ldirishi mumkin edi. Gladiatorlarning yovvoyi arslonlar, qoplonlar, darg'azab ho'kizlar bilan ham janglar o'tkazilgan.

O'zingizni sinang!

Gladiatorlar – ... Kolizey – ...
Amfiteatr – ... Changak – ...



Kolizey

Spartak qo'zg'oloni
(mil. avv. 74-71-y.)

Mazlum qullar o'z zolim ezuvchilari bo'lmish quldorlardan nafratlanar, ulardan qutulish uchun qo'zg'olonlar ko'tarishardi.

Mil. avv. 74-yilda boshlangan *Spartak* boshchiligidagi qullar qo'zg'oloni qadimgi dunyoda eng omma-viy va uyushgan qo'zg'olonlardan biri bo'lgan.

Rim armiyasida xizmat qilishdan bosh tortganligi uchun Kapuya shahridagi gladiatorlik maktabiga sotib yuborilgan frakiyalik qul Spartak qullarni qo'zg'olon ko'tarishga undadi. Ammo kimdir bu haqda rimliklarga xabar yetkazadi. Shunda Spartak va uning 200 ga yaqin tarafdorlari qorovullarga hujum qiladilar va qochib chiqib ketadilar. Shaharda yashirinish imkoniyati bo'lmagani sababli ular *Vezuviy* tog'idagi qoyaga chiqib oladilar. Asta-sekin boshqa qullar ham ularga

kelib qo'shila boshladi va qo'zg'olon ko'targanlar safi kengaya bordi. Ko'p o'tmay ularning soni 10 ming kishiga yetdi.

Qo'zg'olon ko'targan qullarni tor-mor etishga jo'natilgan uch ming kishilik qo'shin Vezuviy tog'lari yaqinida harbiy lager tikladi.

Qamal boshlandi. Spartak kutilmagan va dadil rejani amalga oshirdi. Qullar uzum novdalaridan narvon to'qib, ko'rinmaydigan tarafdin cho'qqidan pastga tushib oldilar. Rimliklar guruhining orqasidan zarba bergan Spartak ularni tor-mor etdi. Ammo ko'p o'tmay qo'zg'olon ko'targanlar orasida ixtilof paydo bo'ldi. Qullarning bir qismi Rimni tark etib, o'z yurtlariga qaytishni afzal bildilar. Ko'pgina qullar esa mam-lakatdan chiqib ketmaslikka, Rimni tor-mor etish-ga va quldorlardan qasos olishga ahd qilishdi.

Spartakka qarshi tajribali sarkarda *Mark Krass* boshchiligida ko'p ming sonli qo'shin jo'natildi. **Mi-loddan avvalgi 71-yilning** bahorida ro'y bergan hal qiluvchi jangda Spartak lashkari tor-mor etildi va uning o'zi esa ana shu jangda halok bo'ldi. 6 ming-dan ziyod asirlar Rim-Kapuya oralig'idagi yo'l bo'ylaridagi xochlarga mixlab tashlandi. Qo'zg'olon ko'targanlarning alohida to'dalari esa, kurashni yana 10 yil davom ettirdilar.

Tayanch konspekt

- qullar mehnatidan naf yo'qligi ma'lum bo'ldi
- kolonlar – mayda yer ijarachilari
- «kulbali qullar»
- gladiatorlar
- Kolizey amfiteatri
- mil. avv. 74-yil – Spartak qo'zg'oloni
- Vezuviy tog'idagi qarorgoh
- mil. avv. 71-yil – Spartak armiyasining tor-mor etilishi



Spartak qo'zg'oloni

Eslab qoling!

Spartak qo'zg'oloni mil. avv. 74–71-yillar davomida bo'lib, qo'zg'olon qullar mag'lubiyati bilan yakun topgan.



Spartakning halok bo'lishi



Rim askarlari
xordiqda



Rimliklarning
bayroqlari

Savol va topshiriqlar

1. Rimda qullar soni kimlarning hisobiga ko'paydi?
2. Qullar, kolonlar va «kulbali qullar»ning mavqeyi bir-biridan qanday farqlanar edi?
3. Rimliklar qullarga nisbatan qanday munosabatda bo'lishgan?
4. Spartak boshchiligida qo'zg'olon ko'targan qullarning qo'zg'olon joylari va yo'nalishlarini xaritada ko'rsating.
5. Spartak qo'zg'oloni Rim qullarining boshqa qo'zg'olonlaridan nimasi bilan farqlanadi?
6. Rim gladiatoridan biri nomidan hikoya tuzing?
7. Qo'zg'olon ko'targan qullar nega g'alaba qozonolmadi?

50-§. Rim respublikasining qulashi

Sabablari

Qullar qo'zg'olonlari quldorlarni qattiq qo'rquvga solib qo'yadi. Quldorlar qarshisida kuchli hokimiyat bo'lmish *harbiy diktatura* o'rnatilishi zarurligi to'g'risidagi masala ko'ndalang turar edi. Senatorlar va kam sonli mansabdor shaxslar ulkan davlatni risoladagidek boshqarishni ta'minlay olmas edilar.

Miloddan avvalgi I asrda muntazam yollanma qo'shinlarga tayanuvchi harbiy boshliqlar real kuchga aylandilar. Yollanma askarlarni Rimning harbiy kuch-qudrati va davlatning kuchayishi emas, faqat o'lja qiziqtirardi. Yollanma askarlar uchun kimlar bilan jang qilish yoki kimlarni talashning farqi bo'lmagan.

Rimda esa davlat boshlig'i bo'lishni xohlovchi bir qancha sarkardalar bor edi.

Sezar hokimiyatining qaror topishi

Spartak qo'zg'oloni bostirilib, tor-mor etilganidan keyin *Krass* va *Pompey* hokimiyat uchun ancha vaqt kurash olib bordilar, ammo Rim davlati uchun olib borayotgan urushlardan birida *Krass* halok bo'ladi. Endi *Pompey* uchun *Sezar* birdan-bir xavfli raqib bo'lib qoldi. *Galliya* urushlaridagi g'alabalar tu-fayli *Sezar*ning nufuzi va obro'yi ancha ortdi. Yollanma askarlar uning ajoyib sarkardalik iste'dodiga ishonar,

Sezarning ortidan istalgan tomonga borishga shay edilar. Bundan tashqari, Senat majlisida qatnashsa, bizga yer ajratib beradi va qarzlarni bekor qiladi, deb umid qilgan kambag'allar ham Sezarni qo'llab-quvvatlar edilar.

Yuliy Sezar **miloddan avvalgi 49-yilda** Galliyadagi zafarli urushdan keyin Rimga boruvchi yo'ldagi *Rubikon* daryosidan kechib o'tar ekan, yakkahokimlik uchun oshkora kurashni boshlab yubordi. Sezar o'shanda shunday degan: «Qur'a tashlandi!»

Rim aholisining qo'llab-quvvatlashi hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Pompeyning qo'shinlari Ispaniyada edi. Sezar g'alaba qozondi. U Rim *imperator* va *diktatori* – cheklanmagan hokimiyatga ega hukmdoriga aylandi. Sezarning xohish-irodasi Rim uchun qonun kuchiga ega edi. U hech qanday saylovlarsiz mansabdor shaxslarni tayinladi, Senat va Xalq majlisiga hisobot bermasdan qo'ydi.

Bu hol uzoq davom etmadi. Sezarning cheklanmagan hokimiyatidan norozi bo'lgan senatorlar fitna uyushtirdilar. Ular Sezarni o'ldirishga va Senatga burungi mavqeini qaytarishga ahd qildilar. Fitnaga Sezarning yaqin do'stlaridan bo'lmish *Brut* boshchilik qiladi. Senatdagi majlis paytida fitnachilar Sezarni qurshab oldilar va unga xanjarlar bilan zarba bera boshladilar. Sezar shu yerning o'zida o'ladi.

Miloddan avvalgi 44-yilda Yuliy Sezar hukmronligi tugadi. Ammo uning o'ldirilishi respublikaning qayta tiklanishiga olib kelmadi. Sarkardalar o'rtasida kurash va mamlakatda fuqarolarning urushi boshlanib ketdi.

O'zingizni sinang!

Krass, Pompey,

Sezar – ...

Brut – ...

Imperator – ...



Sezar – Rim imperatori




Sezarning o'ldirilishi

Hokimiyat uchun kurash oqibatlari



Yuliy Sezar dinori
mil. avv. 49–48-yy.



Kleopatra – Misr
malikasi

Sezar o'ldirilganidan keyin Brut respublikani qayta tiklashga urinib ko'radi. Biroq senatorlar

avvalgi tartibotlarga qaytishni istamasdilar. Ularning ko'pchiligi o'z boyligini Sezar hukmronligi davrida qo'lga kiritgan edi. Brut va uning tarafdorlari Yunonistonga qochib ketishga majbur bo'ladilar.

Ayni paytda Rimda Sezarning jiyani (imperator uni asrab olganida Gay Yuliy Sezar Oktavian deb nom bergan) *Oktaviy* paydo bo'ladi. U Brut va uning tarafdorlariga qarshi kurash boshladi.

Shimoliy Yunonistonda Brut qo'shinlar to'plab, Rimga jiddiy xavf soladi. Oktavian *Mark Antoniy* bilan ittifoq tuzadi va respublikachilarni tor-mor etadi. Brut esa Oktavianga asir tushishni xohlamay o'zini qilich tig'iga tashlab halok bo'ladi. Shundan keyin Oktavian Rim davlatining G'arbiy qismini, Antoniy esa Sharqiy qismini boshqarishni o'z qo'lga oladi.

Misrga kelgan Antoniy Misr malikasi *Kleopatrag*a uylanadi. Nikoh sovg'asi tariqasida Antoniy Kleopatragga Rimning sharqiy provinsiyalarini (viloyatlari) beradi. Bu Oktavianning noroziligiga sabab bo'ldi. Miloddan avvalgi 31-yilda Yunoniston qirg'oqlarida Antoniy va Oktavian flotlari o'rtasida jang bo'ldi. Jang qizigan bir pallada Kleopatra va Antoniy *Aleksandriya* shahriga qochadilar. Armiya va flot Oktavianga taslim bo'ladi. Keyingi yili Oktavian qo'shinlar bilan Misrga yetib keladi. Antoniy va Kleopatra o'z-o'zini o'ldiradi, Misr esa Rim davlati provinsiyasiga aylanadi. Shu tariqa Oktavian butun Rim imperiyasining yakka hukmdori bo'lib oladi.

Miloddan avvalgi 29-yilda Oktavian Senatdan imperator unvoni va *Avgust* laqabini oladi. U Rim imperiyasining asoschisiga aylanib, bir qator islohotlar o'tkazdi. Oktavian Avgust senatorlar va Rim armi-

yasi legionlari sonini qisqartirdi. Jangchilarning xizmat muddati 20 yil etib belgilandi. Oktavian Avgust zamonida Rim imperiyasi armiyasining umumiy soni 300 mingga yetdi. Imperator keng ko'lamda qurilish ishlari olib bordi. Uning davrida Rimda ko'plab saroylar va ibodatxonalar bunyod etildi.

Oktavian Avgust milodiy 14-yilda vafot etdi. Uning vorislari bo'lmish *Kaligula* va *Neron* hukmronligi davrida imperiya inqirozi boshlandi. Faqat milodiy II asrning boshlarida Rimning kuch-qudrati qayta tiklandi. Bu asr Rim imperiyasining «oltin asri» degan nom olgan.

Milodiy 98-yilda *Trayan* Rim imperatori taxtini egalladi. *Trayan* zamonida Dunay daryosi bo'ylarida yashovchi *daklar* bilan urushlar olib borildi. Balandligi 40 metrga teng *Trayan ustuni* sirtida tasvirlangan daklar bilan urush manzaralari bu haqda hikoya qiladi. Bu davrda Suriya va Mesopotamiya hududlari Rim imperiyasi tarkibiga kirdi. *Trayan* Parfiya bilan urushlarda muvaffaqiyatga erishdi.



Mark Antoniy

Eslab qoling!

Mil. avv. 29-yilda Oktavian Senatdan imperator unvoni va Avgust laqabini oldi. U Rim imperiyasining asoschisi bo'ldi.

O'zingizni sinang!

Oktavian Avgust – ...	Sezar Oktavian – ...
Kleopatra – ...	Trayan – ...

Tayanch konspekt

- hokimiyat uchun kurash: Krass va Pompey
- mil. avv. 49-yil – Yuliy Sezar – Rim imperatori
- Sezarning o'ldirilishi → Brut
- mil. avv. 31-yil – Antoniy va Oktavian jangi
- Oktavian – imperator Avgust
- milodiy II asr – Rim imperiyasining «oltin asri»
- milodiy 98-yil – imperator *Trayan* → *Trayan ustuni*



Imperator Oktavian Avgust



Trayan ustuni



Rim piyodalari

Savol va topshiriqlar

1. Rimda respublika qulashining asosiy sababini ayting.
2. Rimda Sezar hokimiyati qaror topishi qanday ro'y berdi?
3. Yuliy Sezar o'ldirilishini kim va nega uyushtirdi?
4. Yuliy Sezar o'ldirilganidan keyin Rimda qanday o'zgarishlar bo'ldi?
5. Yakkahokimlik uchun kurashda nega Oktavian g'olib chiqdi?

51-§. Rim imperiyasining yemirilishi

Imperiyaning qulashi

Imperator Trayan davridan so'ng rimliklar yirik bosqinchilik urushlarini olib borolmaganlar. Milodiy III asrda Rim imperiyasining kuch-qudrati zaiflasha boshladi. Imperatorni endilikda armiya saylar, armiya-ning o'zida ham turli guruhlar o'rtasida kurash borar edi.

Ayni paytda imperiya chegaralarining shimoli-g'arb tarafidan ko'chmanchi qabilalar paydo bo'ldilar. Rimliklar ularga «*varvarlar*» degan laqab berishgan va chegarada katta armiya saqlab turishga majbur bo'lishgan.

Avval yunonlar tillari o'zlari uchun tushunarli bo'lmagan barcha qabilalar va xalqlarni «*varvarlar*» deb atashgan. Rimliklar esa, madaniy taraqqiyotning ancha quyi pog'onasida turuvchi xalqlarni shunday nomlashgan.

G'arbiy va Sharqiy Rim imperiyalari

Imperator *Konstantin* zamoni, milodiy 330-yili *Bosfor* bo'g'ozidagi *Vizantiy* shahri Rim imperiyasining poytaxti deb e'lon qilindi. Imperatorning buyrug'i bilan shahardagi barcha eski binolar buzib tashlandi va yangi shahar qurildi, Rim, Afina va Korinfdan keltirilgan haykallar va ustunlar o'rnatildi. Shahar imperator sharafiga *Konstantinopol* deb atala boshlandi.

Ulkan imperiyani Konstantinopoldan turib boshqarish mushkul edi. Imperator *Feodosiy* o'limidan so'ng **milodiy 395-yili** Rim imperiyasi uning ikki o'g'li o'rtasida *G'arbiy* va *Sharqiy* qismlarga taqsimlandi. G'arbiy qismga Italiya, Yevropa va Shimoliy Afrika-dagi viloyatlar, Sharqiy qismga esa Bolqon yarimoroli, Kichik Osiyo va Misr yerlari kirgan. Sharqiy Rim imperiyasida imperatorning yagona hokimiyati saqlanib qolgan, G'arbiy Rim imperiyasi esa alohida davlatlarga parchalana boshladi.

O'zingizni sinang!

«*Varvarlar*» ...



Rim ostonasidagi varvarlar

Gotlar Rimda Milodiy IV–V asr boshlarida G'arbiy Rim imperiyasini qullar va kolonlar qo'zg'olonlari qamrab oldi. Yerlarni va mo'l-ko'l o'ljalarini qo'lga kiritish maqsadini ko'zlagan «varvarlar»ning imperiyaga hujumlari ham kuchayib bordi.

Milodiy 410-yilda *Alarix* boshchiligidagi *gotlar* Rimni qurshab oldilar. Rimliklar ular bilan muzokara boshladilar, ammo tunda qullar darvozalarni ochib berdilar, bosqinchilar shaharga yopirilib kirdilar. Gotlar haykallarni yo'q qilib, bebaho kitoblarni yondirib, Rimni roppa-rosa uch kun taladilar. Talon-taroj qilingan Rim shahri huvillab qoldi.

Germanlar savodsiz bo'lib, teatrlar, kutubxonalarini ko'rishmagan edi. Rim imperiyasi sarhadiga kirganlaridan keyin ular Rim imoratlari, arxitekturasi va haykallarining go'zalligi va ulug'vorligini munosib baholay olishmasdi. Bularning barini shafqatsizlar-cha yo'q qilib tashladilar. Germanlar qo'rg'onchalarini o'rab turgan devorlarni mustahkamlash uchun Rim ibodatxonalari va kutubxonalari binolaridan tosh tax-

Eslab qoling!

Imperator Feodosiy o'limidan so'ng **milodiy 395-yili** Rim imperiyasi uning ikki o'g'li o'rtasida G'arbiy va Sharqiy qismlarga taqsimlandi.



Gotlar Rimni talamoqdalar

Eslab qoling!

Rim **410- yilda** **Alarix** boshchiligidagi gotlar tomonidan yakson qilindi.




Vandal askari

talarni ko'chirib olib ketadilar. Kitoblar, haykallar va boshqa san'at asarlari ham nobud bo'ldi.

G'arbiy Rim imperiyasining qulashi

Gotlarning Rimni ishg'ol etishi imperiya aholisini larzaga soldi. Yuz yillar davomida rimliklar o'zlarining barcha raqiblari ustidan g'alaba qozonishgan, O'rtayer dengizi bo'ylaridagi barcha mamlakatlarni zabt etishgan, o'zlarini jahon hukmdori hisoblashgan. Rimni esa «*boqiy shahar*» deya ta'riflashgan. Go'yo rimliklar qudratining so'ngi yo'qdek tuyulardi. Rim qulashi haqida o'sha zamon tarixchisi nadomat bilan shunday yozgan edi: «*Butun Yer yuzini bo'ysundirgan jahon shamchirog'i ham so'ndi*». Rim aholisining ko'pchiligi Rim zavolga yuz tutishi bilan butun jahon nes-nobud bo'lib ketishiga ishonar edi. Ammo dunyo halok bo'lmadi. Alarix ham o'ldi, biroq Rimning undan dahshatliroq dushmani – *Attila* boshchiligida *xunn* qabilalari paydo bo'ldi. *Attila* Sharqiy Rim imperiyasiga hujum uyushtira boshladi. **Milodiy 452- yilda** xunlar Italiyaga bostirib kirdilar.

Milodiy 455- yilda Rimga germanlarning *vandal* qabilalari hujum qildi, ular ikki hafta davomida shaharni taladilar. Vandallar o'zlari bilan olib ketolmaydigan hamma narsani nobud qildilar. Milodiy 476- yilda german qabilalarining Rimdagi yollangan qo'shini sarkardasi *Odoakr* so'nggi imperator *Romulni* taxtdan ag'darib tashladi va imperator unvoni nishonini Konstantinopolga jo'natdi. Sobiq G'arbiy Rim imperiyasi sarhadlarini german qabilalari egallab oldilar. Shu tariqa **milodiy 476-yil**, G'arbiy Rim imperiyasining qulashi va Qadimgi dunyo tarixning yakunlanish sanasi sifatida tarixga kirdi. Mazkur sanadan boshlab o'rta asrlar tarixi boshlanadi.



Jang ko'rinislari

Tayanch konspekt

- 330-yil – Rim imperiyasining poytaxti – Vizantiy (Konstantinopol)
- 395-yil – Rim imperiyasi
- 410-yil – Rimning gotlar tomonidan vayronaga aylantirishi – Alarix
- 452-yil – xunnlarning Italiyaga bostirib kirishi – Attila
- 455-yil – german vandal qabilalarining bostirib kirishi
- 476-yil – G'arbiy Rim imperiyasining qulashi

Savol va topshiriqlar

1. Rim armiyasi haqida so'zlab bering.
2. Rimliklar kimlarni «varvarlar» deyishgan? Rimliklar varvarlarning qaysi qabilalari bilan to'qnashishdi?
3. Rim imperiyasining G'arbiy va Sharqiy imperiyalarga bo'linishi sababi nimada?
4. Rimning bosib olinishi haqida so'zlab bering.
5. G'arbiy Rim imperiyasi qulashi sabablarini sanang.

Eslab qoling!

Milodiy 455- yilda Rimga germanlarning vandal qabilalari hujum qildi, ular ikki hafta davomida shaharni taladilar.



Rimliklarning vandallar qo'shinlari bilan bo'lgan jang tasviri

Eslab qoling!

476- yilda G'arbiy Rim imperiyasi quladi.


52 – 53-§§. Qadimgi Rim madaniyati



Badavlat rimlik uy-qo'rg'oni



Rim termalari.
Zamonaviy rasm



Mum bilan qoplangan yozuv taxtasi

Rimliklarning turmush tarzi

Milodiy I asrga kelib rimliklar turmushida keskin o'zgarishlar ro'y berdi. Rimlik zodagonlar bo'lmish patritsiylar bir qavatli oddiy uylarda yashardilar, xo'jalikda qullar ham unchalik ko'p emasdi.

Badavlat kishilar yashaydigan tepaliklar bag'rida tomoshabog'lar va chorbog'lar ko'p, havosi esa tep-tekis joylardagiga qaraganda ancha sog'lom va toza-roq bo'lgan. Imperatorning yaqin kishilari muhtasham koshonalarga egalik qilar edilar.

Badavlat bo'lmagan rimliklar tepaliklar o'rtasidagi tekis joylarda yashagan. Bu yerlarda ko'chalar tor va iflos bo'lgan: axlatni to'g'ri ko'chaga tashlashgan. Ustiga-ustak Rim aholisi soni ham muntazam ortib bordi, chunki Italiyaning to'rt tomonidan xonavayron bo'lgan dehqonlar poytaxtga ko'chib kelardilar. Ishi yurishgan kishi bir burchakni yoki xonani ijaraga olardi, sayoqlar va gadoylar zinapoyalar tagida, zax va nimqorong'i yerto'lalarda yoki ochiqdan-ochiq shahar ko'chalarida tunar edilar.

Rimlik imperatorlar poytaxt aholisi uchun «termalar» deb atalgan ko'rkam hammomlar qurdirgan edilar (yunoncha «issiq» so'zidan, «termos» so'zi ham shundan kelib chiqqan). Arzimas to'lov evaziga har bir rimlik termalarga tushish imkoniyatiga ega bo'lib, bu yerda suzish uchun basseynlar, sport zallari mavjud edi. Termalar qoshida ta'lim olish va fanlar bilan shug'ullanish uchun kutubxona ham bo'lgan.

Ta'lim

Madaniyatning asosiy belgisi bo'lgan ta'lim Rimda o'ziga xos edi. Bolalarning maktabda ta'lim olishi otionalarning tahsil uchun haq to'lash imkoniyatlariga bog'liq bo'lgan. Kambag'al rimliklarning farzandlari xo'jalik ishlarida ota-onalariga yordam berganliklari

sababli maktabda o'qimas edilar. Badavlat xonadon farzandlari esa 6 yoshdan maktabga qatnagan. Yozuvni o'rganayotgan bolalar *stil* degan metall tayoqcha bilan harflarni mum qoplangan taxtachalarga qitirlatib, o'yib yozardilar.



Eslab qoling!

Stil – mum bilan qoplangan taxtacha-ga yozish uchun mo'ljallangan temir tayoqcha.

O'qish, yozish va hisoblashni o'rganganidan keyin ko'pchilik ta'lim olishni yakunlar edi. Ayrimlar grammatikada (o'rta maktabda) tahsilni davom ettirgan. U yerda tarix, geografiya, geometriya, musiqa va astronomiya o'qitilardi. Yunon tilini o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan, chunki fanning turli tarmoqlariga oid kitoblarning aksariyati yunon tilida yozilgan edi. Siyosiy arbob bo'lishni istagan har bir kishi notiqlik va *ritorikani* – chiroyli so'zlasni o'zlashtirgan.


Me'morchilik va haykaltaroshlik

Rim imperiyasida qurilish ishlari ayniqsa taraqqiy etgandi. Amfiteatrlar, sirkalar, teatrlar, ibodatxonalar, saroylar, triumfal arklar va ko'p qavatli uylar barpo etildi. Shaharni baland devorlar o'rab turardi.

Rim me'morchiligi yunon me'morchiligidan imoratlari rang-barangligi va muhtashamligi bilan farqlangan. Milodiy I asrda Rim eng yirik va aholisi ko'p shaharga aylangan. O'sha kezlarda hatto shunday bir maqol to'qilgan: «Barcha yo'llar Rimga boradi». Minglab qullar o'rmonlar, tog'lar va botqoqlar orqali yo'llar o'tkazilgan. Yo'llar bilan bir qatorda, Rim vodo-



Lotincha sonlar



Rimdagi yo'l qurilishi

Eslab qoling!

Rim imperiyasida qurilish ishlari ayniqsa taraqqiy etgandi. Amfiteatrlar, sirkalar, teatrlar, ibodatxonalar, saroylar, triumfal arklar va ko'p qavatli uylar barpo etildi.



Akveduk qurilishi

Eslab qoling!

Barcha xudolar ibodatxonasi – Panteonga Rim imperiyasida yashayotgan har bir kishi kelib o'zi e'tiqod qilgan xudoga sig'inish imkoniga ega bo'lgan.




Panteon – barcha xudolar ibodatxonasi

provodi – suv quvurlari qoldiqlari ham hozirga qadar saqlanib qolgan. Quvurlar nishablik asosida qurilgan bo'lib, tog'dagi buloqlardan suvning o'zi oqib kelar edi. Suv quvurlarini jarlar, daralar va vodiylardan o'tkazish uchun *akveduklar* – anhorlarning yuqori qismidan o'tkazilgan ko'priklar qurilgan.

Ulkan ko'priklarni butunlay toshdan qurish qimmatga tushar va uzoq davom etar edi. Rimliklar yangi qurilish materiali bo'lmish betonni ixtiro qilishadi. Quruvchilar g'ishtdan ikkita ingichka devor tiklashgan, ular o'rtasidagi bo'shliqni esa beton bilan to'ldirishgan. Qotganidan keyin u toshdan ham mustahkam bo'lib qolgan. Beton ishlatilishi rimliklarga tez va pishiq inshootlar qurishga imkon bergan.

O'n minglab tomoshabinlarni sig'diradigan Amfiteatr Rimdagi eng katta inshoot hisoblangan. Bu yerda gladiatorlar olishuvi va harbiy kemalar jangi uyushtirilardi. Yer ostida chuqur bir joyda sahnani suvga to'ldirish imkonini beruvchi moslama qurilgan. Rim-



Me'morchilik uslublari. Ustunlar

ning eng katta amfiteatri bo'lmish Kolizey o'tmishdagi ulug'vorlik namunasi sifatida hozirgacha saqlangan.

Beton ixtiro etilganidan keyin shiftlar gumbaz shaklida ustunlarsiz quriladigan bo'ldi. Rimdagi Panteon (yunonchada «barcha xudolar ibodatxonasi» ma'nosini anglatadi) shu taxlitda qurilgan. Rim imperiyasida yashayotgan har bir kishi Panteonga kelib o'zi e'tiqod qilgan xudoga sig'inish imkoniga ega bo'lgan: misrlik – Osirisga, yunon – Zevsga, rimlik – Yupiterga ibodat qilar edi.

Buyuk g'alabalarni nishonlash uchun muhtasham triumfal arkalar barpo etilgan.

Xristianlikning vujudga kelishi Milodiy I-mingyillik boshlarida Rim hokimiyati ostida bo'lgan Falastin yerlaridagi *Vifileem* shahrida «Xudoning o'g'li» nomini olgan *Iso* tug'ilganligi haqida rivoyatlar keng tarqala boshlangan.

Rivoyatlarga ko'ra, 30 yoshida *Iso* o'n ikki nafar *havoriylari (apostollar)* bilan Falastin bo'ylab sayo-

Eslab qoling!

Tit Liviy, Tatsit, Plutarx – Rim tarixchilari.

Eslab qoling!

Rimliklar yangi qurilish materiali – betonni kashf qildilar.

Eslab qoling!

Xristianlik dini **milodiy I asrda** vujudga kelgan.



**Xristianlarning
dastlabki ibodatxonasi**



**Isoning xochga
tortilishi**




Imperator Konstantin

hat qilib, Xudo oyatlari haqida hikoya qilib beradi va ularni amalda ko'rsatadi – o'liklarni tiriltiradi, yashashdan umidini uzgan, tuzalmas xastalarni davolaydi. Mahalliy ruhoniylar Iso payg'ambarni mavjud diniy haqiqatlarni buzib talqin etishda ayblab, uni o'lim jazosiga mahkum etadilar. Rim noibi *Pontiy Pilat* bu hukmni tasdiqlashi shart edi. Avvaliga Pontiy Pilat bu ishni qilishdan bosh tortgan, ammo ruhoniylar tazyiqi ostida rozilik beradi. Rivoyatlarga ko'ra, Isoni yer yuzidagi ilk inson – Odam ato dafn etilgan *Golgofa tog'ida* xochga tortganlar. Iso payg'ambar 3 kunda, dahshatli azoblar girdobida jon beradi. Vafotidan keyin murdasini bir g'orga qo'yishadi. Uchinchi kuni dafn etish uchun kelishganda Iso Masih jasadi qo'yilgan joyida yo'qligini ko'rishadi. Odamlar Iso payg'ambarning qayta tirilib, me'rojga ko'tarilishiga va Yer yuziga qaytib kelishga ishonganlar.

Iso Masih haqidagi rivoyatlar *Yevangeliya (Injil)* nomini olgan, yunonchadan tarjima qilganda bu so'z «Xushxabar» ma'nosini anglatadi. Iso payg'ambar ta'limoti izdoshlari *xristianlardir*. Shogirdlari apostollar (havoriylar) deb atalgan. Xristianlar jamoalariga *yepiskoplar* peshvolik qiladi. **Milodiy I asr** – xristianlik vujudga kelgan sana hisoblanadi.


Rim hukmdorlari xristianlarni ta'qib etadilar, yirtqich hayvonlar changaliga tashlaydilar, turli qiynoqlarga soladilar. Bu esa odamlarning noroziligiga sabab bo'lardi.

Milodiy 313-yilda imperator Konstantin xristianlik boshqa dinlar bilan teng bir din deb e'lon qilingan farmon chiqardi. Farmon xristianlarga ibodatxonalar qurish va oshkora ibodat qilish imkonini berdi.



Rivoyatga ko'ra, imperator Konstantin xristianlik ramzini o'z askarlari qalqonlariga chizishga buyurgan va g'alabaga erishgan.

Tayanch konspekt



Savol va topshiriqlar

1. Rimliklarning turmush tarzi haqida hikoya tuzing.
2. Rim davlatida ta'limning qaysi turlari mavjud bo'lgan, nimalarni o'qitishgan?
3. Rim me'morchiligining xususiyatlarini ayting.
4. Rimdagi eng katta inshoot nomini ayting.
5. Rim Panteoni haqida nimalarni bilasiz?
6. Iso payg'ambar kim? Xristianlik haqida nimalarni bilasiz?

Rim tarixchilari:



Kvint Kursiy Ruf



Plutarx



Tit Liviy

Eslab qoling!

Odamzotning ma'naviy kamol topish jarayoni chuqur ildiz va qadimiy an'analarga ega.



Yaratuvchanlik doim qadrlanib kelingan



54-§. Ma'naviyat manbalarida

Siz yil davomida ibtidoiy jamoa tuzumidan boshlangan qadimgi dunyo tarixi bilan tanishdingiz. Mehnat qurollari takomillashgandan va unumdorlik oshgandan so'ng, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlanishi natijasida ilk davlatlar shakllandi. Yozuv paydo bo'lgach odamlar o'zlari yashayotgan jamiyat bo'yicha qonunlar yoza boshladilar.

Odamzot qadimdan yaratilgan bebaho ixtiro va kashfiyotlardan foydalanib keladi. Bular ziroatchilik usullari, g'ildirak, suv quvurlari, alifbo, taqvim, sonlar, me'morchilik va shu kabi yutuqlardir.

Biz hanuz qadimgi dunyo xalqlari yaratgan madaniy yodgorliklardan hayratlanamiz. Hozirda qadimgi mualliflarning ko'plab asarlari bizni mardlikka, mehnat-sevarlikka, Vatanga muhabbatga undaydi.

Yaratuvchanlik doim qadrlanib kelingan. Hatto qadim davrda uzoq ajdodlarimiz hayoti xavf-xatar, tashvishlarga to'la bo'lganda ham, odamlarning asosiy maqsadi oziq topish bo'lganda ham insoniyat olamini anglashga harakat qilib kelgan. Bu esa ma'naviy madaniyat rivojlanishi uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Insoniyatning ma'naviy takomillashuv jarayoni shunday boshlangan edi.

...Ko'hitog'ning tik qoyalarida, hozirda Zarautkamar yoki Oltin Olov deb yuritiladigan daralariga qadimgi mo'yqalam sohiblari qizil bo'yoqda yovvoyi ho'kizlarni ovlash tasvirini chizishgan. Ular dramatik manzaralarga boy bo'lib, bu suratlarda ovning g'alaba bilan tugashi, ovchilarning tantanasi va inson aqlining yuksakligi tasvirlangan.

O'zingizni sinang!

Moddiy madaniyat – ...
Ma'naviy madaniyat – ...
San'at – ...

Yunon va rimliklarning Sharq madaniyati bilan o'zaro aloqasi fan va san'at yuksalishining tezlashuviga, dunyo madaniyatining taraqqiyotiga olib keldi.

Endi siz qadimgi dunyo tarixi va O'zbekiston tarixi necha ming yillarga borib taqalishini yaxshi bilasiz. Aynan uzoq o'tmishda bizning yurtimizda boy madaniy meros rivojlanishi uchun asos solingan edi. Bu yerda qadimgi shaharlar va davlatlar tashkil topgan. Ziroatchilar, hunarmandlar va quruvchilar o'zining yaratuvchanlik mehnati bilan o'lka dovrug'ini olamga yoygan.

Vatanga muhabbat ko'p sonli bosqinchilarga qarshi kurashgan xalq qahramonlari jasoratida namoyon bo'lgan. To'maris, Shiroq, Spitamen va boshqa ko'plab jasur qahramonlar yurt ozodligini o'z hayotidan ustun qo'yganlar.

Ilk yozma manba – «Avesto»da zardushtiylarning ulug' va donishmand oliy xudosi Ahuramazda tomonidan yaratilgan eng yaxshi mamlakat sifatida O'zbekistonning qadimgi dehqonchilik hududlari ta'kidlab o'tiladi.

Amudaryo etaklarida, qadimgi Xorazm yerlarida, Surxon, Qashqadaryo va Zarafshon vohalarida zardushtiylik dini targ'ibotchilari yovuzlik va ezgulik o'rtasidagi mangu kurash haqidagi muqaddas qasidani kuylashgan. Ular kishilarni tinchlikka, adolat va ezgulikka chorlaganlar. Odamlar oilaga, uyga, suv va yerga nisbatan hurmat bilan qarashgan, farzandlariga insonning jamiyatdagi yuksak o'rni haqida tasavvurni singdirishgan. Zardushtiylik g'oyasi qadimgi jamiyatning rivojlanishini belgilab berdi.

Har qanday jamiyat taraqqiyoti yaratuvchilik g'oyasining mavjudligi bilan belgilanadi.

Ajdodlarimizning tarixdagi qahramonliklari, jasorati vatanparvarlik hissini tarbiyalaydi, o'z Vatani manfaatlarini himoya qilishga o'rgatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov milliy istiqlol g'oyasining mohiyatini ochib bera turib, mamlakatimiz rivojlanishini millati, tili va dinidan qat'i




**Bunyodkorlik –
ma'naviyat asosi
hisoblanadi**



**Mirzo Ulug'bek
haykali**



**Amir Temur
haykali**



**Alisher Navoiy
haykali**



Tarixiy-madaniy meros

nazar butun O'zbekiston fuqarolarini tashkil etgan jamiyatning ma'naviy gullab-yashnashi va komil insonni tarbiyalash bilan chambarchas bog'laydi.

Xalqimiz ezgulikka, tinchlik va bunyodkorlikka intiladi. Bu intilish boy ma'naviyatga asoslangan va mamlakatimizning buguni va kelajakdagi rivojlanishi, gullab-yashnashi bilan bog'liq.

Biz Vatanimizning moddiy va ma'naviy madaniyatini asrab-avaylab ko'paytirgan holda ajdodlarimizning ezgu ishlarini davom ettirishimiz lozim.

Prezidentimiz Islom Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitobida, *«Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi»*, deb ta'kidlagan.

Ma'naviyatimizni yuksaltirish borasidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun har bir inson o'zini o'z mamlakatining haqiqiy fuqarosi deb his qilishi uchun qadimiy, ko'hna tarixni, buyuk ajdodlarimizning boy merosini va madaniyatini chuqur o'rganishi, bugungi kundagi olamshumul o'zgarishlarga boy voqelikni ongli ravishda idrok qila bilishi, jamiyatimiz va davlatimiz taraqqiyotiga o'zining ham daxldor ekanligini anglab yetishi lozim.

Tarixiy atamalar LUG'ATI

Avstralopitek – eng qadimgi odam turi.

Agora – Qadimgi Yunoniston shaharlarida xalq yig'ilishi joyi, markaziy maydon.

Akveduk – shaharga suv keladigan ustida anhuri bo'lgan baland ko'prik.

Altamir – Ispaniyadagi so'nggi paleolitga oid rasmlar topilgan g'or.

Amfiteatr – sahna atrofida tomoshabinlar o'tirishiga mo'ljallangan qurilmalar bilan qurshalgan tomsiz katta inshoot.

Amfora – suyuq mahsulotlarni tashish va saqlash uchun mo'ljallangan bo'g'zi ingichka va qo'shaloq dastali katta ko'za.

Amulet – tumor, misrliklar fikricha, mabodo inson o'zi bilan birga olib yursa, yovuz ruhlar va balo-ofatlardan himoya qiluvchi kichik buyum.

Animizm – insonni qurshab turgan muhitda jonlar va ruhlarning mavjudligiga ishonch.

Antik – lotincha «qadimgi».

Antik tarix – Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim davri tarixi.

Argonavtlar – oltin mo'ynani (sehrlil qo'chqor terisini) izlab, «Argo» degan ko'p eshkakli kemada dengiz sayohatiga chiqqan Ellada qahramonlari.

Ariylar (oriylar) – qadimgi qabilalar; tarjimai «sodiqqlar», «erkinlar» ma'nosini anglatadi.

Arxeologiya – ashyoviy manbalarni o'rganuvchi va ular bo'yicha tarixiy o'tmishni qayta tiklovchi fan; qadimshunoslik.

Arxiv – davlatga oid hujjatlar saqlanadigan joy.

Arxitektura (me'morchilik) – binolar va boshqa inshootlarni barpo etish san'ati.

Budda – Siddhartha Gautamaning ikkinchi ismi, laqabi; «Ma'rifatlan-gan» tarzida tarjima qilinadi.

Buddaviylik – miloddan avvalgi VI asrda Hindistonda Siddhartha Gautama tomonidan asos solingan diniy ta'limot.

Varvar – dastlab: yunon tilida so'zlashmaydigan har qanday chet mamlakatlik kishi; keyinchalik bu so'z madaniylashmagan odamlarga nisbatan ishlatiladigan bo'ldi.

Danaylar – Gomer «Iliada»da yunonlarni shunday atagan.

Delta – Nil daryosi O'rtayer dengiziga quyilayotganda uchburchak-simon yalpi manzarani yuzaga keltiruvchi, y'ani yunoncha delta harfiga o'xshagan joy.

Demokratiya – yunoncha «xalq hokimiyati», har bir fuqaro o'z mamlakatini boshqarish masalasi bo'yicha o'z fikrini bayon etadigan, shuningdek, davlat boshqaruvida ishtirok etadigan ijtimoiy tuzum.

Diadohlar (vorislar) – Makedoniyalik Aleksandr vafotidan keyin turli hududlar ustidan hokimiyatni egallab olgan harbiy sarkardalar.

Diktator – cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan hukmdor, «diktatura» – lotincha «cheklanmagan hokimiyat» tushunchasini anqlatadi.

Dinastiya (sulola) – birin-ketin hukmronlik qiluvchi podshohlar urug'i; sulola vakillari ko'pincha bitta nom bilan aytilgan, masalan, Ahamoniylar.

Gilgamish – Mesopotamiyaning afsonaviy qahramoni, tarixiy shaxs, Uruk shahri podshosi.

Goplit – Qadimgi Yunoniston va Yunoniston-Makedoniya armiyalarining og'ir qurollangan piyoda jangchisi.

Zikkurat – tepasida ibodatxonasi bo'lgan zinapoyali yirik va baland inshoot.

Ibodatxona – muqaddas deb e'lon qilingan, odamlar xudolarga sig'ingan bino yoki joy.

«Iliada» – Gomerning Troya urushi haqidagi dostoni.

Imperator – lotincha «hukmdor», Qadimgi Rimda dastlab – faxriy harbiy unvon, keyinchalik mutlaq hukmdorga tegishli unvon.

Imperiya – hukmdorning cheklanmagan hokimiyati joriy etilgan, boshqa ko'plab xalqlarni o'ziga bo'ysundirgan davlat.

Italiklar – Apennin yarimorolida istiqomat qilgan qadimiy qabilalar.

Iyerogliflar – qadimgi yunonlar misrliklar yozuvini shunday atashgan; «muqaddas bitiklar» ma’nosini anglatadi.

Kapitoliy tepaligi – Rimdagi eng baland tepalik.

Kohinlar – ibodatxona ruhoniylari.

Koloniyalar – qadimgi davrlarda o’z yurtini tark etgan odamlar tomonidan yangi yerlarda asos solingan manzilgoh va shaharlar.

Konsul – Respublika davrida Rimdagi oliy siyosiy lavozim. Har yili saylangan ikki nafar konsul Senat va armiyaga rahbarlik qilgan.

Ko’chmanchilar – doimiy istiqomat joyiga ega bo’lmagan kishilar.

Legion – Rim armiyasida eng yirik jangovar birlik.

Metek – Afinada yashovchi chet ellik.

Mixxat – shumerlar va forslarning qadimgi yozuvi.

Moxenjodaro – Hindistondagi eng qadimgi sivilizatsiya.

Mozaika – rangli sopol yoki shisha parchalaridan devorda yoki polda ishlangan suvoqqa qadalgan manzarali rasm.

Mumiyolangan jasad – dafn etishga tayyorlangan, maxsus uzoq saqlanuvchi moddalar qo’shilmalari bilan ishlov berilgan jasad.

Nekropol – qabriston; maqbara.

«Nom»lar – Misrdagi ilk davlatlar.

Olimpiya o’yinlari – Peloponnes yarimorolidagi Olimpiya shahrida to’rt yilda bir marta Olimpiyalik Zevs sharafiga bag’ishlab o’tkaziladigan yunon sport musobaqalari.

Oykumena – Yer yuzining odamlar yashaydigan qismi, chegarasi.

Papirus – poyasining mag’zi yozuv yozishga material tayyorlash uchun ishlatiladigan qamish.

Patritsiylar – Rimning qadimgi tub aholisi.

Piramida – mahobatli tosh inshoot, fir’avnlarning maqbarasi.

Plebeylar – Rimga ko’chib kelgan odamlar va ularning avlodlari.

Polis – yunoncha «shahar».

Respublika – «umumiy ish» ma’nosini anglatadi; tuzum nomi.

Senat – «Oqsoqollar kengashi» ma’nosini anglatadi.

Strateg – Afinaning harbiy boshlig’i.

Sfinks – jasadi sherniki va boshi insonniki bo'lgan, piramidalarni qo'riqlovchi ulkan haykal – afsonaviy mavjudot.

Termalar – Qadimgi Rim shahridagi jamoat hammomlari.

Tiran – mutlaq hokimiyatga ega bo'lgan hukmdor.

Falanga – og'ir qurollangan askarlarning bir necha, odatda 9 yoki 16 qator saf tortishi.

Falsafa (filosofiya) – yunoncha «filo» – sevish, «sofiya» – donishmandlik tushunchalarini anglatadi.

Fir'avn – Misr hukmdori; «ulug' xonadon» ma'nosini anglatadi.

Freska – selgimagan suvoqqa chizilgan rasm.

Forum – Rimda yig'ilish joyi va savdo-sotiq maydoni bo'lib xizmat qilgan shahar markazi.

Xronologiya – asrlar, davrlar, vaqt o'lchovi haqidagi fan; turli-tuman voqealar sanasi xronologiya yordamida aniqlanadi va aniqlashtiriladi.

Sun'iy sug'orish – kanallar va ariqlar yordamida ekinlarni sug'orish.

Sivilizatsiya – qadimdagi jamiyat taraqqiyotining ancha yuksak darajasi (shaharlar, yozuv va davlatlarning rivojlanishi).

Shahar-davlat – tevaragidagi hududlarni tasarrufiga olgan o'zini-o'zi boshqaruvchi shahar;

Ellada – Qadimgi Yunoniston.

Ellinlar – qadimgi yunonlar; dastlab Yunonistonning barcha aholisi shunday atalgan.

Qarzdorlik qulligi – qarzni vaqtida qaytarmagan erkin fuqarolarning qullarga aylantirilishi jarayoni.

Qul – o'zga bir kishining mulki bo'lgan va ishchi kuchi sifatida ishlatiladigan erksiz odam («so'zlovchi mehnat quroli»); qulni sotib olish va sotib yuborish mumkin bo'lgan.

Qurbonlik bag'ishlash – mehr-shafqatini qozonish maqsadida xudolarga tortiq etiladigan hadyalar.

YAKUNIY TAKRORLASH

Qadimgi dunyo tarixini o'rganishda tarixiy atama va nomlarni qanday o'zlashtirganingizni sinab ko'ring. Javoblaringizni tekshirish uchun mazkur atamalar berilgan betlar ham keltirilgan.

<i>agora</i> – 93	<i>konsul</i> – 148	<i>respublika</i> – 147
<i>akveduk</i> – 152, 174	<i>kulolchilik</i> – 20, 45, 121	<i> ritorika</i> – 173
<i>akinak</i> – 123	<i>liktor</i> – 149	<i>sagaris</i> – 123
<i>akropol</i> – 87	<i>Liqurlar</i> – 145	<i>sarkofag</i> – 37
<i>altar</i> – 153	<i>lingvistlar</i> – 8	<i>sanskrit</i> – 66
<i>amfiteatr</i> – 161	<i>matriarxat</i> – 11	<i>satrap</i> – 59, 120, 129
<i>animizm</i> – 16	<i>meteklar</i> – 87, 95	<i>Senat</i> – 149, 156
<i>antropologlar</i> – 8	<i>mezolit</i> – 12, 18	<i>sfinks</i> – 37
<i>aristokratiya</i> – 94	<i>mikrolitlar</i> – 20	<i>sinantrop</i> – 14
<i>giksoslar</i> – 32	<i>Minoy sivilizatsiyasi</i> – 85	<i>sopol idish</i> – 21, 77
<i>arxeologlar</i> – 8	<i>mixxat</i> – 45, 51, 60	<i>stil</i> – 89, 173
<i>avgurlar</i> – 154	<i>mozaika</i> – 151	<i>strateg</i> – 96
<i>avstralopitek</i> – 13	<i>mumiyolash</i> –	<i>termalar</i> – 172
<i>buddaviylik</i> – 66	<i>neandertal</i> – 14	<i>toga</i> – 152
<i>giksoslar</i> – 32	<i>neolit</i> – 12	<i>triumf</i> – 156
<i>gladiatorlar</i> – 161	<i>«nom»lar</i> – 31, 33	<i>urug'</i> – 11
<i>giksoslar</i> – 32	<i>numizmatika</i> – 5	<i>urug' jamoasi</i> – 11
<i>goplitlar</i> – 87	<i>ossuariy</i> – 83	<i>falanga</i> – 87, 99, 102
<i>demokratiya</i> – 93	<i>paleolit</i> – 12, 20	<i>faylasuf</i> – 112
<i>yozma manbalar</i> – 6, 9, 75	<i>palestra</i> – 88	<i>fetishizm</i> – 17
<i>zardushtiylik</i> – 80	<i>papirus</i> – 28, 30, 40	<i>fir'avn</i> – 30
<i>zikkurat</i> – 47, 81	<i>patriarxat</i> – 12	<i>freska</i> – 151
<i>zinjantrop</i> – 14	<i>patritsiylar</i> – 148, 150	<i>sivilizatsiya</i> – 5
<i>ibtidoiy jamoa tuzumi</i> – 11	<i>perieklar</i> – 90	<i>chig'ir</i> – 138
<i>ierogliflar</i> – 40	<i>piramidalar</i> – 37	<i>chopperlar</i> – 14
<i>ilotlar</i> – 89, 90	<i>pitekantrop</i> – 14	<i>ellinlar</i> – 92
<i>ishlab chiqaruvchi xo'jalik</i> – 20	<i>plebeylar</i> – 149, 150	<i>ellinlashtirish</i> – 129
<i>kasta (varna)lar</i> – 63	<i>polislar</i> – 86, 92, 98	<i>eneolit</i> – 12
<i>kromanyon</i> – 14	<i>pontifik</i> – 153	<i>epigrafika</i> – 5
<i>kohin</i> – 30, 147	<i>prokonsullar</i> – 159	<i>etnograflar</i> – 8
<i>koloniyalar</i> – 91, 56, 59	<i>provinsiyalar</i> – 159	<i>o'zlashtiruvchi xo'jalik</i> – 15
<i>kolonlar</i> – 160	<i>qoyatosh rasmlari</i> – 16	<i>havoriy (apostol)lar</i> – 176

**QADIMGI DUNYO TARIXIGA OID
TARIXIY VA GEOGRAFIK ATAMALAR**

<i>Afina</i> – 86	<i>Liviya</i> – 32	<i>Sopollitepa</i> – 23
<i>Afrosiyob</i> – 78,124	<i>Machay</i> – 19	<i>Sparta</i> – 89
<i>Akkad</i> – 44, 46	<i>Magadha</i> – 65	<i>Suza</i> – 58
<i>Aleksandriya Esxata</i> – 126	<i>Makedoniya</i> – 102	<i>Suriya</i> – 32
<i>Altamir</i> – 16	<i>Malla</i> – 65	<i>Tanais</i> – 92
<i>Apennin</i> – 145	<i>Marafon</i> – 98	<i>Teshiktosh</i> – 15
<i>Ayritom</i> – 138	<i>Marg'iyona</i> – 118	<i>Teyshebaini</i> – 55
<i>Baqtra (Zariaps)</i> – 124	<i>Maroqanda</i> – 125	<i>Tir</i> – 56
<i>Baqtriya</i> – 76	<i>Maurya</i> – 65	<i>Trapezund</i> – 92
<i>Behistun</i> – 9	<i>Memfis</i> – 30	<i>Troya</i> – 107
<i>Bobil</i> – 49	<i>Mesopotamiya</i> – 43	<i>Tushpa</i> – 55
<i>Vezuvi</i> – 163	<i>Midiya</i> – 58	<i>Ur</i> – 45
<i>Vizantiy</i> – 168	<i>Miken</i> – 85	<i>Urartu</i> – 55
<i>Gang</i> – 61	<i>Misr</i> – 28	<i>Uruk</i> – 45
<i>Golgofa</i> – 176	<i>Mitanni</i> – 53	<i>Uzunqir</i> – 78
<i>Dajla</i> – 43	<i>Moxenjodaro</i> – 62	<i>Falastin</i> – 56
<i>Dalvarzintepa</i> – 138	<i>Nil</i> – 28	<i>Fasis</i> – 92
<i>Dovon (Parkana)</i> – 134	<i>Nineviya</i> – 53, 54	<i>Finikiya</i> – 55
<i>Yerqo'rg'on</i> – 78	<i>Nubiya</i> – 32	<i>Fiva</i> – 31
<i>Jarqo'ton</i> – 23	<i>Obishir</i> – 19	<i>Frot</i> – 43
<i>Jonbosqal'a</i> – 132	<i>Oks (Amudaryo)</i> – 125	<i>Xarappa</i> – 62
<i>Zamonbobo</i> – 23	<i>Olduvay</i> – 13	<i>Xersones</i> – 92
<i>Zarautsoy</i> – 20	<i>Olimpiya</i> – 106	<i>Xuanxe</i> – 68
<i>Zartepa</i> – 138	<i>Olviya</i> – 92	<i>Shumer</i> – 44
<i>Zinj</i> – 14	<i>Oshshur</i> – 54	<i>Ekbatana</i> – 60
<i>Ikki daryo oralig'i</i> – 43	<i>Ossuriya</i> – 54	<i>Ellada</i> – 91
<i>Italiya</i> – 145	<i>Pantikapey</i> – 92	<i>Elam</i> – 58
<i>Karfagen</i> – 156	<i>Parfiya</i> – 130	<i>Eron</i> – 57
<i>Ko'zaliqir</i> – 78	<i>Pataliputra</i> – 65	<i>Yunon-Baqtriya</i> – 130
<i>Konstantinopol</i> – 168	<i>Peloponnes</i> – 84	<i>Yunoniston</i> – 84
<i>Korinf</i> – 104	<i>Persepol</i> – 60	<i>Yahudiya</i> – 56
<i>Korsika</i> – 159	<i>Pirey</i> – 88	<i>Qal'aliqir</i> – 132
<i>Koshala</i> – 65	<i>Rim</i> – 146	<i>Qang'yuy</i> – 133
<i>Krit (Knoss)</i> – 85	<i>Rozett</i> – 40	<i>Qiziltepa</i> – 78
<i>Kurushkat (Kiropolis)</i> – 125	<i>Sardiniya</i> – 159	<i>Qo'shilish</i> – 19
<i>Lagash</i> – 45	<i>Selungur</i> – 14	<i>Qo'yqirilganqal'a</i> – 132
<i>Lakonika</i> – 89	<i>Sidon</i> – 56	<i>Qoratepa</i> – 138
<i>Lasko</i> – 16	<i>So'g'diyona</i> – 76	<i>Hind</i> – 61

QADIMGI DUNYO TARIXIDAGI NOMLAR

- Alarix – 169
Antiox – 129
Antoniy – 166
Aristofan – 109
Aristotel (Arastu) – 112
Arrian – 9, 76
Arximed – 112
Attila – 170
Bess – 124
Brut – 165
Budda – 66
Vima Kadfiz – 137
Gannibal – 157
Geraklit – 112
Gerodot – 9, 96, 112, 121
Gilgamish – 47
Gomer – 108
Demetriy – 130
Demokrit – 112
Demosfen – 102
Diodot – 130
Diogen – 112
Doro I – 10, 59, 98, 119
Doro III – 124
Drakont – 94
Dyuperron A. – 81
Zardusht – 80
Iso Masih – 176
Kaligula – 167
Kambiz II – 34
Kanishka – 138
Kiaksar – 58
Kir II – 59
Kleopatra – 166
Konstantin – 168
Krass – 163
Kserks – 100
Kudzula Kadfiz – 137
Kvint Kursiy Ruf – 9
Lyu Ban – 73
Makedoniyalik Aleksandr – 103, 123, 128, 132
Menes – 30
Menkaura – 37
Menua – 55
Miltiad – 99
Mitridat I – 130
Navuxodonosor II – 50
Neron – 167
Oktavian Avgust – 167
Oshshurbanapal – 55
Perikl – 96
Platon (Aflotun) – 113
Poliyen – 120
Pompey – 165
Pontiy Pilat – 176
Ravshanak (Roksana) – 127
Rixtgofen F. – 141
Romul – 146, 170
Salavka – 129
Salmanasar – 54
Sardur I – 55
Sargon I – 48
Sezar – 165
Sim Syan – 9
Sin Shixuandi – 72
Skunha – 119
Sofokl – 109
Sokrat (Suqrot) – 113
Solon – 94
Spartak – 162
Spitamen – 125
Strabon – 9
Tarkviniy – 147
To'maris – 119
Trayan – 167
Tutanhamon – 38
Tutmos II – 33
Tutmos III – 33
U-Di – 73
Fidiy – 110
Filipp II – 102
Frada – 119
Xafra – 37
Xufu (Xeops) – 37
Shlimann Genrix – 108
Chandragupta – 65
Salavka – 129
Shampolyon J.F. – 40
Shiroq – 120
Yevtidem – 130
Esxil – 121
Yaxmos – 33
Hammurapi – 49

QADIMGI DUNYO TARIXI SANALARDA

- Mil. avv. 1 million – 100-mingyilliklar – Oʻrta Osiyoda ilk paleolit davri
- mil. avv. 100 – 40-mingyilliklar – oʻrta paleolit davri
- mil. avv. 40 – 12-mingyilliklar – soʻnggi paleolit davri
- mil. avv. 12 – 7-mingyilliklar – mezolit davri
- mil. avv. 6 – 4-mingyilliklar – neolit davri
- mil. avv. 4 – 3-mingyillikning oʻrtalari – eneolit davri
- mil. avv. 4-mingyillik – Mesopotamiyada shumer va akkadlarning manzilgohlari, **Uruk, Eridu, Lagash, Ur** shaharlarining vujudga kelishi
- mil. avv. 4-mingyillik – Nil qirgʻoqlarida manzilgohlarning vujudga kelishi
- mil. avv. 2600-yil – Misrda Xeops (Xufu) piramidasi qurilishi
- mil. avv. 3–2-mingyilliklar – Xitoy sivilizatsiyasining vujudga kelishi
- mil. avv. 3-mingyillik – Moxenjandro va Xarappa shaharlarining vujudga kelishi
- mil. avv. 3-mingyillikning oʻrtalari – 2-mingyillik – bronza davri
- mil. avv. 3 – 2-mingyillik – «Laʼl yoʻli» rivojlanishi
- mil. avv. 2-mingyillik – Old Osiyo hududida ilk yirik davlatlarning vujudga kelishi: Ossuriya, Xett, Mitanni
- mil. avv. 2-mingyillik – Bobil podsholigining tashkil topishi
- mil. avv. 2-mingyillik – Zamonbobo, Sopollitepa va Jarqoʻton kabi dehqonchilik manzilgohlarining tashkil topishi
- mil. avv. 2-mingyillik – Miken va Krit davlatlarining tashkil topishi
- mil. avv. XVIII asr – Bobil hukmdori Xammurapi (mil. avv. 1792–1750-yillar) Mesopotamiyani yagona davlatga birlashtirdi
- mil. avv. 1500-yil – Firʻavn Tutmos II ning yirik bosqinchilik yurishlari
- mil. avv. XIII asr – Ossuriya davlati podsho Salmanasar davrida oʻz ravnaqining yuqori choʻqqisiga erishgan
- mil. avv. XIII asr – «dengiz xalqlari» Xattusani vayron qildilar
- mil. avv. XII asr – doriylar Lakonikani zabt etdilar va Sparta shahriga asos soldilar
- mil. avv. XI asr – Isroil davlatining tashkil topishi
- mil. avv. IX–VIII asr boshlari – **Urartu** davlatining gullagan davri
- mil. avv. VIII–VI asrlar– Yunon koloniyalarining tashkil topishi
- mil. avv. VIII–VI asrlar – Xersones, Pantikapey, Tanais, Fasis, Trapezund koloniyalarining vujudga kelishi
- mil. avv. 1-mingyillik – zardushtiylikning Oʻrta Osiyo hududida tarqalishi
- mil. avv. IX–VIII asrlar – Oʻrta Osiyoda temir asriga oʻtish davri
- mil. avv. VIII asr – Italiyada 12 shahar-ittifoqining vujudga kelishi

mil. avv. 776-yil – Olimpiya o'yinlarining birinchi bor o'tkazilishi
 mil. avv. 753-yil – Rimning tashkil topishi
 mil. avv. VII asr – Misrning yana yagona davlatga birlashishi
 mil. avv. VII asr – Qadimgi Baqtriya podsholigining tashkil topishi
 mil. avv. VII – IV asrlar – Qiziltepa, Afrosiyob, Uzunqir, Yerqo'rg'on, Ko'zaliqir shaharlarining rivojlanishi
 mil. avv. VII – VI asrlar – Hindistonda Magadha, Koshala, Malla davlatlarining vujudga kelishi
 mil. avv. VII – V asrlar – Xitoyda «ko'p podsholik» davri
 mil. avv. 621-yil – Drakont qonunlarining qabul qilinishi
 mil. avv. 605-yil – Ossuriya podsholigining qulashi
 mil. avv. 594-yil – Afinada Solon islohotlarining o'tkazilishi
 mil. avv. 558-yil – Kir II – Fors podsholigining hukmdori
 mil. avv. 545 – 540-yillar – Parfiya, Marg'iyona va Baqtriyani Kir II tomonidan bosib olinishi
 mil. avv. 539-yil – Bobilning forslar tomonidan bosib olinishi
 mil. avv. 530-yil – Kir II ning O'rta Osiyoda halok bo'lishi (To'maris)
 mil. avv. 525-yil – Misrning qadimgi fors shohi Kambiz II tomonidan zabt etilishi
 mil. avv. 522-yil – Doro I – saltanatni satrapliklarga bo'linishi
 mil. avv. 522-yil – Doro I ga qarshi Frada qo'zg'oloni
 mil. avv. 519-yil – sak qabilalariga qarshi Doro I ning bosqinchilik yurishlari (Shiroq jasorati)
 mil. avv. 509-yil – Rimda Respublika e'lon qilinishi
 mil. avv. V – IV asrlar – O'rta Osiyo hududida ilk tangalarning tarqalishi
 mil. avv. 490 – 449 yillar – Yunon-fors urushlari
 mil. avv. 490-yil – Marafon tekisligidagi jang
 mil. avv. 480-yil – Fermopil jangi (uchyuz spartalik jasorati)
 mil. avv. 480-yil – Salamin jangi
 mil. avv. 479-yil – Plateya shahri yaqinidagi jang – yunonlar g'alabasi
 mil. avv. 443 – 429-yillar – Afinada strateg Perikl hukmronligi
 mil. avv. IV asr – xorazmiylar, saklar va massagetlarning Ahamoniylar zulmidan ozod bo'lishi
 mil. avv. 338-yil – Xeroneya yaqinidagi jang – makedoniyaliklar tomonidan yunonlarning tor-mor qilinishi
 mil. avv. 337-yil – yunon shaharlarining shahar-davlatlar ittifoqiga birlashishi
 mil. avv. 334-yil – Makedoniyalik Aleksandrning Sharqqa yurishi
 mil. avv. 330-yil – Makedoniyalik Aleksandr tomonidan Ahamoniylar

saltanatining zabt etilishi

mil. avv. 329-yil – Makedoniyalik Aleksandr boshchiligidagi yunon-makedonlar tomonidan Maroqandani bosib olinishi

mil. avv. 329-yil – Zarafshon daryosi qirg'oqlaridagi jangda yunon-makedon qo'shinlarining tor-mor qilinishi (Spitamene)

mil. avv. 328-yil – Makedoniyalik Aleksandr armiyasi bilan jangda Spitamenning mag'lubiyati

mil. avv. 323-yil – Makedoniyalik Aleksandrning vafoti

mil. avv. 318-yil – Chandragupta tomonidan yunon-makedonlarning Hindistondan quvib chiqarilishi

mil. avv. 312-yil – Salavka hukmronligining boshlanishi – Salavkiylar davlatining asoschisi

mil. avv. 280-yil – Antiox – Salavkiylar davlatining hukmdori

mil. avv. III asr – Zardusht ta'limotining barcha matnlari 21 ta kitobga jamlanishi

mil. avv. III asr – Dovon davlatining tashkil topishi

mil. avv. 246 – 210-yillar – Xitoyda Sin Shixuandi hukmronligi

mil. avv. 216-yil – Kann yaqinida Rim armiyasining tor-mor qilinishi

mil. avv. 202-yil – Zama shahri yaqinida rimliklar tomonidan Karfagen armiyasining tor-mor qilinishi

mil. avv. II asr – Buyuk Ipak yo'lining shakllanishi

mil. avv. 146-yil – rimliklar tomonidan Karfagenning vayron qilinishi

mil. avv. 140 – 130-yillar – Yunon-Baqtriya davlatining yuechjilar tomonidan bosib olinishi

mil. avv. I asr – Xitoyda qog'ozning kashf qilinishi

mil. avv. 74-yil – Spartak qo'zg'oloni

mil. avv. 49-yil – Yuliy Sezar – Rim imperatori

mil. avv. 29-yil – Oktavianga Senat tomonidan imperator unvoni va Avgust laqabining berilishi

milodiy 98-yil – Rim imperiyasida Trayan hukmronligining boshlanishi

milodiy I – II asrlar – Kushon podshohligining gullagan davri

milodiy III asr – Kushon davlatining inqirozga yuz tutishi

milodiy 330-yil – Rim imperiyasining poytaxti – Vizantiy (Konstantinopol)

milodiy 394-yil – Olimpiya o'yinlari o'tkazilishining to'xtatilishi

milodiy 395-yil – Rim imperiyasining bo'linishi: G'arbiy va Sharqiyga

milodiy 410-yil – Alarix boshchiligidagi gotlar tomonidan Rimning yakson qilinishi

milodiy 476-yil – G'arbiy Rim imperiyasining qulashi

ANATOLIY SAGDULLAYEVICH SAGDULLAYEV
VASILIY ANUFRIYEVICH KOSTETSKIY

TARIX

QADIMGI DUNYO

Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik

To'ldirilgan to'rtinchi nashri

Toshkent – «Yangiyo'l poligraf servis» – 2013

Nashriyot litsenziyasi AI №185, 10.05.2011 y.

Muharrir Q. *Islomov*
Texnikaviy muharrir M. *Riksiyev*
Sahifalovchi K. *Kostetskiy*
Musahhah Z. *Zamonov*

Bosishga ruxsat etildi _____. Ofset bosma. Bichimi 70x90 1/16. «Arial» garniturasida. Kegli 11,10.
Bosma tabog'i 11,0. Shartli bosma tabog'i 12,87. Nashriyot hisob tabog'i 10,8.
Adadi _____ nusxa. Buyurtma № _____.

112001, «Yangiyo'l poligraf servis» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Samarqand ko'chasi, 44.

Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

T/r	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi	Darslikning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismdan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.